

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**




URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“TURIZM” KAFEDRASI

Sadullaev A.

**JAHON IQTISODIYOTI VA
XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR**
(Ma'ruza matnlari to'plami)



Urganch – 2012 yil

Urganch Davlat universiteti iqtisod fakulteti Ilmiy Kengashining 2012 yil avgust oyidagi majlisda muhokama qilindi.

Taqrizchilar:

Iqtisod fanlari doktori prof. Salaev S.

Iqtisod fanlari nomzodi doq. Yadgarov M.

Ma'ruza matnlari tuplamida jaxon mamlakatlari xo'jaligining vujudga kelishi va rivojlanishi, boshka mamlakatlar xo'jaliklari bilan turli iqtisodiy aloqalar o'rnatilishining xususiyatlari keng yoritib berilgan.

To'plam oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari professor-o'qituvchilariga, «makroiqtisod», «turizm» va «kasbiy ta'lim (buxgalteriya xisobi va audit)» mutaxassisligi talabalari, shuningdek, jaxon mamlakatlari xo'jaligi va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar bilan barcha kizikuvchilar ommasiga mo'ljallangan.

KIRISH

«Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar» butun dunyo mamlakatlari miqyosida xo'jalik yuritishning turlari va usullari, mamlakatlar xo'jaliklari tarkibi, tuzilishi, mamlakatlararo xo'jalik aloqalari, xo'jalik rivojlanishida asosiy o'rin tutuvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatini o'rgatuvchi fandır.

Dunyo mamlakatlarining tarixiy rivojlanishi, geografik o'rni, siyosati, xo'jalik yuritish usullari turlicha bo'lgani uchun, hozirda mavjud bo'lgan 240 dan oshiq mamlakatlarning rivojlanish darajalari ham xilma-xildir. Dunyodagi eng taraqqiy etgan 7 ta mamlakat bilan Afrika qit'asidagi eng qoloq, Saxroi Kabirda va undan janubroqda joylashgan mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishi bir-biridan tubdan farq qiladi.

Bozor iqtisodiyotini ancha ilgari tanlagan Shimoliy Amerika, G'arbiy Evropa, Janubi-SHarkiy Osiyo mamlakatlarining taraqqiyot darajasi ancha ilgarilab ketgan. Bu mamlakatlar dunyoda etishtiriladigan sanoat mahsulotlarining 4\5 qismini, qishloq xo'jalik mahsulotlarining katta ko'pchiligini, jahon eksporti va importining juda katta qismini etkazib beradilar.

Ilmiy texnika taraqqiyotini keng qo'llayotgan sanoati rivojlangan mamlakatlar mehnat unumdorligi va samaradorligini juda yuqori darajaga etkazganliklari sababli bu mamlakatlar aholisining turmush darajasi ham juda yukoridir.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda sanoati rivojlangan mamlakatlar tayyor va yukori sifatli mahsulotlarni etishtirishga moslashgan bo'lsalar, qoloq, endi rivojlanayotgan mamlakatlar jaxon xo'jaligiga asosan xom ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari etkazib beradilar.

Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda mamlakatlarning xo'jalik aloqalari, xalkaro moliya-kredit tizimi va valyuta munosabatlari muhim o'rin tutadi. Endi rivojlanayotgan qoloq mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi xalqaro kredit tizimiga bevosita bog'liqdir. Ularning sanoati rivojlangan ilg'or mamlakatlar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan oladigan kreditlari o'z iqtisodiyotini taraqqiy ettirishga yordam beradi. Jahon bozorida olib boriladigan savdo-sotiqalar esa hamma mamlakatlar uchun ma'qul bo'ladigan valyuta kurslarida olib borilishi kerak.

SHuning uchun jahon valyuta tizimida mamlakatlar pullarining bir-birlariga nisbatan kurslari aniqlanib, davlatlarning o'zaro iqtisodiy aloqalarida foydalaniladi.

Jahon mamlakatlarining birgalikda xo'jalik yuritishlari, ya'ni integratsiyaga kirishishlari natijasida ular tomonidan umumiy bozor tashkil qilinib, resurslardan unumli va samarali foydalaniladi va bu ularning iqtisodiyoti rivojlanishiga katta imkoniyat yaratadi. Mana shunday aloqalar asosida mamlakatlar xo'jaliklarining rivojlanishini va umuman yuqorida aytib o'tilgan

jarayonlarni jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fani o'rgatadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar muxim ahamiyat kasb etmokda. Jahon hamjamiyatiga respublikaning faol integratsiyalashuvi iqtisodiy islohotlarni utkazishda muxim rol uynaydi.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida keltirilgan materiallar, koidalar va xulosalarni puxta o'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari xamda ijodiy yondashishlarini ta'minlash fanni o'rganish oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Prezidentimiz tomonidan asarda keng e'tibor qaratilgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmuni, kelib chiqish sabablari va salbiy ta'siri oqibatlarini, O'zbekistonda inqiroz ta'siri oqibatlarining oldini olish va yumshatishga asos bo'luvchi omillar, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va yangilashni izchil davom ettirish borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, ustuvor yo'nalishlar, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari to'g'risida talabalarga bilim berish maqsadida asosiy masalalar fanning barcha mavzularida aks topgan.

O'zbekiston Respublikasining korxonalarining ishlab chikargan maxsulotlarini tashqi bozorlar chiqishi, chet el firma va kompaniyalarining mamlakatimizda shakllanayotgan tovar va xizmatlar bozoriga kirishi sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Ma'lumki, ochiq turdagi iqtisodiyotni yaratmay turib mamlakatimizning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi bir muncha sekin kechadi. SHunday kelib chikib jaxon iqtisodiyotini rivojlanish tamoyillarini chukur taxlil etish va o'rganish, jaxon mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish shu kunning talabiga aylanib bormokda.

Yurtimizda keng imkoniyatlar mavjudligini, ya'ni boy xomashyo resurslarga va shuningdek malakali ishchi kuchlariga egaligini, borligini inobatga olib raqobatbardosh, sifatli mahsulotlarni o'z yurtimizda chiqarib, shu yo'l bilan jahon hamjamiyatida va shuning dunyo bozorida o'zimizga munosib o'rin egallash mumkin. Mamlakatimiz rivojida xorijiy investitsiyalarni urni aloxida ahamiyatga ega bulib, shuningdek mamlakatimizni rivojlantirishning ustuvor yunalishlardan biri xisoblanadi.

Kursni o'rganishda boshqa iqtisodiy fanlardagidek statistik, matematik, grafik va umumlashtirish usullaridan keng foydalaniladi. Jahon iqtisodiyoti fanida ham bilim egallashning empirik usullari orqali tushunchalar hosil qilish va ulardan nazariyalar keltirib chiqarish kabi induktiv va deduktiv usullar keng qo'llaniladi.

**«Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar» fanidan
mavzular taqsimoti**

№	Mavzular nomi	Jami ajratilgan soat	SHundan		
			Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar	Mustakil ish
1.	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: asosiy ko'rinishlari va xususiyatlari	6	2	2	2
2.	Jahon xo'jaligida inson resurslari va xalqaro mehnat taqsimoti	8	2	2	4
3.	Xalqaro savdo. Tashqi savdo siyosati	8	2	2	4
4.	O'zbekistonning tashqi savdosi va uni boshqaruv mexanizmi	6	2	2	2
5.	Xalqaro kapital migratsiyasi	8	2	2	4
6.	O'zbekistonning iqtisodiyotining rivojlani-shida chet el investitsiyalarining roli	6	2	2	2
7.	Rivojlangan mamlakatlar - xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida	8	2	2	4
8.	Rivojlanayotgan mamlakatlar – xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida	6	2	2	2
9.	Xalqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari	8	2	2	4
10.	Xalqaro iqtisodiy integratsiya va uning milliy xo'jaliklar rivojlanishiga ta'siri	4	1	1	2
11.	Jahon integratsion jarayonlarida O'zbekistonning ishtiroki	4	1	1	2
Jami:		72	20	20	32

1-MAVZU: Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: asosiy ko'rinishlari va xususiyatlari

1.1. Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining predmeti, mazmuni va mohiyati.

1.2. Jahon xo'jaligi tushunchasi va mohiyati

1.3. Jahon xo'jaligi tizimi va uning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri

1.4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi va uning konceptsiyalari

1.1. Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining predmeti, mazmuni va mohiyati

XX asr ikkinchi yarmida dunyo xo'jaligi taraqqiyotining asosiy xususiyatlaridan biri xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tez rivojlanib borishi bo'ldi. Mamlakatlar, mamlakatlar guruhlar, iqtisodiy guruhlar, alohida firma va tashkilotlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarning kengayishi va guruhlashuvi yuz berdi. Bu jarayon xalqaro mehnat taqsimotining kengayishi, xo'jalik faoliyatining baynalminallashuvi, ochiq milliy iqtisodiyotlarning ko'payishi, ularning bir-birini to'ldirishi, yaqinlashib va qo'shilib ketishi, mintaqaviy xalqaro tizimlarning rivojlanishi va mustahkamlanishida yaqqol namoyon bo'ldi.

Bu hamkorlik, yaqinlashuv va birlashuv jarayonlarining ziddiyatlari, hamda taraqqiy qilish xususiyatlari mavjuddir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning taraqqiyoti alohida mamlakatlar milliy xo'jaligining mustahkamlanishi, iqtisodiy mustaqillikka intilish, dunyo xo'jaligining yanada baynalminallashuviga, milliy iqtisodiyotlarning ochiqqligiga, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga olib keladi.

Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fani nimani o'rganadi?

Hozirgi zamon jaxon iqtisodiyoti yoki jaxon xo'jaligi - bu dunyo miqyosidagi iqtisodiy organizm bo'lib, bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonunlariga bo'ysunuvchi, bir-biri bilan chambarchas bog'langan milliy iqtisodiyotlarning yig'indisidir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM) ikki muhim jarayonni: xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyatini va uning faoliyati mexanizmini o'rganadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar alohida olingan mamlakatlar, ularning mintaqaviy birlashmalari, hamda alohida korxonalar (transmilliy korporatsiyalar) o'rtasida dunyo xo'jaligi tizimida yuz beradigan murakkab iqtisodiy munosabatlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Bu fanda mamlakatlarning iqtisodiyoti emas, balki ular o'rtasida yuz beradigan iqtisodiy munosabatlar o'rganiladi. Har qanday fan singari XIM barcha iqtisodiy munosabatlarni emas, balki ko'p marta takrorlanadigan o'ziga xos munosabatlarni o'rganadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmi o'z ichiga, uni amalga oshirishning huquqiy normalar va qoidalarini, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning XIM ni rivojlantirishga qaratilgan muayyan faoliyatni qamrab oladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro mehnat taqsimoti.
2. Xalqaro savdo.
3. Kapitalning va chet el investitsiyalarining xalqaro harakati.
4. Ishchi kuchlarining xalqaro migratsiyasi.
5. Xalqaro valyuta - moliya va kredit munosabatlari.
6. Xalqaro iqtisodiy integratsiya.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar dunyo xo'jaligi shakllanishidan ilgari ham mavjud edi (asosan savdo - sotik munosabatlari). Masalan, Evropaning ba'zi bir davlatlari o'rtasida alohida mintaqa doirasida (Evropa - SHimoliy Afrika; Evropa - YAqin SHarq va b.) xalqaro iqtisodiy munosabatlar olib borilar edi. Bu munosabatlar mamlakatlararo, tor mintaqaviy xususiyatga ega edi. Dunyo xo'jaligining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan XIM taraqqiy eta boshladi va dunyoviy xususiyat kashf etdi.

1.2. Jahon xo'jaligi tushunchasi va mohiyati

XX-asrning ikkinchi yarmida xo'jalik faoliyati miqyoslarining tobora kengayib borishi, turli mamlakatlar o'rtasida aloqalarning kuchayib borishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib borganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Jahonda hech bir mamlakat yo'q-ki iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'lanmagan bo'lsa, yoki ishlab chiqarish munosabatlari va o'zaro bog'liqlik tizimiga qo'shilmagan bo'lsa. Xozirgi paytda butun dunyo - inson xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'langan sahnasidir. Iqtisodiy adabiyotlarda «Jahon iqtisodiyoti», «Jahon xo'jaligi» degan tushunchalar keng qo'llaniladi. Binobarin, butun dunyo o'zining murakkabligi va ziddiyatlariga qaramasdan iqtisodiy jihatdan muayyan yaxlitlikni, birlikni tashkil qiladi.

Jahon xo'jaligi tushunchasi. Iqtisodiy adabiyotlarda «Jahon iqtisodiyoti», «Jahon xo'jaligi» atamalarining yagona e'tirofi yo'qdir. Bu atamalar keng sohada qo'llanilganligi sababli, tadqiqotchilar eng muhim bo'lgan jihatlarini ajratib ko'rsatadilar.

1. Jahon xo'jaligini xalqaro mehnat taqsimoti tizimi, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar orqali bog'langan milliy xo'jaliklar yig'indisi deb e'tirof etish keng tarqalgandir.

Bu tushunchada milliy alohidalashgan mamlakatlar, ularning ishlab chiqarishi ichki bozorga yoki tashqi bozorga yo'naltirilganligidan qat'iy nazar ustivor bo'lib yuzaga chiqadi. Bunday yondashuvda jahon xo'jaligi rivojlanishining holati, istiqbollari va o'zaro bog'liqligini belgilab beradigan sabablar chetda qolib ketadi.

2. Boshqa bir nuqtai nazarga ko'ra, jahon iqtisodiyoti xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida, milliy xo'jaliklar o'rtasida ko'p tomonlama aloqalar tizimi sifatida e'tirof etiladi. Bunday e'tirofni ko'pchilik g'arb tadqiqotchilari olg'a suradilar. Xususan, ular xalqaro iqtisodiy tizim savdoni ham, moliyaviy munosabatlarni ham, kapital resurslari va ishchi kuchlarining notekis

taqsimlanganligini ham o'z ichiga oladi deb hisoblaydilar. Bunday tushuntirishda xalqaro iqtisodiy aloqalarni ko'p jihatdan belgilab beradigan ishlab chiqarish tadqiqotchilar nuqtai nazaridan chetda qolib ketadi.

3. Jahon xo'jaligining to'liq tushunchasi bo'yicha, u ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining muayyan jihatlari darajasida, unga kiruvchi milliy xo'jaliklarning shularga monand ravishda takror barpo bo'lib turadigan iqtisodiy tizimdir. Unda, xo'jaliklarning moddiy bazasi, mulkchilikning turli shakllari amal qilishi va takror ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan tartibini o'z ichiga olgan xo'jalik tizimi namoyon bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, jahon xo'jaligining yaxlit tizimdan iborat ekanligini hamma tadqiqotchilar tan oladilar. Tizimning paydo bo'lishi va amal qilishi asosi bo'lib uning yaxlitligi hisoblanadi, chunki u tizimning hamma tarkibiy qismlari ancha barqaror darajada iqtisodiy bog'liqlikda bo'lishi zarurligini taqazo etadi. Faqat shundagina ishlab chiqarilgan mahsulotning global miqyosda harakat qilishi mumkin bo'ladi va tizimning doimiy faoliyati, hayotiyliigi, o'z-o'zini tartibga solishi va rivojlanishi ta'minlanadi. Jahon xo'jaligining shunday yaxlitligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning harakati milliy va xalqaro bozorlar tomonidan, ularga xos bo'lgan tovar-pul munosabatlari va korxonalarining ko'p xilligi bilan ta'minlanadi.

Bozor keng ma'noda tovar va xizmatlarni ayirib o'qish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Bozor o'z qonuniyatlari ta'sirida rivojlanadigan va butun takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan alohida kategoriya hisoblanadi. Binobarin, u takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uning boshqa bo'laklari – ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol bilan mustahkam bog'likda rivojlanishda bo'ladi.

Jahon iqtisodiyoti murakkab tizimdan iborat bo'lib, tarkiban ko'p qismlardan, ierarxiyalik, ko'pdarajalik, tuzilmaviylikdan tashkil topadi. Iqtisodiy salohiyat dunyoda juda notekis taqsimlangandir. Uch davlat – AQSH, Yaponiya va Germaniya, sayyoramizning bor yo'g'i 9 % aholisini o'zida jamlab – dunyo daromadining yarmini oladi va butun dunyo mamlakatlari xarid quvvatining uchdan biriga egadir.

1.3. Jahon xo'jaligi tizimi va uning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri

Jahon iqtisodiyoti tizimining asosini - moddiy va ma'naviy boyliklarni xalqaro va alohida davlatlarning milliy darajasida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish tashkil qiladi. Dunyo takror ishlab chiqarish jarayonining ushbu bosqichlaridan har biri global miqyosda ham, ayrim davlatlar doirasida ham joylashgan joyi va ahamiyatidan kelib chiqqan holda umuman butun dunyo xo'jalik tizimining faoliyat ko'rsatishiga ta'sir qiladi. Keyingisi esa o'ziga xos rivojlanish yo'nalishlariga egadir, lekin u milliy xo'jaliklarsiz rivojlana olmaydi.

Bu tizimni turlicha e'tirof etish mumkin. Bir yondashuvga ko'ra, uning rivojlanishining xarakatlantiruvchi kuchi bo'lgan, umumiy maqsadga ega bo'lishi kerak. Bunday tizimning ichida alohidalashgan bo'laklar – o'ziga xos mohiyatga ega bo'lgan, lekin umuman butun tizimning tashkiliy maqsadlariga bo'ysunuvchi kichik

tizimlar mavjuddir. Bu tizimning boshqacha e'tirofi bo'yicha uning ichidagi kichik tizimlar alohidalashgan bo'lib maqsadlari turlicha, hatto bir-biriga zid yo'nalishda bo'lishi mumkin. Lekin bu kichik tizimlar bir-biriga bog'liq va o'zaro ta'sirga ega bo'ladilar. Tizimlarning bunday tarkibi vaqtinchalik, o'tkinchi mazmunga ega bo'lishi mumkin, chunki eng chidamli, mustahkam kichik tizimlar boshqalarini o'zgartiradilar, yoki boshqalarni o'z maqsadlariga bo'ysundiradilar. Aks holda tizim tarqab ketishi mumkin.

Jahon iqtisodiyoti tizim sifatida umumiy maqsadsha egadir. Uning faoliyati pirovard natijada inson ehtiyojlarini (talabini) qondirishga yo'naltirilgandir, lekin turli kichik tizimlarda bu maqsad ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib o'zgarib turadi. Yangi korxonalarni tashkil qilish maqsad bo'lmasligi mumkin. Bunday harakat agar aholi turmush sharoitini yaxshilashga yordam bersagina o'zini oqlashi mumkin.

Jahon iqtisodiyoti xalqaro ommaviy va xususiy huquq me'yorlariga asoslangan muayyan tartibga mos holda rivojlanadi, chunki u turli davlatlar, iqtisodiy birlashmalar, huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solib turadi. Belgilangan konverxiion va oddiy me'yorlarga buysunish davlatlarning va jamoalarning o'zlari tomonidan turli xildagi xalqaro tashkilotlar shug'ullanadigan xalqaro huquqqa amal qilishni nazoratga olish shakllari bilan ta'minlanadi. Bu tartib jahon ishlab chiqaruvchi kuchlari va ayrim kichik tizimlar va unsurlar rivojlanishi talablariga mos ravishda aniqlanadi va ko'rib chiqiladi.

Jahon xo'jaligi tarixiy va siyosiy-iqtisodiy kategoriyadir. Chunki, har bir muayyan tarixiy bosqich uchun ishlab chiqarishning ma'lum bir miqyoslari va darajasi, xo'jalik hayotining baynalminallashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi xos bo'ladi. Jahon xo'jaligi murakkab-iqtisodiy tizim hisoblanadi. Uning sub'ektlari bo'lib transmilliy kompaniyalar, milliy xo'jaliklar, xalqaro integraxion birlashmalar hisoblanib, ularning o'zi ham ham o'ziga xos tartibga solinuvchi tizim bo'lib yuzaga chiqadilar.

Jahon xo'jaligining ayrim unsurlari o'rtasidagi munosabatlar darajasiga qarab bo'ladi. Davlatlar o'rtasidagi munosabat xalqaro daraja bo'lib, xalqaro qoidalar va me'yorlar bilan tartibga solinadi. Milliy chegaralardan tashqariga chiquvchi oqimlar o'rtasidagi munosabatlar transmilliy darajani tashkil qiladi, unda firmalar va guruhlar faoliyati ichki axborot tizimi doirasida bo'ladi. Bu doiraga norasmiy faoliyat oqimlari tarmog'i: narkotiklar, qurollar bilan savdo qilish, yashirin migraxiya ham qo'shiladi. Jahon xo'jalik tizimi tarkibiga kiruvchi unsurlar bir vaqtning o'zida harakat qiladilar. Kuch markazlari o'rtasida tuqnashuvlar, kelishuvlar, birlashmalar yuz beradi. Oligapoliya xususiyatlari paydo bo'lib, ular o'z strategiyalarini yoki butun dunyoga, yoki ayrim hududlarga tarqatadilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jaxon xo'jaligi bir xil emasdir. Bu tizimda etakchi o'rinni sanoat jixatdan rivojlangan g'arb mamlakatlari egallaydilar. Ularni, A.Sovi fikricha, Birinchi dunyo mamlakatlari deb ataydilar. Alohida o'rinni rivojlanayotgan mamlakatlar – Uchinchi dunyo mamlakatlari tutadilar, ularning iqtisodiyotining industrial mamlakatlarga qaramligi saqlanib qolgan. SHarqiy Evropa va sovetlardan keyin paydo bo'lgan, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatlarda o'zigaxos

rivojlanish xususiyatlari mavjuddir. Umuman olganda jahon xo'jaligi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmadir.

Jahon mamlakatlari o'zlarining tarixiy rivojlanish xususiyatlari, tabiiy, iqtisodiy va intellektual salohiyati, iqtisodiy siyosati, rivojlanishining iqtisodiy va ijtimoiy omillariga ko'ra bir-birlaridan ancha farq qiladilar. SHuning uchun xam ularni o'rganishda o'xshashlik jihatlarini xisobga olgan holda guruhlariga ajratib taxlil kilish maqsadga muvofiq buladi.

Jaxon mamlakatlarini guruhlariga ajratishda quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

1. iqtisodiy rivojlanish darajasi
2. iqtisodiyotining ijtimoiy tarkibi
3. iqtisodiy usish usuli
4. tashqi iqtisodiy aloqalar mohiyati va darajasi
5. iqtisodiy potentsiali darajasi.

Dune mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish darajasi buyicha guruxlarga ajratishda Jaxon bankining "Jon boshiga daromadlarning tug'ri kelishi buyicha mamlakatlar guruxi" ma'lumotini asos kilib olish mumkin. Bu ma'lumot buyicha mamlakatlarni 3 guruxga ajratish mumkin:

1) YUqori daromad darajasiga ega bulgan mamlakatlar (24 ta mamlakat). Bu mamlakatlarda axoli jon boshiga tug'ri keladigan YAMM yiliga 10000 dollardan kupni tashkil etadi. Bunga OESR (iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti) ga a'zo bulgan 24 mamlakatdan AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Franqiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, SHveqiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya, Islandiya, Ispaniya, Avstriya, SHveytariya, Yaponiya, Avstraliya, YAngi Zelandiya kabi 19 ta mamlakat va yana Isroil, Singapur, Janubiy Koreya, Kuvayt, Birlashgan Arab Amirliigi mamlakatlari kiritiladi.

2) O'rtacha daromad darajasiga ega bulgan mamlakatlar (58 ta mamlakat). Bu mamlakatlarda axoli jon boshiga tug'ri keladigan yillik daromad (YAMM) - 1000 dollardan 10000 dollargacha etadi. Bu guruxning o'zini 2 ta kichik guruxga ajratish mumkin:

a) yuqori o'rtacha daromad darajasiga ega bulgan mamlakatlar (32 ta). Ularda axoli jon boshiga tugri keladigan yillik YAMM mikdori 4000 dollardan 10000 dollargacha etadi.

b) past urtacha daromad darajasiga ega bulgan mamlakatlar (26 ta). Bularda axoli jon boshiga tug'ri keladigan yillik YAMM 1000 dollardan 4000 dollargacha etadi.

3) Past daromad darajasiga ega bulgan mamlakatlar (40 ta mamlakat). Bu mamlakatlarda axoli jon boshiga tug'ri keladigan yillik YAMM 1000 dollardan pastdir.

YUqori o'rtacha daromadi va yuqori daromadga ega bulib, lekin sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirmaydigan mamlakatlarni Jaxon banki YAngi industrial mamlakatlar (YAIM) guruxiga kiritadi. Bular: Argentina, Braziliya, Meksika, Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Gonkong, Isroil, Xindiston, Xitoy, Portugaliya, Vengriya, Polsha, Ruminiya mamlakatlaridir.

1.3.1 Jadval.

**Jahon mamlakatlari guruhlarida axoli soni, o'sishi va urbanizatsiya
ko'rsatkichlari**

SHu bilan birgalikda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi industrializatsiya darajasi va ishlab chiqarish tarkibi bilan ham belgilanadi.

Industrializatsiyaning hozirgi bosqichi informatsion texnika va texnologiyalarni keng qo'llash bilan belgilanadi. Industrializatsiya va informatsiya nafaqat sanoatda, balki qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida ham keng qo'llanishi kerak.

Ishlab chiqarish tarkibi - ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish va iste'mol buyumlari ishlab chiqarishdan iborat bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari ishlab chiqarish muhim hisoblanadi va ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish bilan iste'mol buyumlari ishlab chiqarish darajasi deyarli tengdir.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi mahsulot birligiga xom ashyo va energiya sarf qilish bilan ham belgilanadi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi oshib borishi bilan energiya va xom ashyo sarfi kamayib boradi va tabiiy xom ashyo o'rniga sun'iy

sanoat xom ashyolari, ya'ni ximiyaviy yo'l bilan olinadigan xom ashyolar ishlatish ko'payib boradi.

Iqtisodiyotning ijtimoiy tarkibi dunyo xo'jaligini guruhlariga ajratishda yana bir mezon bo'lib hisoblanadi. Uning mazmuni mulkchilikni o'zlashtirishning usul va mohiyati, hamda axolining tarmoq tarkibi bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish nafaqat ishlab chiqarishdagi odamlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni, balki ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish shakllarini ham belgilab beradi.

BMTning Rivojlanish Dasturi dunyo mamlakatlarini Inson taraqqiyoti indeksi bo'yicha ham guruhlariga ajratadi. Bu indeks uchta ko'rsatkichni o'z ichiga oladi: mamlakatlar YAIMning aholisi jon boshiga to'g'ri kelishi, aholining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish darajasi va aholining savodxonlik darajasi bo'yicha guruhlar ajratiladi. Quyida ushbu guruhlariga kirgan mamlakatlarning aholi soni bo'yicha eng yiriklari tarkibini ko'rsatib o'tamiz.

Inson rivojlanishi eng kuchli bo'lgan mamlakatlar:

AQSH, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, SHveitsiya, Janubi Koreya, Avstraliya;

Inson rivojlanishi kuchli mamlakatlar:

CHili, Argentina, Meksika, Braziliya, Kolumbiya, Turkiya, Eron, Jazoir, Malayziya, Saudiya Arabistoni;

Inson rivojlanishi o'rtacha bo'lgan mamlakatlar:

Xitoy, Tailand, Filippin, Misr, Indoneziya, Janubiy Afrika, Vetnam, Marokash, Hindiston, Pokiston, Belarus, Rossiya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Ukraina, Gruziya, Armaniston, O'zbekiston, Turkmaniston, Moldova, Qirg'iziston, Tojikiston;

Inson rivojlanishi past bo'lgan mamlakatlar:

Bangladesh, Nigeriya, Nepal, M'yanma, Uganda, Tanzaniya, Afg'oniston, Efiopiya, Sudan, Kongo;

Dunyo xo'jaligini guruhlariga ajratishda iqtisodiy rivojlanish usuli ham ancha muhim hisoblanadi. Bu usul ishlab chiqarishdagi nafaqat miqdoriy o'zgarishlarni balki sifat o'zgarishlarini ham belgilab boradi. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv usulida iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning texnik darajasini o'zgartirmagan holda, ishlab chiqarish omillarini ko'paytirish hisobiga amalga oshadi va bunda ishlab chiqarish samaradorligi o'smaydi. Iqtisodiy o'sishning intensiv usulida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish ishlab chiqarish omillarini sifatii takomillashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Bu mehnat predmetlari va vositalarini takomillashtirish, ishchi kuchi malakasini oshirish hisobiga amalga oshib, mehnat unumdorligini o'sishiga olib keladi. Industrial rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish asosan intensiv usulda amalga oshadi.

Mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarda faol qatnashish ularning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun xalqaro mehnat taqsimoti qulayliklaridan samarali foydalanish juda muhimdir. Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy ko'rsatkichlariga: tovar va xizmatlarning eksport va import kvotalari, tashqi savdoning tovar strukturasi, kapitalning, texnologiyalarning, ishchi kuchlarining xalqaro xarakati, iqtisodiyotining ochiqlik darajasi kabilar kiradi.

Mamlakatlarning iqtisodiy potentsiali darajasi ham muhim bo'lib, u ishlab chiqarish kuchlarining miqyosi, aholisining soni, xududlarining kattaligi, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi orqali ifodalanadi.

1.4..Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi va uning konsepsiyalari

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi va uning konsepsiyalari (jahon savdosi va xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasi, mutloq ustunlik nazariyasi, nisbiy ustunlik nazariyasi, qiymat nazariyasi, ishlab chiqarish omillarini joylashtirish nazariyasi va boshqalar).

XX asr ikkinchi yarmida dunyo xo'jaligi taraqqiyotining asosiy xususiyatlaridan biri xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tez rivojlanib borishi bo'ldi. Mamlakatlar, mamlakatlar guruhlar, iqtisodiy guruhlar, alohida firma va tashkilotlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarning kengayishi va guruhlashuvi yuz berdi. Bu jarayon xalqaro mehnat taqsimotining kengayishi, xo'jalik faoliyatining baynalminallashuvi, ochiq milliy iqtisodiyotlarning ko'payishi, ularning bir-birini to'ldirishi, yaqinlashib va qo'shilib ketishi, mintaqaviy xalqaro tizimlarning rivojlanishi va mustahkamlanishida yaqqol namoyon bo'ldi.

Bu hamkorlik, yaqinlashuv va birlashuv jarayonlarining ziddiyatlari, hamda taraqqiy qilish xususiyatlari mavjuddir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning taraqqiyoti alohida mamlakatlar milliy xo'jaligining mustahkamlanishi, iqtisodiy mustaqillikka intilish, dunyo xo'jaligining yanada baynalminallashuviga, milliy iqtisodiyotlarning ochiqligiga, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga olib keladi.

XX - asr davomida jaxon xo'jaligining rivojlanishi ziddiyatlarga boy bo'ldi. Bu ziddiyatlar imperialistik davlatlarning o'zlari o'rtasida (bu ikkita jahon urushining yuz berishiga sabab bo'ldi), hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida mavjud edi. XX asrning o'rtalariga kelib dunyo xo'jaligi ikki katta qismga: kapitalistik va soqialistik jahon xo'jaliklariga ajraldi. Jahon iqtisodiy aloqalarida kapitalistik dunyo xo'jaligining xukmronligi mavjud edi: 90-yillarning boshida xalqaro savdoning 9\10 qismi kapitalistik dunyo xo'jaligi doirasida olib borildi.

Sobiq soqialistik mamlakatlarda jahon milliy daromadining 3\1 qismi, Iqtisodiy Hamkorlik Kengashi mamlakatlarida 4\1 qismi yaratilar edi.

Asrimizning 60-yillarida jaxon xo'jaligiga rivojlanayotgan mamlakatlar kirib keldi. 70-yillarda ular ichida Janubiy - SHarqiy Osiyoning (dastlab 4 "kichik ajdarho"- Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur) va Lotin Amerikasining, "yangi industrial davlatlari" (Braziliya, Argentina, Meksika) alohida, kuchli rivojlanishga ega bo'ldilar.

SSSR parchalangandan keyin va SHarqiy Evropadagi inqilobiy o'zgarishlardan keyin jahon xo'jaligi yaxlitlik xususiyatiga ega bo'la boshladi. Hozirgi kundagi jahon xo'jaligi o'z ichiga turli rivojlanishga ega bo'lgan, sanoati rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan milliy iqtisodiyotlarni qamrab olgan.

XXI- asr bo'sag'asidagi jaxon xo'jaligi - juda keng miqyosga ega bo'lib, butunlay bozor iqtisodiyoti tamoyillariga, xalqaro mehnat taqsimotining ob'ektiv qonuniyatlariga, ishlab chiqarishning baynalminallashuviga asoslanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmi o'z ichiga, uni amalga oshirishning huquqiy normalar va qoidalarini, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning XIM ni rivojlantirishga qaratilgan muayyan faoliyatni qamrab oladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro mehnat taqsimoti.
2. Xalqaro savdo.
3. Kapitalning va chet el investitsiyalarining xalqaro harakati.
4. Ishchi kuchlarining xalqaro migratsiyasi.
5. Xalqaro valyuta - moliya va kredit munosabatlari.
6. Xalqaro iqtisodiy integratsiya.

XXI asrdagi XIMning xususiyatlari. Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalar faolligining hozirgi kundagi darajasi quyidagilarni ochib beradi:

- ♦ jaxon xo'jaligidagi xalqaro mehnat taqsimotining yuqori darajasini;
- ♦ tayyor mahsulotlar xalqaro savdosi miqyosining o'sishi va sifat o'zgarishlarini ko'rsatib, uning sof tijorat shaklidan milliy ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita xizmat qiladigan vositaga aylanganligini;
- ♦ kapital ko'chib yurishining tezlashganligini;
- ♦ ilmiy-texnik bilimlar bilan almashishning shiddatini, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini;
- ♦ xalqaro ishchi kuchlari ko'chib yurishining o'sganligini va uning dunyo xo'jaligi baynalminallashuvida muhim ahamiyat kasb etayotganligini;
- ♦ mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi jarayonining tezlashganligini va keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar savdosining, ishlab chiqarishining va moliya-kredit sohasining erishgan yaxlitlik darajasi dunyo xo'jalik kompleksi shakllanganligini belgisidir. Uning ishtirokchilari davlat chegaralari mavjudligiga qaramasdan umumiy xo'jalik tizimining bir qismlari sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Binobarin, xo'jalik faoliyatining baynalminallashuvi yuz bermoqda.

Baynalminallashuv alohida milliy iqtisodiy tizimlarning bir-biriga chambarchas bog'liqligi o'sib borayotganligini ko'rsatadi.

XX asrga kelib ayirboshlashdagi baynalminallik kapital va ishlab chiqarishning baynalminallashuviga olib keldi. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi keskin o'sib ketdi. Yirik miqyosda ixtisoslashgan ishlab chiqarish uchun ichki bozorlar hajmi torlik qilib qoldi. U ob'ektiv ravishda milliy chegaralardan tashqariga chiqdi.

Bu aloqalarning shakllanishi va ularning kelajak rivojlanishi qonuniyatlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, dunyo xo'jaligi taraqqiyotining bosh yo'nalishi bo'lib jahon miqyosida umumiy kapitallar, tovarlar va xizmatlar bozorini yaratish, ayrim mamlakatlarning dunyo xo'jalik kompleksiga qo'shilishi va iqtisodiy yaqinlashuvi hisoblanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, dunyo iqtisodiyoti muammolarini

bir tizim sifatida, xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmuasi sifatida o'rganish zarurdir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning dunyoviy miqyosga ega bo'lishini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin. Makroiqtisodiy darajada, bu ayrim mamlakatlar va mintaqalarning o'z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faollikka intilishini ifodalaydi. Bunday intilishlar investitsiya va savdo to'siqlarini yo'qotish, erkin tadbirkorlik xududlarini yaratish va xakazolarda namoyon bo'ladi.

Mikroiqtisodiy darajada iqtisodiy aloqalarning dunyoviy tus olishini korxonalar faoliyatining ichki bozordan tashqi doiraga chiqishida ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarga qanday omillar hal qiluvchi ta'sirga ega?

Hozirgi davrning ko'plab ziddiyatlari mavjud bo'lishiga qaramasdan, uning asosiy xususiyatlari qarama-qarshilik emas, balki hamkorlik va bir-birini tushunish tomon yo'nalishdan iborat. YAxlitlik, bir-biriga bog'liqlik, rivojlangan hamda ijtimoiy adolatli jamiyat uchun kurash - dunyo xo'jaligining asosiy maqsad yo'nalishi hisoblanadi. SHu asnoda milliy iqtisodiy modellarning, iqtisodiy va ijtimoiy qadriyatlarning, hamda munosabatlarning yangilanish jarayoni to'g'risida gapirish mumkin. Turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi darajasi bir-biriga yaqinlashib, tenglashib bormoqda. Albatta, bu muammosiz davom etadigan jarayon emas, balki ziddiyatli, murakkab jarayondir.

Bu jarayonga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi:

1. Industrial jamiyatdan undan keyingi post industrial jamiyatga (information jamiyat) o'tish;

2. Texnologik inqilob;

3. Energiya xom-ashyosi va oziq-ovqat muammolarining keskinlashuvi;

4. Ekologik muammolar;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi davrdagi xalqaro iqtisodiy aloqalar yangi mohiyat va mazmunga boyib borayotgan shiddatkorona jarayondir. Ayniqsa, 90-yillardagi jarayonlar rivoji buning tasdiqidir.

XX asrning oxiri - XXI asrning boshi xalqaro mehnat taqsimotida, xalqaro kapitallar va resurslar bozorida o'z tarkibiga ega bo'lgan dunyo xo'jaligining yangi tizimi shakllanayotgan davr hisoblanadi.

Ochiq iqtisodiyot mohiyati. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'n yilliklarda jahon xo'jaligining rivojlanishi ko'pgina mamlakatlarning berk milliy xo'jalikdan tashqi bozorga yo'naltirilgan ochiq iqtisodiyot shakliga o'tishi bilan ifodalanadi.

Urushdan keyingi tiklanish yillarida AQSH "erkin savdo", "ochiq iqtisodiyot" shiorlari bilan chiqib dunyo bozorida o'z qoidalarini o'rnata boshladi. Dunyoning eng yirik savdo davlati va urushdan golib bo'lib chiqib, natijada juda boyib ketgan davlat sifatida u yangi iqtisodiy tartib qoidalarini taklif qila boshladi. "Erkin savdo", "ochiq iqtisodiyot" shiorlari hukmron iqtisodiyotning kam rivojlangan mamlakatlarga qarshi quroli bo'lib, amerika korporatsiyalarining ko'plab bozorlarni egallashiga olib keldi.

Biroq, keyingi sotsial - iqtisodiy o'zgarishlar natijasida dunyo xo'jaligidagi aloqalar muhim omillar asosida yuzaga keladigan, ob'ektiv xarakterdagi baynalminal munosabatlarga aylandi. Ochiq iqtisodiyotning vujudga kelishida davlatning roli juda

kattadir. Davlat eksport ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlab, tovarlar va xizmatlarning chetga chiqarilishiga, chet el firmalari bilan qo'shma korxonalar tuzishga, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi. CHet mamlakatlardan investitsiyalarning, texnologiyalarning, ishchi kuchining, informatsiyalarning kirib kelishiga huquqiy asoslar yaratiladi.

Mamlakatlarning ochiq iqtisodiyotga o'tishi transmilliy korporatsiyalarning (TMK) faoliyati bilan yanada kuchaydi. TMKlar yangi bozorlarni egallash uchun turli mamlakatlarda ko'plab filiallarni, kompaniyalarni ochib boshqa mamlakatlarning savdo to'siqlarini chetlab o'tadilar va xalqaro iqtisodiy ayirboshlovning baynalminallashuviga olib keladilar.

XX - asrning ikkinchi yarmida transport va informatsiya vositalarining taraqqiyoti ham milliy iqtisodiyotlar ochiqligining kuchayishiga, aholi ko'chib yurishining ortib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Asta-sekin, qadamma-qadam savdo, iqtisodiy, valyuta - moliyaviy to'siqlar yo'qoldi va mamlakatlarni bir-biridan ajratib turgan omillar bartaraf etildi. Xalqaro savdoning erkinlashuvi milliy xo'jaliklarning tashqi sharoit va ta'sirotlarga moslashishiga, hamda xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashishiga olib keldi.

Ochiqlashish jarayoni 60-yillardan boshlab rivojlanayotgan davlatlarga ham tarqala boshladi. Xitoy 80-yillarning boshidan ochiqlik siyosatini targ'ib qila boshladi.

"Iqtisodiyotning ochiqligi" degan tushuncha qanday ma'noga ega? "Erkin savdo" va "ochiq iqtisodiyot" degan tushunchalarni bir-biridan farqlash kerak. "Erkin savdo" shiori amerika iqtisodchilari o'ylab topgan kashfiyot emas, balki A.Smitning siyosiy iqtisodidan olingandir. "Ochiq iqtisodiyot" "erkin savdo" shoriga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, tovarlar savdosi bilan birgalikda, ishlab chiqarish omillarining, informatsiyalarning erkin harakatini, milliy valyutalar o'zaro ayirboshlanishini ham o'z ichiga oladi.

Ochiq iqtisodiyot - o'z-o'zini ta'minlash iqtisodiyoti va faqat o'z kuchiga tayanishga asoslangan avtarkiyaaning butunlay teskarisidir. Ochiq iqtisodiyotning yuzaga kelishi - dunyo rivojining ob'ektiv yo'nalishidir. Ochiq iqtisodiyot tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatish - dunyo bozori standartlarini tan olish, uning qonunlari asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish demakdir.

Ochiq iqtisodiyot dunyo xo'jaligiga, jahon bozoriga moslashgan iqtisodiyotning yaxlitligini, yagona iqtisodiy majmuani taqozo etadi. Ochiq iqtisodiyot - bu qo'shma tadbirkorlikning turli shakllarini faol qo'llash, tashqi savdoda davlat monopoliyasini yo'qotish (ko'pchilik hollarda), xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatning nisbiy ustunligidan samarali foydalanishdir.

Bunday iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biri - kapital mablag'larning, texnologiyalarning, informatsiyalarning iqtisodiy maqbulligi va xalqaro raqobatbardoshligini hisobga olgan holda mamlakatga kirib kelishini ta'minlaydigan, investitsiya muhitini yaratish xususiyatidir. Ochiq iqtisodiyot ichki bozorga chet el kapitalining, tovarlar, texnologiyalar, informatsiyalar va ishchi kuchlarining maqbul darajada kirib kelishini taqozo etadi. Ochiq iqtisodiyotning afzalliklariga quyidagilar kiradi:

- ◆ ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyasining chuqurlashuvini;

- ◆ samaralik darajasiga qarab resurslarni oqilona taqsimlash;
- ◆ xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimi orqali dunyo tajribasini keng yoyish;
- ◆ dunyo bozoridagi raqobat ta'sirida mamlakat ichidagi ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatning o'sishi.

Biroq, ochiq iqtisodiyot deganda, mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarida nazoratsizlik, hohlagan ishni amalga oshirish, chegaralarning butunlay ochiqligi degan ma'noni tushunmaslik kerak. Ochiq iqtisodiyot, uni amalga oshirish mexanizmini oqilona yuritishda davlatning bevosita aralashuvini talab qiladi. Butunlay ochiq iqtisodiyot hech bir mamlakatda bo'lmaydi.

Iqtisodiyotni juda ham ochiq holda qo'yish iqtisodiy o'sish, u yoqda tursin, hatto iqtisodiy xavfsizlikka ham xavf tug'dirishi mumkin.

Samaralilik, raqobatbardoshlik, milliy xavfsizlik asoslariga qurilgan oqilona ochiqlik - tashqi dunyo bilan aloqalarning shakllariga va uning umumiy miqyoslariga ta'sir ko'rsatuvchi eksport tarkibi va kapitalning harakati, bojxona, valyuta, soliq, kredit va investitsiya siyosatlarini hisobga olmasdan yuzaga kelmaydi.

Iqtisodiyotning ochiqlik darajasini miqdoran hisobga olishda eksport va importning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi (YAIM) hissasiga ehtibor beriladi. Uning turli ko'rinishdagi hisob-kitoblari mahlum bir milliy iqtisodiyotning jahon bozori bilan bo'lgan bog'lanishining ko'lamini belgilab beradi. Masalan, eksportning YAIM ga nisbati eksport kvotasi deyiladi.

E

$$E_k = \frac{E}{YAIM} \times 100 \%$$

YAIM

Bunda, E_k - eksport kvotasi; E - eksport hajmi.

Agar, $E_k = 10 \%$ bo'lsa iqtisodiyotni ochiq darajada desa bo'ladi.

Import bilan YAIM nisbati import kvotasi deyiladi.

I

$$I_k = \frac{I}{YAIM} \times 100 \%$$

YAIM

bunda, I_k - import kvotasi, I - import hajmi.

Iqtisodiyotning ochiqligini tashqi savdo kvotasi bilan aniqlash mumkin:

TS

$$TS_k = \frac{TS}{YAIM} \times 100 \%$$

YAIM

bunda, TS_k - tashqi savdo kvotasi; TS- tashqi savdo aylanmasining hajmi.

“Kuchli ettilik” mamlakatlarining tashqi savdo kvotasi 1990 yilda quyidagicha edi:

Angliya - 41.8 %

Germaniya - 50.8 %

AQSH - 17.0 %

YAponiya - 17.8 %

Iqtisodiyotning ochiqlik darajasiga va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillarga mamlakatning ichki bozori hajmi, iqtisodiy rivojlanish darajasi, hamda mamlakatning xalqaro ishlab chiqarishda qatnashish miqyosi misol bo'la oladi.

Ba'zi bir olimlarning fikriga qaraganda, mamlakatda og'ir sanoat tarmoqlarining (energetika, metallurgiya, tog'-kon sanoati va b.) hisssasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasi va iqtisodiyotining ochiqlik darajasi shunchalik kam bo'ladi. Amerika iqtisodchilari J.Saks va E.Uorner fikrlariga ko'ra, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi mamlakatda eksport va import bojlarining "juda katta" bo'lmasligi, milliy valyutaning oqilona konvertatsiya qilinishi darajasi bilan belgilanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan koeffitsient va ko'rsatkichlar hamma vaqt ham iqtisodiyotning ochiqlik darajasini ko'rsatib bera olmaydi. Masalan, tashqi savdo kvotasi iqtisodiyot ochiqligining ba'zi bir xususiyatlarini ko'rsatib bersa ham, uning aniq va uzil-kesil ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Tashqi savdo kvotasi faqatgina mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasini ifodalaydi, xolos.

Iqtisodiyotning ochiqligi ko'rsatkichi - juda murakkab xususiyat bo'lib, ko'pgina omillarga tayanadi.

Xalqaro savdo konsepsiyalari: merkantilizm, mutlaq ustunlik, nisbiy ustunlik, Xeksher-Olin nazariyalari, Leontev paradoksi

Erkin savdo yuritish siyosati yoki tashqi savdo oldiga to'siqlar qo'yish siyosatini olib borish o'tgan asrlarda qo'llanilar edi. Hozirgi davrda bu ikki yo'nalish bir-biriga bog'lanib va qo'shilib ketgan.

Ammo erkin savdo tamoyili yildan-yilga ustunlik qilib bormoqda. Erkin savdo siyosatini birinchi bo'lib A.Smit o'zining "*Nisbiy ustunlik nazariyasi*"da yoqlab chiqdi. Uning fikricha, "tovar almashish har bir mamlakat uchun qulaylik keltirib chiqazadi va undan har bir mamlakat o'ziga mutloq ustunlik topa oladi". Lekin bundan, zarur tovarlarni chetdan sotib olish arzon va qulay bo'lsa, mamlakat hech narsa ishlab chiqarmasa ham bo'ladi, degan fikr kelib chiqishi ham mumkin.

D.Rikardo o'zining "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning muqaddimasi" (1817 y.) asarida klassik nazariyani bunday noto'g'ri tushunishni inkor qildi. U xalqaro ixtisoslashuv mezonini alohida ta'kidlab, mamlakatlar o'rtasida almashuvning imkoniyati va zarurligi qanday me'yorda bo'lishini tushuntirib berdi, har bir mamlakat o'zida ustunlik bo'lgan sohaga ixtisoslashishi manfaatli bo'ladi.

Jon Styuart Mill o'zining "Siyosiy iqtisod asoslari" (1848 y.) asarida mamlakatlar o'rtasida tovar ayirboshlash qanday bahoda yuz berishini ko'rsatib berdi. Uning fikricha ayirboshlash bahosi talab va taklif qonunidan kelib chiqib, shunday darajada o'rnatiladiki, unda har bir mamlakatning jami eksportdan topgan daromadi jami importning haqini to'lashga imkoniyat beradi. *Xalqaro qiymat qonuni* yoki "*xalqaro qiymat nazariyasi*" Millning asosiy xizmati hisoblanadi. Bu nazariya shuni ko'rsatadiki, mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlashning me'yorini xalqaro baho belgilab beradi. Bu bozor bahosi bo'lib, talab va taklifdan kelib chiqadi.

Xalqaro savdo oqimlarining yo'nalishi va tarkibi qanday bo'lishi to'g'risidagi hozirgi zamon qarashlariga shved iqtisodchi olimlari Eli Xeksher va Bertil Olin asos soldilar. Ular, u yoki bu mamlakatning biron mahsulotni ishlab chiqarishdagi nisbiy ustunliklarini ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasi bilan belgilaydilar. E.Xeksher va B.Olin "*ishlab chiqarish omillari baholarini tenglashtirish*" teoremasini olg'a suradilar. Uning mohiyati shundaki, mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarishdagi farqlar ularning ishlab chiqarish omillari - mehnat, er,

kapital bilan turlicha ta'minlanganligi, hamda bu tovarlarga bo'lgan ist'emolning turlicha bo'lishidan kelib chiqadi.

Amerikalik iqtisodchilar P.Samuelson va V.Stolper o'zlarining teoremasini ishlab chiqib, Xeksher - Olin teoremasi isbotini takomillashtiradilar. Ularning fikriga ko'ra, ishlab chiqarish omillarining bir xilligi, texnikalarning o'xshashligi, sof raqobat va tovarlarning to'liq ta'minlanganligi sharoitida xalqaro ayirboshlov mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish omillarining bahosini tenglashtiradi.

D.Rikardoning va uning modelini takomillashtirgan E.Xeksher, B.Olin va P.Samuelsonning nazariyalarida savdo, faqatgina o'zaro manfaatli jarayon bo'lmasdan, u yana mamlakatlar o'rtasidagi rivojlanish darajasi farqlarini qisqartirishga ham yordam beradi.

Tashqi savdo nazariyasining keyingi rivojlanishi amerikalik iqtisodchi V.Leontev asarlarida o'z aksini topdi. Uning nazariyasi "*Leontev paradoksi*" deyiladi. Paradoks, ya'ni g'ayri-tabiiylik shundaki AQSH iqtisodiyoti ikkinchi jahon urushidan keyin kapital talab ishlab chiqarishga emas, balki mehnat ko'p talab qiladigan (AQSHda ish xaqi yuqori bo'lganligi uchun mehnat qimmat turadi) ishlab chiqarish sohalariga ixtisoslashib bordi. Boshqacha aytganda, amerika eksporti importiga nisbatan kam kapital, ko'p mehnat sarf qilingan tovarlardir. Xeksher - Olin nazariyasiga ko'ra esa, kapitalga boy bo'lgan mamlakat - AQSH ning eksporti kapital ko'p sarf qilinadigan sohada bo'lishi kerak edi. Keyingi yillarda "*Leontev paradoksi*" ko'p bahslarga sabab bo'lib, nisbiy ustunlik nazariyasi yanada rivojlanib bordi. Natijada bu nazariyaga texnika taraqqiyoti va uning turli joylarda turlicha rivojlanishga egaligi, firmadan tashqari harajatlarni tejash, mamlakatlar o'rtasida ish haqlarining farq qilishi kabi tushunchalar kiritildi.

G'arb iqtisodchilarining xalqaro savdoni o'rganish tadqiqotlarida tashqi savdo multiplikatori nazariyasi keng targ'ib qilinmoqda.

Bu nazariyaga ko'ra tashqi savdoning (shu jumladan, eksportning) milliy daromad o'sishiga, bandlik darajasiga, iste'mol va investitsiya faolligiga ta'sir ko'rsatadigan samarasi har bir mamlakat uchun ma'lum miqdor bilan belgilanib, ayrim koeffitsient - multiplikator (ko'paytiruvchi) yordamida hisoblab topiladi. Bunda, dastlab, eksport uchun tushgan buyurtmalar mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytiradi, binobarin, bu korxonalarda ish haqi ham oshib boradi. Keyin ikkilamchi iste'mol harajatlari ham harakatga keladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro ayirboshlovning shiddatli o'sishi bilan xalqaro savdo ham yuqori sur'atlar bilan rivojlana boshladi. 1950 - 1994 yillar davrida xalqaro savdo-sotiq hajmi 14 barobar o'sdi. G'arb mutaxassislarining fikricha, 1950 yildan 1970 yilgacha bo'lgan davrni xalqaro savdoning "oltin asri" deb atash mumkin. Aynan, mana shu davrda dunyo eksporti yiliga 7 % o'sishga ega bo'ldi. Lekin, 70-yillarga kelib bu o'sish 5 % gacha kamaygan bo'lsa, 80-yillarda yana ham qisqardi. Faqat 80-yillarning oxiriga kelibgina sezilarli jonlanish bo'lib, dunyo eksporti 8,5 % lik yillik o'sishga (1988 y.) erishdi. 90-yillarning boshida yana bir oz pasayish kuzatildi, lekin 90-yillarning o'rtalarida kuchli o'sish sur'atlari davom qilmoqda.

I.A. Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari” asarida zamonaviy jahon xo‘jaligiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta‘siri va bahosi.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi globallashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi orqali tavsiflanadi. Globallashuvni iqtisodiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, u jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi.

Globallashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Jumladan, globallashuv natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko‘rinishdagi xalqaro birlashmalari faoliyatining tarkib topishi va kengayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga o‘tishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kuchayishi ro‘y beradi.

Umuman olganda, globallashuv jarayonlari jahon xo‘jaligining yaxlit iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishida sifat bosqichi hisoblanib, yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Biroq, globallashuv jarayonini mutlaqlashtirish va unga bir tomonlama qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki, mazkur jarayon o‘zining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ziddiyatli tomonlariga ham ega. Jahonning bir mamlakatida ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazishi shulardan biri hisoblanib, bugungi kunda ro‘y berayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma‘noda globallashuv jarayonlarining oqibati hisoblanadi.

«Bu inqiroz Amerika Qo‘shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglik holatidan boshlandi. So‘ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya‘ni to‘lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning etakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aktsiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog‘liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»¹.

Bundan ko‘rinadiki, dastlab AQSH ipoteka bozorlarida namoyon bo‘lgan mazkur inqiroz etarlicha to‘lov layoqatiga ega bo‘lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo‘lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro‘y berdi.

Modomiki, ipoteka krediti o‘zining mohiyati bo‘yicha ko‘chmas mulk garovi hisobiga beriladigan kreditlar bo‘lsada, AQSH bozorlari bunday likvidli ko‘chmas mulklarga etarlicha «to‘yindi» va ularning narxlari keskin tusha boshladi. Buning ustiga investitsion banklarning AQSH ipoteka bozorlaridagi yangi moliyaviy «mahsulot» hisoblangan aktivlarni sekyuritizatsiyalash bo‘yicha operatsiyalarining avj olishi ipoteka bozorlaridagi tanazzullik holatlari ehtimolligini oshirdi.

AQSH iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlar tufayli arzon kredit resurslariga to‘yindi va bu Federal zaxira tizimi (FZT) amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatini

¹ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 4-б.

o'zgartirishiga olib keldi. Natijada 2004-2006 yillarda Federal zaxira tizimi foiz stavkalarni 6,25% gacha ko'tardi. Kreditlarning qimmatlashuvi aholini ipotekaga nisbatan talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo'yicha qarzдорlar to'lovining qisqarishiga olib keldi. Boshqa tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari va energiya resurslari narxlarining o'sishi aholining kreditni qaytarish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarining cheklanishiga olib keldi. 2000-2007 yillar mobaynida jahon bozoridagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi o'rtacha ikki barobarga oshdi, benzin narxi esa 3,5 barobarga oshdi. Neft narxi rekord darajada, ya'ni bir barreli 147 dollardan ortdi.

Pirovard natijada 2007 yil boshida AQSHda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzдорlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Aksariyat moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri sifatida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosatining «mevasi» ekanligini, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvini cheklanganligi bilan ham izohlamodalar.

SHu o'rinda, jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta'kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq, milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashuv jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan AQSHda, keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi. Jumladan, o'tgan asrning 70-yillariga qadar amal qilib kelgan jahon valyuta tizimlari pullarning oltin yoki tovar mazmunini ta'minlash orqali iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga zamin yaratdi. Biroq, jahon amaliyotida 1976 yildan boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimiga o'tgach, pulning oltin mazmuni yo'qolib, asosan AQSH dollari etakchi valyutaga aylangach, uning muomalaga chiqarilishini nazorat qilib bo'lmay qoldi. Keyingi yillarda globallashuv jarayonining jadallashuvi ta'sirida xalqaro iqtisodiy aloqalarda qat'iy valyutaga bo'lgan talabning yanada kuchayishi AQSH tomonidan hech qanday tovar bilan ta'minlanmagan pullarning muomalaga chiqarilish jarayonini yanada tezlatib yubordi. Ma'lumotlarga ko'ra, muomaladagi pul massasi (naqd, kredit pullar va turli to'lov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligini ham hisobga olinsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoridan, ya'ni pulga bo'lgan talabdan bir necha o'n baravar ko'payib ketganligini anglatadi.

SHu bilan bir qatorda, asosan etakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishiga asosiy sabablaridan hisoblanadi:

- norazional pul-kredit siyosatini, hamda qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;
- moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;
- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarini buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;
- moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;
- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarni vujudga kelishi va hokazo.

XX asrning oxirlarida boshlangan va hozirgacha davom etib kelayotgan bozorlarning globallashuvi, kapitallar xalqaro harakatining erkinlashtirilishi natijasida AQSH bozorlarida vujudga kelgan inqiroz dunyoning boshqa mamlakatlariga ham keng yoyildi. AQSH banklari va ipoteka agentliklarining qimmatli qog'ozlariga qo'yilma qilingan xorijiy investorlar moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Jahon moliyaviy inqirozi aksariyat rivojlangan mamlakatlar moliya tizimini tubdan isloh qilish zarurligini keltirib chiqardi. SHunga ko'ra, AQSH va Evropa Ittifoqi mamlakatlari o'zlarining bank tizimlarini inqirozdan qutqarish uchun yirik tijorat banklarining akuiyalarini sotib olib, ularni byudjet mablag'lari hisobiga likvidliktivlar bilan ta'minlay boshladi.

Savol va topshiriklar:

- Jahon xo'jaligi tushunchasini ta'riflab bering.
- Jahon xo'jaligi tizimi deganda nimani tushunasiz?
- Jahon xo'jaligining tarmoq tarkibi nimalardan iborat?
- Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nimani o'rganadi?
- Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tarkibini aytib bering.
- Makroiqtisodiy darajadagi munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
- Mikroiqtisodiy darajadagi munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
- O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi yangi strategiyasi nimalarni o'z ichiga oladi?
- Ochiq iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
- Ochiq iqtisodiyotning afzalliklariga nimalar kiradi?
- Eksport kvotasi nima?
- Import kvotasi deganda nimani tushunasiz?
- Tashqi savdo kvotasi nima?

Asosiy tushunchalar va atamalar:

Jahon mamlakatlarini guruhlarga ajratish mezonlari; Iqtisodiy rivojlanish darajasi; Daromadlar darajasi bo'yicha guruhlarga ajratish; Mahsulot birligiga xom ashyo va energiya sarf qilish; Tashqi iqtisodiy aloqalar darajasi; Iqtisodiyotning tarmoq tarkibi; Jahon xo'jaligi; Xalqaro iqtisodiy munosabatlar; Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmi; Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tarkibi; Ochiq iqtisodiyot; Iqtisodiyotning ochiqlik darajasi; Eksport kvotasi (EK); Import kvotasi (IK); Tashqi savdo kvotasi (TSK); Iqtisodiyotning ochiqlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar; Xo'jalik faoliyatining baynalmillashuvi; Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning makroiqtisodiy darajada rivojlanishi; XIMning mikroiktisodiy darajada rivojlanishi; Eksportning valyuta samaradorligi ko'rsatkichi; Importning valyuta samaradorligi ko'rsatkichi; Mamlakatning to'lov balansi; Xizmatlar va nosavdo operatsiyalar balansi; Kapitallar va kreditlar xarakati balansi; Mamlakat oltin va valyuta zahiralar.

2-Mavzu: Jahon xo'jaligida inson resurslari va xalqaro mehnat taqsimoti

- 2.1. Demografik tushuncha. Jahon aholisi dinamikasi muammolari
- 2.2. Jahon aholisi yosh tarkibi muammosi. Jahon iqtisodiyotida urbanizatsiya jarayonlari.
- 2.3. Jahon iqtisodiyotida ishsizlik va uning tendentsiyalaridagi o'zgarishlar.
- 2.4. Xalqaro axoli va mehnat migratsiyasi.
- 2.5. Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi.

2.1. Demografik tushuncha. Jahon aholisi dinamikasi muammolari

«**Demografiya**» - ikki yunon so'zlarining qo'shilishidan iborat bo'lib, «demos» - xalq, aholi, «grafiya»-tasvirlash, yozish, o'rganish ya'ni, «xalq haqida yozmoq», yoki «aholini sharxlash» ma'nosini anglatadi. Biroq demografiya fani faqat sharhlash bilan chegaralanib qolmay, balki uning o'rganish doirasi bir muncha keng va chuqurdir.

Aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga doimo o'zgarib boradi. Tug'ilish jarayoni aholi sonini ko'payishiga olib kelsa, o'lim uning kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Tug'ilish va o'lim jarayonlari asosida aholi tabiiy o'sishi sodir bo'ladi. Agar tug'ilganlar soni o'lganlar sonidan yuqori bo'lsa, aholi ko'payib boradi, aksincha, o'lganlar soni tug'ilganlar sonidan ko'p bo'lsa, aholi kamayib boradi.

Biror bir hududda, ma'lum davrdagi aholi tarkibi, o'tgan davrdagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi, keyingi davrdagi aholi takror barpo bo'lishining esa zamini hisoblanadi. Demak, aholi takror barpo bo'lishi jamiyat taraqqiyoti davomidagi doimiy, murakkab jarayondir.

Aholining takror barpo bo'lishi natijasida aholi soni va uning yosh - jinsiy tarkibi muntazam o'zgarib turadi. Yangi tutilgan bolalar jinsi aholi jinsiy tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. O'lganlar soni esa aholi yosh tarkibiga ta'sir etadi. Aholi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar jamiyatda ma'lum social muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aholining takror barpo bo'lish jarayoni esa, o'z navbatida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. SHu bois aholining takror barpo bo'lish jarayoni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga, qonuniyatlariga egadir. Demografiyaning asosiy predmeti aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarining tahlili ho'soblanadi.

Aholini o'rganar ekan, demografiya alohida fan sifatida, uning miqdoriy va sifatiy xususiyatlarining mukammal tahlil etadi.

Jamiyat taraqqiyotining eng dastlabki bosqichidan to hozirgi davrga qadar har bir hudud aholisi ham miqdor, ham sifat jihatidan muntazam o'zgarib kelgandir. Demografiya aholining miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini aholining takror barpo bo'lishining asosiy omillari sifatida o'rganadi.

Aholining takror barpo bo'lishi, keng ma'noda tabiiy o'sish, o'lim, migratsiya aholining hududlar bo'ylab harakati, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, ma'lumot olishi, mehnat faoliyatining boshlanishi va h.k. natijasida aholi tarkibini yangilanib turishini bildiradi.

Demografiya asosiy e'tiborni tabiiy avlodlar almashuvi – ya'ni, tug'ilish va o'lim asosida aholining takror barpo bo'lish jarayoniga qaratadi. Ushbu jarayonni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi qonuniyatlarini, turli millat, hudud va davlatlardagi xususiyatlari, omillarini o'rganadi, muammolarini aniqlaydi va istiqbolini belgilab beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun demografiya jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, tarixiy shart-sharoitlarini atroflicha o'rganishi lozim.

Demak, **demografiya, aholining takror barpo bulishi konuniyatlari xakidagi fan bulib, bu jarayonni ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarga boglik xolda urganadi, omillarini, muammolarini aniklab, istikbolini belgilab beradi.**

Demografik koeffitsientlar. Demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralash) ni mukamal o'rganishda, ularni turli aholii guruhlari, davlatlar, dunyo hududlari bo'ylab qiyoslashda, kelajak istiqbolini aniqlashda, demografik koeffitsientlardan foydalaniladi. Ushbu koeffitsientlar yordamida o'rganilayotgan demografik jarayonning kerakli jihatlari chuqur va qiyosiy darajada o'rganiladi. Ma'lum tarixiy davr yoki ikki hudud orasida demografik farqlarni statistik ma'lumotlar orqali bevosita aniqlab bo'lmaydi. SHuning uchun har bir demografik

jarayonni koeffitsienti hisoblanadi. Buning uchun qayd etilgan demografik jarayonning 1000 kishiga nisbatan bo'lgan miqdor aniqlanadi. Demak 1000 kishi demografik jarayonlarni o'rganishda mezon hisoblanadi. Bu ko'rsatkich promille, deb yuritiladi va quyidagicha -‰o belgilanadi.

Tug'ilishning umumiy koeffitsienti. Har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar sonini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$Tk = Tbs / Ao's$$

Tk – tug'ilish koeffitsienti.

Tbs - o'rganilayotgan davrda tug'ilgan bolalar soni.

Ao's- o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

Tug'ilishning umumiy koeffitsienti odatda promilleda hisoblanadi. Bu koeffitsientdan tug'ilish darajasini ifodalashda ko'proq foydalaniladi. Uning yordamida ma'lum hudud yoki avlodlardagi tug'ilishda ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy tarzda o'rganilishi mumkin. Lekin tug'ilishning umumiy koeffitsienti tug'ilish darajasini ifodalashda biroz xatoliklarga yo'l qo'yadi. Chunki bu ko'rsatkichga aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir etadi. Agar o'rganilayotgan hudud aholi tarkibida farzand ko'rish yoshiga etmagan bolalar (0-14) va farzand ko'rish yoshidan o'tgan keksalar (60 va undan yuqori yoshdagi aholi guruhi) salmog'i yuqori bo'lsa, tug'ilish umumiy koeffitsientining biroz past darajada ifodalanishiga olib keladi.

Xuddi shunday tarzda axoli o'limi koeffitsienti aniqlanadi.

$$O'k = O's / Ao's$$

O'k – o'lim koeffitsienti

O's - o'rganilayotgan davrda o'lganlar soni.

Ao's- o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

Tug'ilish koeffitsientining o'lim koeffitsientidan farqi aholi tabiiy o'sishi koeffitsientini keltirib chiqaradi.

$$To'k = Tk - O'k$$

To'k – tabiiy o'sish koeffitsienti.

Tk - tug'ilish koeffitsienti.

O'k- o'lim koeffitsienti.

Buyuk demografik inqilob. XXI – asr davomida insoniyat xayotiga sayyoramiz axolisi sonining muntazam o'sib borishining ta'siri natijasidagi o'zgarishlarni balkim shunday deb atash mumkindir. Demografik omil butun mamlakatlar va xalqlarning xayotini butunlay o'zgartirib yubora oladi.

Dunyo axolisi xozirgi paytda yiliga 80 – mln. kishiga ko'payib bormoqda. Agar, insoniyatning soni milliard kishiga faqat 1804 yilda etgan bo'lsa, ikkinchi milliardga etish uchun bor-yo'g'i 123 yil kerak bo'ldi, uchinchi milliard 33 yilda paydo bo'ldi, to'rtinchisi esa 14 yilda va beshinchi milliardga 13 yilda etib kelindi. Axoli soni o'sishining eng katta ko'rsatkichi – yiliga o'rtacha 87 mln. kishiga ko'payishi – 1980 yillarda namoyon bo'ldi. 1950 – 2000 yillarda dunyo axolisi o'sishining uchdan ikki qismini Osiyo qit'asi ta'minladi va uning hissasi 56 foizdan 51 foizgacha ko'paydi. Yuqori o'sish bo'yicha ikkinchi o'rinni Afrika egallab, uning hissasi 9 dan 13 foizgacha etdi.

2011 yilda dunyo axolisi soni 7 mlrd. kishidan oshdi va o'sish sur'atlarining sekin asta pasayib borishiga qaramasdan yangi asrimizning o'rtalarigacha yanada o'sadi, natijada 2050 yilga borib, uning soni 10,2 mlrd. kishiga etishi mumkin.

Axoli sonining o'sib borishi atrof-muxitning, havo va suvning ifloslanib borishi, turmush darajasining pasayishi, millatlararo ziddiyatlarning kuchayishi, cheklangan tabiiy resurslar uchun kurash kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Rivojlangan va kam rivojlangan mamlakatlar o'rtasida axoli soni o'sishidagi katta farqlar ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarish mumkin.

Olimlarning xisob-kitobiga ko'ra, yaqin ellik yil ichida er yuzi axolisi deyarli ikki barobarga ko'paygandan keyin, dunyoning hamma mamlakatlarida tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari asosan tenglashdi. Demografik o'tish davri nazariyasi insoniyatga resurslar etishmaydi degan fikrga qarshi chiqadi. Xalqaro oziq-ovqat tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi davrda mavjud bo'lgan resurslardan oqilona foydalanilsa, u 20-25 mlrd. kishini boqishga bemalol etadi. YA'ni, olimlarning hisob kitobiga ko'ra er yuzida eng ko'p yashashi mumkin bo'lgan aholi sonidan, ko'p miqdorga etadi.

2050 yilga borib, Yaponiya va Rossiya kabi mamlakatlarning aholisi soni qisqaradi, Buyuk Britaniya aholisi esa hozirgi darajada saqlanib qoladi. Mali, Saudiya Arabistoni va Nigeriya kabi mamlakatlarda aholi bu davrda – 3 barobarga, Misr va Keniyada 2 barobarga ko'payadi. BMT mutaxassislari hisobotiga ko'ra 2050 yilga borib, umuman rivojlangan mamlakatlarning aholisi soni qisqaradi (1,8 mlrd kishidan 1,16 mlrd kishigacha), rivojlanayotgan mamlakatlarning aholisi esa ko'payadi (4,75 mlrd dan – 8,2 mlrd gacha).

Franziya Milliy demografiya instituti mutaxassislarning bashoratlariga qaraganda yangi asrimizga ham er yuzi axolisining o'sib borishi xos bo'ladi: xozirgi etti milliard kishidan XXI asrning oxiriga borib o'n bir milliardga etadi. Bu o'sishning 95 % uchinchi dunyo mamlakatlariga to'g'ri keladi. Aynan shu mamlakatlarda xozirgi kunda besh milliard kishi yashaydi, sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa bor-yo'g'i bir milliard kishi yashaydi. Kelajakda ham eng ko'p axoli Osiyoda – 61 foiz, Afrikada – 13 foiz, Janubiy va SHimoliy Amerikada mos ravishda –5 va 8 foiz va Evropada – 13 foiz yashaydigan bo'ladi.

G'arb bilan SHarqning doimiy qarama-qarshiligi endi demografiya sohasida ham namoyon bo'la boshladi. G'arb uchun axolining tabiiy o'sish sur'atlari pasayishi bilan mehnatga yaroqli axoli uchun katta yuklama yuzaga kelishi xos bo'lsa, sharqda buning teskarisi yuz bermoqda. SHunisi g'aroyibki, mamlakat qanchalik boy bo'lsa (g'arb mamlakatlari esa, hamma vaqt xalq turmush darajasining yuqoriligi va iqtisodiyotining rivojlanganligi bilan ajralib turadi), o'z fuqarolariga shunchalik ko'p farovonlikni ta'minlay oladi va oilalarda farzandlar ko'p bo'lishi, va axoli soni oshib borishi kerakdek tuyuladi. Haqiqatda esa hamma vaqt ham shunday bo'lavermaydi. Sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarda axoli sonining o'sish sur'atlari kam rivojlangan mamlakatlarga nisbatan pastdir.

2.1.1 Jadval.

Jahon mamlakatlari gupuhlarida demografik ko'rsatkichlar

darajasi (xar bir ayolga

to'g'ri keladigan tug'ish)

Inson rivojlanishi to'g'risida doklad. 2010. UNDP.

O'tgan asrning 70-90 yillarida ko'pchilik mamlakatlarda tug'ilishning keskin kamayib ketganligi sababi hali oxirigacha aniqlanmagan. Jamoatchilik fikriga, va qolaversa, tadqiqotchilarning fikriga qaraganda bunga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan: turmush darajasining pastligi, ota-onalarda bolalarga nisbatan iqtisodiy manfaatdorlikning bo'lmasligi, ertangi kunga ishonchning yo'qligi, ishsizlik, ayollarning ish bilan ko'p band bo'lishi, nafaqat erkaklarda, balki ayollarda xam o'z manaatlarini amalga oshirishga intilishning kuchayishi, raqobatli ehtiyojlarning yuksalish kabilar. Lekin, bu omillar shunchalik xilma-xilki, va ular turli mamlakatlarda turlicha ta'sirga egadirki, ularning tug'ilish ko'rsatkichlarini qanchalik darajada belgilab berishi to'g'risida aniq bir narsa deyish qiyindir. CHunki, kam rivojlangan mamlakatlarda birinchi to'rtta omil shunchalik kuchliki, lekin tug'ilish darajasi muntazam oshib bormoqda.

Extimol bu omillar to'g'ridan to'g'ri emas, balki oraliq ta'sir sifatida umumiy moxiyatga egadir.

Rossiyalik olimlarning fikriga qaraganda, xozirgi davrdagi umumbashariy demografik vaziyatning eng muxim va eng tashvishli belgisi shundaki, dunyo

axolisi juda tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Bashoratlarga ko'ra, bu o'sish XXI asrda to'xtashi kerak. Lekin, sayyoramiz resurslariga bo'ladigan juda katta va havfli demografik og'irlikni kamaytirish uchun dunyo axolisining soni 10-12 mlrd. atrofida barqarorlashishi kerak. Insoniyat uivilizatsiyasining o'zini o'zi saqlab qolishi nuqtai nazaridan, dunyoning demografik rivojlanishi axoli sonining qisqarib borishi tusida bo'lishi kerak. Bunday qisqarish axoli o'lim qo'rsatkichlarining oshishi bilan emas, balki tug'ilish darajasining juda past bo'lishi bilan amalga oshishi kerak.

Mana shunday shart-sharoit bir oilaga bitta farzand to'g'ri keladigan va o'z mehnat resurslari etishmasligidan chetdan ishchi kuchlari jalb qiladigan mamlakatlarda yuzaga kelgan vaziyatni asosan izohlab beradi. Ma'lumki, ishchi kuchi migratsiyasi keyingi o'n yilliklarda butun dunyoda kuchayib ketdi. Migratsiya oqimlarining kuchayishiga sosialistik lagerning va sobiq SSSRning parchalanishi ham katta ta'sir ko'rsatdi. Demak, tug'ilish darajasini pasaytirish xozirgacha ham uning ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan mamlakatlarga taalluqlidir. Sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishning past bo'lishi, albatta, ularning ko'pchiligi uchun salbiy xolat hisoblanadi. Iqtisodchilarning xisob-kitoblariga ko'ra, sanoati rivojlanagn mamlakatlarning hammasida 2050 yilda ham xozirgidek tug'ilishning past darajasi saqlanib qoladi va hatto yanada pasayishi mumkin.

Keyingi o'n yilliklarda MDH mamlakatlarida yuzaga kelgan demografik vaziyat dunyo demografiyasidagi yo'nalishning naqadar xilma-xilligini to'liq aks ettiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ularning umumiy axolisi 0,2 % ga qisqardi. Bu Rossiya (1,4 % ga), Ukraina (3,8 % ga) Moldova (1,2 % ga), Qozog'iston (1,1 % ga), Belarus (1,0 % ga) va Gruziya (1,0 % ga) mamlakatlari axolisi sonining qisqarishi bilan izohlanadi. Markaziy Osiyo va Kavkazorti (Gruziyadan tashqari) mamlakatlarida axoli soni ko'paydi, ayniqsa, Turkmanistonda (1,3 % ga) va O'zbekistonda (1,14 % ga) axoli yuqori sur'atlarda o'sdi.

O'zbekistonda axolining mutloq soni o'sib borayotganligiga qaramasdan, yillik o'sish sur'atlari pasaymoqda. Agar, 1990 yilda o'sish 2,3 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilda faqat 1,2 % ga teng bo'ldi, xolos. Axoli sonining o'zgarishi asosan, tug'ilishning pasayishi hisobiga bo'lmoqda. 1992-2010 yillar davomida tug'ilish koeffitsienti 33,0 dan 23,3 promillegacha pasaydi. Rossiyada esa tug'ilishning yalpi koeffitsienti keyingi o'n yilda 2,2 dan 1,3 gacha qisqardi.

O'tgan asrning 90 – yillarida tug'ilishning keskin pasayishi – o'tish davriga xos bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning oqibatidir, va vaziyat barqarorlashuvi bilan tug'ilish yana o'sadi, degan fikrlar keng tarqalgandir.

Xaqiqatda esa, ancha murakkab tizimli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlardagi kabi tabiatga egadir, xatto ularda bu, ancha qulay iqtisodiy o'sish sharoitlarida yuz bergan bo'lsada. Ko'pgina kuchli rivojlanayotgan Evropa davlatlari ham yaqin o'n yilliklarda tug'ilishning keskin pasayishini boshidan kechirdilar, lekin hech birida keyinchalik o'sishga aylanmadi. Hatto tug'ilish asta-sekin bo'lsada yana pasayishda davom etmoqda.

Bu, ikki guruh mamlakatlarining demografik rivojlanishidagi yagona o'xshash jixati bo'lsa kerak. Bu muammoni yanada chuqurroq ko'rib chiqiladigan bo'lsa, echilishi turli tadbirlarni talab qiladigan kuchli farqlarning mavjudligini ko'rsatadi.

2.2. Jahon aholisi yosh tarkibi muammosi. Jahon iqtisodiyotida urbanizatsiya jarayonlari

BMT hisob – kitoblariga ko'ra, 2050 yilga borib sayyoramizning xar beshinchi kishisi 60 yoshdan oshgan shaxs bo'ladi, 85 yoshdan oshganlar soni esa 6 barobarga ko'payadi. Aholisi eng ko'p tez qariyb borayotgan mamlakatlardan (YAponiya, Germaniya va Italiya) qariyalar miqdori 40 foizlik darajaga etadi yoki oshib ketadi.

Xozirgi zamon demografik jarayonlari ichida hisoblanishi eng oson bo'lgani, bashorat qilish ham eng oson bo'lgani, va o'zining oqibatlariga ko'ra eng xavfli bo'lgani – bu aholining qariyb borishidir. SHu bilan birgalikda, u eng kam o'rganilgandir. Demograflarning fikriga ko'ra, mamlakat aholisi qarigan yoki qariyb borayotgan deb hisoblash uchun butun aholi ichida qariyalar hissasi 7-8 %dan oshishi kerak. G'arbning ko'pchilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarida qariyalar qatoriga 65 – yoshdan oshganlarni, ayrim mamlakatlarda 60 dan oshganlarni kiritadilar.

Aholining qariyb borishi XVIII – asrning oxirlarida Franziyada boshlandi va asta-sekinlik bilan boshqa mamlakatlarga tarqab bordi. Lekin hech qachon hozirgidek qariyalar hissasining juda tez va keng miqyosda oshib borishi yuz bermagan edi. 1998 yilda qariyalar ulushi Germaniyada 15 %ni, Angliyada – 15,8 %ni, Franziyada – 14,5 %ni, AQSHda – 12,6 %ni, YAponiyada – 12,5 %ni tashkil etdi.

Aholining qariyb borish sabablari ikki xil bo'ladi. Bir tomondan, u tug'ilishning pasayishi oqibatida bo'lib, aholi tarkibia bolalar va yoshlarning hissasi kamayib boradi (agar 60 yillarda Evropa Ittifoqida tug'ilishning yig'indi koeffitsienti har bir ayolga 2,6 boladan to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1997 yilga kelib 1,4 gacha kamaydi). Boshqa tomondan, bu o'rtacha umr ko'rish darajasining oshib borish oqibatidadir. Masalan, Evropa ittifoqi mamlakatlarida 1996 yilda o'rtacha umr ko'rish yoshi ayollar uchun 80 yosh, erkaklar uchun 74 yoshni tashkil qildi. Eng ko'p umr ko'ruvchi SHveziyada, eng kam umr ko'ruvchilar Portugaliyadadir.

Aholi qariyb borishi qanday ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarga olib keladi?

Birinchidan, aholi tarkibida qariyalar hissasining oshib borishi aholining iqtisodiy faolligining pasayishiga olib keladi. Odamning yoshi qanchalik kattalashib borsa, uning mehnat unumdorligi shunchalik pasayadi deb hisoblanadi.

Ikkinchidan, aholining qariyb borishi bilan iqtisodiyotda yoshlarning hissasi kamayib borishiga olib keladi, bu ayrim tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, ish bilan band aholining kasbiy-malakaviy va tarmoq tarkibi o'zgarishi jarayonini sekinlashtiradi, binobarin iqtisodiyotnin samaradorligi ham pasayadi. Iqtisodiy samaradorlik o'sishining sekinlashishi aholi ko'chib yurishining kamayishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

2.2.1 Jadval.

Jahon mamlakatlari guruhlarida aholining yosh tarkibi

Inson rivojlanishi to'g'risida doklad. 2010. UNDP.

Uchinchidan, pensiya fondiga pensiya to'lash bo'yicha katta xarajatlar og'irligi tushadi, chunki pensionerlar soni o'sib borishi bilan birgalikda pensiya fondiga to'lov o'tkazuvchi mehnatga yaroqli aholi ulushi pasayib boradi.

To'rtinchidan, davlat ijtimoiy xizmatlari gardaniga ham katta og'irlik tushadi, chunki ular yordamga muxtoj qariyalarga ko'maklashishlari zarur bo'ladi. Qariyalarga kim qaraydi? Oila a'zolarimi yoki davlat muassasalarimi?

Beshinchidan, qariyalarga tibbiy xizmat ko'rsatish qo'shimcha mablag'larni talab qiladi, qariyalar muassasalari tarmog'ini kengaytirishni va butun sog'liqni saqlash tizimini tubdan qayta qurishni talab qiladi.

Oltinchidan, hali ishlashni xohlaydigan «yoshroq qariyalarni» ish bilan ta'minlash zarur bo'ladi. Bu oson emas, chunki ish o'rinlari hatto pensiya yoshiga chiqmaganlarga ham etmaydi. Masalan, Evropa Ittifoqining 15 mamlakatida ishsizlik darajasi 1997 yilda 10,7 % ni (1990 yilda –7,7 % edi) tashkil qildi. Eng yuqori ko'rsatkich Ispaniya va Finlyandiyada, eng past ko'rsatkich – Avstraliya va Lyuksemburgda qayd qilindi. Qariyalarning faol hayot kechirishini saqlab qolish, ularni jamoat ishlariga jalb qilish ham muhim hisoblanadi. Bu muammolarni echish yo'llaridan biri – «yoshroq qariyalarni» ancha qariyalarga qarab o'tirishga jalb qilish hisoblanadi.

Aholining qarib borishi natijasida qariyalarni demografik jihatdan qo'llab quvvatlash koeffitsienti keskin pasayib ketadi, ya'ni mehnat yoshidagi aholining (15 yoshdan 64 yoshgacha) 65 yoshdagi va undan katta aholiga nisbatan nisbati kamayib ketadi. Ko'pgina mamlakatlarda ushbu koeffitsient 2 barobarga, ya'ni 4-5 dan 2 gacha qisqaradi.

Dunyo bo'yicha har sekunda 21 ta bola tug'iladi va 18 kishi vafot etadi. Binobarin, bir kunda er yuzi axolisi 250 ming kishiga ko'payadi. Axoli soni o'sishining deyarli hammasi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi, va

uning sur'atlari shunchalik kattaki, bu xolatni sayyoramizni larzaga keltiradigan demografik portlash bo'ladi, deb qaray boshladilar. Chunki axolining to'xtovsiz o'sib borishi oziq-ovqat va energiya ishlab chiqarishning yanada o'sib borishini talab qiladi, va bu Er biosferasiga ortiqcha yuk bo'lib tushadi.

Axoli sonining to'xtovsiz o'sib borishi istiqbollari va kelajakda yanada ko'payishi, tashvishli bashoratlarni va hatto oxirzamon bashoratlarni keltirib chiqaradi. O'tgan asrning 60-70 yillarida ko'pchilik mutaxassislar shunday vaziyat yuzaga kelishini bashorat qildilar: axoli shunday tez ko'payib boradiki, natijada dunyoda resurslarning jiddiy etishmasligi, ayniqsa, oziq-ovqat va suv resurslarining mutloq etishmasligi kelib chiqadi, bu esa o'z navbatida xayot uchun zarur bo'lgan resurslarning bo'lmasligidan, insoniyatning katta miqdorda qisqarib ketishiga olib keladi. Bundan tashqari, bir vaqtning o'zida atrof-muhitga tiklab bo'lmas zarar etkaziladi.

Aholining shahar bilan qishloq o'rtasida taqsimlanishi. Urbanizatsiya jarayoni. Shahar aholisining salmog'i har bir mamlakat yoki uning ayrim rayonlarining rivojlanish darajasini shu hudud ho'jaligining industrial yoki agrar harakterga ekanligini nihoyat urbanizatsiya darajasini ko'rsatuvchi muxim ko'rsatkichidir.

Shahar aholisi soni va salmog'ining tez o'sa borishi asosan kapitalizmning rivojlanishi yirik mashina industriyasining taraqqiyetishi bilan bog'liq. XIX asrdan boshlab yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Shahar aholisining salmog'i dunyoning turli qismlarida turlicha. Shahar aholisining salmog'i eng yuqori bo'lgan kontinent Shimoliy Amerika hisoblanadi. 75 % Avstraliyada (Okeaniya bilan birgalikda) 71 % Evropada, 73 % Lotin Amerikasida, 74 % Osiyoda, 35 % Afrikada, 34 % aholi shaharlarda yashaydi. Odatda shahar aholisining salmog'i urbanizatsiyaning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuningdek hozirgi zamon urbanizatsiyasining muhim ko'rsatkichi umuman shahar aholisining soni va salmog'igina emas, balki qayta va yirik shaharlarning soni va salmog'i haqidagi ko'rsatkichdir.

2.2.2-Jadval

Dunyo mamlakatlarida axoli soni va urbanizatsiya darajasi

Dunyo A Urbanizatsiya darajasi

2 1 2

Rivoj 1 7 7

Rivoj

1

6

7

Rivoj	3	2	3
-------	---	---	---

Rivoj	1	2	3
-------	---	---	---

Inson rivojlanish to'g'risida doklad. 2010. UNDP.

Urbanizatsiya – shaharlashish demakdir. Shaharlashish jarayonini qo'yidagi xususiyatlarda ko'rishimiz mumkin.

- 1) Shahar aholisi sonining o'sib borishida.
- 2) Ishlab chiqarishning shaharlarda to'planishida.
- 3) Shaharlar maydonining kengayib borishida

Jamiyat rivojlanishi tarixda shaharlarning ma'muriy markaz, madaniy markaz hamda iqtisodiy aloqalar qilinadigan markazlar sifatida roli ortib bordi. 1808 yilda dunyo aholisining 2,4 % ining shaharlarda yashagan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkich 47 % ga ortib ketdi.

1900 yilda 1,4 %, 1950 yilda 29 %, 1990 yilda 45 % bo'ldi. Davlatning urbanizatsiyalashgan darajasi qo'yidagi ko'rsatkichlar asosida belgilanadi.

- 1) 50 % dan yuqori bo'sa, yuqori darajada urbanizatsiyalashgan.
- 2) 20 – 50 % o'rtacha urbanizatsiyalashgan.
- 3) 20dan kam bo'lsa, past urbanizatsiyalashgan.

Hozirgi kunda urbanizatsiyalashgan hudud jami dunyo hududini 1 foiz maydoninigina egallagan holda dunyo sanoat maqsulotining 80 % ini ishlab chiqarmoqda. Tabiatga chiqarilayotgan chiqindining 80 % i ham urbanizatsiyalashgan hududlar massasiga to'g'ri kelmoqda.

Ayrim mamlakatlarda urbanizatsiyaga xos katta va yirik shaharlar, shahar aglomeratsiyalar tez rivojlanmoqda. Ma'lumki odatda yirik shaharlar katta yoki kichik aglomeratsiyalarning markazi hisoblanadi. Bular mamlakatning eng yirik sanoat hududidir. Hozirgi zamon urbanizatsiyasi va ayniqsa yirik shaharlar aglomeratsiyaslari geografik muhitga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan shaharlar va aglomeratsiyalar geografik shu hayotga faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaydilar. Urbanizatsiya jarayonida geografik muhitga ko'rsatiladigan ta'sir uni yaxshilash, aholi hayoti uchun yanada qulayroq qilish maqsadida amalgam oshirish mumkin. Yerlar melioratsiyasi, suv mashqini va amallarda saqlanish maqsadidagi tadbirlar, dengiz, daryo, ko'l va suv omborlari qirg'oqlarining mustahkamlanishi, gidrografi tarmoqlarning rekonstruksiyasi, himoya zonalari barpo etish va

boshqalar shaharlar va shahar atrofi tabiatni yanada qulaylashtirish maqsadida amalgam oshiriladigan tadbirlar jumlasidandir.

SHaharlarning rivojlanish jarayonida tabiatga uzviy ta'sir etishishi oqibatida uning turli komponentlari o'rtasidagi muvozanat buzilishi, oqar suvlar va atmosfera xaddan tashqari ifloslanib ketishi, erylariya jarayoni kuchayishi, flora va fauna kambag'amlashib kamayib ketishi mumkin.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi jarayoni global harakterga ega bo'lib deyarli butun dunyoni qamrab olgan.

Urbanizatsiya o'ziga xos shahar hayot tarzini vujudga keltiradi. Buning esa kishilarning o'zaro aloqalari uchun qulay vaziyat yaratadi, aholining professional tarkibini, soqial harakatchanligi tamoman o'zgartiradi.

Urbanizatsiya jarayoni yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarida urbanizatsiyalashgan muhitni vujudga keltiradi. YUqori darajada urbanizatsiyalashgan muhit aholining hayoti, mehnat va dam olishi jarayonida vujudga keladigan deyarli barcha talablarni qondira oladi.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi fan–texnika inqilobi bilan chambarschas bog'liq holda rivojlanmoqda. Fan–texnika inqilobi sanoatning hududiy konqentratsiyasiga sanoatning ayrim qismlarida emas, balki katta areallarda joylashuviga aglomeratsion jarayonini kengaytirishga sababchi bo'lmoqda.

Urbanizatsiyaning yanada kuchayishiga ta'sir etayotgan muhim omillardan biri – hozirgi zamonning juda tez taraqqiy etayotgan ishlab chiqarish va soqial infrastrukturasidir.

2.3. Jahon iqtisodiyotida ishsizlik va uning tendentsiyalaridagi o'zgarishlar

Mehnat bozordagi vaziyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, ishlab chiqarishning texnologik bazasidagi o'zgarishlar va demografik holat kabi omillar asosida shakllanadi.

70-80 yillarda sanoati rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozorida ancha tang vaziyat yuzaga keldi. Aholi bandligining o'sishi 2,5% ga etdi. Bandlikning umumiy yo'nalishi jismoniy mehnat bilan shug'ullanadiganlarga talabning oshishi bilan ahamiyatli bo'ldi. Umumiy bandlikdagi bu guruhning xissassi 70-80 yillarda 10% dan oshdi. Ularni «oq yoqalilar» deb xam atashar edi. Aholi urtasida «oq yoqalilar» hissasing oshishga qayta ishlash sanoatida yangi texnologiyalarni qo'llashni ko'payishi ham sabab bo'ldi.

Lekin yangi texnologilar aholi bandligiga qisman ta'sir ko'rsatadi. Bandlik asosan xizmat ko'rsatish sohasi xisobiga ta'minlanadi. Aholi bandligi oshib borishining 80-100% mana shu soxa hissasiga to'g'ri keladi. Sanoatda band bo'lganlar hissassi 70-80 yillarda 36% dan 31% gacha kamaydi. Bu bir tomondan mehnat unumdorligi oshishining natijasi xamdir.

2.3.1 Jadval.

Jahonning ayrim mamlakatlarida aholi bandligi ko'rsatkichlari

№	Mamlakatlar nomi	Bandlarni axoli soniga nisbati (15-64yosh)		Rasmiy bandlik		ma'lumot darajasi bo'yicha ishsizlar	
				umumiy bandlik %	erkak va ayollar nisbati	boshlangich va past	o'rta va undan yuqori
		Inson salohiyati rivojlanishi eng yuqori mamlakatlar					
		1991	2008	2000-2008	2000-2008	2000-2008	2000-2008
1	Avstraliya	55,6	59,4	90,7	1,05	7,4	6,2
2	AKSH	59,4	59,2	92,8	1,03	-	-
3	Kanada	57,8	61,2	89,6	1,04	12,1	10,2
4	SHvetsiya	62	57,6	93,4	1,05	12,7	8,8
5	Germaniya	53,8	51,7	93,1	1,01	16,8	12,1
6	Yaponiya	63,1	54,2	88,7	0,98	4,4	-
7	Koreya Respublikasi	58,6	58,1	74,9	0,94	2,1	7,1
8	Fransiya	47,2	47,9	94,1	1,02	12,3	12,5
9	Italiya	42,6	43,6	81,4	1,07	7,3	10
10	Byuk britaniya	55,6	56,3	89,2	1,08	9,4	8

Inson rivojlanish to'g'risida doklad. 2010. UNDP.

Sanoatni rivojlangan mamlakatlarda band aholining mutlok soni oshib borishiga qaramasdan mehnatga yaroqli aholi orasida band bo'lganlarning hissssi qisqarib boradi. Bu esa ishsizlikning ko'payishga olib keladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti (HMT) ning qoidasiga ko'ra ishsizlar deb, biron bir ish turiga ega bo'lmagan, faol ravishda ish qidirayotgan va ishlashga tayyor bo'lgan shaxslarga aytiladi. Ishsizlarni hisobga olish uy xo'jaliklarini o'rganish, ishsizlarin ro'yxatga olish yoki ishsizlk nafaqasini to'lashni hisobga olish orqali olib boriladi. Ko'pgina mamlakatlarda ishsizlar sifatida davlat mehnat birjalarida ro'yxatdan o'tgan va ayni paytda ishi bo'lmaganlar tan olinadilar. Ishsizlar ro'yxati turli mamlakatlarda turilichadir. XMT statistikasida band aholi sifatida hafta mobaynida bir soat bo'lsa ham ishlagan odamlar kiritiladi.

2.3.2 Jadval

Industrial rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik

Ishsizlik normasi, %

2

3

4

Ishsizlik soni, mln. Kishi

]


Manba: World Economic Outlook^ Main Economic Indicators.

G'arbiy Evropa mamlakatlarida axolini ish bilan ta'minlash keyinga yillarda og'irlashdi va AQSHning darajasidan oshib ketdi. AQSH da ishsizlar soni 7 mln. kishiga (mehnatga yaroqli aholining 6%) etgan bo'lib, ularning asosiy qismini 16-20 yoshdagi yoshlar tashkil qiladi. Franziyada ishsizlikning yuqori darajasi 9,1% ni tashkil qilib, ishsizlarning mutloq soni 2,5 mln. kishidan oshiqdir ishsizlar soni hamma yoshlarda ham oshib borayotgani bilan birgalikda, 30 yoshgacha bo'lganlar orasida ayniqsa tez ko'paymoqda.

Angliyadagi iqtisodiy inqiroz mehnat bozorida ham o'z ta'sirini o'tkazadi. 1990 yilga kelib ishsizlar soni 1.9 mln. kishiga etadi, bu esa mehnatga yaroqli aholining 6.5% ini tashkil etadi.

SHu bilan birgalikda, 90 yillarda G'arb mamlakatlarida malakali ishchi kuchlarining taklifi ham pasaydi. Buning sababi demografik omillarda bo'lib, 70-yillarda tug'ilish darajasining pasayishi va aholining «qarib» borayotganligidir. SHu bilan birgalikda yuqori malakali mutaxassislarning taklifi pasayib ketmoqda. Masalan, AQSH da bo'sh ish joylarining uchidan biri shunday mutaxassislar etishmasligidan to'ldirilmasdan qolmoqda. SHuning uchun rivojlangan mamlakatlarning hukumatlari ishchi kuchlarini tanlash, ishga yonlash, tayyorlash va qayta tayyorlash, bandlikning vaqtli, o'zgaruvchan, qisman band bo'lish

turlaridan foydalanish, nafakaxo'rlar mehnatini rag'batlantirish va immigratsiya muammolarini qayta ko'rib chiqish masalalarini o'z ichiga olgan maxsus dasturlar ishlab chiqishni o'z ichiga olgan maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda. 80-yillarda qat'tiylashtirilgan immigratsiya qoidalarini erkinlashtirish tufayli AQSH da 1990 yilda immigratsiya kvotasini 540 mingdan 750 ming kishigacha ko'paytirishga qaror qilindi. AQSH 1991 yilda sobiq SSSR uchun immigratsiya darajasini 0,33 mln. kishi qilib belgiladi. Evropa Itifoqi mamlakatlarida xam shunday siyosat olib borilmoqdayu. Yaponiyada esa ahvol boshqacha: 1990 yilda ishsizlik darajasi bu erda rivojlangan mamlakatlar ichida (SHveytsariyadan tashqari) eng past ko'rsatkich – 2,1% ga teng edi. Bu mamlakatda 5 ta da'vogarga 4 ta ish joyi taklif qilinadi.



2.3.1-rasm

Germaniyada esa bu soxada vaziyat ancha murakkab bo'lib, GFR da iqtisodiy o'sish bo'lib turgan bir paytda SHarqiy Germaniyada iqtisodiy ahvol yomonlashdi. Natijada mamlakatning bu qismida ishsizlik oqibatlarini engillashtiruvchi ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilmoqda

Jahon moliyaviy inqirozi tufayli (2008-2011 yillar) rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozori unga xos b'lmagan holda zaif b'lib qolmoqa. Inqiroz boshidan buyon ishchi q'rinlari sonining qisqarishi sur'atlari ancha pasaydi, ammo bandlikning q'sishi salbiy b'lib qolmoqda, ishsizlik darajasi esa 2009 yilning oxiriga borib 10 foizga etdi, lekin 2010 yilning birinchi choragida u biroz pasaydi. Ishsizlik darajasining q'sishi, YAIM q'sishini hisobga olib kutilganidan ancha yuqori b'lmqda.

2.4. Xalqaro axoli va mehnat migratsiyasi

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining sabablari. Aholining yalpi ko'chib yurishi XX asrning II-yarmidan boshlab juda kuchayib ketdi. Aholi

migraçiyasi - bu, odamlarning o'zlari doimiy yashayotgan hududlari chegarasidan chiqib boshqa hududlarga ko'chib o'tishi yoki qaytib kelishi hisoblanadi.

Xalqaro migraçiya turli shakllarga ega bo'lib, uning asosiylari: ishchi kuchlari migraçiyasi, oilaviy, dam olish va sayyohlik migraçiyalaridir. Biz bularning ichidan xalqaro ishchi kuchi migraçiyasini, ya'ni, xalqaro mehnat bozorini ko'rib chiqamiz. Xalqaro ishchi kuchlari harakati mehnat resurslarining milliy chegaralarini kesib utuvchi turli yo'nalishdagi oqimni o'z ichiga oladi. Xalqaro mehnat bozori milliy va mintaqaviy ishchi kuchlar bozorini birlashtiradi. Xalqaro mehnat bozori ishchi kuchlari migraçiyasi shaklida namoyon bo'ladi.

1995 yil boshida dunyo bo'yicha 35 mln. ishchi migrantlar bo'lib, ularning soni 1960 yilda 3,2 mln. kishidan iborat edi. Agar har bir migrantning oilasida 3 kishi bor deb hisoblasak, 90-yillarning o'rtalarida 100 mln. migraçiyada katnashuvchi aholi bo'lganini aniqlash mumkin.

Xalqaro ishchi kuchlari bozori boshqa bozorlar bilan: masalan, tovarlar va xizmatlar, kapital bozorlari bilan birgalikda mavjud bo'ladi. Ishchi kuchi bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o'tib va o'zini tovar sifatida taklif qilib xalqaro ishchi kuchi migraçiyasini tashkil qiladi. Ishchi kuchi migraçiyasining yuzaga kelishiga iqtisodiy sabablar bilan iqtisodiy bo'lmagan sabablar ham turtki bo'ladi.

Iqtisodiy bo'lmagan sabablarga: siyosiy, milliy, diniy, irqiy, oilaviy va boshqa sabablar misol bo'ladi. Iqtisodiy sabablarning kelib chiqishi turli mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining xilma-xil bo'lishidan yuzaga keladi. Ishchi kuchlari turmush darajasi past bo'lgan mamlakatlardan turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga ko'chib yuradi. Migraçiyaning ob'ektiv sabablaridan biri esa turli mamlakatlarda ish haqining turlicha bo'lishidir.

Ishchi kuchi migraçiyasini yuzaga keltiruvchi iqtisodiy omillardan biri ishsizlikning, ayniqsa, uning qoloq mamlakatlarda yuqori bo'lishidan kelib chiqadi. Xalqaro ishchi migraçiyasining muhim omillaridan biri kapital chiqarilishi va xalqaro korporaçiyalarning faoliyat ko'rsatishi hisoblanadi. Transmilliy korporaçiyalar ishchi kuchi bilan kapitalning qo'shilishiga imkoniyat yaratadi, bunda ular, yoki ishchi kuchining kapitalga qarab harakatini yoki kapitalning ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan mintaqalarga qarab harakatini yuzaga keltiradi.

Mehnat migraçiyasining asosiy yo'nalishlari va markazlari.

Xalqaro ishchi kuchi migraçiyasining 5 ta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Rivojlanayotgan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga tomon migraçiya;

2) Sanoati rivojlangan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga migraçiya;

3) Rivojlanayotgan mamlakatlardagi o'zaro migraçiya;

4) Sobiq soçialistik mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga tomon migraçiya;

5) Ilmiy xodimlarning, malakali mutaxassislarning sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon migraçiyasi;

Sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun rivojlanayotgan mamlakatlardan kelgan xorij ishchi kuchlaridan foydalanish ko'pgina tarmoqlarni, infrastruktura xizmatlarini zarur xodimlar bilan ta'minlash imkonini beradi. Bunday xodimlarning bo'lishi ishlab chiqarish jarayonini normal olib borishga, ba'zan esa kundalik xayotning normal kechishiga sharoit yaratadi. Masalan, Fransiya emigrantlar qurilishda band bo'lganlarning 25 foizini, avtomobilsozlikda band bo'lganlarning 3\1 tashkil etadi. Belgiya ular shaxtyorlarning yarmini, SHveytariya kuruvchilarning 40 % ini tashkil etadi.

2.5.1 Jadval

Jahon mamlakatlarida mehnat migrantlarining soni, mln.kishi

Hududlar	1990 yil	2000 yil	2000 yil 1990 yilga nisbatan, %
Butun dunyo, jami	154,0	174,8	113,5
Rivojlangan mamlakatlar	81,4	105,1	127,9
Rivojlanayotgan mamlakatlar	72,5	70,7	-102,6
Afrika	16,2	16,2	100,0
Osiyo	48,3	49,8	100,4
Evropa	48,4	56,1	115,8
Lotin Amerikasi	7,0	5,9	-115,0
SHimoliy Amerika	25,6	40,8	148,0
Avstraliya va Okeaniya	4,8	5,8	122,8

Manba: International Migration Report 2002. Geneva, 2002. P. 3.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar doirasida yuz beradigan o'zaro ishchi kuchi migratsiyasi iqtisodiy sabablardan ko'ra, noiqtisodiy sabablar bilan ham ajralib turadi, ya'ni "akllilarning ko'chib ketishi" muammosi ham mavjuddir. Masalan, Evropadan AQSH ga tomon ularning ko'chib borishi.

Ba'zi bir mutaxassislarning fikricha, Evropa Ittifoqi mamlakatlarning ichida ko'chib yurish erkinligining berilishi, yuqori malakali kadrlarning, injenerlarning eng rivojlangan mamlakatlarda to'planib qolishiga olib keladi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari ichida ishchi kuchlarining ko'chib yurishi uning arzonbahoga ega bo'lishidan kelib chiqadi. Masalan, Portugaliya korxonalari o'zlarining ishchilarini Fransiya va GFR ga qurilish ishlariga bu mamlakatlardagi mehnatga haq to'lashning belgilangan milliy standartlaridan past narxlarda yuboradilar.

Ishchi kuchlarini jalb qilishning dunyoda ikkita an'anaviy markazi mavjuddir. Bular AQSH va G'arbiy Evropadir.

AQSHga keladigan bo'lsak, bu mamlakatning mehnat resurslari tarixan ko'chib kelganlar hisobiga vujudga kelgan. AQSH 50-yillarda yuqori malakali kadrlarni o'ziga jalb qilish siyosatini olib bora boshladi va bu siyosat hozirgi kungacha davom qilib kelmoqda. Past va o'rtacha malakali kadrlarni jalb qilish

(asosan, qo'shni Meksika mamlakatidan) ayniqsa keng tarqalgan bo'lib hozirgi kunda ular AQSH immigrantlarining ko'pchiligini tashkil etadi.

Ishchi kuchlarini jalb qilishning yana bir an'anaviy markazi bo'lib - G'arbiy Evropa hisoblanadi va bu erda (Evropa Ittifoqida) hozirgi kunda 13 mln. migrantlar va ularning oilalari yashaydi.

Asrimizning 60-70 yillarida kapitalizm rivojining yangi markazlari vujudga kelib, ishchi kuchlarini jalb qilishning ham yangi markazlari shakllanishiga olib keldi.

Bunday markazlar bo'lib - YAqin SHarqning neft qazib oluvchi mamlakatlari: Birlashgan Arab Amirliklari, Katar, Quvayt va boshqalar vujudga keldi. Masalan, 90-yillarning o'rtalarida birgina Saudiya Arabistonining o'zida dunyoning turli chekkalaridan kelgan 4 mln. ga yaqin ishchi - migrantlar bo'lib, ular dunyoning eng neftga boy mamlakati ishlab chiqarishida, iqtisodiy va ijtimoiy xayotining turli jabhalarida mehnat qiladilar.

Bu regionga Janubiy va Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlaridan va ba'zi bir arab mamlakatlaridan juda ko'plab migrantlar oqimi oqib kelmoqda. Misr - bu regionga asosiy ishchi kuchi eksport qiladigan mamlakat hisoblanadi.

Ko'pgina arab mamlakatlari bir vaqtning o'zida ishchi kuchlarini ham eksport qiluvchi, ham import qiluvchi hisoblanadilar. Bunday mamlakatlar qatoriga YAman, Iroq, Liviya kabilarni kiritish mumkin.

Ishchi kuchlarini jalb qilishning muhim markazi bo'lib Avstraliya sanaladi. Bu mamlakatda 200 mingdan oshiq xorijlik ishchilar mehnat qilishadi. AQSHdagidek Avstraliyada ham immigrantlar mahalliy aholiga qo'shilib butunlay qolib ketadilar.

Osiyo - Tinch okeani mamlakatlari va Janubiy-SHarqiy Osiyo "yangi industrial davlatlari" ishchi kuchlarini jalb qilishning yangi markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Masalan, Tayvan matbuoti ma'lumotlari bo'yicha 90-yillarning o'rtalarida bu orol mamlakatiga 100 ming ishchi va 20 ming injener texnik xodimlar zarur bo'lgan.

YAna bir xalqaro ishchi kuchlarini jalb qilish markazi 60--yillarda Lotin Amerikasida shakllana boshladi. Bu erda chetdan ishchi kuchi jalb qiluvchi mamlakatlar bo'lib asosan Argentina va Venesuela hisoblanadi. Mintaqada mavsumiy qishloq xo'jaligi migratsiyasi - eng keng tarqalgan shakl hisoblanadi. Bu mamlakatlarga ishchi kuchlari Lotin Amerikasining boshqa mamlakatlaridan, hamda Osiyo va ba'zi bir Afrika mamlakatlaridan ko'chib kelganlar.

XX-asrning 90-yillarida sobiq SSSR davlatining parchalanib ketishi natijasida mustaqillikka erishgan mamlakatlarning bozor munosabatlari asosida rivojlanishi bu mintaqada ham o'ziga xos ishchi kuchi migratsiyasi oqimlarini keltirib chiqardi. Natijada, yangi paydo bo'lgan integratsiya - Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari ichida Rossiyaga tomon boshqa shu integratsiyaga a'zo mamlakatlardan ishchi kuchi oqimi paydo bo'ldi. Keyingi yillarda bular qatoriga Xitoy ishchilari ham qo'shildi.

Xalqaro mehnat migratsiyasining shakllari

Keyingi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishchi kuchi migratsiyasi miqdori o'sib bormoqda. Bu migratsiya asosan, bir tomondan yangi

industrial mamlakatlar o'rtasida bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida yuz beradi. Masalan, 60-80 yillarda Xitoydan, Vetnamdan va Janubiy-SHarqiy Osiyoning boshqa mamlakatlaridan Gonkongga ishchi kuchlarining ko'chib kelishi kuchaydi. Singapur ham ko'plab ishchi kuchlarini o'ziga jalb qila boshladi. Quvayt va Saudiya Arabistonida, masalan, YAmandan kelgan 1 mln.kishi ishlardi.

Bu ko'chib yurishlar zamirida asosan iqtisodiy sabablar yotadi: ishchi kuchi ko'chib boradigan mamlakatlarda xayot darajasi ham, ish haqi ham yuqori edi. Bundan tashqari Osiyoning "YAngi industrial mamlakatlar"ida ham, Fors qo'ltig'i mamlakatlarida ham doimo past malakali ishchi kuchlari etishmas edi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon ham ishchi kuchi migratsiyasi mavjuddir. Bu asosan - Evropa va SHimoliy Amerika mamlakatlaridan malakali kadrlarning rivojlanayotgan mamlakatlar tomon unchalik katta bo'lmagan oqimidir. Bu migratsiyaning sabablari - ham iqtisodiy (masalan, OPEK ga a'zo mamlakatlarda o'quv yurtlarining o'qituvchilari, injenerlar, instruktorlar va boshqalarning maoshi ancha yuqoridir), ham shaxsiy mazmunga (dunyoni ko'rish, o'zini sinab ko'rish va shu kabilar) ega.

Ishchi kuchlarini eksport qiladigan va import qiladigan mamlakatlarga bu migratsiya qanday ta'sir ko'rsatadi?

Ishchi kuchlarini jalb qiladigan mamlakatlar quyidagi afzalliklarga ega bo'ladilar:

- ◆ xorijiy ishchi kuchlarining bahosi arzon bo'lgani uchun ishlab chiqarish harajatlari kamayadi va mamlakatda ulardan foydalanib ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshadi;

- ◆ xorijiy ishchilar tomonidan mahsulot va xizmatlarga talabning oshishi mamlakatda ishlab chiqarishni kuchaytiradi, binobarin, bandlik darajasi o'sadi;

- ◆ xorijdan ishchi kuchlarini qabul qilgan mamlakat ta'lim va kasbiy tayyorgarlik uchun qilinadigan harajatlarni tejab qoladi;

- ◆ xorijiy ishchilar iqtisodiy tanazzul va ishsizlik davrida ma'lum darajada amortizator sifatida qaraladi, ya'ni ular birinchi navbatda ishdan bo'shatiladilar;

- ◆ xorijiy ishchilarga pensiya tayinlanmaydi va ular turli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda hisobga olinmaydilar.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) ta'kidlashicha, aholisi qarib borayotgan rivojlangan mamlakatlarda immigrantlar demografik vaziyatni birmuncha yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadilar. Franziya, Germaniya va SHveziyada tug'ilgan chaqaloklarning 10 % i ko'chib kelgan oilalarga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich SHveytariyada - 24 % ga, Lyuksemburgda esa - 38 % ga tengdir. SHu bilan birgalikda mamlakat aholisi qarib borishining umumiy sur'atlarini pasaytirsam ham, tub aholining tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Xorijdan ishchi kuchlarini jalb qilishning ba'zi bir salbiy oqibatlari ham mavjuddir. Bunga jamiyatda vujudga keladigan ijtimoiy tanglik ko'rinishlari (mahalliy ishchilar da'vogarlik qiladigan ish o'rinlarining band qilinishi

oqibatida), millatlararo kelishmovchilik va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Ishchi kuchlarini chetga eksport qiladigan mamlakatlar uchun ham o'z navbatida bir qancha afzalliklar mavjuddir:

1. Ishchi kuchlarini eksport qilish - mamlakatga erkin konvertirlanadigan valyuta mablag'larini olib kelishning muhim manbalaridan biri deb qaraladi.

Xalqaro valyuta fondining ma'lumotlariga qaraganda, tovar eksportidan keladigan o'rtacha foyda normasi 20 % ni, xizmatlar eksportidan - 50 % ni tashkil qilsa, ishchi kuchlarini eksport qilishdan keladigan foyda ulardan ham yuqoridir. Masalan, sobiq YUgoslaviyada 80-yillarda tovarlar va xizmatlar eksportidan yiliga 10 mlrd. dollar kirim bo'lgan bo'lsa, buning sof foydasi 2,5 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Ishchi kuchlarini eksport qilishdan esa pochta orqali 3,5 mlrd. dollar mamlakatga kirib kelgan, bu ishchilar qaytib kelganlarida o'zlari bilan yana shuncha mablag' olib kelganlar. Ishchi kuchlarini eksport qilish YUgoslaviya uchun asosiy valyuta manbai hisoblangan.

Ishchi kuchlarini eksport qilish Pokiston iqtisodiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. CHet mamlakatlarda ishlayotgan pokistonliklarning o'z vatanlariga jo'natayotgan valyutalari tovar eksportidan tushadigan valyuta miqdoridan 5 barobar ko'pdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda 90-yillarda ishchi kuchi eksportidan tushadigan tushum juda yuqori sur'atlar bilan, ya'ni yiliga 10 % ga o'sib bormoqda. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar har yili bu manbadan katta mablag'lar ishlab, ishchi kuchini eksport qilishga ixtisoslashib bormoqdalar va bu, ular uchun valyuta ishlaydigan asosiy manba bo'lib bormoqda. Masalan, Misr Arab Respublikasi Suvaysh kanalidan foydalanib 80-yillarning oxirida yiliga 970 mln. dollar, turizmdan - 600 mln. dollar daromad topgan bo'lsa, chet elda ishlayotgan misrliklar jo'natgan mablag'lar 3 mlrd. dollardan oshgan.

YAmamda emigrantlar jo'natgan valyuta mablag'i ba'zi yillarda mamlakat tovar eksportidan tushgan mablag'dan 30 % yuqori bo'lgan. 90-yillarning boshida dunyoning 40 dan oshiq mamlakati ishchi kuchi eksportidan yiliga har biri 100 mln.dollardan oshiq, 10 ta mamlakat esa 1 mlrd.dollardan oshiq daromad qilganlar.

2. Ishchi kuchini eksport qilish mamlakatdagi ortiqcha mehnat resurslari muammosini hal qilib, ijtimoiy tanglikning oldini oladi.

3. Xorijda ishlab kelgan ishchilar yangi kasbiy malakalarni egallab, mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullarini o'rganib qaytadilar va h.k.

SHu bilan birgalikda ishchi kuchi eksport qiluvchi mamlakatlar bir qancha salbiy holatlarga ham duch keladilar. Bulardan asosiysi - milliy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan malakali, tashabbuskor kadrlarning ketib qolishidir.

2.5. Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyatini, mazmunini yoritib beradigan asosiy tushunchalardan biri xalqaro mehnat taqsimotidir. Ilmiy texnika taraqqiyoti kuchli ta'sir ko'rsatadigan ishlab chiqarish kuchlarining rivoji bilan

belgilanuvchi xalqaro mehnat taqsimotida dunyo barcha mamlakatlari u yoki bu darajada qatnashadilar.

Xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish mamlakatlar uchun o'z iste'molini kam harajatlar bilan qondirish imkonini beradigan qo'shimcha iqtisodiy samaradorlik keltirib chiqaradi.

Mehnat taqsimoti nima? Mehnat taqsimoti - bu ijtimoiy mehnatning tarixan yuzaga kelgan tizimidir. U jamiyat rivoji jarayonida kasb-korlarning turlanishi oqibatida paydo bo'ladi.

Mehnat taqsimoti turli shakllarda mavjud bo'ladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanida mehnat taqsimotining xalqaro shakli o'rganiladi.

XMT bir necha turlarga bo'linadi - tarmoq ichidagi, tarmoqlararo va turli mamlakatlar xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti shakllaridan iboratdir.

Ishlab chiqarish jarayoni mehnat faoliyati turlarining o'ziga xos bo'lishi va ixtisoslashuvini, kooperatsiyasini va birlashishini talab qiladi. Mehnat taqsimoti faqatgina mehnat turlarini ajratuvchi emas, balki mehnatni birlashtiruvchi vosita sifatida, ayniqsa, jahon miqyosida namoyon bo'ladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy-hududiy mehnat taqsimotining bir bosqichi hisoblanadi. U ayrim mamlakatlar ishlab chiqarishining ixtisoslashuviga tayanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti dunyo xo'jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

U, birinchidan, bu jarayonlarning bir-biriga bog'liqligini ta'min-laydi, ikkinchidan, xalqaro tarmoqlar va mintaqalar tarmoqlar muvofiqligini shakllantiradi.

Xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasi klassik siyosiy iqtisodchilar A.Smit va D.Rikardlar asarlarida birinchi marta targ'ib qilindi va rivojlantirildi. A.Smit o'zining "Aholi boyligining kelib chiqishi va sabablari to'g'risida tadqiqot" asarida XMT ni tahlil qilib erkin savdo-sotiqni xilma-xil cheklashlar turli mamlakatlar va mintaqalar o'rtasida mehnat taqsimotining keng tarqalishiga to'siq bo'lishini ko'rsatib erkin savdo va tadbirkorlik zarurligini yoqlab chiqdi.

Bu to'siqlarning yo'qotilishi va xalqaro ayirboshlov doirasining kengayishi milliy xo'jaliklarning ixtisoslashuviga hamda o'zaro bog'liqligi kuchayishiga, binobarin umumjahon xo'jaligining paydo bo'lishiga olib keladi.

A.Smit g'oyalari biroz o'tgandan keyin ingliz iqtisodchilari D.Rikardo, R.Torrens va Jon Styuart Mill asarlarida davom ettirildi.

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning asosiylari mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligiga erishish, ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirishga intilish zarurligi hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishida eng asosiy narsa - bu, unda qatnashayotgan har bir ishtirokchining o'zi uchun iqtisodiy manfaat topishi imkoniyati mavjudligidir.

Xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklaridan xalqaro savdoda foydalanish har qanday mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarini beradi:

birinchidan, eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning ichki bozor va jahon bozori narxлари o'rtasidagi farqni o'zlashtirish imkoniyati;

ikkinchidan, arzon import tovarlaridan foydalanib ularni milliy xo'jalikda ishlab chiqarish uchun ketadigan harajatlarni tejab qolish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanish yo'nalishi shuni ko'rsatadiki, bu jarayon kelajakda yana ham chuqurlashib boradi. Natijada, tovar va xizmatlarning xalqaro savdo-sotiq sur'atlari yanada oshadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish xorijiy iste'molchilar uchun yo'naltirilib, ichki iste'molni esa import hisobidan qondirishga yo'naltiriladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ichki bozorning ekstensiv kengayishi yuz beradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin jahon xo'jaligiga va uning asosiy negizlaridan bo'lgan xalqaro mehnat taqsimotiga faol kirib bora boshladi. Respublika xalqaro mehnat taqsimotida o'zining bir qator rangli metallurgiya, mashinasozlik, ximiya, engil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari, qazilma sanoati va qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan muayyan darajada qatnashadi.

Savol va topshiriklar:

Asosiy tushunchalar va atamalar

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT); «Nisbiy ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi»; XMTning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar; XMTning afzalliklari; XMTning asosiy shakllari; Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi; Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining yo'nalishlari; Xududiy ixtisoslashuvning yo'nalishlari; Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvining turlari; Ishlab chiqarish texnologik hamkorligi; Kooperatsiya aloqalarni tashkil qilish usullari; Qo'shma korxonalar tuzish; SHartnoma bo'yicha ixtisoslashuv.

Aholi migratsiyasi; Xalqaro migratsiya shakllari; Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi; Ishchi kuchi migratsiyasining sabablari; Ish kuchi migratsiyasiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy omillar; Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining yo'nalishlari; Sanoati rivojlangan mamlakatlarda (SRM) migrantlardan foydalanish; Sanoati rivojlangan mamlakatlarda o'zaro migratsiya; Rivojlanayotgan mamlakatlarda o'zaro migratsiya; Sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar tomon migratsiya; Ishchi kuchlarini jalb qiluvchi mamlakatlar uchun afzalliklar; Ishchi kuchlarini jalb qilishning salbiy oqibatlari; Ishchi kuchlarini eksport qiluvchi mamlakatlar uchun afzalliklar; Ishchi kuchlarini eksport qilishning salbiy oqibatlari; Ishchi kuchlarini jalb qilishning an'anaviy markazlari; Ishchi kuchlarini jalb qilishning yangi markazlari;

3 – Mavzu: Xalqaro savdo. Tashqi savdo siyosati

- 3.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo.
- 3.2. Jahon savdosi dinamikasi, uslubiy o'lchovlari.
- 3.3. Jahon savdosining tovarlar va geografik tarkibi.
- 3.4. Tashqi savdoni erkinlashtirish (liberallashtirish) va jahon savdosida protektsionizm siyosati.

3.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy va eng rivojlangan shakllaridan biri - bu tashqi savdodir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning 80 % i savdo munosabatlariga to'g'ri keladi.

Xar qanday mamlakat uchun tashqi savdoning ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Hech bir mamlakat dunyo iqtisodiy tizimiga bog'lanmasdan o'zida sog'lom iqtisodiyot yuzaga keltirishi mumkin emas. Xalqaro savdo xalqaro mehnat taqsimoti asosida yuzaga keladigan turli mamlakatlar tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi aloqalarning bir shakli bo'lib, ularning o'zaro iqtisodiy bog'liqligini ifodalaydi.

Mamlakatlar iqtisodiyotida ilmiy-texnika taraqqiyoti ta'sirida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, sanoat ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi milliy xo'jaliklarning bir-biriga bog'liqligini kuchaytirdi. Bu esa xalqaro savdoning kengayishiga olib keladi. Xalqaro savdo ishlab chiqarishga qaraganda tez o'sib bormoqda.

Tashqi savdoni o'rganish tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, dunyo ishlab chiqarishi o'sishining har 10 % iga dunyo savdosining 16 % o'sishi to'g'ri keladi. Agar savdoda qandaydir uzilishlar yuz bersa, ishlab chiqarish ham pasayadi.

Tashqi savdo deganda, ayrim bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotig'i tushunilib, u haq to'lanadigan tovar olib kirish (import) va haq to'lanadigan tovar olib chiqish (eksport) dan iborat bo'ladi.

Tashqi savdo turli-tuman ko'rinishga ega bo'lib, tayyor mahsulotlar bilan savdo qilish, xom-ashyolar bilan va xizmatlar bilan savdo qilish turlariga ajratiladi.

Xalqaro savdo deb, dunyoning barcha mamlakatlari o'rtasida haq to'lanadigan tovar almashuv yig'indisiga aytiladi. Ammo, xalqaro savdo tushunchasi torroq ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida tovar almashuv, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida tovar almashuv, biron-bir qit'a yoki mintaqa mamlakatlari o'rtasida tovar almashuv kabi.

Xar bir mamlakat o'zining milliy tashqi savdo siyosatini ishlab chiqishi kerak. Mamlakatlar qanday tashqi savdo siyosatini yurgizishi kerakligi to'g'risida ikki asr davomida bahs yuritiladi.

3.2. Jahon savdosi dinamikasi, uslubiy o'lchovlari

Xalqaro savdoning muntazam, uzluksiz sur'atda o'sib borishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) **Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi;**

2) Asosiy kapitalning yangilanishiga, iqtisodiyotning yangi tarmoq-larini yuzaga kelishiga imkon beruvchi, eskilarni qayta qurishni tezlashtiruvchi **ilmiy-texnika taraqqiyoti;**

3) **Transmilliy korporatsiyalarning** dunyo bozoridagi faolligi;

4) Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) ning tadbirlari vositasida **xalqaro savdoni boshqarish** (erkinlashtirish);

5) **Xalqaro savdoning erkinlashtirilishi**, ko'pchilik mamlakatlarning importni miqdoriy cheklashni bekor qilishi va bojxona bojlarini sezilarli kamaytirishi kabi tartib-qoidalarga o'tishi - erkin iqtisodiy zonalarining tashkil qilinishi;

6) Savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonining rivojlanishi, mintaqaviy to'siqlarni yo'qotish, umumiy bozorlarni, **erkin savdo zonalarini yaratish;**

7) Sobiq mustamlaka mamlakatlarining siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishi. Ularning ichidan tashqi bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyot modeliga ega bo'lgan **"yangi industrial mamlakatlar"**ning ajralib chiqishi.

XX asrning ikkinchi yarmida tashqi savdoning rivojlanishida notekislik alomatlari namoyon bo'ldi. Bu dunyo bozorida mamlakatlarning tutgan o'rnini o'zgarishiga sabab bo'ldi. Dunyo bozoridagi AQSH ning hukmronligiga ham putur etdi. YA'ni, 1950 - yilda dunyo eksportining 1/3 qismi shu mamlakatga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1990- yilda uning hissi 1/8 ni tashkil etdi, xolos. O'z navbatida Germaniyaning eksporti AQSH nikiga tenglashib, ba'zan oshib ketgan yillari ham bo'ldi. Germaniyadan tashqari boshqa G'arbiy Evropa davlatlarining eksporti ham sezilarli darajada o'sdi. G'arbiy Evropa 90-yillarga kelib xalqaro savdoning asosiy markaziga aylandi. Bu mintaqaning eksporti AQSHnikidan 4 barobar ko'pdir.

Xalqaro savdo sohasida YAponiya ham 80-yillarga kelib sezilarli o'sishga ega bo'ldi. U birinchi marta 1983 yilda mashina va jihozlarni eksport qilish bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. YAponiya engil va yuk avtomobillari, ro'zg'or elektronikasi eksporti bo'yicha boshqa mamlakatlardan ancha o'zib ketgan. YAponiya eksportining 1/3 AQSHga chiqariladi. AQSHning YAponiya bilan o'zaro savdosida 90-yillarda amerikaliklar uchun 50-60 mlrd. kamomad, ya'ni salbiy saldoga ega bo'ldi.

AQSHning xalqaro savdodagi hukmronlik o'rnini pasayishi ma'lum darajada amerika mahsulotlarining raqobatbardoshligi pasayganligi bilan izohlanadi.

YAponiya 80-yillarning oxiriga kelib mahsulotlarining raqobatbardoshligi bo'yicha ilg'orlikni egallab oldi. SHu davrga kelib, unga bu sohada Osiyoning "yangi industrial davlatlari" - Singapur, Gonkong, Tayvan yaqinlashdilar. Ammo, 90-yillarning o'rtalariga kelib AQSH, mahsulotlarining raqobatbardoshligi bo'yicha yana ilg'orlikka erisha boshladi. Undan keyingi o'rinlarda Singapur, Gonkong va keyingi olti yil davomida muntazam ravishda ilg'orlikni qo'ldan boy bermasdan kelgan YAponiya egallab turibdi.

Mahsulotlarining raqobatbardoshligi bo'yicha Fransiya - 17 nchi o'rinda, Xitoy - 34 nchi, Turkiya - 40 nchi o'rinda bormoqda. Ruyxatning oxirida Gretsiya, Meksika, Polsha, Vengriya va Venesuela turgan bo'lsa, eng oxirgi 48- o'rinni - Rossiya egallab turibdi.

Bunday dunyo klassifikatsiyasi 378 ta turli xil mezonlar asosida tuziladi. Birinchi navbatda, bunda, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, inflyatsiya darajasi va tashqi savdo balansi hisobga olinadi. Tabiiy qazilma boyliklar, infrastruktura, kommunikatsiya (aloqa, yo'llar, transport) vositalari va boshqa omillarning mavjudligini ham hisobga olinadi. Ob'ektiv omillardan tashqari klassifikatsiyada dunyodagi yirik korxonalarning 21 ming rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari ham e'tiborga olinadi.

Mutaxassislarining bashoratiga ko'ra, XXI asrning dastlabki yillarida AQSH va Osiyo davlatlari raqobatda eng kuchli mamlakatlar bo'lib qoladilar. 2030-yilga kelib esa raqobatda eng kuchli mamlakatlar sifatida - AQSH, Yaponiya va Xitoy bo'lishi taxmin qilinmoqda. Bu bashorat bo'yicha keyingi o'rinlarni Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Hindiston, Tayvan, Malayziya va SHveytsariya egallashi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar hozirgi dunyo bozoriga asosan xom-ashyo, oziq-ovqat va tayyor mahsulotlarning nisbatan oddiy turlarini etkazib beruvchilar hisoblanadilar. 90-yillarning boshiga kelib dunyo bozorida xom-ashyo va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning nisbatan pasayishi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eksportni kengaytirish imkoniyatlarini pasaytirib yubordi. Bunga yana sanoati rivojlangan mamlakatlarning oziq-ovqat va xom-ashyo bo'yicha (neftdan tashqari) dunyo eksportidagi hissasining oshishi ham ta'sir ko'rsatdi. Bu mahsulotlarni eksport qilishda rivojlanayotgan mamlakatlarning hissasi (neftni hisobga olmaganda) 40 % dan (1960 y.) 28 % gacha (90-yillarning boshi) qisqardi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning o'z eksporti tarkibini sanoat mahsulotlari hisobiga o'zgartirishga harakat qilishi, sanoati rivojlangan mamlakatlar tomonidan u yoki bu shaklda qarshilikka uchramoqda. SHunga qaramasdan, ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar, birinchi, navbatda, "yangi industrial mamlakatlar" o'z eksportlari tarkibini o'zgartirishga, unda tayyor mahsulotlar, sanoat mahsulotlari, shu jumladan, mashinalar va jihozlar hissasini oshirishga erishdilar. Natijada, sanoat mahsulotlarining dunyo eksportida rivojlanayotgan mamlakatlar hissasi 90-yillar boshida 16,3% ga etdi. Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlar eksporti, mamlakatlar bo'yicha ham, tarmoqlar bo'yicha ham, notekis o'smoqda ("yangi industrial davlatlar"ni hisobga olmaganda).

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ravishda, Osiyoning "yangi industrial davlatlari", ayniqsa, to'rtta "kichik ajdarholar" - Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur o'z eksportlarining shiddatli o'sishiga erishmoqdalar. Ularning 90-yillarda dunyo eksportidagi hissasi 10,5% ni tashkil qildi. Keyingi o'n yilliklarda Xitoy ham katta iqtisodiy o'sishga ega bo'lmoqda (2,9 %). Dunyo eksportida AQSH - 12.3 % ni, G'arbiy Evropa - 43 % ni, Yaponiya - 9,5 % ni egallaydi.

Xalqaro savdoning geografik yo'nalishidagi asosiy siljishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, shu narsa yaqqol ko'rinadiki, sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib va rivojlanib borishi, ular o'rtasida o'zaro savdo-sotiqning oshib borishiga va rivojlanayotgan mamlakatlar hissasini pasayishiga olib keldi. Asosiy tovar oqimlari "katta uchlik" doirasida: - AQSH - G'arbiy Evropa - YAponiya o'rtasida harakat qilmoqda. AQSH bilan Evropa Ittifoqi o'rtasidagi yillik tovar almashuv 1,7 mlrd. dollarni tashkil qiladi.

3.2.1-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlari tashqi savdo saldosi (mlrd.AQSH doll.)

Mamlakatlar	1996
yil	
Rivojlangan mamlakatlar, jami	46,2
AQSH	-
120,2	
YAponiya	65,4
Evropa Ittifoqi	88,5
Boshqalar	12,5
Rivojlanayotgan mamlakatlar, jami	87,5
Xitoy	7,2
YAqin SHarq va Afrika	5,9
Boshqalar	-
100,6	

Sanoati rivojlangan mamlakatlar eksportida murakkab texnika asosiy o'rinni egallaganligi uchun, rivojlanayotgan mamlakatlar bozori ularni kam qiziqtiradi. Murakkab texnika, birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga mos kelmaydi, ikkinchidan, ular juda qimmat turadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zaro savdosi ham oshib bormoqda. Ayniqsa, "yangi industrial mamlakatlar" eksporti juda sezilarli darajada o'smoqda.

3.3. Jahon savdosining tovarlar va geografik tarkibi

Jahon savdosining eng shiddat bilan rivojlanayotgan bo'g'ini bo'lib, qayta ishlash sanoati mahsulotlari, ayniqsa ilmtalab mahsulotlar bilan savdo qilish hisoblanadi. Masalan, ilmtalab mahsulotlarni eksport qilishning yillik hajmi 500 mlrd.dollardan oshsa, sanoati rivojlangan mamlakatlar eksportida yuqori texnologiya asosida ishlangan mahsulotlar hissasi 40 % ni tashkil qiladi.

Mashina va jihozlar bilan savdo qilishning ahamiyati oshib bormoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida bunday mahsulotlar bilan savdo qilishning kengayib borayotganligi e'tiborli holdir. Bunday savdoning o'sib borishi o'z navbatida ilmiy texnik, ishlab chiqarish, tijorat, moliya-kredit sohasidagi xizmatlarning ham ko'payishiga olib kelmoqda. Mashina va jihozlar bilan savdo qilishning kengayishi injiniring, lizing, konsalting, informaiya hisoblash kabi xizmatlarning paydo bo'lishini keltirib chiqardi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardan 1980 yildan 1992 yilgacha bo'lgan davrda mashina va jihozlarni eksport qilish uch barobar ko'paydi. Ayniqsa, elektrotexnika va elektronika mahsulotlari bilan savdo qilish juda tez sur'atlar bilan o'sib, uning butun mashina texnika mahsulotlari eksportidagi hisssasi 25 % dan oshdi.

Xalqaro savdoning tez rivojlanib borayotgan sohalaridan biri - ximiya mahsulotlari bilan savdo qilish hisoblanadi. Xom-ashyo va energiya resurslarini iste'mol qilish ham o'sib borayotganligini qayd qilib o'tish lozim. Ammo, xom-ashyo bilan savdo qilishning o'sib borish sur'atlari jahon savdosining umumiy o'sishi sur'atlaridan pastdir. Bunga sabab, xom-ashyo o'rnini bosadigan moddalarning ishlab chiqilganligi, xom-ashyoni tanlab olish va uni qayta ishlashni yanada chuqurlashtirish imkoniyatlari hisoblanadi.

Jadval 3.2.1.

Dunyoning yirik eksportchi mamlakatlari

Mamlakatlar	Eksport (mlrd.\$),19 99 y.	Eksport (mlrd.\$) 2001 y.	Jahon savdosi-dagi hissasi (%) 1999 y.	Jahon savdosidagi hissasi (%) 2001 y.
AQSH	95	993,8	12,3	12,7
Germaniya	35	649,4	10,1	8,3
Yaponiya	19	468,0	9,5	8,3
Franqiya	18	388,5	5,7	5,0
Buyuk Britaniya	64	381,8	4,9	4,9
Italiya	21	300,8	4,5	3,8
Kanada	37	296,9	4,0	3,8
Gollandiya	21	280,7	3,6	3,6
Xitoy	17	297,2	2,9	3,8
Janubiy Koreya	10	179,1	2,3	2,3

* Manba. Jahon savdo tashkiloti. Jeneva

Dunyo bo'yicha oziq-ovqat bilan savdo qilishda unga bo'lgan talabning pasayishi kuzatilmoqda. Bunga sanoati rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini o'zlarida ishlab chiqarish kuchayganligi sabab bo'lmoqda.

XX asr davomida xalqaro savdoning tarkibi qanday o'zgarib borganligini tahlil qiladigan bo'lsak, uning birinchi yarmida dunyo savdosining 2/3 qismi oziq-ovqat, xom-ashyo va yonilg'i mahsulotlariga to'g'ri kelgan. Asrning oxiriga kelib esa, bu mahsulotlar bilan savdo qilish dunyo savdosining bor- yugi 1/4 qismini tashkil qildi. Qayta ishlash sanoat mahsulotlari bilan savdo qilish bu davrda 1/3 dan 3/4 gacha ko'paydi. Nihoyat, 90-yillarda dunyo savdosining 1/3 qismini mashina-jihozlar bilan savdo qilish tashkil qildi.

Jadval 4.4.3.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi (%)

	1990 yil	2010
Tashqi	100,0	100,0
	39,9	56,9
	60,1	43,1
Eksport	100,0	100,0

	37,7	54,8
	62,3	45,2
Import	100,0 42,6	100,0 59,9

O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Xalqaro savdoning 90 - yillardagi o'sish sur'atlari Xalqaro tashkilotlarning (BMT, XVF) ma'lumotlariga qaraganda 1981 yildan 1992 yilgacha bo'lgan davrda xalqaro savdo yiliga o'rtacha 5,2 % o'sishga ega bo'ldi. Ammo, 1990 yildan boshlab uning o'sishi notekis davom etib, pasayish tomonga yo'nala boshladi. Masalan, u 1989 yil 8,2 % ga teng bo'lgan bo'lsa, 1993 yilga kelib 4,0 % gacha pasaydi. Bu pasayishning asosiy sababi sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy krizis bo'ldi. SHu bilan birgalikda Osiyoning "yangi industrial davlatlari" da tashqi savdoning o'sish sur'atlari 10 % dan yuqori bo'ldi.

Xalqaro savdo hajmi 1994 yilda 9,5 % o'sishga ega bo'ldi va pasayish an'anasiga chek qo'yildi. Buni 1995 yildagi xalqaro savdoning yanada o'sishi yaqqol tasdiqladi.

90 - yillarning o'rtalariga kelib jahon savdosining tez sur'atlar bilan o'sishi AQSH, Italiya, Kanada va Ispaniya mamlakatlarida importning keskin oshib ketishi hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar va Lotin Amerikasi mamlakatlarida iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi tufayli yuz berdi.

YAqin o'n yilliklarda (1996 yildan boshlab) savdo to'siqlarini yo'qotish davom qiladigan bo'lsa, tovarlar bozori hajmi yiliga o'rtacha 6,0 % atrofida o'sishga ega bo'ladi. Bu 60 - yillardan keyingi eng yuqori o'sish ko'rsatkichi hisoblanadi. Informatika va aloqaning kuchayishi natijasida xizmat ko'rsatish sohasidagi savdoning o'sishi eng yuqori sur'atlarda bo'ldi.

Ayrim mamlakatlarning jahon savdosidagi o'rnini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 1994 yilda eng yirik eksportchi va importchi mamlakat bu AQSH bo'ldi. Mamlakatning tashqi savdosi hajmi 1,2 trln. dollarni tashkil etdi va u jahon savdosining 28 % iga teng bo'ldi. AQSH dan keyin Germaniya va YAponiya bormoqda (ularda mos ravishda 802 mlrd. doll. - 18,8 % va 672 mlrd. doll. 15,8 % ni tashkil etdi).

Dunyoning eng yirik savdo mamlakatlari birinchi o'nligiga Franziya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Gollandiya, Gonkong, Belgiya (Lyuksemburg bilan) mamlakatlari kiradi.

Keyingi yillarda Xitoyning eksporti juda tez sur'atlar bilan o'smoqda. Yana Singapur, Chili, Finlyandiya mamlakatlarining eksporti ham juda tez o'sdi. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari mintaqasi sifatida eksportining o'sish sur'atlari bo'yicha Osiyodan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi.

4. Tashqi savdoni erkinlashtirish (liberallashtirish) va jahon savdosida protektsionizm siyosati

Xalqaro savdoda kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, savdoni erkinlashtirish uning asosiy yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Bojxona bojlarining miqdori birmuncha pasaydi, ko'pchilik cheklashlar, kvotalar bekor qilindi. Lekin, unda bir qator muammolar ham mavjud. Ulardan asosiylari - iqtisodiy guruhlar, mamlakatlarning savdo iqtisodiy bloklari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Savdo iqtisodiy bloklarni tashkil qilishdagi birinchi qadam erkin savdo zonalaridan boshlangan. Jahon bankining ma'lumotlariga qaraganda, 90-yillarda dunyo savdosining 42 % i mana shunday zonalarda olib borilgan. Bunday zonalarining eng taniqlilari - Evropa erkin savdo uyushmasi (EESU), Evropa Ittifoqi (EI), Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi (NAFTA), Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkilotlaridir.

Eng yirik to'qqizta xalqaro mintaqaviy savdo bloklarining tarkibi quyidagicha:

1. Evropa Ittifoqi (EI) - Avstriya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Irlandiya, Franziya, Ispaniya, Portugaliya, Finlyandiya, SHveziya, Daniya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Gretsiya.

2. Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi (NAFTA) - AQSH, Kanada, Meksika.

3. Evropa erkin savdo uyushmasi (EESU) - Islandiya, Norvegiya, SHveysariya, Lixtenshteyn.

4. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES) - Avstraliya, Bruney, Malayziya, Singapur, Tailand, Yangi Zelandiya, Papua - Yangi Gvineya, Indoneziya, Filippin, Tayvan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Kanada, AQSH, Meksika, Chili.

5. "Merkosur" - Braziliya, Argentina, Paragvay, Urugvay.

6. Janubiy Afrika rivojlanish komiteti (SADK) - Angola, Botsvana, Lesoto, Malavi, Mozambik, Mavrikiy, Namibiya, JAR, Svazilend, Tanzaniya, Zimbabve.

7. G'arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi (YUEMOA) - Kot-d'Ivuar, Burkina-Faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Benin, Mali.

8. Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik uyushmasi (SAARK) - Hindiston, Pokiston, Shri-Lanka, Bangladesh, Maldiv o-ri, Butan, Nepal.

9. And pakti - Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya.

Bunday bloklarning shakllanishi siyosiy, iqtisodiy, tarixiy mazmunga ega bo'lgan ob'ektiv jarayonlar asosida yuz beradi. Bu jarayonlarning faollashuvi, bir tomondan, xalqaro savdoning rivojlanishiga (mintaqa, zona, bloklar doirasida) olib kelsa, ikkinchi tomondan, har qanday yopiq tashkilot uchun xos bo'lgan holda, xalqaro savdoning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Savdo-iqtisodiy guruhlarining o'zaro aloqalari davomida yagona jahon bozori tizimini yaratish jarayonida hali ko'p qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar mavjud bo'ladi.

Erkin savdo zonalarining tashkil qilinishi dunyo xo'jaligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Mamlakatlarning guruh bo'lib bloklarga birlashishi shak-shubhasiz erkin savdo g'oyalarini rivojlantirishga yoki protekcionista to'siqlarni yo'q qilishga olib kelmaydi. "*Erkin savdo*" yoki "*savdo to'siqlari*" g'oyalari hamma vaqt ham, u yoki bu tarzda namoyon bo'laveradi. Hatto, ayrim savdo iqtisodiy guruhlarining o'z ichida ham a'zo mamlakatlar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelib, "*savdo urushlari*" ga aylanib ketadi (EI ga a'zo bo'lgan mamlakatlar doirasida paydo bo'lgan *treska*, *uzum*, *yog'* "*urushlari*").

Xalqaro savdoning erkin yuritilishiga qo'yiladigan to'siqlar. Hech bir mamlakat o'z chegarasidan hech qanday to'siqsiz juda katta tovarlar oqimining kirib kelishiga yo'l qo'ymaydi. Davlat tomonidan tovarlarning kirib kelishiga va ba'zida tovarlar chiqarilishiga xilma-xil to'siqlar qo'yiladi. Bu to'siqlarni qo'yishda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlar ko'zlangan bo'ladi. Bu maqsadlar ichki ishlab chiqaruvchilarni xorijiy firmalar raqobatidan himoya qilish va ularning o'zlarini tiklab olishiga yordam berish, ichki ishlab chiqarishda aholining bandligini oshirish kabilarga qaratilgan bo'ladi.

CHetdan keladigan tovarlar importini cheklab qo'yish chet el investitsiyalarining oshishiga olib keladi. CHunki o'z tovarlarini kiritib olmagan chet el firmalari bu mamlakatga investitsiya kiritib o'z zavodini quradilar yoki qo'shma korxona tashkil etadilar.

Davlatning to'lov balansini (import bilan eksport o'rtasidagi farqdan kelib chiqadigan davlatning to'lov qobiliyati) muvofiqlashtirish uchun ham hukumatlar tomonidan import yoki eksport tovarlariga xilma-xil to'siqlar qo'yiladi.

Davlat tomonidan tashqi savdoga qo'yiladigan to'siqlar: yoki bu tovarlarning bahosiga yoki bu tovarlarning miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. YA'ni, tashqi savdo to'siqlari tarifli to'siqlar va notarif to'siqlarga ajratiladi.

Tashqi savdoga qo'yiladigan eng keng tarqalgan to'siqlardan biri **tariflar**, **ya'ni boj to'lovlari** hisoblanadi. Mamlakatdan chiqarilgan tovarga to'lanadigan boj - "*chiqish boji*", olib kirilayotgan tovarga boj to'lash "*olib kirish boji*", agar biror mamlakat hududidan olib o'tilayotgan tovar uchun boj to'lansa "*tranzit boji*" deyiladi. Olib kirish boji import tovarlarining narxlari oshishiga va pirovard natijada ularning ichki ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatni pasaytirishga olib keladi, ya'ni himoya to'siqi hisoblanadi (ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun).

Boj to'lovlari quyidagicha qo'yiladi:

1) xar bir tovar birligi uchun qo'yiladigan soliq sifatida - unga *maxsus boj to'lovi* deyiladi;

2) tovarlarning qiymatiga qarab qo'yiladigan foiz sifatida - unga *qiymat boj to'lovi* deyiladi.

Har ikkalasi ham qo'llaniladigan vaqtda "*aralash boj to'lovi*" deyiladi.

Tarifli to'siqlar tovarlarning bahosiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, notarif to'siqlar tovarlar bahosiga ta'sir ko'rsatishi bilan bilan birga tovarlarning miqdoriga ham ta'sir ko'rsatadi.

♦ notarif to'siqlarning tovarlar bahosiga ta'sir ko'rsatadigan turi bu "subsidiyalardir". Bunda davlat tomonidan chet elga tovar eksport qiluvchilar subsidiyalar bilan qo'llab quvvatlanadi. Natijada boshqa shunday tovar ishlab chiqaruvchilarga raqobat qilishni qiyinlashtirib qo'yadi.

♦ "Kvotalar"- tovarlar miqdorini cheklab qo'yishdir. Importga qo'yiladigan kvotalar, eksportga qo'yiladigan kvotalar mavjud.

♦ ba'zi paytlarda "embargo" qo'llanilishi mumkin. "Embargo"- tovarlar olib kirishni yoki olib chiqishni butunlay to'xtatib qo'yish demakdir.

♦ "Standartlar" - chet el tovarlarining sortiga, markasiga, ekologik tozaligiga talab qo'yish.

♦ "Litsenziyalash" - tovarlarni olib kirish yoki olib chiqib uchun hukumatdan ruxsat olish.

Xalqaro savdoni boshqarishda, uning rivojlanishiga to'siq bo'luvchi g'ovlarni tugatishda, savdoni erkinlashtirishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning asosiylaridan biri - bu Jaxon savdo tashkilotidir (JST) xisoblanadi. Ilgari bu tashkilot *Tariflar va savdo Bosh bitimi* (GATT) deb nomlanib kelingan. GATT ni tashkil qilish bo'yicha 23 mamlakat tomonidan 1947 yilda kelishuvga qo'l qo'yildi va u 1948 yilda kuchga kirdi.

1995 yil 31 dekabrda GATT o'z faoliyatini tugatdi va Jahon savdo tashkilotiga (JST) aylantirildi.

JST - ko'p tomonlama xalqaro kelishuv bo'lib, a'zo mamlakatlar o'rtasida o'zaro savdo-sotiqning tamoyillari, huquqiy normalari, qonun-qoidalari va davlat tomonidan boshqaruvini o'z ichiga oladi. JST - eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilot bo'lib, uning faoliyati natijasida jahon savdosining 94 % olib boriladi.

JST ning huquqiy mexanizmi quyidagi tamoyil va normalarga asoslanadi:

♦ savdoda bir-birini kamsitmaslik, buning uchun bir-birlariga, bir tomondan, eksport, import, tranzit operatsiyalarida va ular bilan bog'liq bojxona to'lovlari va yig'implari bo'yicha eng qulaylik tartiblarini, ikkinchi tomondan, import va o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki soliqlar va to'lovlar bo'yicha tenglashtiruvchi, hamda ichki savdoni boshqarish bo'yicha qulayliklar yaratib berish.

♦ shartnoma tuzayotgan mamlakatlarning bir-birlariga afzallik va imtiyozlardan iborat yaratadigan qulayliklaridan uchinchi bir mamlakat ham foydalanishi imkoniyatini berish. Bu qoida, tovarlarni olib kirish va olib chiqishga, bojxona to'lovlariga, sanoat ishlab chiqarishiga, dengizda suzishga, huquqiy va jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

1996 yil boshiga kelib JST ga 130 mamlakat a'zo edi. YUqorida aytilganidek, 1996 yil yanvar oyidan GATT *Jahon savdo tashkilotiga* (JST) aylantirildi. Uning asoschilari sifatida 81 mamlakat ishtirok etdi.

Jahon savdo tashkiloti GATT bajargan ishlardan tashqari, xizmatlar va intellektual mulkning xalqaro ayirboshlovini tartibga solish, hamda investitsiyalarni himoyalashni nazorat qilish kabi vazifalarni ham bajaradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, JST nazorati ostida yiliga 5 trln. dollarlik tovar oldi-sotdisi yuz beradi. Uning faoliyati natijasida jahon iqtisodiyotiga yiliga 250 mlrd. dollar atrofida daromad keltiriladi.

Asosiy tushunchalar va atamalar

Xalqaro savdo; Tashqi savdo; «Nisbiy ustunlik nazariyasi»; «Xalqaro qiymat nazariyasi»; «Ishlab chiqarish omillar nazariyasi»; «Leontev paradoksi»; Tashqi savdo multiplikatori; Dunyoning eng yirik savdo mamlakatlari; Erkin iqtisodiy zonalar; Xalqaro savdoga ta'sir qiluvchi omillar; Mahsulotlari raqobatbardoshligi bo'yicha mamlakatlar klassifikatsiyasi; Savdo bloklari; Savdo to'siqlari; Tarifli to'siqlar, ya'ni boj to'lovlari; Boj to'lovi turlari; Notarif to'siqlar; Kvotalar; Liyenzialar; Standartlar (sertifikat); Embargo; Subsidialar; GATT.

4 – Mavzu: O'zbekiston Respublikasini tashqi savdosi va uni boshqaruv mexanizmi

4.1. O'zbekiston Respublikasini bozor iqtisodiyotiga o'tishi, tashqi savdo sohasidagi radikal o'zgarishlar.

4.2. Respublikani tashqi savdo yo'nalishlari.

4.3. Markaziy Osiyo hamjamiyatining iqtisodiy sohadagi kelishuvlari, ahamiyati.

4.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish istiqbollari

4.1. O'zbekiston Respublikasini bozor iqtisodiyotiga o'tishi, tashqi savdo sohasidagi radikal o'zgarishlar

O'zbekistonda dunyoning xamma mamlakatlari bilan xalkaro iktisodiy alokalarni xar tomonlama kengaytirish va rivojlan-tirishning izchil siyosati olib borilmokda. Xozirgi kunda O'zbekiston turli soxalarda, shu jumladan iktisodiy soxada xalkaro iktisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir kancha konven-tsiya va kelishuvlarni imzoladi, kupgina obruli xalkaro tashkilotlarga a'zo buldi. O'zbekiston tashki savdoni uzok xorijiy davlatlarning 38 tasi bilan juda kulay tartib asosida olib boradi, 34 tasi bilan «Investitsiyalarni ximoya kilish va uzaro ragbatlantirish tugrisida kelishuv imzolangan.

Sobiq SSSR tarkibida bulgan davrida O'zbekiston jaxon bozorida mustakil ish yuritish imkoniyatiga ega emas edi. SHuninig uchun isloxotlarning dastlabki davrida muxim vazifalar sifatida respublikaning tashki iktisodiy majmuasini shakllantirish va tashki iktisodiy faoliyatni boshkarishning yangi mexanizmini yaratish maksad kilib kuyildi.

Tashki iktisodiy faoliyatning respublika maxkamalari amalda kaytadan tashkil kilindi. O'zbekiston xukumati 1989 yildayok tashki savdo bilan shugullanadigan maxkamalarni tuzishga karor kilgan edi. Usha vaktda «O'zbektashkisavdo» davlat agentligi uz faoliyatini boshlagandi. 1991 yilda u tashki iktisodiy alokalar davlat kumitasiga aylantirildi va 1992 yilda uning asosida Tashki iktisodiy alokalar vazirligi tashkil kilindi. Tashki alokalar milliy banki, bojxona xizmati, xamda Vazirlar Maxkamasida, vazirliklarda, korporatsiyalarda, koncernlarda, assosatsiyalarda va maxalliy boshkaruv organlarida tashki iktisodiy faoliyat bulimlari ochildi.

Maxsulotlarning tashki bozorlardagi xarakatini, milliy eksportchilarning rakobatbardoshligini oshirishni, ularning uzgaruvchan biznes-muxitiga tez moslashuvini ta'minlash uchun tashki iktisodiy alokalar infrastrukturasini rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

Tashki iktisodiy alokalar vazirligi yana tashki bozorlarni urganishning marketing tadkikotlari va strategiyasini, eksport tovarlari tartibiga kura narxlar uzgarishining uzok muddatli va kiska muddatli bashoratlarini modellastirishni ta'minlaydi, strategik eksport maxsulotlariga ob'ektiv narxlarni shakllantirishga

karatilgan tadbirlar ishlab chikadi. Keyingi yillarda, bir kator tovarlar bozori, jumladan, oltin, polietilen va polivinilxlorid, tukimachilik sanoati maxsulotlari, kaolin, aviaqiya texnikasi, avtomobillar, rangli metallar, meva-sabzavot maxsulotlari va boshkalar buyicha taxliliy marketing xisobotlari tayyorlandi.

Tashki iktisodiy alokalarni erkinlashtirish. 1991 yilda mustakillikni kulga kiritgan davrdan boshlab O'zbekiston xukumati tomonidan tashki savdo tartib – koidalarini erkinlashtirishning izchil siyosati olib borilmokda. Bu jarayonni shartli ravishda bir necha boskichga ajratish mumkin.

Birinchii boskich, 1991 yildan 1994 yilgacha bulgan davrni uz ichiga olgan bulib, bu davrda SSSR yagona xalk xujaligi kompleksining parchalanishi, iktisodiyotni boshkarishda ma'muriy – buyrukbozlik tizimiga barxam berilishi natijasida respublikada sanoat tovarlarining va kator iste'mol tovarlarining etishmovchiligi namoyon buldi va shuning uchun ularni import kilish siyosati olib borildi. Bu davrda import boj tulovlari yuk edi, chetga eksport kilish uchun liqenziyalashtirilgan va kvotalangan tovarlar ruyxati 71 ta bulgan, xom ashyo resurslarining ayrim turlariga eksport boj tulovlari kullanilar edi.

Birinchii boskichning muxim ustivor yunalishlari sifatida import urnini bosadigan ishlab chikarishni rivojlantirish siyosati, eksport saloxiyatini rivojlantirish va mustaxkamlash, tashki iktisodiy alokalarni urnatish va kengaytirish amalga oshirildi. Bu boskichda isloxotlar davrigacha mavjud bulgan tashki savdodagi davlat monopoliyasi tugatildi va tashki iktisodiy alokalarining yangi mexanizmi shakllantirildi. Korxonalarining tashki bozorga

mustakil chikishi, chet el investorlari faoliyatini ishonchli kafolatlash normativ – xukukiy bazasi yaratildi.

Ikkinchi boskichda, – 1995 yildan 1998 yilgacha respublikada maxalliy xom – ashyodan foydalanuvchi milliy ishlab chikarishni rivojlantirish bilan birgalikda eksport yunalishli ishlab chikarish saloxiyatini yaratish siyosati olib borildi.

1995 yili tashki savdoni yuritishdagi notarif tulovlardan tarifli tulovlarga utildi, importni boshkarishning tarif tizimi koidaga kiritildi. 1996 yili liqenziyalashtiriladigan va kvotalangan eksport tovarlarining ruyxati 4 tagacha kamaytirildi, ya'ni unda paxta, don, rangli metallar va energiya resurslarigina koldirildi. Eksport uchun maksimal boj tulovi 40% gacha kamaytirildi va uchdan bir tovarlar guruxiga eksport tariflari tugatildi. Eksportga maxsulot ishlab chikaradigan korxonalarga kupgina solik engilliklari berildi.

1997 yili O'zbekistonning asosiy eksport tovarlariga jaxon narxlarining keskin pasayib ketishi natijasida tashki savdoning rivojlanish sur'atlari bir muncha pasaydi. Okibatda, bu eksportdan tushadigan anchagina daromadlarning yukotilishiga va mamlakat joriy tulov balansi axvolining yomonlashuviga olib keldi. Bunday salbiy jarayonlar Janubiy-SHarkiy Osiyodagi (1997 yil urtalaridan) va Rossiyadagi (1998 yil avgustidan) moliyaviy krizislar tufayli yanada murakkablashdi. Natijada, paxta tolasining urtacha jaxon narxlari 1996 yilda 16% ga, 1997 yilda 14% ga va 1998 yilda 8,5% ga pasayib ketdi.

O'zbekiston tashki savdosining jaxon bozori kon'yukturasiga (xolatiga) shunchalik karamligi usha paytda eksportning 70% dan oshigi xom ashyo tovarlariga tugri kelganligi bilan boglik edi. Xisob-kitoblarga kura, birgina 1998 yilning uzida neft, paxta tolasi va misning jaxon narxlari tushib ketishi natijasida bizning mamalakatimiz 170-180 mln dollar yukotgan. Xom-ashyo resurslarining yukorida kayd etilgan turlariga jaxon bozori narxlarining barkaror emasligi ularni tashki bozorga chikazishni tartibga solish zarurligini keltirib chikardi. Ekportning pasayishiga jaxon oltin bozoridagi nokulay vaziyat xam ta'sir kursatdi, chunki umuman 1997-1998 yillarda oltinning baxosi 40% ga pasayib ketdi.

Uchinchi boskich 1999 yilda eksportni xar tomonlama ragbatlantirishga karatilgan siyosat kuchaytirilgan bir paytda boshlandi va respublikaning tashki savdosida yana ijobiy uzgarishlar yuz bera boshladi.

Respublikada olib borilayotgan valyuta siyosati xam tashki savdo operatsiyalariga katta ta'sir kursatadi. 1998 yildan boshlab xukumat tomonidan xorijiy valyutalar bozorini boskichma-boskich erkinlashtirish siyosati izchil olib borilmokda.

O'zbekistonda xorijiy valyutalar bozorini kelajakda yanada erkinlashtirib borish, joriy operatsiyalar buyicha tulik konvertatsiyaga utish natijasida sumning devalvatsiyasi milliy eksportchilarga manfaatli buladi va uzbek tovarlarining (xizmatlarining) eksporti oshishiga olib keladi, chunki

ularning xorijiy valyutadagi narxining pasayishi xorijiy bozorlarda rakobatbardoshligini oshiradi.

Respublikamizda 2003 yilning 15 oktyabrilan boshlab milliy valyutamiz – sumning joriy operatsiyalar buyicha erkin konvertatsiyasiga erishilishi xam tashki iktisodiy alokalarni rivojlantirishda katta turtki buladi.

4.2. Respublikani tashqi savdo yo'nalishlari

Eksport yunalishli ishlab chikarishni rivojlantirish va eksportni ragbatlantirish kabi muxim masalalarni hal qilish respublikaning jaxon bozorida katnashuvini yanada kengaytiradi. SHuning uchun xam bu soxada kup ishlar kilinmokda. Masalan, eksportchilar uchun quyidagi imtiyozlar konun tomonidan belgilangan:

- a) kushimcha qiymat soligi buyicha;
- b) aksiz soligi buyicha;
- v) daromad soligi buyicha;
- g) mulk soligi buyicha.

Bunday imtiyoz mulkchilik mavkeidan kat'iy nazar xamma eksportchi korxonalariga taallukli bulib, unga fakat savdo-vositachi korxonalar va erkin konvertirlanadigan valyutaga xom-ashyo maxsulotlari – paxta tolasi, paxta kalavasi, lint, neft, neft maxsulotlari, gaz kondensati, tabiiy gaz, elektr energiyasi, kimmatbaxo rangli va kora metallar eksport kiluvchilar kirmaydi.

Xorijiy kompaniyalar ishtirokida kushma korxonalar tashkil qilish asosida respublikada paxta tolasini kayta ishlash kuchaytirildi, bu esa eksportga chikariladigan paxta kalavasini kupaytirishga yordam berdi, pishlok, meva pyuresi, meva soklari, pivo va yaxna ichimliklar turini ishlab chikarish kupaytirildi. Eksport uchun yangi maxsulotlar turlari – engil avtomobillar va avtobuslar, avtomobil va traktor filtrlari (yonilgi, moy, xavo filtrlari), juda ingichka elektr simlari, maishiy elektr jixozlari, em-xashak yigishtiradigan kombaynlar, benzin va dizel yonilgisi, kishlok xujalik maxsulotlarining kayta ishlangan turlari, poyafzal va xakazolar ishlab chikarila boshlandi.

«O'zbekiston Xavo Yullari» avia kompaniyasi tomonidan chet el fukarolarini tashish kabi eksport xizmatlari kengaytirildi. Turizm soxasida eksport kilinadigan xizmatlarin rivojlantirish maksadida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi chet el kapitali ishtirokida yangi mexmonxonalar kurish va mavjudlarini rekonstrukuiya kilish loyixalarini amalga oshirmokda.

«O'zbekiston» mexmonxonasini kayta ta'mirlash tugatildi, Samarkandda «Prezident otel» mexmonxonasi kurildi, Urganchda «Xorazm» mexmonxonasi kayta ta'mirlandi.

Keyingi yillar an'analari asosida O'zbekiston Respublikasi dunyo globallashish jarayoniga kushilib bormokda. Lekin, bunga Markaziy Osiyo mintakasining nisbatan berk transport yullari xalakit bermokda. O'zbekiston SHark va Garb bozorlaridan ancha yirokdadir. Kolaversa, nafakat respublikaninng uzi, balki u bilan chegaradosh davlatlarning xam dengiz

portlariga chikish yuli yukdir. Bu tovarlarni xalkaro bozorlarga etkazishda kiyinchiliklar tugdiradi va tranzit xaklari bilan birgalikda katta xarjatlarni keltirib chikaradi. Ikkinchi tomondan, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi geografik urniga kura yirik tranzit markazi bulish imkoniyatiga ega. Bu erda 44 ming km avtomobil yullari va 3,5 ming km temir yullarga ega bulgan transport tizimi mavjud bulib, fakat uning boshka mamlakatlarga chikish nuktalari kamligi tugatilsa, bas.

O'zbekistonning Osiyo kit'asi transport magistrallarining markazi sifatidagi axamiyati shunda buladiki, xozirgi kunda respublikaning avtomobil va temir yullari Iktisodiy xamkorlik tashkiloti (EKO) dasturi, Evropa ittifokining TESIS va TRASEKA (Evropa-Kavkaz-Osiyo transport yulagi) dasturi loyixalarida xalkaro yuk va passajir tashishning asosiy yunalishi sifatida aloxida kursatib utilgan. Janubiy portlardan (Eron, Pokiston) va Janubiy-Garbiy portlardan (Turkiya) boshlangan avtomobil yullar, xamda Evropa mamkatlarini (Ruminiya, Bolgariya, Germaniya, Franqiya) boglab turuvchi asosiy yullar shimol va shark yunalishiga (Xitoy, YAponiya, Muguliston) Uzbekiston orkali utadi.

Eksport-import operatuiyalarida transport xarajatlarini kiskartirish uchun O'zbekiston mustakilligining dastlabki yillaridanok yangi, ancha tejamli transport yulaklarini axtarish maksadida karatilgan siyosat utkaza boshladi.

Xozirgi kunda O'zbekiston eksport-import yuklarini tashishda kamida oltita turli yunalishlardan foydalanmokda, 90-yillar boshlarida ular fakat 3

tagina edi. Natijada xozirgi paytda uzbek kompaniyalari tomonidan foydalanadigan transport marshrutlarining urtacha uzokligi 5200 km dan 3700 km gacha kamaydi. 1997 yildan boshlab quyidagi yangi marshrutlar faol ravishda foydalanilmokda:

Toshkent – Farob (Turkmaniston) – Turkmanboshi (Turkmaniston) – Baku (Ozarbayjon) - Poti Botumi (Gruziya) - Mersin (Turkiya);

Bandar-Abbos, Bandar-Imom Xumayni (Eron), Jabal-Ali (BAA) portlari yunalishidagi marshrutlar.

Transport yulaklari va tranzit marshrutlarining eng mukobil turlaridan keng foydalanish nafakat uzbek tovarlarini tashishdagi xarajatlarni kiskartirishga (natijada ularning narx buyicha rakobatbardoshligi oshiriladi), balki tashki iktisodiy alokalarning samaradorligini oshirishga, mamlakat xududi orqali chet el yuklarini tranzit kilish tufayli O'zbekistonning valyutadagi daromadlari oshishiga va nixoyat tovar almashuvining oshishi bilan respublikaning jaxon savdo tizimiga integratsiyalashuvini oshiradi.

Mustakillik yillarida O'zbekiston **tashki savdo aylanmasi** xajmi anchagina oshdi. Tashki savdoning 90-yillardagi eng yukori kursatkichiga respublika 1996 yilda erishdi, bu davrda uning xajmi 9 mlrd dollarga etgan edi. Ammo yukorida kursatib utganimizdek, 1997-98 yillarda O'zbekistonning asosiy eksport tovarlari, eng avvalo paxta tolasi va oltinga jaxon narxlarining pasayib ketishi bilan va Janubiy SHarkiy Osiyo va Rossiyadagi moliyaviy krizislar tufayli respublikaning tashki savdo xajmi pasaydi. SHunga karamasdan,

2000 yil yakunlariga kura uning xajmi 1992 yilga nisbatan 39,4 % usishga ega buldi. O'zbekiston tashki savdosining jami xajmi 2000 yil 6212,1 mlrd. dollarni tashkil kildi. 2010 yilga kelib esa O'zbekiston tashki savdosi 21,8 mlrd.dollarni tashkil qildi. SHundan 13,0 mlrd. eksportga 8,8 mlrd. dollari importga tugri kelib, ijobiy saldo 4,2 mlrd. dollardan iborat buldi.

Eksport tarkibini muntazam ravishda takomillashtirib borish bilan uning mikdori usishiga erishildi. 2000 yilda yukori kushimcha kiymatga ega bulgan maxsulotlar xissasi 36 %ga etdi, vaxolanki, u 1998 yilda 25% bulgandi. 1992 yildan 2000 yilgacha tashki savdo xajmining saldosi ijobiy (1996 va 1997 yillardan tashkari) bulib keldi.

Tashki savdo geografiyasi uzgarib, kengayib bormokda, chunki u 1990 yillar boshlarida asosan MDX mamlakatlariga yunaltirilgan edi. Marketing tadkikotlari va bozorlar turlarini kupaytirish siyosatini olib borish tufayli tovarlar okimini MDX mamlakatlari bozoridan uzok xorij bozorlari tomon uzgartirishga olib keldi. Xususan, 1994 yilda respublika tashki savdo xajmining 57,8% MDX mamlakatlariga, 42,2% uzok xorij mamlakatlariga tugri kelgan bulsa, xozirgi paytda bu kursatgichlar muvofik ravishda 37% va 63% ni tashkil kildi.

Xozirgi kunda dunyoning 140 mamlakati bilan savdo-iktisodiy alokalari urnatilgan, eksport esa 80 dan oshik mamlakatlarga chikariladi.

Jadval 4.2.1.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosi tarkibi

19	20	2010
----	----	------

80	62	21842,
----	----	--------

44	32	
----	----	--

36

29

79

31

10

10

100,0

59

27

11,3

3,

5,

9,7

2,

2,

5,1

17

10

24,8

4,

6,

6,8

1,

3,

5,5

1,	13	9,1
----	----	-----

9,	13	27,7
----	----	------

10	10	100,0
----	----	-------

12	35	44,1
----	----	------

9,	13	14,3
----	----	------

3,

3,

6,0

10

8,

8,4

48

12

10,9

1,

8,

4,7

14

17

11,6

O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Mustakillik yillarida eksport tarkibi ijobiy uzgarishlarga uchramokda.

Uning tarkibida xom-ashyo resurslari xajmi kamaymokda, ular asosan

respublika ichki iste'molida tovarlar ishlab chikarish uchun sarf kilinmokda.

An'anaviy tovarlar paxta, kalava, gazlama, rangli metallar, ximiya maxsulotlari

bilan birgalikda neftni kayta ishlash maxsulotlari, engil avtomobillar, shaxar tipidagi avtobuslar, murakkab maishiy elektronika eksport tarkibidan mustaxkam urin oldilar, ya'ni unda mashina va jixozlar xissasi oshib bormokda.

Paxta tolasining eksport xajmidagi xissasi 1992 yildagi 47,9%dan 2000 yili 27,5% gacha kamaydi. Eksport tarkibida xizmatlar xissasi oshdi, u 1992 yilda umuman bulmagan bulsa, 2000 yilga kelib 30,2% ga etdi. Bu yillar davomida ozik-ovkat maxsulotlari eksporti xam oshib bordi va 3,2% dan 5,4% etdi. Respublika korxonalari kishlok xujalik texnikalarining, asboblarning va avtomatika vositalarining xar xil turlarini kuplab eksport kila boshladilar.

Eksport ruyxati murakkab asboblar, kompleks ximiyaviy ugiltlar, boyitilgan kaolin, vollastonit, toshlar va keramikadan kilingan maxsulotlar, mebelning turli xildagi va uy-xujalik jixozlari kabi maxsulotlar bilan tuldirildi.

Keyingi yillarda uzbek eksportchilari tomonidan tashki sav-doning keng tarkalgan lizing, savdo uylari, diler tarmoklari orkali tovar etkazib berish kabi shakllaridan va mamlakat xududida va xorijda konsignatziya omborlaridan keng foydalanilmokda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning investitsiyaviy, qonuniy va huquqiy bazasi. Jaxon bozorida rakobatbardosh bulgan maxsulotlarni ishlab chikarishni uzlashtirish va kupaytirish, xamda tashki bozorlarda uni sotish respublika raxbariyati tomonidan tashki savdo alokalarining ustivor yunalishi sifati belgilangan. YAngi maxsulotni ishlab chikarishni uzlashtirish birinchi navbatda sanoatning negiz tarmoklari bulgan neft va gaz kazib olish, neft-ximiya, ximiya, transport kommunikaçiyalari, energetika, xamda Uzbekiston rakobatchi sifatida ustunlikka ega bulib kelgan tarmoklar engil sanaot, ipakchilik, meva-sabzavot, sayyoxlik, kurilish materiallarini ishlab chikarishda amalga oshirilishi kerak.

Eksport xajmini kengaytirishni va uning tarkibida tayyor maxsulotlarning kupayishi an'anaviy bulmagan ilmtalab va yukori texnologiyali tarmoklar – avtomobilsozlik, samolyotsozlik, telekom-munikaqiya, kompyuter ishlab chikarish ta'minlashi mumkin.

Eksportni kengaytirish siyosati bilan birgalikda respublika xukumati tomonidan maxalliy xom ashyodan maxsulot ishlab chikarishni kupaytirish siyosati xam olib borilmokda. Keyingi yillarda respublikaga keltirilgan import xajmining kamay-tirilishiga avvalambor, ichki ishlab chikarish xajmining oshishi tufayli erishilmokda. Mustakillik yillarida Uzbekistonda ozik-ovkat maxsulotlari importi 1992 yilgi 36,8%dan 2000 yilda 12,3% gacha kamaydi, bu esa ozik-ovkat maxsulotlarini ishlab chikarishni rivojlantirish dasturining yutugi xisoblanadi. Don mustakilligiga erishish siyosatining muvaffakiyatli olib borilishi tufayli chetdan bugdoy keltirishning kamayishi importni kiskartirishga imkon berdi. Energetika mustakilligini ta'minlash siyosati natijasida bu davrda import tarkibida yonilgi maxsulotlarining xajmi 25,8% dan 3,8% gacha kamayishiga erishildi.

Import tarkibida investiqiya tovarlarining (mashina va jixozlar) 1992 yildagi 9,2% dan 2000 yilda 35,4% gacha oshganligini aloxida ta'kidlab utish kerak. Bu xukumat iktisodiy siyosatining tarmoklarni tarkibiy uzgartirish, milliy sanoatni zamonaviylashtirish va rivojlantirishga yunaltirilganligini kursatadi. 2000 yilda xizmatlarni import kilish xajmining 8,5% gacha usganligi (1992 yilda importning bunday turi yuk edi) asosan tovarlarning boshka mamlakatlar

xududidan tranzit kilinishi natijasi bulib, bu yana bir marta Uzbekistonning kupchilik savdo sheriklaridan ancha uzakda joylashganligini kursatib beradi (eslatib utamiz, 61,8% import uzak xorij mamlakatlarga va 38,2%i esa MDX mamlakatlariga tugri keladi).

Importning xozirgi mavjud tarkibi milliy iktisodiyotni tarkibiy kayta kurish va jaxon standartlari darajasida maxsulot ishlab chikarish imkonini beradigan yukori texnologiyali, zamonaviy ishlab chikarishni rivojlantirish siyosatinig natijasidir. Asosiy e'tibor, uzimizning tabiiy va xom-ashyo potentsialimizga asoslangan, ilgor zamonaviy texnologiyalarni kullovchi, nafakat ichki bozorda balki tashki bozorda xam rakobatbardosh bulgan maxsulotlarni ishlab chikaruvchi texnologik uqiklga ega bulgan ishlab chikarishni yaratish va rivojlantirishga karatiladi.

4.3.Markaziy Osiyo hamjamiyatining iqtisodiy sohadagi kelishuvlari, ahamiyati

Muayyan hududda integratsion jarayonlar amalga oshayotganligini, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning intensivligini ko'rsatuvchi ikkita muhim ko'rsatkich mavjud: birinchisi – mamlakatlar o'zaro tashqi savdo almashinuvi hajmi, ikkinchisi – o'zaro tovar almashinuvining mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushi. Ikkinchi ko'rsatkich integratsiya nuqtai nazaridan birmuncha muhimroq bo'lib, u mamlakatlarning bir-biriga nisbatan ochiqlik darajasini, boshqacha aytganda, mamlakatlarning bir-biriga bog'liqlik darajasini ifodalaydi.

Mintaqada kechayotgan integratsion aloqalar dinamikasini O'zbekiston Respublikasi misolida ko'rib chiqamiz.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 2004 yilda 1995 yilga nisbatan 19,1 %ga qisqargan. Jumladan, tahlil qilinayotgan davr mobaynida eksport hajmi 15,3 %ga, import hajmi 24,7 %ga pasaygan. Bu pasayishning bir qator sabablari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

Sun'iy, rejali baholardan bozor baholariga o'tish tashqi savdo aloqalari

samaradorligiga baho berish tizimning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. Buning natijasida iqtisodiy islohotlarga qadar samarali hisoblangan juda ko'p aloqalar samarasiz bo'lib qoldi. SHu bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlarining har biri nafaqat mintaqa yoki MDH doirasida, balki uzoq xorijdan ham hamkor tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa mamlakatlarda tovarlarning qayta taqsimlanishiga olib keldi. Natijada mintaqa respublikalari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi pasaydi;

Mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotlari tarkibining o'xshashligi o'zaro savdo aloqalari hajmining qisqarishiga olib kelgan sabablardan yana biridir. Gap shundaki, mintaqa mamlakatlari tomonidan eksport qilinadigan tovarlarning aksariyati (yoqilg'i-energetika resurslari, qimmatbaho metallar, paxta tolasi va boshqalar) barcha respublikalarda ishlab chiqariladi;

4.3.1-jadval

O'zbekistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan tovar aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)

	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston	Turkman- iston	Markaziy Osiyo bo'yicha jami
	1995 yil				
Tovar aylanmasi	455,9	102,4	229,1	249,1	1036,5
Eksport	238,1	68,3	156,6	159,7	612,9
Import	217,8	34,1	73,0	98,7	423,6
Saldo	20,3	34,2	83,6	60,7	189,3
	2000 yil				
Tovar aylanmasi	316,4	144,9	120,2	193,5	775
Eksport	100,8	50,9	100,9	175,4	428,0
Import	215,6	94,0	19,3	18,1	347,0
Saldo	-114,8	-43,1	81,6	157,3	81,0
	2001 yil				
Tovar aylanmasi	312,9	125,8	106,2	164,9	709,8
Eksport	118,0	76,4	85,7	138,4	418,5
Import	194,9	49,4	20,5	26,5	291,3
Saldo	-76,9	27,0	65,2	111,9	127,2
	2002 yil				
Tovar aylanmasi	263,3	111,6	117,0	76,4	568,3
Eksport	81,8	76,6	101,1	64,6	324,1
Import	181,5	35,0	15,8	11,8	244,1
Saldo	-99,7	41,6	85,3	52,8	80,0
	2003 yil				
Tovar aylanmasi	295,2	76,4	145,8	89,6	607,3

Eksport	99,1	50,1	121,5	75,6	346,3
Import	196,1	26,3	24,3	14,0	260,7
Saldo	-97,0	23,8	97,2	61,6	85,6
		2004 yil			
Tovar aylanmasi	425,9	68,1	184,8	159,4	838,2
Eksport	184,7	43,6	147,2	143,8	519,3
Import	241,2	24,5	37,6	15,6	318,9
Saldo	-56,5	19,1	109,6	128,2	200,4
		2004 yilda 1995 yilga nisbatan, %			
Tovar aylanmasi	93,4	66,5	80,7	64,0	80,9
Eksport	77,6	63,8	94,3	95,6	84,7
Import	110,7	71,8	51,5	96,9	75,3
Saldo	-	-	-	-	-


Mamlakatlarda amalga oshirilayotgan import o'rnini bosish siyosati natijasida ko'plab ehtiyojlarni ichki ishlab chiqarish evaziga qoplash imkoniyati paydo bo'ldi. Masalan, O'zbekistonda g'alla va energetika mustaqilligiga erishish don va yoqilg'i resurslari importining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi. Bu mahsulotlarning aksariyat qismi Markaziy Osiyo mamlakatlaridan sotib olinar edi.

Mintaqa respublikalarida amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish siyosati rivojlangan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni rag'batlantirdi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish va modernizatsiyalash yangi texnika va texnologiyalarni keng miqyosda sotib olishni taqozo etadi. Bunday texnika va texnologiyalarni esa faqat uzoq xorij mamlakatlaridan sotib olish mumkin;

Biroq, yana shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalari 2002 yildan boshlab o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2002 yilga nisbatan 2004 yilda tashqi savdo aylanmasi 47,5 %ga, shu jumladan, eksport hajmi 60,2 foizga, import hajmi esa 30,6 %ga o'sgan.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalaridagi ijobiy holat shundan iboratki, respublikamiz ushbu mamlakatlar bilan tashqi savdoda ijobiy saldogaga ega. Agar 1995 yilda ushbu ijobiy saldo 189,3 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilga kelib bu ko'rsatkich 200,4 mln. dollarga etgan. Faqat Qozog'iston Respublikasi bilan tashqi savdo aloqalarida salbiy saldo shakllangan va 2004 yilda bu ko'rsatkich 56,5 mln. dollarga teng bo'ldi.

1-diagramma.



O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalaridagi o'zgarishlar natijasida mintqa mamlakatlari bilan o'zaro savdo aloqalarining jami savdo aloqalaridagi salmog'ida tegishli o'zgarishlar yuz berdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning mintqa mamlakatlari bilan o'zaro tashqi savdo aylanmasining jami tovar aylanmasidagi ulushi 1995 yilda 19,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilga kelib 10,7 %ga teng bo'ldi. Jumladan, taxlil qilinayotgan davr mobaynida Markaziy Osiyoga eksport qilingan mahsulotlarning jami eksportdagi ulushi 17,3 %dan 9,7 %gacha, importning ulushi 14,6 %dan 8,3 %gacha pasaydi.

Bundan tashqari integratsion aloqalarning jadalligini ko'rsatuvchi ikkinchi ko'rsatkich – o'zaro savdo aloqalarining YAIMdagi ulushida ham pasayish kuzatiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro savdo hajmining O'zbekiston YAIMdagi ulushi 1,2-1,4 %ni tashkil etadi, xolos. Vaholanki, XX asr 90-yillarining boshida mazkur ko'rsatkich 6-6,5 %ga teng edi.

YUqoridagi tahlil natijalaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga bog'liqligi pasaymoqda. Bu esa mintqa bozoridan etarli darajada foydalanilmayotganligini ko'rsatadi. Vaholanki, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish O'zbekiston uchun qator afzalliklarga ega.

Birinchidan, respublikamiz geografik nuqtai nazardan **anklav davlat** hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekistondan bevosita dengiz yo'llariga chiqish imkoniyati mavjud emas. Bu, o'z navbatida, transport xarajatlari bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi hamda mahsulot tannarxi va uning

raqobatdoshlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish esa katta transport xarajatlarini talab qilmaydi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar uchun yirik bozor hisoblanadi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan tayyor tovarlar energiya va material sig'iminining yuqoriligi, sifat darajasining nisbatan pastligi ularning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli tayyor mahsulotlarni uzoq xorij mamlakatlariga sotish ancha murakkab. Ichki bozor etarli darajada to'yinmagan Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa O'zbekiston tayyor mahsulotlari raqobatbardosh hisoblanadi.

Uchinchidan, mintqa mamlakatlarida bir turdagi tovarlarni katta miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Paxta, meva, sabzavot, ko'mir, gaz, neft, oltin mintaqadagi davlatlarning deyarli barchasida ishlab chiqariladi. Ana shu tarmoqlarda mahsulot miqdori va sifatini belgilash bo'yicha kelishuvlarga erishish, bu mahsulotlarni qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha yagona siyosatni yurgizish maqsadga muvofiq. Agar mintaqadagi respublikalar jahon bozoriga alohida chiqsalar, ular o'zaro raqobatchilarga aylanadilar, ularning birgalikda chiqishi mamlakatlar iqtisodiyotining bozor konyunkturasiga bog'liqligini pasaytiradi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

To'rtinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish boshqa sohalarda ham hamkorlik munosabatlarining faollashuviga olib keladi. Natijada yirik mablag'lar talab etuvchi ulkan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni birlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Ta'kidlash lozimki, savdo aloqalari mintaqada integratsion aloqalar rivojlanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Savdo aloqalarining rivojlanishi esa Markaziy Osiyoda bosqichma-bochqich erkin savdo zonalari, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va yagona iqtisodiy hudud shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- ✓ Mintaqada integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida, eng avvalo, milliy xo'jaliklarning tarmoq tarkibi takomillashadi, chunki iqtisodiy hudud doirasida moddiy ishlab chiqarishning samarali tarmoqlarini tanlash va kapital qo'yilmalarni iqtisod qilgan holda import qilish maqsadga muvofiq bo'lgan mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishdan voz kechish imkoniyati paydo bo'ladi;
- ✓ Mintaqaviy integratsion tashkilotga a'zo bo'lib kirgan har bir mamlakatda zamonaviy ixtisoslashgan ishlab chiqarish tarmoqlari shakllanadi. Buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari pasayadi, mahsulot ishlab chiqarishning texnik darajasi va sifati yaxshilanadi;
- ✓ Fan va texnika sohasida yagona siyosat yuritish va integratsiyaning chuqurlashuvi natijasida fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va uning natijalarini amaliyotga joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi;
- ✓ Mintaqa doirasida tovarlar umumiy bozorining shakllanishi natijasida o'zaro tovar ayirboshlash hajmi oshadi. Yirik miqdorda ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha yagona eksport siyosati yuritish natijasida esa ularning jahon bozoridagi mavqei yaxshilanadi, jahon bozori

kon'yunkturasidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun imkoniyat paydo bo'ladi;

- ✓ Markaziy Osiyo bo'yicha xizmatlar umumiy bozorining shakllanishi gorizontali iqtisodiy aloqalar rivojlanishini ta'minlaydi, qo'shma korxonalar, birlashmalar, firmalar tuzish imkoniyati yaxshilanadi. Natijada yangi, samarali xo'jalik aloqalari vujudga keladi va rivojlanadi;
- ✓ Mehnat resurslari umumiy bozorining shakllanishi natijasida mamlakatlararo ishchi kuchi harakati faollashadi, kadrlar tayyorlash va ulardan foydalanish samaradorligi oshadi, bandlik tarkibi takomillashadi.

4.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish istiqbollari

Eksport diversifikatsiyasi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xom ashyo) ulushining katta bo'lishiga barham berilishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish eksport hajmining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zgarishlarga ta'sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Tashqi savdo aylanmasi diversifikatsiyasi – eksport va importning tovar nomenklaturasini va hamkor davlatlar sonining kengaytirilishi

Eksport tarkibida bir yoki bir necha tovarlar ulushining sezilarli darajada ortib ketishi bu tovarlar narxi pasaygan yoki ularga tashqi talab qisqargan holatlarda eksportchi korxonalarni og'ir ahvolga solib qo'yishi mumkin. Buning natijasida eksport hajmining qisqarishi valyuta tushumlarining kamayishi, tashqi savdo balansining yomonlashuvi va korxonalar moliyaviy ahvolining tanglikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, eksport umumiy hajmining kam sonli davlatlarga bog'lanib qolishi ham qaltis holat hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ma'ruzada ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar etkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

Pragmatizmga asoslangan siyosat. Keyingi vaqtda jahon bozorida narxi keskin tushib ketgan xom ashyo resurslarini eksport qilish amaliyotidan imkon qadar tezroq qutilib, tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar etkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirishimiz kerak.²

Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikatsiya qilish, ularni import qiluvchi mamlakatlar geografiyasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir

² «Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир». Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2009 йилнинг асосий якунлари ва 2010 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 29 январда бўлиб ўтган мажлисидаги номли маърузаси

guruhining iqtisodiyotida muammolar ro'y berganda ham eksport hajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobiy siljishlarga erishish, uning hajmini barqaror o'stirish imkonini bermoqda (4.4.1-rasm).

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublikamiz tashqi savdo aylanmasi muttasil o'sib bormoqda. Xususan, bu ko'rsatkich 2009 yilda 21209,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2005 yilga nisbatan 2,23 marta o'sdi. Eksport hajmining 2009 yilda 2008 yilga nisbatan o'sishi 2,4 foizni tashkil etdi.



4.4.1-rasm.

Ayni chog'da, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirida ko'pchilik mamlakatlarda eksport hajmining keskin qisqarishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2009 yilda eksport hajmlarining qisqarishi Rossiya Federatsiyasida 44,2 foizni, Ukrainada 48,7 foizni, Qozog'istonda 47,7 foizni tashkil etdi.

2000-2009 yillar davomida ekport va importni diversifikasiya qilish, uning tarkibini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi (4.4.1-jadval).

4.4.1-jadval.

O'zbekiston eksportining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000 yil	2005 yil	2008 yil	2009 yil
Eksport jami (mln. AQSH doll.)	3267,6	4853,0	11493,3	11771,3
Eksport jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
SHu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Paxta tolasi	27,5	19,1	9,3	8,6
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	2,9	5,3	5,6	5,0
Qora va rangli metallar	6,6	9,2	7,0	5,0

Mashina va uskunalar	3,4	8,4	7,6	2,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	3,8	4,5	6,0
Energiya resurslari	10,3	11,1	24,7	34,2
Xizmatlar	13,7	12,2	10,4	8,8
Boshqalar	30,2	30,5	30,9	29,5


Xususan, boshqa tovarlar pozitsiyalari bo'yicha eksport hajmining jadal o'sishi paxta tolasining jami eksportdagi ulushini 2000 yildagi 27,5 foizdan, 2008 yilda 9,3 foizga, 2009 yil yakunlariga ko'ra esa 8,6 foizgacha pasayishiga olib keldi.

2000-2009 yillarda respublikamiz importi tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Mamlakatni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish tadbirlarining keng miyosda amalga oshirilishini ta'minlash jami import hajmida mashina va uskunalar importi ulushining jadal o'sishiga olib keldi (4.4.2-jadval).

4.4.2-jadval. O'zbekiston importining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000 yil	2005 yil	2008 yil	2009 yil
Import jami (mln. AQSH doll.)	2944,5	4091,3	9704,0	9438,3
Import jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
SHu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	13,6	13,6	11,6	11,1
Qora va rangli metallar	8,6	10,3	7,7	6,3
Mashina va uskunalar	35,4	43,3	52,4	56,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	7,0	8,3	9,0
Energiya resurslari	3,8	2,5	4,6	5,3
Xizmatlar	8,5	10,4	4,4	4,4
Boshqalar	17,8	12,9	11,0	9,2

Tashqi savdo aylanmasi, xususan eksportning geografik tarkibida MDH mamlakatlarining ulushi 2009 yil yakunlariga ko'ra 33,9 foizni tashkil etdi (4.4.2-rasm). 2009 yilda mamlaktimiz korxonalari eksportining 21,0 foizi Rossiya Federatsiyasi, 7,2 foizi Ukraina, 6,2 foizi Qozog'iston hissasiga to'g'ri keldi.



4.4.2-rasm

Eksportning geografik tarkibi – alohida qit’a mamlakatlari, mamlakatlar guruhlari, yoki alohida mamlakatning mamlakat eksportidagi ulushlari nisbati.

O’zbekiston iqtisodiyotining strategik hamkorlari va asosiy sarmoyadorlari. Jami eksport tarkibida uzoq xorij davlatlariga qilingan eksportning ulushi 2008 yilda 65,8 foizni, 2009 yilda esa 66,7 foizni tashkil etdi. Bu mamlakatlar bo’yicha mamlakatimiz eksportining difersifikasiyalashuv darajasi nisbatan yuqori bo’lmoqda. Jumladan, 2009 yil ma’lumotlariga ko’ra, faqat Xitoy (9,7%), SHveytariya (7,9%), Afg’oniston (3,3%), Turkiya (3,2%), Eron (2,7%), Germaniya (2,2%), AQSH (1,7%) mamlakatlariga eksport hajmining mamlakatimiz eksportidagi ulushi 1 foizdan ko’proqni tashkil etadi.

Respublikamiz eksporti va importining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish bir qator vazifalarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, yoki ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish mumkin bo’lgan mahsulotlarga bo’lgan talabni o’rganish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Jahon bozorlarida korxonalarimiz mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- eksport qiluvchi korxonalarga mahsulot tayyorlash va sotish xarajatlarini kamaytirishda ko’maklashish;
- ularni tashqi bozor kon’yunkturasidagi o’zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to’g’risida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish;
- transport-kommunikasiya tizimlarini rivojlantirish;
- yangi transport yo’laklarini ochish orqali transport xarajatlarini kamaytirish va h.k.

Bu borada har bir tarmoq uchun ishlab chiqilishi ko’zda tutilayotgan 2010-2012 yilga mo’ljallangan tayyor mahsulotni yangi tashqi bozorlarga chiqarish

bo'yicha maxsus dasturlarda eksport hajmini oshirish, eksport qilinadigan yuklarni tashish tizimini takomillashtirish, eksportchi korxonalarni marketing, moliya va tashkiliy-huquqiy qo'llab-quvvatlash masalalari o'z aksini topadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini diversifikasiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

Asosiy tushunchalar va atamalar

Tashki iqtisodiy faoliyat; «O'zbektashkisavdo» davlat agentligi; Tashki iqtisodiy alokalar davlat kumitasi; Tashki iqtisodiy alokalar vazirligi; Tashki alokalar milliy banki; Bojxona xizmati; Maxsulotlarning tashki bozorlardagi xarakati; Milliy eksportchilarning raqobatbardoshligini oshirish; Tashki iqtisodiy alokalar infrastrukturasini; Tashki bozorlarni urganish; Marketing tadqiqotlari va strategiyasi; Tashki iqtisodiy alokalarni erkinlashtirish; Import boj tuloqlari; Korxonalarning tashki bozorga mustakil chikishi; Importni boshkarishning tarif tizimi; Jaxon bozori kon'yukturasi; Tashki savdo operatsiyalari; Respublikani tashqi savdo yo'nalishlari; Eksport yunalishli ishlab chikarishni rivojlantirish; Eksportni rag'batlantirish; Eksportchilar uchun imtiyozlar; Xorijiy kompaniyalar ishtirokida kushma korxonalar; O'zbekiston Respublikasi dunyo globallashtirish jarayoniga kushilishi; Iqtisodiy xamkorlik tashkiloti (EKO) dasturi; Evropa ittifoqining TISIS va TRASEKA (Evropa-Kavkaz-Osiyo transport yulagi) dasturi; Eksport-import operatsiyalarida transport xarajatlari; Transport yulaklari va tranzit marshrutlari; Eksport tarkibi; Tashki savdo xajmining saldosi; Tashki savdo geografiyasi; Tashqi iqtisodiy faoliyatning investitsiyaviy, qonuniy va huquqiy bazasi; Eksport xajmini kengaytirish; Maxalliy xom ashyodan maxsulot ishlab chikarishni kupaytirish siyosati; Import tarkibi; Milliy sanoatni zamonaviylashtirish; Mamlakatlar o'zaro tashqi savdo almashinuvi hajmi; O'zaro tovar almashinuvinin mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushi; Import o'rnini bosish siyosati; O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan o'zaro tashqi savdo aylanmasi; Anklav davlat; Mintaqada integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi; Eksport diversifikasiyasi; Tashqi savdo aylanmasi diversifikasiyasi; Pragmatizmga asoslangan siyosat; Eksportning geografik tarkibi; O'zbekiston iqtisodiyotining strategik hamkorlari va asosiy sarmoyadorlari.

5 – Mavzu: Xalqaro kapital migratsiyasi

- 5.1. CHetga kapital chiqarish xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shaklidir.
- 5.2. Kapital chiqarishning sababi va mohiyati
- 5.3. To'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalari
- 5.4. Jahon iqtisodiyotida Transmilliy korporatsiyalar (TMK).
- 5.5. Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy xududlar

5.1. CHetga kapital chiqarish xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shaklidir

Hozirgi kunda kapitalning xalqaro harakati jahon xo'jaligining va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon xo'jaligi rivojlanishining yanada chuqurlashib borishi tovarlar harakatining monopoliyasini yo'qotdi. U tovarlar harakatini to'ldirib va unga sharoit yaratib xalqaro iqtisodiy munosabat tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma'lumotiga ko'ra 80-yillarda bevosita investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 34 %ga teng bo'ldi va bu jahon savdosi o'sish sur'atlaridan 5 barobar yuqori bo'ldi.

Kapitalning chiqarilishi - bu, biror mamlakat milliy kapitalining bir qismi boshqa mamlakatning ishlab chiqarishi va muomalasiga tovar yoki pul shaklida kiritilishidir. Dastlab, kapitalning chiqarilishi jahon xo'jaligining chekka qismlariga kapital eksport qiluvchi bir necha rivojlangan mamlakatlarga xos edi. Jahon xo'jaligining rivojlanishi bilan bu jarayon ancha keng tus ola bordi va kapital chiqarilishi har qanday rivojlanayotgan iqtisodiyotning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Hozirgi kunda kapitalni yirik sanoati rivojlangan mamlakatlar ham, o'rtacha rivojlangan mamlakatlar ham, rivojlanayotgan mamlakatlar ham chetga chiqaradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida ayniqsa, "yangi industrial davlatlar" bu borada faol bo'lib bormoqdalar.

Kapital chiqarilishining asosiy sabablaridan biri, bu muayyan bir mamlakatda kapitalning ko'payib ketishi, ortiqcha jamg'arilishdir. Natijada bu kapitaldan foiz yoki foyda olish maqsadida u boshqa mamlakatlarga chiqariladi. SHunisi qiziqki, kapitalning chetga chiqarilishi mamlakat ichida ichki investitsiya etishmayotgan paytda ham yuz berishi mumkin. 90-yillarning boshida dunyo bo'yicha chetga chiqarilishi mumkin bo'lgan ortiqcha kapital hajmi 180- 200 mlrd. dollarni tashkil etgan.

XX asrning 2-yarmidan boshlab chetga kapital chiqarish muntazam oshib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda kapital eksport qilishning o'sish sur'atlari ulardagi tovar eksportining o'sishidan ham, ichki yalpi milliy mahsulotning o'sish sur'atlaridan ham yuqoridir.

Natijada kapitalning xalqaro harakati yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Kapitalning xalqaro harakati mamlakatlar o'rtasida ko'chib yuruvchi va egalarga daromad keltiruvchi kapitallardir. Har bir mamlakat bir vaqtning o'zida ham kapital eksport qiluvchi, ham import qiluvchi bo'lishi mumkin.

Kapital bozorlari baynalminallashuvi jarayonining kuchayishi va 70-yillarning boshida uning yanada faollashuvi bozor iqtisodiyoti mamlakatlari o'rtasida kapitallar harakatining hajmi muntazam oshib borayotganligida to'liq namoyon bo'ladi. Buni bevosita va portfelni investitsiyalarining o'sib borayotganligida, qisqa va uzoq muddatli kreditlar hajmining oshayotganligida, evrovalyuta bozorida bajariladigan operatsiyalar ko'lamining o'sib borishida va boshqalarda yaqqol ko'rish mumkin. AQSH tadqiqotchilarining hisob kitoblariga ko'ra, 1993 yilda jahondagi butun moliya kapitalining miqdori 3 trln. dollarni tashkil etadi (1990 yilga nisbatan 3 barobar ko'p). Bu kapital xususiy shaxslarda to'plangan mablag'lar bo'lib, uning hajmi kuchli ettilik mamlakatlari davlat byudjetlari umumiy miqdorining 3/4 qismini tashkil etadi.

Kapital chiqarishning asosiy yo'nalishlari, ko'lamlari. Hududiy geografik nuqtai-nazardan qaraganda bu kapitallar harakati asosan sanoati rivojlangan mamlakatlardan chiqib kelishi namoyon bo'ladi. Kapitalning juda faol ko'chib yurishi asosan sanoati eng rivojlangan mamlakatlar o'rtasida boradi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi kapitallar harakatini bir necha xil darajada ko'rish mumkin:

1. Kuchli uchlik - "AQSH - G'arbiy Evropa - Yaponiya" mamlakatlari o'rtasida;

2. Boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida;

3. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning bir xil soha tarmoqlari o'rtasida.

Kapital ko'chib yurishining sub'ektlari nuqtai-nazaridan mikro va makro darajasi farqlanadi. Makro daraja - bu mamlakatlar o'rtasida kapitalning ko'chib yurishi. Uning hisoboti mamlakatlar to'lov balansida aks etadi. Mikro daraja - ichki korporatsiya kanallari orqali xalqaro monopoliyalar o'rtasida kapitalning ko'chib yurishi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin kapital ko'chib yurishining eng keng tarqalgan mintaqasi G'arbiy Evropa bo'ldi. Kapital import qilish bo'yicha Evropada Buyuk Britaniya oldingi o'rinni egallaydi. Bu mamlakat Evropaga ham SHarqdan, ham G'arbdan kelib turgan kapitallarning ko'pchilik qismini o'ziga jalb etadi.

Evropa Ittifoqi uchun ajratilgan amerika investitsiyalarining 40% ini, yapon investitsiyalarining 50% ini 80-yillarning oxirida Angliya o'ziga jalb qilib oldi. Har yili 300 dan ortiq chet el kompaniyalari Angliya iqtisodiyotiga o'z investitsiyalarini olib kiradilar. Angliya iqtisodiyotida hosil qilingan sof mahsulotning 20% i, band bo'lgan aholining 15%, qayta ishlash sanoatidagi kapital qo'yilmalarining 21% chet el kompaniyalari hissasiga to'g'ri keladi.

Ayni paytda bu 300 chet el kompaniyasi Angliya korxonalari umumiy sonining bor yo'g'i 2% ini tashkil etadi.

Evropa qit'asida eng yirik kapital eksportchilari bo'lib Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar, Norvegiya va SHveytariya hisoblanadi. Ularning chet elga kapital chiqarishi 1991 yilda 634 mlrd. dollarni tashkil etdi. G'arbiy Evropa o'z kapitalini asosan SHimoliy Amerikaga (1985 -1990 yillarda 123 mlrd. doll.) va SHarqiy Evropaga (shu yillarda 141 mlrd. doll.) yo'naltirdi. O'z navbatida AQSH kapital jalb qilish bo'yicha ham, kapital chiqarish bo'yicha ham sanoati

rivojlangan mamlakatlar ichida oldindadir. 1994 yilda chet el kompaniyalari AQSH ga 69 mlrd. doll. kapital kiritdilar. AQSH iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan investitsiyalarning 1/3 qismi mana shu kapital importi hisobiga amalga oshiriladi. Investitsiyalarning yalpi milliy mahsulotga nisbatan hissasini hisobga oladigan bo'lsak 1994 yilda Belgiya va Lyuksemburg eng ko'p kapital jalb qilgan mamlakatlar bo'lib, Niderlandiya esa eng ko'p kapital eksport qiluvchi bo'lgan.

AQSH va G'arbiy Evropaning bir-biriga investitsiya kiritishlarida asosan bir xil tarmoqlar - mashinasozlik va kimyo sanoatiga qo'yilmalar diqqatni tortadi.

Dunyo klassifikatsiyasida 90-yillarning birinchi yarmida eng yirik kapital chiqaruvchilar bo'lib Yaponiya (53%), SHveytariya va Tayvan hisoblanadilar. Kapitalni eng ko'p jalb qiluvchilar bo'lib esa - AQSH (27%), Buyuk Britaniya, Meksika va Saudiya Arabistoni hisoblanadi.

Kapital chiqarishning hozirgi paytdagi xususiyatlari uning ko'proq ishlab chiqarishga qo'yilishi bilan xarakterlanadi. Tadbirkorlik faoliyatida portfel investitsiyalari bilan qatnashishdan ko'ra bevosita investitsiyalarning salmoqi oshib bormoqda. CHet el investitsiyalari qazib oluvchi sanoatdan qayta ishlovchi sanoatga, hamda yangi qo'yilmalarinng 50% ni qamrab olayotgan xizmat ko'rsatish sohasiga oqib o'tmoqda.

Kapital bozorlarining baynalminallashuvi jarayoni 90-yillarda yaqqol namoyon bo'la boshladi. Bu baynalminallashuv 70-80 yillarda asosan bozor iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgan bo'lsa, 90-yillarda u rivojlanayotgan mamlakatlarga, avvalo Janubiy-SHarqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlariga tarqaldi.

Bu jarayon ushbu mamlakatlarda ichki moliyaviy salohiyatining o'sishi, valyutalari barqarorligining oshganligi, kredit to'lash qobiliyatining oshganligi, milliy moliya bozorlarining rivojlanishi natijasida yuz berdi.

Keyingi 20 yil ichida kapital ko'chib yurishining kuchayishi rivojlanayotgan mamlakatlar, va ayniqsa "yangi industrial mamlakatlar" bilan boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida yuz bermoqda. Kapital bozorida hozirgi kunda ham OPEK - neft eksport qiluvchi mamlakatlarning o'rni kattadir. Masalan, Quvayt davlatida xususiy sektorining chet mamlakatlarga investitsiyasi 1995 yilda 100 mlrd. doll.ni tashkil qildi. Davlat investitsiyalari esa 30 mlrd.doll.ga teng bo'ldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga qo'yilayotgan bevosita investitsiyalar asosan sanoati rivojlangan mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu investitsiyalar 1993 yil 65 mlrd. doll.ni tashkil qilgan bo'lsa, 1994 yilda u 74 mlrd. doll.ga etdi. Bu, 1991 yil ko'rsatkichidan ikki barobar yuqoridir. Investitsiyalarning asosiy ko'pchilik qismi Osiyo va Lotin Amerikasining 10-15 ta mamlakatiga to'g'ri keladi. CHet el investitsiyalarini jalb qilishda Xitoyning ham o'rni oshib bormoqda. Bu ko'rsatkich bo'yicha u 1993 yilda AQSH dan keyin 2-o'ringa chiqib, 26 mlrd. doll. investitsiya qabul qildi (1991 yilgi ko'rsatkichdan 6 barobar yuqori).

Xitoyga investitsiyalarning katta miqdorda kirib kelishiga mamlakat iqtisodiyoti yuqori sur'atlar bilan o'sib borayotganligi va siyosiy barqarorlik sabab bo'lmoqda. Xitoyda keyingi yillarda yalpi milliy mahsulotning yillik o'sishi 10-15 % ni tashkil qildi.

SHunday gurkirab o'sishga "Osiyo ajdarholari" va Lotin Amerikasining "YAngi industrial davlatlari" ham erishmoqdalar.

Sanoati rivojlangan davlatlar uchun rivojlanayotgan mamlakatlar orasidan juda ham qoloqlari kam qiziqish uyg'otmoqda. Bu davlatlarga kiritiladigan investitsiyalar miqdori bundan keyin ham kamayib boraveradi. 90-yillarda xorijiy investitsiyalarning umumiy oqimida juda qoloq mamlakatlar hissassi bor-yo'g'i 5-6 % ni tashkil qildi.

5.2. Kapital chiqarilishining sabablari va mohiyati

Katta daromad olish maqsadida chetga kapital chiqarishning asosiy sabablari quyidagilardir:

1. Kapital chiqarayotgan mamlakatda uning ortiqcha miqdori paydo bo'lishi.

2. Jahon xo'jaligining turli qismlarida kapitalga bo'lgan talab bilan uning taklifining mos kelmasligi.

3. Xorij mahalliy bozorlarida monopol hukmronlik qilish imkoniyatining mavjudligi.

4. Kapital kiritilayotgan mamlakatda arzon xom-ashyo va ishchi kuchlarining mavjudligi. Masalan, qayta ishlash sanoatidagi nemis ishchisiga nisbatan tayvan ishchisi 4 barobar, Braziliya yoki Meksika ishchisi 9 barobar, Rossiya ishchisi 54 barobar arzon turadi.

Amalda investitsiya kiritishning zarurligi juda ko'p sabablarning birgalikda investitsiya muhitini vujudga keltirishdan, hamda ayrim bozorlarning nisbiy arzonligidan kelib chiqadi.

Kapital chiqarilishiga va bu jarayonning o'sib borishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Milliy xo'jaliklarning bir-biriga bog'liqligining o'sib borishi kapital chiqarilishida asosiy hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi kapitalning xalqaro harakatiga katta ta'sir ko'rsatib, uning kuchayib borishiga imkon yaratadi. Kapital eksporti va ayniqsa, uning bevosita investitsiyalar shaklidagi ko'rinishi ishlab chiqarishning xalqaro miqyosga aylanishi va xalqaro mahsulotning ishlab chiqarilishida asosiy omil hisoblanadi.

Xalqaro mahsulot - bu katta xalqaro bozorlarda sotiladigan mahsulotlar har tomonlama talabga javob beradigan mahsulot bo'lib, bozorlarning geografik, milliy va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar sotilaveradi (avtomobillar, samolyotlar, radioelektronika mahsulotlari, kompyuterlar va b.)

2. Xalqaro sanoat kooperatsiyasining rivojlanishi natijasida transmilliy korporatsiyalarning o'z filiallariga investitsiya qo'yishlari. Turli mamlakatlardagi

alohida mustaqil kompaniyalar bir transmilliy korporatsiya doirasida tarmoq, texnologik, detallar ixtisoslashuvi bo'yicha hamkorlik o'rnatadilar. Kapital eksporti mana shu aloqalarning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

3. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini kuchaytirish, sanoatning ilg'or tarmoqlarini rivojlantirish va bandlik darajasini saqlash maqsadidagi iqtisodiy siyosati.

4. Rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloqlikdan chiqish uchun chet el kapitali yordamida iqtisodiyotini o'stirishga harakati.

5. Ekologik omillar ta'siri. Transmilliy korporatsiyalar rivojlangan mamlakatlarda ekologik talablarining kuchayishi natijasida ishlab chiqarishni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirib o'tkazadilar.

6. Kapital oqimi harakatini yo'naltirib turuvchi xalqaro moliya tashkilotlari ham kapital chiqarilishida muhim o'rin tutadilar.

Hozirgi davrda kapitallar harakatining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, kapital hech bir mamlakatga majburan olib kirilmaydi, aksincha kapitalni o'z mamlakatiga jalb qilish borasida kuchli raqobat yuz beradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, hamda sobiq socialistik davlatlarda to'qimachilik va tikuvchilik sanoatiga kapital jalb qilishda raqobat juda kuchlidir. 90-yillarda SHarqiy Evropa va MDH mamlakatlariga xorijiy kapitallar oqimi kuchayib ketdi. Asosiy oqim Vengriya, Polsha va CHexiyaga kirib keldi. Natijada, 1990-1995 yillarda bu mamlakatlar 2,4 mlrd. doll. investitsiya oldilar. Buning 50% iga yaqini Vengriyaga to'g'ri keldi. 1995 yilda G'arb mamlakatlarining SHarqiy Evropa mamlakatlariga kiritgan investitsiyalarining umumiy hajmi 10 mlrd. dollarga etdi. SHundan 2 mlrd. Rossiyaga to'g'ri keladi.

Asosiy qismi sharoiti qulay, iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatli kechayotgan mamlakatlarga tegdi. Bu, dunyo xo'jaligidagi kapitallar harakatiga xos umumiy yo'nalishdir.

Siyosiy barqarorlik, iqtisodiy tavakkallikning kamligi, yuqori foyda olish xususiy kapital uchun joyidan va vaqtdan qat'iy nazar jalb qiluvchi asosiy xususiyatlardir. Buni xususiy kapitalning rivojlanayotgan mamlakatlardagi harakati isbotlab bermoqda. Ikkinchi jahon urushidan keyin kapital chiqarish jarayoniga ta'sir qilgan umumiy xususiyatlaridan biri, bu sohaga davlatning boshqarish, nazorat qilish va rag'batlantirish nuqtai-nazaridan aralashuvining kuchayishi bo'ldi.

Jadval 5.2.1.

SHarqiy Evropaga kiritilgan bevosita chet el investitsiyalari (mln. doll.)

	1994	1995	1990-1995	1996-2000
Vengriya	1146	400	11200	2968
Polsha	1876	500	7148	1969
CHexiya	878	500	5666	5466
Slovakiya	187	00	775	150
Sloveniya	87	50	501	052
Albaniya	53	5	205	83

Bolgariya	105	50	412	423
Ruminiya	340	00	933	017

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda kapitalning ko'chib yurishiga davlatning ta'siri kapital eksport-importini milliy va davlatlararo miqyosda rag'batlantirishdan iboratdir. Davlatning kapitallar harakati bo'yicha siyosati kreditlar va portfel investitsiyalarining harakatidagi hamma to'siqlarni olib tashlashga qaratilgandir.

Bevosita investitsiyalar borasida esa davlat o'z milliy iqtisodiyotining manfaatlaridan kelib chiqib har qanday to'siqlarni qo'llashga borishi mumkin. Qiziqi shundaki, kapitalning chetga chiqishi, ya'ni eksporti, importiga qaraganda kam tartibga solinadi. Davlat tartibga solishning quyidagi choralarni qo'llaydi:

1) Moliyaviy ta'sir ko'rsatish usullari: amortizatsiyani tezlashtirish, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va qarz berish, kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash.

2) Moliyaviy bo'lmagan usullar: er uchastkalari ajratish, zarur infrastruktura bilan ta'minlash, texnika yordami ko'rsatish.

Xorijiy investitsiyalarni tartibga solish bo'yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligi doirasida ishlab chiqilgan (Jakarta, 1994 y.) bevosita chet el investitsiyalarining "Ixtiyoriy kodeksi" eng qo'llanishga qulay hisoblanadi. Bu "kodeks" dan kelajakda jahon savdo tashkiloti ham foydalanishi ko'zda tutilmoqda. Unda quyidagi **investitsion iqlim** tamoyillari belgilab berilgan:

- ◆ chet el investorlari uchun milliy rejim;
- ◆ transparentlik;
- ◆ investitsiya beruvchi mamlakatlarga ayri qaramaslik;
- ◆ sog'liqni saqlash, mudofaa, tabiatni muhofaza qilish uchun investitsiyalarni rag'batlantirish;
- ◆ savdo va kapital qo'yilmalari o'sib borishini cheklovchi talab qo'yish orqali investitsiyalarni tartibga solishni kamaytirish;
- ◆ milliy qonunlar va xalqaro huquq tamoyillari asosida to'liq va samarali qoplashdan iborat jamiyat manfaatlaridan tashqari holatda investitsiyalarni tortib olib qo'ymaslik;
- ◆ ro'yxatga olish va konvertirlashni ta'minlash;
- ◆ kapital chiqarishdagi xilma-xil to'siqlarni yo'qotish;
- ◆ investitsiyalarni ikki tomonlama soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik;
- ◆ kiritilayotgan mamlakatdagi mahalliy qonun va ma'muriy qoidalarga milliy investor bilan bir xil darajada chet el investorlarining ham amal qilishlari;
- ◆ investitsiya loyihasini amalga oshirishda qatnashuvchi chet ellik asosiy shaxslarning kirib kelishiga va vaqtincha yashab turishiga ruxsat berish;
- ◆ yuzaga kelgan bahs munozaralarni maslahatlar va muzokaralar yoki arbitraj orqali echish;

Hayot shuni ko'rsatdiki, investitsiyalarni jalb qilishda rag'batlantirish siyosatiga nisbatan bozor omillari ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Xorij investitsiyalarining jalb qilishda iqtisodiy erkinlik, bozor mexanizmlarining erkin faoliyati asosiy mezon hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishiga davlatning aralashuvini amerikalik iqtisodchilar bir-biridan farq qiluvchi 10 ta ko'rsatkich bilan ifodalaydilar:

- ◆ savdo siyosati;
- ◆ soliqqa tortish;
- ◆ pul-kredit siyosati;
- ◆ bank tizimining faoliyati;
- ◆ chet el investitsiyalarini huquqiy tartibga solish;
- ◆ mulkchilik huquqi;
- ◆ mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar ist'emolida davlatning hissasi;
- ◆ iqtisodiy rag'batlantirish siyosati;
- ◆ mamlakatda mavjud bo'lgan "yashirin bozorning ko'lami";
- ◆ narxlarni shakllantirish va ish haqini tartibga solib turish.

Har bir ko'rsatkich bo'yicha mamlakat 1 dan 5 ballgacha oshishi mumkin (davlatning iqtisodiyotga aralashuvining eng kam va eng ko'p darajasi).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1995 yilda eng erkin iqtisodiyot sifatida Gongkongniki tan olindi. Bu hudud bank ishi va pul siyosatidan tashqari, har bir ko'rsatkich bo'yicha 1 balldan baholangan. Xitoyda esa bu ko'rsatkich davlatning aralashuvi eng katta ekanini ko'rsatadi. SHunga qaramasdan, Xitoy har yili ko'p milliardlab investitsiyalarni o'ziga jalb qilmoqda. Bu esa, iqtisodiy erkinlik darajasining kamligi hamma vaqt ham chet el kapitali uchun to'siq bo'laolmasligini ko'rsatadi.

5.3. To'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalari

Kapital chiqarilishining asosiy shakllariga quyidagilar kiradi:

- ◆ bevosita investitsiyalar (sanoat, savdo va boshqa korxonalarga).
- ◆ portfel investitsiyalari (chet mamlakat obligatsiyalari, aktsiyalari va qimmatbaho qog'ozlariga kapital qo'yish).
- ◆ qisqa va uzoq muddatli xalqaro kreditlar (ssuda kapitali shaklida sanoat va savdo korporatsiyalariga, banklarga va boshqa moliya tashkilotlariga).
- ◆ rivojlanishga rasmiy iqtisodiy yordam (tekinga va imtiyozli kreditlar shaklida).

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda kapitalning ko'chib yurishi bilan chet el investitsiyalari o'rtasidagi farq aniq ajratiladi.

Kapitalning ko'chib yurishiga quyidagilar kiradi: xorijiy sheriklar bilan bajarilgan ishlar bo'yicha to'lovlar, beriladigan qarzlar (5 yilgacha muddatga), kapital qo'yish maqsadida xorijiy kompaniyalarning aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish, qimmatbaho qog'ozlar portfelini diversifikatsiyalash (turlarini ko'paytirish) va x.

CHet el investitsiyalari - kapital kiritilgan mamlakatlardagi kompaniya ustidan nazorat o'rnatish va uni boshqarishda qatnashish maqsadida kapitallarning ko'chib yurishi hisoblanadi.

Kapitalning bevosita investitsiya shaklida kiritilishi chet mamlakatda o'z ishlab chiqarishini tashkil qilish sifatida yuz beradi. Bu yana ishchi kuchlarini o'qitish va tayyorlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatga kirishishdir.

Bevosita investitsiyalar xalqaro korporatsiyalarning jahon bozorida hukmronlik qilishida asosiy vositadir. Ular bevosita investitsiyalar yordamida xorijiy korxonalar ustidan to'liq egalik qiladilar yoki aktsiyadorlik kapitalining shunday hissasiga ega qiladilarki, natijada bu korxonalarni chetdan turib nazorat qilishga erishadilar. Bu investitsiyalarning xususiyati shundaki, investitsiya kiritilgan kompaniyaning kamida 25% aktsiyalari investor qo'lida bo'ladi. AQSH, Germaniya, Yaponiya hisobot tizimida aktsionerlik kapitalida 10 va undan ortiq foizni egallagan va nazorat qilish imkoniyatini beradigan sarmoyalar bevosita investitsiyalar deyiladi.

P.X.Lindertning fikricha "bevosita va portfel investitsiyalari o'rtasidagi farq - kapital qo'yiladigan firma ustidan nazorat qilish yoki qila olmaslik masalasidan kelib chiqadi".

CHet el investitsiyalarining mamlakatlar va sanoat tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi hozirgi jahon iqtisodiyotining tuzilishini, dunyo xo'jaligining turli qismlari o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi. Bevosita investitsiyalar kiritish bo'yicha sanoati rivojlangan mamlakatlar eng ilg'or hisoblanadi. Bevosita investitsiyalar oqimining 80% ini egallagan bu mamlakatlar bir vaqtning o'zida ham kapitalning yirik eksportchilari va ham importchilari sifatida namoyon bo'ladilar.

Xorij mamlakatlariga bevosita investitsiya kiritish hajmi 1990 yilda rekord ko'rsatkichga ega bo'lib 234 mlrd. dollarni tashkil etdi. Keyinchalik bir oz pasaygan bu ko'rsatkich, keyin yana ko'paya boshladi. Bevosita xorij investitsiyalarining dunyo bo'yicha hajmi 1995 yilda 235 mlrd. dollarni tashkil etdi va umumiy hajmi 2,6 trln. dollarga etdi.

Portfel investitsiyalari - markaziy va xususiy banklar, hamda yirik korporatsiyalar tomonidan chiqarilgan qarz obligatsiyalarini moliyalashtirish uchun chet el kapitalini jalb qilishda muhim o'rin tutadi. CHet el portfel investitsiyalarini kiritishda vositachi sifatida ko'pincha yirik investitsiya banklari qatnashadilar.

Portfel investitsiyalarining harakatiga ayrim mamlakatlarda obligatsiyalarga to'laydigan foiz stavkalarining turlicha bo'lishi katta ta'sir ko'rsatadi.

II-jahon urushidan keyingi davrda kapital eksportining tarkibida katta o'zgarishlar yuz berdi va bu jahon xo'jaligi rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu o'zgarishlarning asosiylari 70-80 yillarda xalqaro kreditlarning juda katta miqdorda o'sishi va jahon moliya-kredit kapitalining paydo bo'lishidir. Bu davrda ssuda (qarz) kapitalining ahamiyati keskin oshib ketdi. Ssuda kapitalining xalqaro bozori ikki turga ajratiladi:

- a) pul bozori;
- b) kapitallar bozori.

Asosiy qarz beruvchilar bo'lib, birinchi navbatda xalqaro korporatsiyalar gavdalanadilar.

Pul bozori - bu asosan qisqa muddatli (1 yilgacha) kreditlar bozoridir. Bunday kreditlar aylanma mablag'lar etishmasligini to'ldirish uchun ishlatiladi. Kapitallar bozori - bu asosan bank krediti va uzoq muddatli qarzlardir. Ular obligatsiyalar chiqarish va ularni sotib olish tarzida amalga oshiriladi.

Ssuda kapitalining xalqaro bozori uchun 60-yillarda qisqa muddatli operatsiyalar xarakterli bo'lgan bo'lsa, 70-80 yillarga kelib o'rta va uzoq muddatli kreditlar juda tez ko'paydi.

Jadval 5.3.1.

1999-2003 yillarda dunyo kapital bozoridagi yirik qarz beruvchi va qarz oluvchi mamlakatlar (jamiga nisbatan % hisobida)

Qarz beruvchi mamlakatlar		Qarz oluvchi mamlakatlar	
YAponiya	53	AKSH	27
SHveytariya	8	Buyuk Britaniya	9
Tayvan	6	Kanada	8
Gollandiya	6	Meksika	6
Germaniya	5	Saudiya	
Gonkong	5	Arabistoni	6
Belgiya	4	Ispaniya	5
Xitoy	2	Italiya	5
Boshqalar	11	Avstraliya	5
		Boshqalar	29
Jami:	100	Jami:	100

O'rta va uzoq muddatli kreditlar - asosiy kapitalni to'ldirish, aksiyalar sotib olishni kreditlash va moliyalash, filiallar tashkil etish, chet el investitsiyalarini qayta barpo qilish va yaratish uchun foydalaniladi.

Xalqaro kapital bozorida 1995 yilda kreditlash hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga erishildi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 1994-1995 yillarda muddatli va muddatsiz qarzlar miqdori 258 mlrd. dollardan 388 mlrd. dollarga ko'paydi.

80-yillarda qarz kapitalini loyihaviy moliyalash, ya'ni aniq sanoat ob'ektlari uchun yirik kreditlar berish shakli keng tarqala boshladi. Amalda bu bevosita investitsiyaga o'xshash shakldir.

Kapital chiqarishning portfel investitsiyalari shakli jahon xo'jaligi taraqqiyotiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, kapitalning xalqaro qayta barpo qilinishi yuz beradi. Uning bayналминаллашуvi va moliya bozorlarining integratsiyasi sharoitida xalqaro iqtisodiy aloqalarning samaradorligi oshadi. Ikkinchi tomondan, kapital ko'chib yurishining nazoratsiz olib borilishi mamlakatlar to'lov balansi muvozanatining buzilishiga va ularda valyuta kurslarining o'zgarib turishiga olib keladi. Bundan tashqari, chet el kapitalini ko'plab import qilish milliy kapitalni cheklab qo'yishga olib keladi.

Rivojlanishga rasmiy iqtisodiy yordam. Bu jarayon dunyoning sanoati rivojlangan mamlakatlar tomonidan boshqa mamlakatlarga tekinga yoki imtiyozli kreditlar berishi tariqasida yuz beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish bo'yicha YAponiyadan keyin 2 nchi o'rinda turuvchi AQSH misolida bu jarayonni kuzatish mumkin. AQSH o'zida qabul qilingan "CHet mamlakatlarga qarz berish to'g'risidagi qonun"ga ko'ra 1994 yilda yordam uchun 13 mlrd. dollar (76% iqtisodiy va 24% g'arbiy maqsadlarda) ajratdi. Undan qarz olgan mamlakatlar orasida birinchi o'rinda Isroil (3 mlrd. doll), ikkinchi o'rinda Misr (2,1 mlrd. doll.) turadi. Bu yordamning 65% i tekinga va 35% imtiyozli kreditlar shaklida beriladi. AQSHning boshqa mamlakatlarga yordam berishi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi: mamlakatning milliy xavfsizligini ta'minlash; ochiq bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishga yordam berish; demokratiyani rivojlantirishga hissa qo'shish.

Iqtisodiy yordam ko'rsatishning dastlabgi davrlarida donor mamlakatlar tomonidan siyosiy va xarbiy strategik maqsadlar ko'zlangan edi. 70 yillarning o'rtalariga kelib yordam ko'rsatish siyosatida ustuvorliklar o'zgardi. Asosiy extiyojlarni qondirishga ko'maklashish va qashshoqlarga yordam ko'rsatish asosiy maqsad deb e'lon qilindi. 80 yillarda G'arbnning siyosati xalkaro qarzдорlikni tartibga solish dasturlari, tarkibiy qayta qurish strategiyasini amalga oshirish bilan yordam dasturini muvofiqlashtirish, xususiy sektorni va bozor munosabatlarini rivojlantirishga ko'maklashuv orkali tarkibiy va siyosiy isloxotlarni o'tkazish kayta yo'naltirildi. Insonni rivojlantirish maksadlari, qashshoqlikni kamaytirish etakchi strategik rejalar sifatida ikkinchi darajaga tushib koldi. «Boy mamlakatlardagi kambagal kishilar kambagal mamlakatlardagi boy kishilarga yordam beradi» ifodasi iqtisodiy yordam ko'rsatish bilan bog'lik vaziyatni aks ettiruvchi jarayon bo'lib qoldi.

Keyingi yillarda yordamning unchalik katta bo'lmagan kismigina kambagal mamlakatlarga tegadi yoki qashshoq kishilarning axvolini yaxshilashga ko'mak beradi. Kishi boshiga 250 dollardan katta bo'lgan yordam nisbatan yuqori rivojlangan mamlakatlarga va faqat kishi boshiga o'rtacha 1 dollardan to'g'ri keladigan yordam kambagal mamlakatlarga ajratiladi. Kishi boshiga xisoblanganda eng katta yordam oluvchi mamlakat Isroil (1988 yilda 280 dollar) xisoblanadi. Buning asosiy sababi milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlaridir. Ko'pchilik mamlakatlar yordam byudjetlarida kamtarlik bilan bu xaqda xech nima demaydilar, AQSH esa ochiqchasiga ko'rsataveradi. Prezident Kennedi, 1961 yilda ko'mak berish shunday usulki, uning yordamida AQSH dunyoda o'z ta'sirini va nazoratini saqlab qoladi deb ochiqchasiga aytgan edi. AQSH xususan, sof iqtisodiy maqsadlarga siyosiy va xarbiy maqsadlarga ko'ra ancha kam mablag ajratadi. Ular SHarqiy Evropa va sobiq SSSRdan ajralib chiqqan mamlakatlarga berayotgan yordamini xam bevosita strategik maqsadlarda ko'rsatadilar.

Jamoatchilikning talabi bilan ba'zi ko'ngillilar tashkilotlari orqali mablag' berishga xarakat qiladilar. Industrial rivojlangan mamlakatlarda 1990 yilda 2,5 mingdan oshiq jamoat tashkilotlari (1980 yilda 1603) mavjud edi. Xomiylik tashkilotlari orqali tarqatiladigan davlat va xususiy mablag'lari rivojlanish uchun ajratiladigan rasmiy yordamning 13% ini tashkil etadi. Noxukumat tashkilotlari

xukumatlarga qaraganda kichik loyixalarni amalga oshirishga yaxshi ko'mak beradilar va maxalliy axolining extiyojlarini yaxshi tushunadilar.

Industrial rivojlangan mamlakatlar 90 yillarga kelib iqtisodiy yordam berishga e'tiborni kamaytirdilar. Yordamning xaqiqiy miqdorlari kamaydi, yordamning xajmi o'zgarmagan baxolarda 80 yillar o'rtalarining kursatkichidan oshmadi. Bunda dunyo saxnasida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar katta ahamiyat kasb etdi.

Xalqaro qarzdorlik muammosi XX asrning II yarmida paydo bo'lgan bo'lsada, 80-90 yillarga kelib bu muammoning murakkablashuvi 1982 yilda Meksikaning o'z qarzlarini to'lay olmaligini e'lon qilgan davrdan boshlandi. Yana bir qancha Lotin Amerikasi mamlakatlari qarzlari bo'yicha to'lovlarni qisman to'xtatdilar. Qarzdorlik muammosining murakkablashuvi ko'pgina mamlakatlarga tarqaldi va global tus ola boshladi.

Qarzdorlik muammosining murakkablashuviga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatdi.

1. 70-yillarning o'rtalarigacha rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi moliyaviy manba rivojlanish uchun yordam Qo'mitasiga a'zo mamlakatlarning rasmiy yordami, bevosita xususiy investitsiyalar va eksport kreditlari bo'lgan. 70-yillarning o'rtalaridan keyin esa bank kreditlarining xissasi ko'paydi. Bunda ayniqsa, transmilliy banklarning (TMB) kreditlari yuqori o'rin tuta boshladi.
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan kreditlarga bo'lgan talab keskin oshishiga jaxon xo'jaligi tarkibiy o'zgarishlar ta'sir ko'rsatdi. TMKlar tomonidan ba'zi an'anaviy ishlab chiqarishlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirib o'tkazish, kichinchi dunyoning ayrim mamlakatlari tomonidan investitsiyalarga talabni oshirdi.
3. TNBlar tomonidan beriladigan qarzlarning imtiyozli shartlarda ajratilish ularga bo'lgan talabni oshirib yubordi.
4. Kreditlash jarayonining dastlabki davrlarida TNBlar tomonidan bu qarzlarning neft import qiluvchi mamlakatlarda qanday maqsadlarda ishlatilishiga e'tibor berilmadi. Valyuta kurslarining barqarorsizligi, kuchli inflyatsiya va tadbirkorlik faoliyatining pasayishi davrida bu qarzdorlardan samarali foydalanish imkoni bo'lmadi.
5. Ko'pchilik xolatlarda bu qarzlar xukumatlarning joriy xarajatlarini moliyalashga, oldingi qarzlarni to'lashga ishlatilgan. Ayniqsa, 1972-1982 yillarda neft baxosining oshib ketishi bilan uni import qilishga ketadigan xarajatlar yangi olingan qarzlar xisobidan qoplangan.
6. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qarzlar bo'yicha joriy to'lovlarning (foizlar va qarzlarning qaytarilishi lozim bo'lgan qismi) eksportdan olinadigan daromadlar bo'lgan nisbati 10%dan 70 yillarning o'rtalarida 40%gacha ko'tarildi.
7. Qarzlarni to'lash muammosining keskinlashuviga yana bir sabab – bu qarzlarning asosiy qismi amerika dollarida berilishidir (1974-1984y 65-75%). 80 yillarning boshlarida dollar kursining oshib ketishi bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'z milliy volyutalarida katta mablag' ajratishga majbur qildi.
8. Tashqi qarzlarni to'lashning oshib borishi unga zarur bo'lgan mablag'larni yana qarz qilib olishga va kreditlarga talabning oshishiga olib keldi. Ammo banklar

rivojlanyotgan mamlakatlar uchun yangi ssudalar ajratishni keskin kamaytirdilar. Ular uchinchi dunyo mamlakatlarining iqtisodiy axvalidan kelib chiqib qarzlarning qaytarilmasligidan xavfsirab qoldilar. Bundan tashqari 1980-1982 yillardagi rivojlanayotgan mamlakatlar eksportiga talabni pasaytirib yubordi, bu esa yana qoloq davlatlarning daromadlarini kamaytirishga sabab bo'ldi. Natijada, qator rivojlanayotgan davlatlar o'z qarzlarini to'lay olmaydigan axvolda qoldilar. 1982 yilning oxirida 34ta mamlakat qarzlari bo'yicha to'lov muddatini cho'zib yubordilar. Bular ichida eng yirik qarzdorlar Argentina, Braziliya, Chili, Ekvador, Meksika, Ruminiya, Urugvay, YUGoslaviya bor edilar.

2007-2008 yillarda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yangi qarzdorlik muammolarini keltirib chiqardi. Inqiroz tufayli jahonning deyarli hamma rivojlangan davlatlari qarzi ko'payib katta muammolarni keltirib chiqardi. AQSH, Yaponiya kabi eng rivojlangan mamlakatlar qarzi ularning YAIM hajmidan oshib ketdi. Evropa Ittifoqi mamlakatlarining davlat qarzlari haddan oshib ketdi. Ayniqsa Gretsiya, Portugaliya, Ispaniya, Irlandiya davlatlarining qarzi qaytarib bo'lmaydigan tarzda oshib ketdi.

5.3.1-jadval
Ayrim mamlakatlarda byudjet taqchilligi, tashqi qarzlarning holati to'g'risida ma'lumot
YAIMga nisbatan

Mamlakatlar	Byudjet taqchilligi	Tashqi qarz
Italiya	5,3 foiz	115,8 foiz
Franziya	7,5 foiz	78,0 foiz
Portugaliya	9,3 foiz	76,0 foiz
Ispaniya	11,1 foiz	91,0 foiz
Buyuk Britaniya	11,4 foiz	68,0 foiz
Gretsiya	15,4 foiz	115,1 foiz
Irlandiya	32,0 foiz	116,0 foiz
O'zbekiston	0,3 foiz profiuit	10,0 foiz kamroq

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari

5.3.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, keyingi 4 yil mobaynida xususan, Evropa Ittifoqi davlatlari tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotlariga nisbatan salmog'i ortib borgan. Xususan, 2009 yilda AQSH tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i qariyb 90% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Rossiyada 37% ni, Qozog'istonda 102% ni, Ukrainada 64% ni tashkil etgan. Qirg'izistonda esa keyingi 3 yil mobaynida pasayish tendentsiyasi kuzatilib 2008 yilda 81% ni tashkil qilgan.

I.A. Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari” asarida O'zbekistonning umumiy tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 13,3% ni tashkil etmoqda, eksport hajmiga nisbatan esa 31% dan oshmasligi ta'kidlab o'tilgan. Bu o'z navbatida mamlakatimizning xalqaro darajadagi to'lov qobiliyatiga egaligini ifodalaydi.

Respublikamizda doimo qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatlarga, imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb

etildi. Natijada milliy iqtisodiyotimizning halqaro kreditlar bozorida kon'yunkturaga keskin bog'liqligini va moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarining oldi olindi.

2007-2008 yillarda o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 2,5 martadan ko'proq oshdi. Bu holat milliy iqtisodiyotimizning yuqori investitsion salohiyatga ega bo'layotganligi va hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan qulay investitsion muhit bilan bevosita bog'liqdir.

Natijada 2008 yilda 1,5 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi, ularning 70% to'g'ridan-to'g'ri jalb qilinadigan investitsiyalar ulushiga to'g'ri keladi. Jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar O'zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan real sektorlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan.

5.4. Jahon iqtisodiyotida Transmilliy korporatsiyalar (TMK)

Transmilliy korporatsiyalar xalkaro iktisodiy alokalar tizimida juda muxim urin tutib zamonaviy dunyo xujaligining asosiy xarakatlantiruvchi kuchlari bulib kolmokdalar.

Sanoati ilgor rivojlangan mamlakatlar tashki iktisodiy faoliyati moxiyatini aynan ularning transmilliy korporatsiyalari belgilaydilar. AKSH, Yaponiya va GFR mamlakatlari eksportida transmilliy korporatsiyalarining chet eldagi firmalariga tovar va xizmatlar etkazib berishi asosiy urin tutadi. 80-yillarning ikkinchi yarmida mana shunday firma ichidagi savdoga AKSH eksportining 14-20 % i, Yaponiyada 23-29 % i, GFR eksportining 24-28 % i tugri keldi.

Butun transmilliy korporatsiyalarining chet ellarga kilgan yalpi investitsiyalari xozirgi kunda savdo-sotikka nisbatan axamiyatlirokdir. TMK lar dunyo xususiy sektorining 1/3 kapitalini, bevosita xorijiy investitsiyalarning 90% ini nazorat kiladilar.

Transmilliy korporatsiyalar ishlab chikarishning tarmok tarkibi juda xam kengdir. Xalkaro kompaniyalarning 60 % i ishlab chikarish soxasida, 37 % i xizmat kursatish soxasida va 3 % i kazib olish sanoati va kishlok xujaligida ish yuritadilar. Xizmat kursatish soxasiga va ilgor texnologiyali ishlab chikarishga investitsiyalar ajratish keng tarkalmokda. SHu bilan birgalikda, kazib olish sanoatiga, kishlok xujaligi va resurs kup talab kiladigan ishlab chikarishlarga investitsiyalar ajratish kamaymokda.

Amerikaning "Forchun" jurnali ma'lumotlariga karaganda, dunyoning eng ilgor 500 ta TMK si uchun 4 ta majmua: elektronika, neftni kayta ishlash, ximiya va avtomobilsozlik majmualari asosiy urin tutadi. TMK larning 80 % maxsuloti shu majmualarda ishlab chikariladi.

Transmilliy korporatsiyalar investitsiyalarining xududiy tarmok yunalishi birmuncha uziga xos xususiyatlarga ega. Odatda ular, "yangi industrial mamlakatlar" va nisbatan rivojlangan, xamda rivojlanayotgan mamlakatlarning kayta ishlash sanoati tarmoklariga kapital kiritadilar. Bunday paytda, investitsiya oluvchi mamlakatlar urtasida rakobat yuz beradi.

Kambagal mamlakatlarga nisbatan transmilliy korporatsiyalar boshkacha siyosat yurgizib, kapitalni asosan kazib olish sanoatiga va tovar eksportini kuchaytirish maksadiga yunaltiradilar. Bunday paytda esa, uz tovarini maxalliy bozorlarda utkazish uchun TMK lar urtasida rakobat ketadi.

Xalkaro iktisodiy alokalar tizimida xar bir mamlakatning takdirini belgilashda transmilliy korporatsiyalarning urni kuchayib bormokda. TMK larda keng tus olgan ishlab chikarish, investitsiya, savdo faoliyati, ishlab chikarish va maxsulotlar taksimoti buyicha xalkaro tartibga solish va xatto, dunyodagi iktisodiy integratsiyalarga yordam berish imkoniyati mavjuddir.

1993 yil YUNKTAD ning TMKlar tugrisidagi dokladida BMT mutaxassislari transmilliy korporatsiyalarning tarixan davlat manfaatlari sirasiga kiruvchi soxalarga xam kirib borganligini kayd kildilar. Ammo, bu, dunyo iktisodiyotidagi integratsiya jarayonlari tulik ravishda TMK lar raxbarligida amalga oshadi degan fikrni bildirmaydi. Amaliyotda esa, TMK lar integratsiya, ishlab chikarishning baynalminallashuvi jarayonlariga maksimal foyda olish jarayonlari doirasidagina taosir kursatadilar, xolos.

Transmilliy korporatsiyalarning dunyo xujaligi va xalkaro iktisodiy alokalar tizimiga kursatayotgan ijobiy tomonlarini taokidlash bilan birgalikda, ularning joylashgan mamlakatlari iktisodiyotiga salbiy ta'sirlarini xam aytib utish kerak. Bularga:

- ◆ TMK joylashgan mamlakatlarning iktisodiy siyosatini amalga oshirishga kursatadigan karshiliklari;
- ◆ davlat konunlarini buzishi. Masalan, turli mamlakatlarda joylashgan TMK larning filiallari ijtimoiy narxlar siyosatini kullab, daromadlarini solikka tortishdan yashiradilar va maxalliy konunchilikni chetlab utmokchi buladilar;
- ◆ monopol baxolar urnatish, rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatiga teskari turuvchi shartlar kuyish kabilar misol buladi.

Jadval 6.4.1.

**Maxsulot va xizmatlar sotuvi bo'yicha dunyoning eng yirik 50 ta
transmilliy kompaniyalari**

t/r

1.

2.

3.

4. British
 Petroleum

5.

6.

7.

8.

9.

10.

11.

12.

13.

14.

15.

16.

17.

18.

19.

20.

21.

22.

23.

24.

25.

Umuman olganda transmilliy korporatsiyalar - bu, xalkaro iktisodiy alokalar tizimida murakkab va muntazam rivojlanib boruvchi tuzilmalar bulib, ular ustidan doimiy e'tiborni, urganishni va xalkaro nazoratni talab kiladi.

Garbiy Evropa davlatlari, Yaponiya va "yangi industrial davlatlar"ning ikkinchi jaxon urushidan keyingi tarixi shuni kursatadiki, milliy kapital transmilliy korporatsiyalar bilan rakobatlasha olish uchun faol tashki iktisodiy siyosat olib borish imkoniga ega bulgan birinchi moliya-sanoat birlashmasiga aylanishi kerak buladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ekspertlarining fikriga kura, transmilliy korporatsiyalar (TMK) "jaxon iktisodiyotining yuragi" xisoblanadilar. 90-yillarning urtalarida jaxonda 40 mingga yakin TMK faoliyat kursatdi. Ular uz mamlakatlaridan tashkarida 250 ming shaxobchalari va filiallari faoliyatini nazorat kilib turadilar.

TMKlar soni keyingi chorak asr davomida 5 barobardan ortik kupaydi (1970 yilda jaxonda xammasi bulib, 7 ming shunday korporatsiya bor edi). Eng yirik 100 ta xalkaro kompaniya mulki kiymatining 40 % i boshka davlatlar xududida joylashgan. TMKlarning asosiy kupchiligi AKSHda, Evropa Ittifoki mamlakatlarida va Yaponiyada tarkalgan.

TMKlar jaxon sanoat ishlab chikarishining 40 % ini, xalkaro savdoning yarmini nazorat kiladilar. TMKlar korxonalarida ishlab chikarilgan yillik maxsulot xajmi 1 trln. dollardan oshikdir. Ularda 73 mln. xodim ishlaydi, bu esa butun dunyoda ish bilan band bulganlarning 1/10 kismidir (kishlok xujaligini xisobga olmaganda).

Transmilliy korporatsiya deganda kandy tashkilotni tushunamiz, kandy kompaniyalarni ularning katoriga kushish mumkin? Xalkaro korporatsiyalar faoliyatini muntazam urganib kelayotgan BMT, yillik tovar aylanmasi 100 mln. dollardan oshadigan va kamida 6 ta mamlakatda filiallarga ega bulgan firmalarni transmilliy korporatsiyalar katoriga kiritib keladi. Lekin, keyingi yillarda, bunga ba'zi bir anikliklar kiritildi: endi firmaning xalkaro korporatsiya deb xisoblanishi - uning uzi joylashgan mamlakatdan tashkarida sotgan maxsulotining xissasiga karab belgilanadigan buldi. Bu kursatkich buyicha xozirgi kunda dunyoda eng ilgor korporatsiya bulib SHveytsariyaning "Nestle" firmasi xisoblanadi (98 % maxsulotini uzga mamlakatlarda sotadi).

BMT ishlab chikkan uslubga kura, xalkaro korporatsiyani uning mablaglari tarkibiga karab xam aniklash mumkin. Eng kup xorijiy mablaglarga ega bulgan korporatsiyalarga: ingliz-golland kompani "Royal-Dutch Shell" va undan keyin 4 ta AKSH firmalari - "Ford", "Jeneral Motorz", "Ekson" va "IBM" kiritiladi.

Demak, transmilliy korporatsiya deganimizda, bir yoki bir nechta mamlakat mablaglaridan tashkil kilinib, xalkaro mikyosda ishlab chikarish faoliyatini yuritadigan yirik kompaniyani tushunamiz.

Transmilliy korporatsiyalarning asosiy ish tartibi ishbilarmonlik faoliyati bulib, buni ular turli mamlakatlarda bulimlar va ikkilamchi kompaniyalar tashkil kilib olib boradilar. Ikkilamchi kompaniyalar ishlab chikarish, tayyor maxsulotni sotish, ilmiy-tadqiqot ishlari, isteomolchilarga xizmat kursatish kabi ishlarni nisbatan mustakil amalga oshira oladilar.

Xalkaro xukuk nukta-i-nazaridan xalkaro korporatsiyalarning asosiy belgilari kuyidagilardir:

- 1) bir nechta mamlakat aktsionerlik kapitalining mavjudligi;
- 2) raxbarlik markazi xam bir nechta mamlakat vakillaridan iborat bulishi;
- 3) xorijiy bulimlarning ma'muriyatini maxalliy sharoitlarni yaxshi biladigan kadrlar bilan tuldirish.

Keyingi xususiyat deyarli xamma TMKlarga xosdir.

Transmilliy korporatsiyalarning paydo bulish sabablari nimada?

Umumiy sabablardan biri, bu ishlab chikaruvchi kuchlarning rivojlanib milliy davlat chegaralaridan chikib ketishi natijasida ishlab chikarish va kapitalning baynalminallashuvidir.

Ishlab chikarish va kapitalni baynalminallashuvi xujalik alokalarini kuchaytirib yirik kompaniyalar tomonidan xorijda uz bulimlarini ochishga va milliy korporatsiyalarning TMKlarga aylanishiga olib keladi.

Transmilliy korporatsiyalar paydo bulishining anik, muayyan sabablaridan biri esa, bu katta foyda olish ilinjidir. Uz navbatida kuchli rakobat va unda engib chikishga xarakat kilish xam ishlab chikarish va kapitalning xalkaro mikyosida yiriklashuviga va TMK larning paydo bulishiga olib keladi.

Dunyo xujaligida kechayotgan ob'ektiv iktisodiy jarayonlarning mevasi bulgan TMK lar, bir kator uziga xos xususiyatlarga ega:

- ◆ TMKlar xalkaro mexnat taksimotining faol ishtirokchilari bulib, uning rivojlanishiga katta taosir kursatadilar;

- ◆ Transmilliy korporatsiyalar kapitalining xarakati TMK joylashgan mamlakatdagi yuz beradigan jarayonlardan katoiy nazar amalga oshaveradi. TMKlar dunyoning kupchilik mamlakatlarida uz bulimlari va

shaxobchalarini joylashtirib xalkaro ishlab chikarish tizimini yuzaga keltiradilar;

◆ Transmilliy korporatsiyalar katta investitsiyalar va yukori malakali xodimlarni talab kiladigan ilgor texnologiyali, ilm talab ishlab chikarish tarmoklariga kirib boradilar. Ayni paytda, TMKlar tomonidan bu tarmoklarni monopoliyalashtirishga xarakat kuzatiladi.

80-yillarning urtalarida kapitalistik dunyo sanoat maxsulotlarining 3/4 kismi 2 mingta yirik korporatsiya tomonidan ishlab chikarildi. Eng yirik 500 ta transmilliy korporatsiyalarning 85 tasi butun xorijiy investitsiyalarning 75 % iga egalik kiladilar. Bu 500 ta yirik korporatsiya elektronika va ximiya maxsulotlarining 80 % ini, farmauevtikada 95 % ini, mashinasozlik maxsulotlarining 76 % ini ishlab chikarib sotadilar.

Garb iktisodchilari bashorat kilishicha, 2000 yilga borib, dunyo xujaligida 300-600 ta TMK xukmronlik kiladi. Binobarin, 300 ta korporatsiya dunyo yalpi milliy maxsulotining 75 % ini ishlab chikarmokda, uz ishlab chikarish va xizmatlari turini kupaytirdi. Masalan, SHveçiyaning "Volvo" avtomobil konuèrni nafakat dunyoga mashxur avtomobillar ishlab chikaradi, balki uning turli maxsulotlar ishlab chikarishga ixtisoslashgan SHveçiya va chet ellarda joylashgan 30 ta ikkilamchi kompaniyasi bulib, ular katerlar va samolyotlar uchun motorlar, ozik-ovkat maxsulotlari va xatto pivo ("Pripps") xam ishlab chikaradi. Uz navbatida AKSHning 500 ta yirik transmilliy korporatsiyasi urtacha olganda 11 ta tarmokda, eng kuchlilari esa 30-50 ta tarmokda uz korxonalariga ega.

TMK lar kuchli ishlab chikarish bazalariga ega bulib, ishlab chikarishni, tovarlar bozorini yukori samarada rejalashtirish imkonini beradigan ishlab chikarish-savdo siyosatini yurgizadilar. Rejalashtirish birlamchi kompaniya tomonidan amalga oshirilib, ikkilamchi kompaniyalarga tarkatiladi.

TMKlar va yangi industrial davlatlar. TMKlar faoliyatini xalqaro boshqaruv. Dunyo xo'jaligining 60 yillar oxiridagi rivojlanishida shunday holat yuz berdiki, bunda transmilliy korporatsiyalarning manfaatlari va rivojlanish strategiyasi qator Osiyo davlatlarining imkoniyatlari va intilishlariga muvofiq keldi. Transmilliy korporatsiyalar rivojlanaetgan mamlakatlarda importning cheklanganligi va to'lov qobiliyatining pastligini hisobga olib, istiqbolli bozorlarni yo'qotmaslik uchun tovar eksporti o'rniga kapital kiritib o'sha erning o'zida ishlab chiqarishni tashkil qilishga o'tdilar.

Transmilliy korporatsiyalarni bunday xarakat qilishga rivojlangan mamlakatlar bozorlarining to'liq egallanganligi, raqobatning kuchayishi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun kurash majbur qildi. O'zlari ishlab chiqarishni tashkil qilgan joylarida transmilliy korporatsiyalar ilm talab mahsulotlarni yaratishga harakat qiladilar. Ayni paytda, "osie ajdarxolari" jaxon xo'jaligidagi bunday o'zgarishlarga va undan o'z manfaatlarida foydalanishga tayer ekanligini namoyish qildilar.

Transmilliy korporatsiyalarning aynan Osiyo mintaqasiga jalb qilinishida quyidagi holatlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1. "YAngi industrial mamlakatlarning" qulay geografik o'rni. Ularning hammasi dunyoning savdo va iqtisodiy yo'llari kesishgan joyda, hamda dunyo xo'jaligining markazlari - AQSH va Yaponiyaga yaqin joylashganlar.

2. Deyarli hamma "yangi industrial mamlakatlarda" rivojlangan mamlakatlar siyosatini qo'llab quvvatlaydigan xokimiyat rahbarlik qiladi. Ularda siyosiy barqarorlik ta'minlangan bo'lib, demokratik va siyosiy qayta qurishlar iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishga yo'naltirilgandir.

3. Osiyo "YAngi industrial mamlakatlari" aholisining mehnatsevar-ligi, intizomlilik, tejamkorligi kabi iqtisodiy bo'lmagan omillar ham muhim o'rin tutdi.

Transmilliy korporatsiyalar uzlarining ta'sir doirasini kengaytirib dunyo bozorini egallashning turli yunalishlaridan foydalanadilar. Bu yunalishlar fakat shartnoma munosabatlariga asoslanib, boshka firmalarning akuionerlik kapitalida katnashishni maksad kilib kuymaydi. TMK iktisodiyotining bunday yunalishlariga kuyidagilar kiradi:

- 1) lienziyalash;
- 2) franchayzing;

3) boshkarish shartnomalari;
4) texnik va marketing xizmatlarini kursatish;
5) "kalitni topshirish" asosida korxonani kurib berish;
6) shartnoma asosida muddati belgilangan kushma korxonalar tashkil etish va birgalikda ayrim operatsiyalarni utkazish buyicha kelishuv.

Uzbekistonda xalkaro korporatsiyalarning faoliyati. Uzbekiston mustakillikka erishgandan keyin ochik eshiklar siyosatini olib borib chet el investitsiyalarining kirib kelishi uchun xar tomonlama sharoitlar yaratib bermokda. Natijada mustakillikning dastlabki yillaridanok xalkaro korporatsiyalar Uzbekistonga uz investitsiyalarini kiritib uz zavodlarini kurmokdalar va kushma korxonalar tashkil etmokdalar. Bularning ichida eng faol ishtirok etayotganlari birinchi navbatda Janubiy Koreya kompaniyalaridir. "DEU Korporeyshn", "Samsung Korporeyshn", "Kebul Tekstaylz", "DEU Xevi Indastriz", "DEU Telekom LTD" va "Dai sung" kompaniyalari engil avtomobillar va ularning butlovchi kismilarini, radioelektron maxsulotlarini, xalk isteomoli mollarini ishlab chikarish, kishlok xujalik maxsulotlari etishtirish va kayta ishlash, paxta chikitlarini kayta ishlash va x. faoliyatlar biln shugullanmokdalar.

Uzbekistonda faoliyat kursatayotgan kompaniyalarga yana AKSHning "Npyumont-Mayning" kompaniyasi (oltin kazib olish), "Boing" (samolyotsozlik), "Keys Korporeyshn" (traktorsozlik), "Koka-kola" (yaxna ichimliklar ishlab chikarish), Buyuk Britaniyaning "Renk Kseroks" (kupaytiruvchi mashinalar), "British-Ameriken Tabako" (tamaki sanoati), Germaniyaning "Simens", "Alkatelp" (telekommunikatsiya tarmoklari), "Lyuftganza" (xavo yullari), "Salamander" (poyabzal ishlab chikarish) va "Senasko" (kishlok xujalik uskunolari ishlab chikarish), Yaponiyaning "Sumitomo Korporeyshn" (iktisodiy zona tashkil kilish), "Marubeni" (neft kazib olish), "Kanebo" (pilla chikitlarini kayta ishlash), Kanadaning "Varta Indastriz Korporeyshn" (chorvachilik uchun ozika kushimchalari), Ispaniyaning "Revinza" (vino va sharbat ishlab chikarish xamda tetrapaketlarga kuyish) "Koch grup" (Turkiya), "Bakri grup" (Indoneziya) kabi kuplab xalkaro kompaniyalarni misol kilib keltirish mumkin.

5.5. Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy xududlar

Jaxon xujaligida XX asrning II-yarmida erkin iktisodiy xududlarning paydo bulishi muxim axamiyatga ega buldi. Erkin iktisodiy xududlar jaxon mamlakatlarida keng tarkalib ketdi. 90-yillarning urtalarida jaxonda 4 mingdan ortik turli kurinishdagi (bojxona xududlaridan tortib texnoparklarga, erkin savdo xududlaridan tortib offshor xududlarga) erkin iktisodiy xududlar faoliyat kursatdi. Xisob-kitoblarga kura 2000 yilda jaxon savdo aylanmasining 39 % turli erkin iktisodiy xududlardan amalga oshiriladi.

Uzlarining faoliyati uchun imtiyozli sharoitlar axtaradigan xalkaro korporatsiyalar uchun erkin iktisodiy xududlar katta foyda kurish mumkin bulgan xududlarga aylandi. Yirik xalkaro korporatsiyalar uzlarining ishlab chikarishlarini erkin iktisodiy xududlarga joylashtirishni asosiy maksad kilib kuyadilar.

Erkin iktisodiy xududlar - bu milliy iktisodiy makonning bir bulagi bulib, u erda mamlakatning boshka kismilarida kullanimaydigan imtiyoz va ragbatlantirishlarning uziga xos tizimi amal kiladi. Odatda erkin iktisodiy xududlar aloxida ajratilgan geografik xududlar xisoblanadi.

Erkin iktisodiy xududlar iborasi, ishlab chikaruvchilar va tadbirkorlarning butunlay erkinligini bildirmaydi. Bu xududlarda davlat ularning faoliyatiga kamrok aralashadi, ularni mamlakatda amal kiladigan xukukiy va xujalik tartib koidalardan butunlay ozod kilmasdan, bu tartib koidalarni engillashtirib tadbirkorlikni ragbatlantirishga imtiyozlar beradi.

Kupchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun erkin iktisodiy xududlar moxiyatan maxsus xududlar xisoblanadi, chunki bu xududdagi ishchilarning yashash darajasi sharoitlari, ishlab chikarish saloxiyatining kuchliligi mamlakatning boshka xududlarinikidan tubdan fark kiladi. SHuning uchun bunday xududlarga "maxsus iktisodiy xududlar" degan nom kuprok tugri keladi.

Nima sababdan erkin iktisodiy xududlar tashkil kilinadi? Ularning bunchalik keng tarkalib ketishiga sabab nima?

Erkin iktisodiy xududlarni tashkil kilishni uning tashkilotchilari mamlakatda ochik, erkin iktisodiyotni shakllantirishning muxim bir bugimi sifatida karaydilar.

Erkin iktisodiy xududlarning faoliyati tashki iktisodiy faoliyatni erkinlashtirish va faollashtirish vositasi deb xisoblanadi.

Erkin iktisodiy xududlarning tashki dunyo uchun ochiklik darajasi juda yukoridir, bojxona, solik va investitiya muxitlari esa tashki va ichki sarmoyalarni jalb kilish uchun juda kulaydir.

Erkin iktisodiy xududlar chet el kapitalini jalb kilib mamlakatdagi iktisodiy jarayonlarni kuchaytirish bilan birgalikda, bu kapitalni joylashtirish bilan uchta asosiy maksadni kuzlaydilar:

- ◆ sanoat maxsulotlari eksportini kuchaytirish va shu asosda valyuta mablaglarini tuplash;

- ◆ axoli bandligini oshirish;

- ◆ xujalik yuritishning yangi usullarini sinab kurish uchun erkin iktisodiy xududlardan foydalanish, ularni milliy xujalikni rivojlantirish markazlariga aylantirish.

Erkin iktisodiy xududlarni tashkil kilishning asosiy sabablaridan biri, kupchilik mamlakatlar chet el kapitali kirib kelishi uchun iktisodiyotini tulik ochik xolatga keltirishni xoxlamaydilar, shuning uchun aloxida investitiya muxiti yaratish uchun maxsus xududlar sifatida kisman ochiklikni kullaydilar.

Erkin iktisodiy xududlarni tashkil kilish va ularning faoliyati buyicha dunyo tajribasi shuni kursatadiki, xalkaro iktisodiy alokalarni ragbatlantirish tarikasida jaxon bozori bilan integratsiyani chukurlashtirish uchun tashkil kilingan xududlar (erkin savdo xududlari, eksport ishlab chikarish, bojxona va b.) bilan birgalikda ishlab chikarishni maolum bir turini va tarmoklarini rivojlantirish uchun aloxida tartib koidalar bilan faoliyat kursatadigan xududlar xam mavjuddir. Masalan, kolok xududlarni sanoatlashtirish va rivojlanishini ragbatlantirish xududlari.

SHuning uchun xar bir aloxida olingan vaziyatda erkin iktisodiy xududlarni tashkil kilishning maksadi va sabablari turlicha bulishi mumkin. Binobarin, AKSH va Buyuk Britaniya kabi sanoati rivojlangan mamlakatlarda erkin iktisodiy xududlar, uzlarining nisbatan kolok xududlarida kichik va urta biznesni jonlantirish maksadida tashkil kilingan. SHu maksadda, bu joylardagi tadbirkorlarga mamlakatning boshka xududlaridagiga nisbatan kattarok faoliyat erkinligi va birmuncha moliyaviy imtiyozlar berilgan. Bu dasturlar chet el kapitalini jalb kilishni uz oldiga maksad kilib kuymagan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xam, shu tarika erkin iktisodiy xududlarning tashkil kilinishi ilgari kolok rayonlarni rivojlantirishga turtki buldi. Ammo, sanoati rivojlangan mamlakatlardan fark kilib, bularda erkin iktisodiy xududlarni tashkil kilishda chet el kapitalini jalb kilishga kuprok e'tibor berganlar.

EIHning shakllari va xususiyatlari.

Erkin iktisodiy xududlarning vazifasiga karab tashkil kilinishi buyicha turlari xilma-xildir. Ba’zida, u yoki bu erkin iktisodiy zonani biron bir turga kiritish juda kiyin, chunki u juda kup xududlarning belgilarini uzida mujassamlashtirgan bulishi mumkin.

Erkin savdo xududlarini tashkil kilishda ikki xil nazariy yondashuvga amal kilinadi: xududiy va funkʻional yondashuvlar. Birinchisida, erkin iktisodiy xududlar - mamlakat korxonalari xujalik faoliyati yuritishlarida imtiyozli tartiblardan foydalanadigan aloxida xudud sifatida karaladi. Ikkinchi yondashuv buyicha esa, erkin iktisodiy xududlar - korxonaning mamlakatda kanday mavkeiga egaligidan katoiy nazar tadbirkorlik faoliyatining maolum bir turi uchun imtiyozli tartiblar urnatilgan joy deb karaladi.

Birinchi yondashuv buyicha Xitoydagi erkin iktisodiy xududlar, “Manaus” zonasi (Braziliya), kupchilik rivojlanayotgan mamlakatlardagi eksport ishlab chikarish xududlari tashkil kilingan. Ikkinchi yondashuv buyicha offshor firmalari, “dpyuti fri” magazinlarining tashkil kilinishi misol buladi.

SHunga karamasdan, xujalik ixtisoslashuvi, xamda bu xududlardagi kompaniyalarning faoliyat turiga karab erkin iktisodiy xududlarni kuyidagicha tavsiflash mumkin:

Jadval 5.5.1.

Erkin iktisodiy xududlarning turlari

I. Savdo xududlari	II. Sanoat ishlab chikarish xududlari
1. Erkin bojxona xududlari 2. Erkin bond omborlar 3. Erkin portlar 4. Erkin savdo xududlari	1. Importning urnini bosadigan ishlab chikarish 2. Sanoat eksporti xududlari 3. Sanoat parklari 4. Ilmiy sanoat parklari
III. YAngi texnologiyani kullash xududlari xududlari	IV. Xizmat kursatish
1. Texnopolislar 2. Texnoparklar 3. YAngi va ilgor texnologiyalar-ni rivojlantirish xududlari	1. Offshor xududlar 2 . Moliya markazlari 3. Bank xizmatlari 4. Turistik xizmatlar 5. Ekoparklar
V. Kompleks xududlar	VI. Xalkaro xududlar

Erkin iktisodiy xududlarning eng oddiy shakllaridan biri erkin bojxona xududlari (boj tulovisiz xududlar) xisoblanadi. Bu xududlar xam erkin savdo

xududlari kabi birinchi avlod xududlari xisoblanadilar. Ular XVII-XVIII - asrlardan beri mavjuddirlar. Bu xududlar eksportga muljallangan maxsulotlar saklash, urash va birlamchi kayta ishlash tashkil kilingan omborlardan iborat buladi. Bunday xududlarni kupincha, “bond omborlari” yoki erkin bojxona xududlari deb ataydilar. Erkin bojxona xududlari tovarlarni olib kirish va olib chikish bojaridan ozod kilinadilar. Bunday xududlar kupchilik mamlakatlarda mavjuddir.

Erkin savdo xududlari xam dunyoda keng tarkalgandir. Ayniksa, AKSHda bunday xududlar keng tarkalgan. Ularning tashkil kilinishiga 1934 yilda kabul kilingan AKSH maxsus konuni asos bulib, uning maksadi savdoni ragbatlantirish, savdo operaqiyalarini tezlashtirish va savdo xarajatlarini kiskartirish bulgan edi.

Bunday xududlar AKSH xududining cheklangan joylarida tashkil kilingan bulib, uning doirasida xujalik faoliyatini, va shu jumladan, tashki iktisodiy faoliyatni imtiyozli tarzda olib borish imkonini beradi. Koida buyicha mamlakatning xar bir portida shunday xududlardan birini tashkil kilinishiga ruxsat berilgan.

AKSH konunlari buyicha mamlakatdagi erkin savdo xududlari umumiy yunalishdagi va maxsus (subzona) xududlarga ajratiladi. Umumiy yunalishdagi xududlar uncha katta bulmagan makonni (bir necha kv.km.) egallab, milliy bojxona xududlaridan tashkarida bulishlari kerak. Ularda keltirilgan maxsulotlarni omborlarga joylashtirish va kayta ishlash (urash, turlarga ajratish, tamgalash, ishlov berish kabi) operaqiyalar bajariladi.

Maxsus xududlar - faoliyati umumiy yunalishdagi xududlar doirasidan katta buladigan aloxida yirik kompaniyalar uchun tashkil kilinadi. Maxsus xududlarda eksport uchun va import urnini bosadigan maxsulotlar ishlab chikariladi. Maxsus xududlar erkin savdo xududlari bilan import urnini bosadigan maxsulotlar ishlab chikaruvchi xududlarning yigindisi sifatida tashkil kilinadi. 90-yillarning urtalarida AKSHda 500 ta erkin savdo zonasi faoliyat kursatgan.

Erkin savdo xududlarning eng oddiy kurinishi bulib xalkaro aeroportlardagi “dyuti fri” maxsus magazinlari xisoblanadi. Ular ishlash tartib-koidalari buyicha davlat chegarasidan tashkarida joylashgan deb xisoblanadi. Erkin savdo xududlariga imtiyozli savdo tartibiga ega bulgan anoanaviy ochik portlar xam kiritiladi.

Sanoat ishlab chikarish xududlari ikkinchi boskich xududlariga kiritiladi. Ular savdo xududlarining rivojlanishi, bu xududlarga fakat tovar emas, balki kapital xam olib kirilishi va fakat savdo faoliyati bilan emas, balki ishlab chikarish faoliyati bilan shugullanishga utilishi bilan paydo buldilar.

Sanoat ishlab chikarish xududlari - eksport maxsulotlari va import urnini bosadigan maxsulotlar ishlab chikariladigan, maxsus bojxona tartibi urnatilgan xududlarda tashkil etiladi. Bu xududlar kupgina moliyaviy va solik imtiyozlariga egadirlar. Eksport ishlab chikarish xududlari keng tarkalgan bulib, ular ayniksa rivojlanayotgan mamlakatlarga xosdir. Ularning xozirgi kurinishi - 1959 yilda Irlandiyaning SHennon aeroportida tashkil kilingan zona tarkibidan asos olgan. Bunday xududlarning eng samarali faoliyati rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshirildi.

Mantikan, eksport ishlab chikarish xududlarining paydo bulishi rivojlanayotgan mamlakatlarning 60-yillar urtalarida chet el kapitali yordamida sanoat eksportini va unda axolining bandligini rivojlantirish maksadlaridagi urinishi natijalaridir.

EIHdagi investitiya muhitining xususiyatlari.

YAngi texnologiyalarni kullash xududlari uchinchi boskich xududlari xisoblanadi. Ular yirik fan markazlari atrofida uz-uzidan yoki davlatning yordamida paydo buladilar. Ularda solik va moliyaviy imtiyozlarning yagona tizimiga ega bulgan milliy va xorijiy ilmiy tadjikot, loyixalash, ilmiy ishlab chikarish firmalari yigilgan buladi.

YAngi texnologiyalarni kullash xududlarining kupchiligi AKSH, YAponiya va Xitoyda faoliyat kursatmokdalar. AKSHda ularni texnoparklar, YAponiyada texnopolislar, Xitoyda - yangi va yukori texnologiyalarni rivojlantirish xududlari deb ataydilar.

Dunyoda eng mashxur va AKSHdagi eng yirik texnopark “Silikon Velli”da jaxondagi komppiyuterlar va xisoblash texnikasining 20% i ishlab chikariladi. Unda 20 mingga yakin kishi ishlaydi. Xammasi bulib AKSHda bunday xududlarning 80 tasi bor. YAponiyada ilgor ilmiy muassasalar bazasida xukumatning maxsus karori bilan 20 dan ortik texnopolislar tashkil kilingan. Xitoyda bunday xududlar fan va texnikani rivojlantirish davlat rejalari asosida tashkil kilingan. 90-yillarning urtalarida Xitoyda 50 dan oshik yangi va yukori texnologiyani rivojlantirish xududlari faoliyat kursatdi. Osiyoning “yangi industrial davlatlari”da yangi texnologiyalarni kullash xududlari ilgari barpo kilingan eksport ishlab chikarish xududlarning yangiliklar markazi sifatida tashkil kilinib, ular eksport ishlab xududlari sifatida etarli rivojlanishga egadirlar va fakat ilmtalab maxsulotlarni ishlab chikarishga yunaltirilganlar.

Xizmat kursatish xududlari turli moliya-iktisodiy, sugurta va boshka xizmatlarini kursatuvchi, tadbirkorlik faoliyatining imtiyozli tartibiga ega bulgan firma va tashkilotlardan iborat buladi. Xizmat kursatish xududlariga offshor xududlar va solik portlari misol buladi. Ular uzlarining kulay valyuta moliyaviy va fiskalp tartibi bilan, bank va tijorat maxfiyligi yukori darajada bulishi, davlatning aralashuvi juda kam bulishi bilan tadbirkorlarni uzlariga jalb kiladilar.

Offshor zonasida ruyxatga olingan kompaniyalardan talab kilinadigan asosiy narsa - shu kompaniyaning uzga mamlakatniki bulishi va bu xududda foyda olishga urinmaslik shartidir. Solik portlari offshor xududlaridan shu bilan fark kiladiki, bu erda firmalar (maxalliy va xorijiyolari xam) uz faoliyatining barcha turlari uchun solik imtiyozlariga ega buladilar. Xozirgi kunda dunyoda 300 dan ortik offshor xududlar mavjud. Ularning ichida solik portlari 70 tani tashkil etadi.

Offshor kompaniyalar anchadan buyon faoliyat kursatib kelayotgan mamlakatlarga - Lixtenshteyn, Panama, Normand orollari, Men oroli (Buyuk Britaniya), Antilp orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, SHveytariya va boshkalar misol buladi. Keyingi un yilliklarda offshor xududlar Malptada, Mavrikiyda, Garbiy Samoada, Isroilda, Malayziyada va boshka mamlakatlarda xam paydo buldi.

Offshor xududlaridagi sanoat, savdo, bank, sugurta va boshka kompaniyalar yoki umuman solikka tortilmaydilar (Irlandiya, Liberiya), yoki kam mikkorda solikka tortiladilar (Lixtenshteyn, Antilp orollari, Panama, Men oroli va b.). Masalan, SHveyuuriyada juda xam kam mikkorda solik belgilangan bulib, u baozi paytlarda olinmasligi xam mumkin. Offshor xududlaridagi imtiyozli tartib koidalarga valyuta cheklovlarining bulmasligi, foydani erkin olib chikib ketish, ustav kapitalining kam darajadaligi, chet el investorlari uchun boj tulovlari va boshka yigimlarning yukligi, aloxida xududligi va boshkalar kiradi. Offshor xududlarini tashkil kiluvchi mamlakatlar uchun manfaat - kushimcha xorijiy kapitallarni jalb kilish, bu zonada ruyxatdan utgan kompaniyalarning joylashganligidan daromad olish, maxalliy mutaxassislar uchun kushimcha ish joylarining yaratilishidan paydo buladi, bu esa pirovard natijada milliy iktisodiyotning rivojlanishiga imkon yaratadi.

Offshor tadbirkorligi bank va sugurta ishida, dengiz kemachiligida, kuchmas mulk bilan buladigan ishbilarmonlikda, trast (ishonch bildirish) faoliyatida, konsalting (maslaxat beruvchi firmalar) faoliyatida namoyon buladi. Ba'zi maolumotlarga kura, offshor tadbirkorligida xarakatga keltirilgan kapital mikkori 500 mlrd. dollarga etib koladi. Unda 2 mln.ga yakin kapital kuyuvchi (xukukiy va jismoniy shaxslar) ishtirok etadi va xar yili bir necha ming yangi kompaniyalar ruyxatga olinib, ular offshor faoliyati xajmining oshishiga olib keladi.

Offshor xududlarining faoliyati mutaxassislar tomonidan turlicha baxolanadi. Kupchilikning fikricha, offshor markazlari "nokonuniy pullarni" uzlashtirish va xar xil bank luttivozligini keltirib chikazadi.

Kompleks xududlar aloxida maomuriy birlik xududlarida xujalik faoliyatining uziga xos imtiyozli tartiblari urnatilgan xolda tashkil kilinadi. Ularga misol kilib, Xitoyning 5 ta maxsus iktisodiy xududlarini, Braziliyaning "Manaus" zonasini, Argentinaning "Olovli Er" xududini, sanoati rivojlangan mamlakatlarning nisbatan kolok xududlarida tashkil kilingan erkin tadbirkorlik xududlarini kursatish mumkin.

90-yillar xalkaro erkin iktisodiy xududlarni shakllantirish davri buldi. Masalan, Tumangan (Tumanuzyan) erkin iktisodiy zonasini tashkil kilish loyixasi mavjud. Bu erkin iktisodiy zona Rossiya, Xitoy va SHimoliy Koreya mamlakatlarining chegaralari tutashgan joyda tashkil kilinadi. Loyixa 20-yilga muljallangan, va uning birinchi boskichidagi kiymati 90-110 mlrd. doll. deb baxolanmokda.

Tashki iktisodiy xududlarni tashkil kilishning yana bir shakli sifatida davlatlararo iktisodiy alokalarda mintakaviy darajada evroregionlar nomli xududlarning paydo bulishiga olib keldi. Evroregion deganimizda turli davlatlarning chegaradosh viloyatlari ixtiyoriy ravishda xujalik alokalarini kuchaytirish maksadida birlashuvdir. Bunda xar bir mamlakatning oliy boshkaruv organi chegaradosh viloyatga uzining vakilini junatadi va boshka davlat viloyatlari bilan iktisodiy alokalarining mustaxkamlanishini boshkarib turadi. Evroregionlarning barpo kilinishida Polpsha, Slovakiya, CHexiya, Vengriya bilan

birgalikda Belarus, Ukraina davlatlari xam faol ishtirok etmokdalar. 90-yillarning urtalariga kelib “Karpatlari”, “Bug”, “Pomeraniya” evroregionlari tashkil kilindi.

Turli shakldagi erkin iktisodiy xududlarning paydo bulishidagi umumiy belgilardan biri, bu mamlakatning boshka xududlarida tadbirkorlik uchun yaratilgan tartib koidalarga nisbatan bojxona, moliyaviy, solik va boshka imtiyozlarga ega bulgan kulay investitsiya muxitining mavjudligidir. Solik imtiyozlari va ragbatlantirishlar turli mamlakatlarda mikdoriy jixatdan fark kilsa xam, moxiyatan uxshashdir.

Imtiyozlarning turtta asosiy guruxi ajratiladi:

1) Tashki savdo imtiyozlari. Bunda tashki savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartiblari engillashtiriladi va aloxida bojxona tariflari kullaniladi;

2) Solik imtiyozlari. Tadbirkorlarning maolum bir faoliyat turlari uchun imtiyozlar berish. Bu imtiyozlar solik tortiladigan asoslar uchun (foйда, mulk soligi va b.), uning aloxida kismalari uchun (amortizatsiya undirmalari, maosh uchun xarajatlar, ilmiy tadjikot ishlari uchun, transport), solik darajasi mikdori uchun, solikka tortishdan vaktincha yoki butunlay ozod kilishdan iborat buladi;

3) Moliyaviy imtiyozlar. Bu subsidiyalarning turli shakllarini uz ichiga oladi. U kommunal xizmatlar uchun tulovlar, er uchastkalaridan va ishlab chikarish binolaridan foydalanganlik uchun ijara xakini pasaytirish, imtiyozli kreditlar va boshkalarni uz ichiga oladi;

4) Ma'muriy imtiyozlar. Zona maomuriyati tomonidan korxonalarni ruyxatga olish va chet ellik fukarolarning kelib ketish koidalari, xamda xilma-xil xizmatlar kursatish borasida beriladi.

Kursatib utilgan imtiyozlar aralash xolda xilma-xil kurinishda kursatiladi. SHuni xam aytib utish kerakki, erkin iktisodiy xududlarda beriladigan imtiyozlar xamma vakt xam chet el kapitalining kirib kelishiga asosiy sabab bula olmaydi. Kupincha siyosiy barkarorlik, investitsiya kafolatlari, infrastrukturaning sifati, ishchi kuchlari malakasi, maomuriy tartib koidalarning engillashtirilishi kabi omillar xam axamiyatli bulishi mumkin. SHu bilan birgalikda, boshka sharoitlar uzgarmagan xolatlarda xududlarda beriladigan imtiyozlar birlamchi axamiyatga ega buladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi EIH

Erkin iktisodiy xududlar faoliyat kursatishining jaxon tajribasi, bu soxadagi yutuklar, ularning umumiy belgilari va rivojlanish xususiyatlari tugrisida xulosalar chikarish imkonini beradi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda erkin iktisodiy xududlarning faoliyat kursatishi shundan dalolat beradiki, ularning muvaffakiyatli rivojlanishi birinchidan, tashkil kilinishining dastlabki boskichlarida ishlarning puxta rejalashtirilganligi, ikkinchidan, bu xududlarni boshkarishning kulayligidan yuz bergan.

Dunyo xujaligidagi uzgarishlar (ITT, transmilliy korporatsiyalar urtasidagi rakobat, valyuta kurslarining uzgarishi, xalkaro ayirboshlash tizimidagi uzgarishlar va x.) erkin iktisodiy xududlarning rivojlanishiga taosir kursatadi, binobarin, bunday uzgarishlarga moslashishni talab kiladi.

Erkin iktisodiy xududlarni tashkil kilishdan yuzaga keladigan ijtimoiy-iktisodiy yutuklar (AKSH tashki savdo xududlari, Irlandiyadagi “SHennon” va b.) juda xam samaralidir. Bu xududlar kuplab yangi ish urinlarini ochishga, xalkaro savdoning rivojlanishiga, tashki savdo imkoniyatlarinig oshishiga va ilmiy ishlab chikarish saloxiyatining kuchayishiga imkoniyat yaratadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi erkin iktisodiy xududlar faoliyatining muxim jixatlari shundan iboratki, ular nafakat xalkaro bozorga, balki ichki bozor uchun xam xizmat kursatadilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil kilingan erkin iktisodiy xududlar bir kancha umumiy rivojlanish belgilariga egadirlar.

Birinchidan, bu mamlakatlarda eksport ishlab chikarish xududlari keng tarkalgandir. YUkorida aytib utganimizdek, eksport ishlab chikarish xududlarini tashkil kilish bir kancha iktisodiy sabablar asosida, yaoni avvalo, eksportga muljallab sanoat mollarini ishlab chikarishni rivojlantirishning zarurligi, chet el kapitalini, ilgor fan va texnologiyani, xozirgi zamon texnik axborotlarini mamlakatga jalb kilish asosida yuz beradi.

Ikkinchidan, erkin iktisodiy xududlardagi aloxida xujalik yuritish tartib koidalari chet el tadbirkorlari uchun imtiyozli bulib, ularni uziga jalb kila oladi. Bu, erkin iktisodiy xududlar urtasidagi xalkaro rakobatning kuchayishi va boshka uziga uxshash xududlarga nisbatan ustunligini kursatishga xarakat kilish asosida yuz beradi.

Uchinchidan, erkin iktisodiy xududlarning faoliyat kursatishi jarayonida ularning savdo-sanoat yunalishi buyicha rivojlanishi namoyon buladi. Xozirgi zamon ilmiy texnika tarakkiyoti yangi va ilgor texnologiyalarni kullashga asoslangan ilmtalab ishlab chikarish tarmoklariga ega bulgan erkin iktisodiy xududlarni asosiy uringa chikazmokda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida Xitoydagi maxsus iktisodiy xududlarining rivojlanishini kurib chikish muxim axamiyat kasb etadi. Xitoy raxbarlari 80-yillarning boshida kichik xududlarda maxsus xududlar tashkil kilishdan boshlab, 90-yillarning urtalariga kelib ularning ish tartibini juda katta xududlarda tadbik kila boshladilar. Mamlakatda va chet ellarda nomi chikkan va kup yillik tarixga ega bulgan “SHenpchjenp”, “CHjuxay”, “Syamenp”, “SHanptou” maxsus iktisodiy xududlari, xamda 1988 yilda tashkil kilingan “Xaynanp” maxsus iktisodiy zonasidan tashkari Xitoyda texnik-iktisodiy rivojlanishga ega bulgan xududlar (bir necha unlab), xamda yangi va ilgor texnologiya xududlari - texnoparklar juda tez rivojlanib bordi. Ayniksa, SHanxay mintakasidagi “Pudung” iktisodiy rivojlanish zonasi axamiyatlidir. Bu loyixa SHanxayni nafakat Xitoyning yirik sanoat markaziga aylantirish, balki butun Osiyo-Tinch okeani mintakasining eng yirik savdo va moliya markaziga aylantirishni uz oldiga maksad kilib kuygan.

Maxsus iktisodiy xududlarni tashkil kilish Xitoy raxbariyati tomonidan 70-yillarning oxiridaa ochik tashki iktisodiy siyosat olib borishida muxim kadam buldi. Maxsus iktisodiy xududlarni tashkil kilish modelini tanlashda Xitoy raxbariyati mamlakatning ichki manfaatlaridan kelib chikib, va boshka mamlakatlarda maxsus xududlarning faoliyat kursatishi tajribalaridan foydalanib ish boshladilar.

Ayniksa, Singapur, Tayvanp, AKSH tajribalari chukur urganildi. Maxsus iktisodiy xududlarni tashkil kilishning dastlabki davrida ularning kanday faoliyat kursatishi borasidagi bir necha variantlar kurib chikildi. Natijada, ular tanlagan yul buyicha bu xududlar eksportga yunaltirilgan, chet el kapitalini xar tomonlama jalb kilishga karatilgan, xamda ishlab chikarish texnologiyasini takomillashtirishga asoslangan xujalik yuritish shaklida buladigan buldi. Maxsus iktisodiy xududlar Xitoyning “ochik eshiklar siyosatini” utkazishida muxim kadam bulib, mamlakatning boshka xududlari bilan boglab turuvchi tizim sifatida rivojlandi.

90-yillarning boshiga kelib, Xitoyning port shaxarlarida va maxsus iktisodiy xududlarida erkin bojxona xududlari - erkin savdo (boj tulovisiz) xududlari paydo bula boshladi.

Xitoy maxsus iktisodiy xududlarining va boshka imtiyozli investitiya muxitiga ega bulgan xududlarining tajribasi katta muvaffakiyatlarga olib keldi. Bu, birinchi navbatda, mamlakat iktisodiy usishining yukori suroatlarida, chet el investitiyalarini katta xajmlarda kiritilishida, mexnat unumdorligining yukori darajada oshishida, va nixoyat, axoli turmush darajasining anchagina kutarilishida yakkol namoyon buldi.

Xitoyning maxsus iktisodiy xududlari umuman olganda davlat mulki xukmronligi saklanib kolgan bir sharoitda bozor munosabatlarini shakllantirishning uziga xos tajribasi xisoblanadi. Xitoyda butun mamlakatning birdaniga bozor iktisodiyotiga utishi tajribasi axoli uchun, va umuman, iktisodiyot uchun xatarli ekanligi eotiborga olinib inkor kilindi. Maxsus iktisodiy xududlarni boshkarishning “xitoycha modeli” shuni kursatdiki, bu xududlarda kelajakda butun mamlakat iktisodiyoti faoliyat kursatadigan usul vujudga keltirildi va sinab kurildi.

Uzbekistonda erkin iktisodiy xududlarni rivojlantirish istikbollari. Mustakillik yillarida ochik iktisodiyotni uziga yunalish kilib olgan respublikamizda tashki iktisodiy faoliyatni erkinlashtirish va faollashtirish uchun chet el kapitalini bojxona, solik imtiyozlari bilan faol jalb kiluvchi erkin iktisodiy xududlar tashkil kilishga xam katta eotibor berila boshlandi. Bunda dastlabki kadam sifatida EIZ tashkil kilishning xukukiy asoslarini yaratish buldi. 1996 yil 25 aprelda Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Erkin iktisodiy xududlar tugrisida”gi konun kabul kilindi.

Xozirgi kunda respublikada erkin iktisodiy xududlarning zamonaviy turlaridan biri bulgan yangi texnologiyalarni kullash xududlaridan ikkita texnopark tashkil kilingan. Ular Toshkent Texnika Universiteti va Samarkand Davlat Universiteti koshida tashkil kilingan bulib, bu texnoparklarda yangi texnologiyalarni sanoatga yullantirish jarayonnini tezlashtirish bilan shugullanadilar.

Xorijiy investitiyalar agentligi (XIA) va YAponiyaning “Sumitomo Korporeyshn” kompaniyasi tomonidan 1996 yil industrial park tipida tuzilgan uzbek-yapon sanoat zonasi loyixasi (Toshkent shaxrining Bektemir tumanida) eng kelajagi porlok loyixalardan xisoblanadi. Bu loyixada engil, ozik-ovkat, elektron va elektrotexnika sanoati soxasida 50-60 ta yangi texnologiyali sanoat tizimini barpo kilish muljallangan. Sanoat zonasi 200 gektar maydonga joylashgan bulib, uning maxsulotining 70-80 % ini eksport kilinadi. Park 20-25 ming kishini ish bilan

taominlaydi. Jalb etiladigan investitsiyalar park muvaffaqiyatli faoliyat kursatgan takdirda 1,5 mlrd. dollarga etishi mumkin.

Bulardan tashkari, xozirgi kunda erkin iktisodiy xududlarning yana ikkita loyixasini amalga oshirish muljallanmokda. Bular “Jizzax” (ishlab chikarish zonasi) va “Samarkand” (turizm industriyasini rivojlantirish) xududlaridir.

Bularning xammasi Uzbekiston iktisodiyotiga xorijiy kapitallarni jalb kilishda, yangi texnologiyalarning kirib kelishida va ishlab chikarishni yangi texnologiyalar bilan boyitishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda 2010 yilda Navoiy shahri xalqaro aeroportida “Navoiy erkin industrial hududi” tashkil qilindi. Unda Navoiy erkin industrial logistika hududi ham faoliyat ko'rsatmoqda. Unga koreyalik hamkorlarning 1,5 mlrd. dollarlik investitsiyasi kiritildi. 2010 yilda «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida xorijiy investorlar bilan erishilgan bitimlar doirasida 19 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Ana shu loyihalar doirasida jahon bozorida xaridorgir bo'lgan zamonaviy mahsulot ishlab chiqaradigan 7 ta korxona foydalanishga topshirildi.

Savol va topshiriklar:

Transmilliy korporatsiya deganda kanday tashkilotni tushunamiz?

Kanday kompaniyalarni TMKlar katoriga kushish mumkin?

Xalkaro korporatsiyalarning asosiy belgilari nimalardan iborat?

Transmilliy korporatsiyalarning paydo bulish sabablari nimada?

TMK larning uziga xos xususiyatlarini aytib bering.

Litsenziyalash deganda nimani tushunasiz?

Franchayzing nima?

Boshkarish shartnomalari deganda nimani tushunasiz?

Texnik va marketing xizmatlarini kursatish nima?

“Kalitni topshirish” asosida korxonani kurib berish deganda nimani tushunasiz?

SHartnoma asosida muddati belgilangan kushma korxonalar tashkil etish deganda nimani tushunasiz?

Transmilliy korporatsiyalar uzlarining ta'sir doirasini kengaytirish va dunyo bozorini egallashda kanday yunalishlaridan foydalanadilar?

Uzbekistonda xalkaro korporatsiyalarning faoliyatiga misollar keltiring.

Asosiy tushunchalar va atamalar

Kapitalning xalkaro harakati; Kapitalning chiqarilishi; Kapital chiqarilishining asosiy sabablari; Kapital chiqarilishiga ta'sir qiluvchi omillar; Xalqaro mahsulot; Kapital chiqarilishining asosiy shakllari; CHet el investitsiyalari; Bevosita investitsiyalar; Portfel investitsiyalari; Pul bozori; Kapitallar bozori; Portfel investitsiyalarining jahon xo'jaligiga ta'siri; Iqtisodiy yordam; Kapitallar harakatining xududiy xususiyatlari; Kapital xarakatining

sub'ektlari; Kapital chiqarilishining hozirgi paytdagi xususiyatlari; Kapital jalb qilishning xususiyatlari; Kapital jalb qilishga davlat ta'siri; Kapital bozorlari baynalminallashuvi; Xalqaro moliya-kredit infratuzilmasining yangi shakllari.

Transmilliy korporatsiya; Ikkilamchi kompaniyalar; Liyenziya kelishuvi; Franchayzing; Boshkaruv xizmatini taklif qilish; Texnik yordam kursatish buyicha shartnomalar; Zavodni "kaliti bilan" topshirish shartnomalari; Xorijda maxsus investitsiya kompaniyalarini tashkil qilish.

Erkin iqtisodiy xududlar; Erkin savdo xududlarini tashkil qilishda xududiy yondashuv; Erkin savdo xududlarini tashkil qilishda funktsional yondashuv; Erkin bojxona xududlari; Erkin savdo xududlari; Maxsus xududlar; Sanoat ishlab chikarish xududlari; Yangi texnologiyalarni kullash xududlari; Xizmat kursatish xududlari; Kompleks xududlar; Evroregion; Tashki savdo imtiyozlari; Solik imtiyozlari; Moliyaviy imtiyozlar; Ma'muriy imtiyozlar.

6 – Mavzu: O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida chet el investitsiyalarining roli

6.1. XX - XXI asrlar bo'sag'asida xorijiy mamlakatlarning kapital quyilmalari va uning Respublika iqtisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyati.

6.2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi muammolari.

6.3. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi, shakllari.

6.1. XX - XXI asrlar bo'sag'asida xorijiy mamlakatlarning kapital quyilmalari va uning respublika iqtisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyati

YUrtimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiya jarayonini faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashishini nazarda tutadi. Ochiq bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaaratilayotgan sharoit G'arb va SHarq ishbiarmonlarining mamlakatimizga barqaror qiziqishini uyg'otmoqda. Bugungi kunda bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni xamkorlikka jadal jalb etmoqda.

Ayni damda, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni barpo etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olmoqda: korxonani tashkil etish sabablarini inobatga olish; ishonchli sherik tanlash; xorijiy ininvestitsiyalar ishtirokidagi korxona barpo etish haqida qaror qabul qilish.

Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi ijobiy omillar:

- Siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik;
- Investorlar huquqlarining kafolatlari;
- Ishlab chikarish uchun zarur infratuzilmalarning mavjudligi;
- Xom ashyo bazasi va undan foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- Bozorlarning nisbatan qulay geografik joylashuvi va optimal transport koridorlarining mavjudligi;
- Malakali ish kuchining mavjudligi (institut, kolledj va b.);

- Investorlarga beriladigan soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyoz va afzalliklar;

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablarining asosan uch turkumini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular, ichki, tashqi va strategik.

Ichki sabablar tarkibi quyidagilardan iborat:

- ✓ yaratilgan investitsiya muhitidan foydalanish;
- ✓ boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish;
- ✓ zamonaviy va eng qulay tartibga erishish;
- ✓ mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish;
- ✓ xorij bozoriga kirib borishni tezlashtirish;
- ✓ ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish;
- ✓ xodimlar malakasini oshirish.

Tashqi sabablar tarkibi quyidagicha:

- ✓ jahon bozoriga chiqish;
- ✓ sog'lom va samarali raqobat muhiti;
- ✓ siyosiy keskinlikning yumshashishi;
- ✓ mahalliy xokimiyatning talablari.

Strategik sabablar tarkibi quyidagilardan iborat:

- ✓ mamlakatda zamonaviy ish yuritish usullaridan foydalanish imkoniyati;
- ✓ mustahkam xom ashyo bazasiga ega bo'lish;
- ✓ texnologiyalar transferti;
- ✓ ishlab chiqarishni kengaytirish.³

Korxonalarni investitsion faoliyatini rivojlantirish istiqbollari investitsion dastur doirasida hamda alohida ilmiy asoslangan loyihalarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Investitsion loyihalar turli shakl va mazmunga zga bo'lib, ular korxonalarni barpo etish, turli ob'ektlarni qurish, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'li bilan samolyotsozlik, radioelektronika, elektronika sohalarining rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. SHuningdek, engil va oziq-ovqat sanoati uchun asbob-uskunalar, qishloq xo'jaligi uchun kichik mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishni ta'minlovchi boshqa istiqbolli tarmoqlar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi.

Endilikda Prezident I.A.Karimovning g'oyalaridan kelib chiqib, boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, ularni yangi yo'nalishga o'tish dasturlari, chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mo'ljallanmoqda:

- respublika iqtisodiyotining yuqori samarali, eksportga yo'naltirilgan tuzilmasini shakllantirish;
- iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarini texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;
- engil va qayta ishlash sanoati korxonalarini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish;

³ Махмудов Н.М, Маджидов Ш.А. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2010. – 89-90 б.

- yuqori texnologiyani va ilmtalab ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish.⁴

6.1.1-jadval

Investiuiya sohasidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011*
Amaldagi baholarda, jami, mlrd. so'm	3165,2	4041,0	5479,7	8587,1	12531,9	15409,1	20721,8
Joriy yilga nisbatan % hisobida	107,0	109,1	122,9	128,3	124,8	109,2	112,6
YAIMda investiuiya miqdori, %	20,8	19,5	19,4	22,7	26,1	24,9	26,8
Markazlashgan investiuiyalar amaldagi baholarda, mlrd.so'm	755,8	915,8	1099,7	1717,0	2517,9	2855,3	4696,5
Kapital markazlashgan qo'yilmalarda investiuiyalar miqdori, %	23,9	23,1	20,1	20,0	20,1	18,5	22,7
Markazlashmagan investiuiyalar amaldagi baholarda, mlrd. so'm	2409,4	3109,0	4380,0	6870,1	10014,1	12553,8	16025,4
Kapital qo'yilmalarda markazlashmagan investiuiyalar miqdori, %	76,1	76,9	79,9	80,0	79,9	81,5	77,3

2010 yilda iqtisodiyotga kiritilgan investiuiyalar hajmi amaldagi baholarda jami 15409,1 milliard so'mni tashkil etdi (2-jadval). Ushbu ko'rsatkich 2011 yilda 20721,8 mlrd.so'mni tashkil etishi va o'tgan 2010 yilga nisbatan 12,6 foizga ortishi rejalashtirilmoqda.

Umumiy investiuiyalarda markazlashgan investiuiyalarning ulushi tahlil qilinayotgan, ya'ni 2010 yilda 18,5 foizni, qolgan 81,5 foizi esa markazlashmagan investiuiyalardan iborat bo'ldi. Vaholanki, ushbu ko'rsatkichlar 2002 yilda boshqacha nisbatni tashkil qilgan, ya'ni mos ravishda markazlashgan investiuiyalar umumiy investiuiyalarning 20,8 foizini, markazlashmagan investiuiyalar esa 76,1 foizini tashkil etgan. Bundan ko'rish mumkinki, dinamikada yalpi investiuiyalarda markazlashgan investiuiyalarning ulushi kamayib borgan.

6.2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi muammolari

Ammo shuni ham qayd etish lozimki, bugungi kunda investiuiya muhitiga bir qancha salbiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bular sirasiga mavjud infratuzilmalardan foydalanishdagi muammolarni keltirish mumkin. SHuningdek, soliq, bojxona, bank sohasida va investorlarga er ajratish bilan bog'liq to'siqlar ham tez-tez uchrab turibdi (6.2.2-rasm). SHu o'rinda Prezidentimizning quyidagi iboralarni esga olish joiz, ya'ni "Barchamiz oddiy bir haqiqatni yaxshi anglab

⁴ Абулқосимов Ҳ.П. Ўзбекистонда иқтисодий ислохотлар. – Т., Академиya, 2008.

olishimiz darkor – investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilash ham bo'lmaydi".⁵

Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi salbiy omillar

- Investorlar uchun yaratilgan imtiyoz va afzalliklardan foydalanishdagi to'siqlar, siyosiy va makroiqtisodiy beqarorlik;
- Soliq, bojxona, bank sohalarida, shuningdek investorlarga er ajratish bilan bog'liq muammo va to'siqlar;
- Mavjud infratuzilmadan foydalanishdagi muammolar (elektr energiya, gaz, suv, issiqlik manbai, kanalizatsiya va b.);
- Tadbirkorlik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlarning ko'pligi;
- Bozorlarning nisbatan noqulay geografik joylashuvi va optimal transport koridorlarining mavjud emasligi;
- Mahalliy hokimliklar tomonidan u yoki bu masalalarni hal etishga oid qarorlarni tezkorlik bilan qabul qilinmasligi, byurokratik to'siqlarning mavjudligi;

Tabiiy resurslarni o'zlashtirishda chet el kapitalining tutgan o'rn. Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, **mustaqillik yillarida Respublikamizga 33,6 mlrd. AQSH dollaridan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb etilgan.** Mazkur investitsiyalarning barchasi asosan etakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni rivojlantirishga yo'naltirildi. Xususan, oxirgi yillarda amalga oshirilishi tugallangan yirik investitsion loyihalarni keltirib o'tadigan bo'lsak, ular quyidagilardir:

YAngi rusumdagi 480 dan ortiq MAN og'ir yuk avtomobillari hamda 7797 dona Spark M300 engil avtomobillar ishlab chiqarildi (investitsiya hajmi–31,3 mln. doll. va 3 mln.evro);

Yiliga 30,0 mlrd.kub.m. gazni tranzit qilish quvvatiga ega bo'lgan "O'zbekiston-Xitoy" gaz quvuri ishga tushirildi (investitsiya hajmi – 3168,9 mln.doll.);

Ko'kdumaloq konida yiliga 6 mlrd.kub.m. yo'ldosh gazlarni utilitatsiya qilish stantsiyasi qurildi (investitsiya hajmi – 373,0 mln.doll.);

Xauzak konida yiliga 3 mlrd. metr kub gazni birlamchi tayyorlov moslamasi ishga tushirildi (LUKOYL bilan hamkorlikda) (investitsiya hajmi – 302,8 mln. doll.);

«Toshguzar – Boysun – Kumko'rg'on» yo'nalishidagi yangi temir yo'llar (investitsiya hajmi – 34,4 mlrd.sum);

«Navoiy – Uchquduq – Sulton Uvaystog' – Nukus» temir yo'l liniyasining 6 ta yangi razezdi ishga tushirildi (investitsiya hajmi – 6,8 mlrd.sum);

«Tukumachi-Angren» yo'nalishida yangi temir yo'llar (investitsiya hajmi – 85,4 mln.doll.).

⁵ Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Тошкент: "Ўзбекистон", 2010.

Investitsiya dasturi - respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

2010 yilning 15 dekabrda mamlakatimiz Prezidentining sanoatni barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy sanoat tarmoqlarini diversifikasiya qilishga va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida PQ-1442-sonli "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda sanoatni rivojlantirishning kompleks dasturi va modernizatsiya qilinishi, texnik va texnologik yangilanishi, yangidan barpo etilishi kutilayotgan yirik investitsion loyihalar aks etgan bo'lib, tubandagi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan:

- struktura hosil qiluvchi tarmoqlarni va umuman sanoatni rivojlantirishning aniq, chuqur va har tomonlama puxta o'ylangan uzoq muddatli istiqbollarini ishlab chiqish, shu asosda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini diversifikasiya qilishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish;

- Vatanimiz sanoat mahsulotining raqobatbardoshligini oshirish, respublika sanoati va umuman iqtisodiyotini rivojlantirishning jahon kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga bojliqligini kamaytirish maqsadida normativ ko'rsatkichlar va tariflarning barqarorligini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining jahon mehnat taqsimotidagi roli va o'rnini yuksalib borishini ta'minlaydigan energetika, neft-gaz-kimyo, kimyo, to'qimachilik va engil sanoat, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika kabi ustuvor tarmoqlarni ildam rivojlantirishga qaratilgan sanoatdagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatli va chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, jahon bozorida doimiy xaridorgir bo'lgan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish;

- sanoat korxonalarini keng miqyosda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni eng zamonaviy yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlash, sanoat tarmoqlarida zamonaviy ilmiy yutuqlar va iljor innovatsiya texnologiyalarini jadal tatbiq etish, sanoat uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish;

- ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish, mahalliy xom ashyoni chuqur va sifatli qayta ishlash negizida eksport salohiyatining barqaror o'sib borishini, eksportga mo'ljallangan raqobatdosh sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ularni sotish bozorlari kengaytirilishini ta'minlash;

- ichki sanoat kooperativlari va ishlab chiqarish mahalliyashtirilishini yanada rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, sanoat korxonalarini mamlakatning barcha mintaqalarida joylashtirish va shu asosda import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilishini, yangi ish joylari yaratilishi hamda aholining ish bilan bandligi o'sishini, odamlarning daromadlari va turmush darajasi yanada oshib borishini ta'minlash;

- mehnat unumdorligini o'stirish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini izchil pasaytirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish, nobudgarchiliklar va unumsiz sarf-xarajatlarni bartaraf etish hisobiga sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini muttasil oshirib borish;

- sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda uning tashqi bozordagi raqobatdoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat standartlari va texnik reglamentlarni tizimli tarzda tatbiq etish.⁶

Keltirilgan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan jami **50** milliard AQSH dollariga teng bo'lgan **519 ta** loyihani o'zlashtirish ko'zda tutilmoqda. SHundan moliyalashtirish manbalari aniq bo'lgan investitsion loyihalarning soni 260 tani tashkil etgani holda, o'zlashtiriladigan mablag'lar qiymati 30 074,2 million AQSH dollariga teng.

Ishlab chiqilayotgan yangi investitsiya loyihalar ro'yxati bo'yicha:

- **6,03 mlrd. dollar** istiqbol qiymatiga ega **99 ta yirik tarmoq loyihalari**, - **412 mln. dollarga** teng **442 ta hududiy loyihalarni** amalga oshirish nazarda tutilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, har yili sanoatni rivojlantirish uchun o'rtacha 10 milliard dollarga teng bo'lgan investitsion mablag'lar iqtisodiyotga jalb qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarini tashkil etishni va qo'shimcha daromadlarning shakllanishini, shuning bilan birga asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan, ya'ni YAIMning o'sishini ta'minlashga va natijada aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mulohazalarni korrelyatsion va regression tahlillar orqali mustahkamlaymiz. Bizga ma'lumki, YAIMning shakllanishiga bir qancha ko'rsatkichlar (omillar) ta'sir ko'rsatadi. SHulardan biri investitsiyalardir. Investitsiya bilan YAIMning chiziqli bog'liqlik tenglamasini statistik raqamlarni kiritgan holda EXCEL dasturi orqali hisoblaydigan bo'lsak, quyidagi funktsiya namoyon bo'ladi (6.3.1-rasm): $y = 0,535x - 5405$

Mazkur tenglamadan ko'rish mumkinki, boshqa omillar o'zgaras bo'lgan sharoitda multiplikator samarasi 2,15 ga teng bo'lar ekan. Bunidan, ya'ni investitsiya hajmining bir milliard so'mga oshishi YAIMni 2,15 milliard so'mga o'sishini ta'minlaydi degan xulosaga kelish mumkin.

⁶ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2010 йил, 50-сон, 472-модда.

Xuddi shu tahlillarni, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'rsatkichi bilan YAIMning bog'liqligini alohida qarab chiqamiz. Sanoat ishlab chiqarish hajmi va YAIM o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik tenglamasi $y = 0,935x - 2173$ ga, qishloq xo'jaligi bilan YAIM o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik tenglamasi esa $y = 0,391x + 473,6$ ko'rinishga egadir. YAIM bilan yuqori chiziqli bog'liqlik sanoat ishlab chiqarish hajmi bilan ekan, ya'ni o'zgaruvchilarning korrelyatsiya koeffitsienti 0,935ga teng. Ushbu ko'rsatkich mos ravishda investitsiya bilan 0,535 ga, qishloq xo'jaligi bilan esa 0,391ga teng. Demak, kelajakda YAIMning o'sishiga aynan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi yuqori ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ham YUrtboshimiz tomonidan qishloqqa sanoatni olib kirish, qishloq xo'jaligida ortiqcha bandlikni qisqartirish va bo'shagan ishchi kuchini yangi ish o'rinlarini bilan ta'minlash masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Va bularning barchasini amalga oshirishda o'rta sinf vakillari bo'lmish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ustuvorlik qaratish lozimligini uqtirmoqdalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.⁷

6.3.O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi, shakllari

O'zbekistonda chet el investitsiyalarini jalb etishning ustivor sohalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ◆ agrosanoat majmuini rivojlantirish, bu esa pirovardida aholining me'yordagi turmush sharoitini ta'minlash imkoni beradi.

- ◆ sanoatning ustivor sohalaridan yoqilg'i-energetika majmuini jadal rivojlantirish, xalq xo'jaligining ilm fan talab tarmoqlarda ishlab turgan quvvatlarni yangilash va yangilarini barpo qilish, respublikaning importga qaramligini kamaytirish.

- ◆ eksport salohiyatini kuchaytirish va mahsulotlarning raqobatbardoshligini ko'tarish, eksportda mashinasozlik texnologiyasi mahsulotlari, tayyor mahsulotlar hissasini va hajmini ko'paytirish, gaz kondensati xom-ashyo bazasini o'zlashtirish, kimyo mahsulotlari, o'g'itlar eksportini ko'paytirish.

- ◆ kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, qadimiy va an'anaviy xunarmandchilikni tiklash.

⁷ "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади". Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь, № 16 (5183).

♦ Markaziy Osiyo bozorini rivojlantirishda ishtirok etish, shu mintaqadagi korxonalarning hamkorligi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarni barpo etish, o'zaro manfaatli obektlarni hamkorlikda qurish va tiklash.

Bugungi kunda Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi xorijiy kredit liniyalari faoliyat olib bormoqda (**jami 200 million dollarlik**):

- Islom taraqqiyot banki – 15 mln.doll., LIBOR+2,5% (ITB marjasi) yillik + 3% gacha bank marjasi, 10 yilga;
- Xususiy sektorni rivojlantirish buyicha Islom korporatsiyasi – 18.2 mln.doll., yillik 12% gacha, 5 yilga;
- Xitoy Taraqqiyot banki – 75 mln.doll., LIBOR+4,5% yillik + 3% gacha bank marjasi; 7 yilga;
- Koreya xukumati krediti 58,6 mln.doll., – CIRR yoki LIBOR + uzbek bank marjasi, 5 yilgacha;
- Germaniya Federativ Respublikasi banklari –Euribor/LIBOR + xor.bank marjasi + bank marjasi, 6 yilgacha: “Kommerzbank” – 21,900 mln.doll.; “Xipo Fereyne Bank” – 6,4 mln.evro.; “LandesBank Berlin AG” - limitsiz; KfV banki.

2011 yilda hududiy investitsiya dasturiga kirgan loyihalar parametrlari xususida fikrlarni davom ettiradigan bo'lsak, Respublika bo'yicha jami **759802,4** ming AQSH dollariga teng bo'lgan investitsion loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda (6.4.1-jadval). Mazkur loyihalar natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi **2166634,7** million so'mni tashkil etishi **30793** ta yangi ish o'rinlarining yaratilishi bashorat qilinmoqda. Viloyatlar kesimida qarab chiqadigan bo'lsak, umumiy loyihalar qiymatida Toshkent shahrining ulushi 31,5 foizni tashkil etayotgani holda, eng yuqori o'rinni egallab turibdi. Shuningdek, loyiha doirasida prognoz viloyatdagi davrda jami 310068,0 ming dollarlik mahsulot eksport qilinishi rejalashtirilmoqda. 2011 yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan investitsion loyihalarning umumiy soni 889 tani tashkil etgani holda, shundan 146 tasi engil sanoatni rivojlantirishga; 148 tasi qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishga; 102 tasi go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlashga; 43 tasi neft va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarishga va 450 tasi qolgan barcha sohalarga yo'naltiriladi.

Hududiy taqsimlanishiga ko'ra 2011 yilda 156 ta loyiha Navoiy viloyatiga, 99 ta loyiha Toshkent shahriga, 63 ta loyiha esa Surxondaryo viloyatiga to'g'ri keladi.

Hududiy investitsion loyihalarning 19,3 foizi korxona mablag'lari; 43,1 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga; 21,3 foizi xorijiy kreditlar; 16,2 foizi mahalliy kreditlar orqali moliyalashtirilishi kutilmoqda.

6.4.1-jadval

Hududiy investitsiya dasturiga kirgan loyihalar parametrlari

	2011 yil prognozi		Mahsulot ishlab chiqarish yillik hajmi (mln.so'm)	SHu jumladan, eksportga (ming doll.)	YAngi ish o'rinlari soni, kishi
	ming AQSH doll.	Ulushi, %			
Respublika bo'yicha	759802,4	100,0	2166634,7	310068,0	30793
Qoraqalpog'iston Respublikasi	16465,6	2,2	81882,5	4350,0	1710
Andijon viloyati	37743,0	5,0	93708,0	31180,0	1498
Buxoro viloyati	29671,3	3,9	37814,0	6250,0	1205
Jizzax viloyati	39149,5	5,2	102511,0	16900,0	2491
Qashqadaryo viloyati	57286,7	7,5	93125,0	27181,2	2467
Navoiy viloyati	28293,2	3,7	116181,0	2460,0	1551
Namangan viloyati	26223,8	3,5	85240,5	12440,0	3215
Samarqand viloyati	38748,0	5,1	76313,1	1124,0	1613
Surxondaryo viloyati	45644,0	6,0	80535,8	6440,0	2135
Sirdaryo viloyati	21300,0	2,8	230038,9	1970,0	1750
Toshkent viloyati	100773,8	13,3	240147,6	46275,8	3529
Farg'ona viloyati	43628,7	5,7	192917,5	71100,0	3095
Xorazm viloyati	35093,0	4,6	189390,7	46000,0	1303
Toshkent shahri	239511,8	31,5	546829,1	36397,0	3231

Davlat investitsiya dasturiga loyihalarni kiritishning o'ziga xos talablari mavjud. Bular: investitsion loyihaning belgilangan tartibda tasdiqlangan texnik iqtisodiy asosining mavjudligi; moliyalashtirish manbalarining aniqligi va shartnomada kelishilgan muddatda kreditlarning to'lanishi; loyiha tashabbuskori tomonidan loyiha pasporti, amalga oshirilish grafigi va loyiha holati haqida batafsil ma'lumotning tayyorligi. Ushbu talab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-son Qarori bilan tartibga solinadi.

Aytib o'tilgan fikrlar va mulohazalarni umumlashtirib investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflarni qayd etish mumkin:

■ Tijorat tuzilmalarini kafolatga bo'lgan talabini ta'minlash maqsadida kafolat-garov jamg'armalari tizimini shakllantirish;

■ Aholi bo'sh pul mablag'larini investitsion jarayonlarga jalb qilish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish (uy-joy sertifikatlari va uy-joy obligatsiyalari);

■ Ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarning bir qismini tez qoplaydigan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan kichik biznes ob'ektlariga yo'naltirish;

■ Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo'lgan lizing, franchayzing, faktoring kabilardan foydalanishni kengaytirish;

■ Investitsion loyihalarni sifatini oshirish, loyihalarni kapital qo'yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investitsion loyihalar ko'rgazmasini tashkil qilish va h.k.

Asosiy tushunchalar va atamalar

Siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik; Investorlar huquqlarining kafolatlari; Ishlab chiqarish uchun zarur infratuzilmalarning mavjudligi; Xom ashyo bazasi va undan foydalanish imkoniyatining mavjudligi; Bozorlar-ning nisbatan qulay geografik joylashuvi va optimal transport koridorlarining mavjudligi; Malakali ish kuchining mavjudligi (institut, kolledj va b.); Investorlarga beriladigan soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyoz va afzalliklar; Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablari; Ichki sabablar; Tashqi sabablar; Strategik sabablar; Korxonalarni investitsion faoliyatini rivojlantirish istiqbollari; Investitsion dastur; Investitsion loyihalar; Markazlashgan investitsiyalar; Markazlashmagan investitsiyalar; Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi salbiy omillar; Etakchi sohalarni modernizatsiya qilish; Sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish; Sanoat tarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish; Ichki sanoat kooperatsiyasi; Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish; Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini izchil pasaytirish; Energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish; Korrelyatsion va regression tahlillar; CHet el investitsiyalarini jalb etishning ustivor sohalari; Xorijiy kredit liniyalari; Hududiy investitsion loyihalar; Davlat investitsiya dasturiga loyihalarni kiritishning o'ziga xos talablari; Tijorat tuzilmalarini kafolatga bo'lgan talabi; Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullari; Loyihalarni kapital qo'yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi.

7-Mavzu: Rivojlangan mamlakatlar - xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida

7.1. Rivojlangan davlatlar guruhining jahon ho'jaligi va siyosatida tutgan o'rni.

7.2. Guruhga kiruvchi mamlakatlar kriteriyasi, iqtisodiyotining umumiy belgilari.

7.3. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining hozirgi davr strukturasi.

7.4. "Katta ettilik" davlatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi.

7.5. Etakchi rivojlangan davlatlarning dunyo xo'jaligida tutgan o'rni

7.6. Amerika Qo'shma SHtatlari: dunyo xukmronligini qo'lda ushlab turish siyosati.

7.7. YAPoniya kuchli iqtisodiy markaz.

7.8. Evropa Ittifoqi mamlakatlari dunyo xo'jaligida.

7.1. Rivojlangan davlatlar guruhining jahon ho'jaligi

va siyosatida tutgan o'rni

Dune mamlakatlari o'z rivojlanishida iqtisodiy taraqqietning turli darajalariga erishganlar. Ularning ichida yalpi milliy mahsulotining hajmi, uning axoli jon boshiga to'g'ri kelishi, yalpi milliy mahsulotida va eksportida sanoatning hissasi, iqtisodiy tarmoqlarida band bo'lganlarning tarkibi, jahon bozorida tutgan o'rni bilan alohida ajralib turadigan mamlakatlar guruxi mavjud. Bu mamlakatlarni rivojlangan mamlakatlar yoki sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar deb ataydilar. Ularning bunday nomda atalishlariga sabab - ularning yalpi milliy mahsulotlari tarkibida sanoat mahsulotlarining hissasi yuqoriligidadir. Binobarin, ularning YAIM da qishloq xo'jaligining hissasi juda kamdir. Sanoati rivojlangan mamlakatlar taraqqietida 2 inchi jaxon urushidan keyingi davr o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu davrda ushbu mamlakatlar o'z iqtisodiyatini rivojlantirishda sanoat tarmoqlarini, va ayniqsa eksport uchun mahsulotlar ishlab chiqaradigan soxalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdilar. Buning uchun ushbu soxalarga katta investitsiyalar ajratilib, ko'p miqdorda kapital qo'yilmalar kiritildi. Ayniqsa, AQSH, Yaponiya, Germaniya kabi mamlakatlar eksport yo'nalishli iqtisodiyatni rivojlantirishga katta e'tibor berdilar.

1. Ko'pchilik industrial mamlakatlarning YAIMning kattaligi bilan aniqlanadigan ichki bozori miqyoslari jahonning boshqa mamlakatlari orasida ajralib turadi. Ular dunyoning etakchi 50 bozori qatoridan o'rin olganlar. YAIM kattaligini ichki bozor hajmining ko'rsatkichlaridan biri sifatida ekanligini qayd qilgan holda, shuni aytish kerakki, bir qator kichik mamlakatlar *xo'jalik faoliyatlarining yuqori darajada baynalminallashganligi* bilan ajralib turadilar. Masalan, Belgiyaning eksport kvotasi (eksportning YAIMga nisbati) 70 %, Irlandiyaniki – 67 %, Niderlandiyaniki – 52 %, Avstriyaniki – 40 %, SHveyqariyaniki, Daniyaniki - 37 % hisoblanadi. Bu mamlakatlarda import kvotasi ham huddi shunday darajada. Binobarin, kichik mamlakatlarning ichki bozori YAIMga nisbatan katta emas, va ular ko'p jihatdan jahon bozorining ma'lum sektorlariga dahldor bo'lib qolganlar. Yirik industrial mamlakatlarda YAIM ni ishlab chiqarish va sotishda xorijiy sektor unchalik katta emas: 20-30 %, AQSH va Yaponiyada esa – 10-15 %.

2. Ichki bozor hajmining va rivojlanish darajasining boshqa bir umumlashtiruvchi ko'rsatkichi *jon boshiga daromad* hisoblanadi. Umuman aytganda bu ko'rsatkich bo'yicha industrial rivojlangan mamlakatlar dunyo bo'yicha o'rtacha darajadan besh barobar yuqori ko'rsatkichga egalar. Hamma industrial mamlakatlar bu ko'rsatkich bo'yicha dunyodagi eng oldingi 30 mamlakatlardan hisoblanadilar. YAIMning jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha eng oldingi o'rinlarni SHveyqariya, Lyuksemburg, Yaponiya, SHveyqiya, Norvegiya, Daniya egallaydilar. Industrial mamlakatlar ichida bu sohadagi eng past ko'rsatkich Greqiya, Ispaniya, Portugaliya, Irlandiya, Janubiy Afrika Respublikasi kabi mamlakatlardadir.

3. Bozorning kattaligi *xizmat ko'rsatiladigan iste'molchilar soniga* bog'liq bo'ladi. Ichki ishlab chiqarish iste'moliga mo'ljallangan jamiyat qanchalik katta bo'lsa, ichki bozor shunchalik keng bo'ladi, lekin iste'molchilarning ma'lum qismi

ishlab chiqaruvchi sifatida ham qatnashishi mumkin. SHuning uchun ham aholi soni jamiyatning iste'mol va ishlab chiqarish salohiyati uchun yo'nalish bo'lib hisoblanadi, ammo, aholi miqdori bilan ichki bozorning hajmi o'rtasida bevosita bog'liqlik bo'lmasligi ham mumkin. Iste'molchilar sonining ahamiyati odatda mamlakat rivojlanishi darajasiga teskari proporsionaldir. Ko'pchilik industrial rivojlangan mamlakatlar o'rta va kichik mamlakatlar hisoblanadi. Faqat ularning ikkitasidagina aholi soni 100 mln. kishidan oshadi (AQSH va Yaponiya), to'rttasida – 50 mln. dan oshadi, o'n mamlakatda esa aholi soni 10 mln. kishidan oshmaydi, Lyuksemburgda esa iste'molchilar soni 0,5 mln. dan kamdir. Aholi sonining katta bo'lmasligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning yuqori darajada bo'lishi bilan birgalikda ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga va xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroki kuchayishiga olib keladi, kichik va o'rta mamlakatlarni integratsiyaga undaydi.

4. Industrial rivojlangan mamlakatlar bozorining asosiy belgisi – deyarli butun aholining tovar mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirilishidir. Bu yollanma mehnatning keng tarqalganligi, yollanish sifatining yuqoriligidir. YOllanib ishlaydiganlar ulushi ish bilan band aholining o'rtacha 85 % ini tashkil qiladi, xususan Buyuk Britaniya va AQSHda – 90% dan oshadi. Norasmiy ish bilan shug'ullanish ko'pchilik g'arb mamlakatlari uchun unchalik ahamiyatli emas. Faqat janubiy Evropa mamlakatlari bundan istisnodir. Muvofiq ravishda ichki bozorlarning asosiy belgisi bo'lib ishlab chiqarish sohasi bilan iste'molning mustahkam o'zaro bog'liqligi hisoblanadi.

5. Ichki bozorning hajmi iqtisodiyotning tarmoqlari va bo'limlari o'rtasidagi o'zaro aloqaga, ularning pirovard mahsulotning asosiy qismlariga bo'lgan talabiga bog'liqdir.

Industrial rivojlangan mamlakatlarda ichki bozor tarmoqlararo va tarmoq ichidagi oraliq mahsulotlarni va investitsion mahsulotlarni o'zaro etkazib berishlari yuqori darajada ekanligi bilan ajralib turadi. Tarmoqlararo aloqalarning asosiy omili bo'lib vertikal integratsiya xizmat qiladi, va u har bir tarmoqning boshqa tarmoqlardan ham talab tomonidan, ham taklif tomonidan takror ishlab chiqarish jarayonining bog'liqligi kuchayishini keltirib chiqaradi.

6. Ichki bozorlar rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ***bozordagi pul munosabatlarining rivojlanish darajasi*** bo'lib, u mamlakat ichidagi kredit munosabatlarining YAIM ga nisbati bilan belgilanadi. 90 – yillarning birinchi yarmida etakchi g'arb mamlakatlarida olingan kreditlar 50 – yillardagi YAIMga nisbatan 50-60 % dan 100 % gacha etdi.

7. Ichki bozorlarning umumiy hajmi bilan birgalikda iste'molning tarkibi va mohiyati ham muhim ahamiyatga ega, ular iste'mol qiymatidan foydalanishni bildiradi. U ishlab chiqarish va iste'mol talabining yig'indisidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish iste'moli ishlab chiqarish jarayoni ichida bo'lib, ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishdan (mehnat qurollari va ashyolari) va ishchi kuchi iste'molidan, ya'ni uning jismoniy va ma'naviy energiya sarf qilishidan iborat bo'ladi. Nomoddiy iste'mol ishlab chiqarish jarayonidan tashqarida bo'ladi. Bunday holda iste'mol ashyolari foydalaniladi yoki butunlay iste'mol qilinadi.

SHunday qilib, ishlab chiqarish iste'moli jarayonida mahsulotlar yaratiladi, noishlab chiqarish jarayonida esa ular iste'mol qilinadi.

Ishlab chiqarish talabi ishlab chiqarish jarayonining holati bilan belgilanadi, jami iste'mol talabi esa – asosan jismoniy shaxslarning pul talablari bilan belgilanadi. O'z navbatida ishlab chiqarish talabi ham iste'mol talabi ham xususiy va davlat sektorlariga bog'liq bo'ladilar. Uzoq tarixiy davr davomida YAIMda shaxsiy iste'molning xissasi kamayib bordi. 1820 yilda u taxminan 85% atrofida bo'lgan, o'tgan asrning 90 yillar boshida esa YAIM ga nisbatan 61% bo'ldi. Keyingi o'n yilliklarda shaxsiy iste'mol katta sur'atlarda o'sib bordi.

7.2. Guruhga kiruvchi mamlakatlar kriteriyasi, iqtisodiyotining umumiy belgilari

Utgan asrning 70 yillari urtalarida, 80 yillarda asosan uqklik inkirozni boshidan kechirgan industrial rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosatida uzgarishlar yuz berdi. Bu mamlakatlar 70 yillar urtalarida utkir tarkibiy inkirozlarga duch keldilar va uning oldida an'anaviy tartibga solish tadbirlari xech nimaga yaramay koldi.

Garb mamlakatlarining butun iqtisodiy strategiyasi umuman iqtisodiy tizimining moslashuvchanligini oshirishga, uning jaxon iqtisodiyotidagi tarkibiy uzgarishlarga tezda javob bera olish imkoniyatiga karatildi. Maksadlarning uzgarishi jami talabda davlatning axamiyati uzgarishi bilan bog'lik buldi. Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkilotida (OESR) tovar va xizmatlarga xukumat xarajatlari YAIMning 40%ini tashkil kildi. Bu xolat fiskal barkarorlashtiruvchi kuchlar ta'sirida ishbilarmonlik faoliyatining keskin uzgarishiga karshi ta'sir kursatdi.

SHuning uchun xam 80 yillarda garbning xamma asosiy mamlakatlarida ustuvorlik tarkibiy siyosatga berildi. Unga kura iqtisodiy, ilmiy texnik, mintakaviy siyosatlar yagona maksadga rakobatbardoshlikni oshirishga va mamlakatning jaxon xujaligidagi urnini mustaxkamlashga karatiladi. Makroiqtisodiy siyosatning yangi ustuvorliklari tartibga solishning asosiy vositalarining urnini uzgartiradi. Tartibga solishning byudjet-solik mexanizmi urniga cheklov funkuiyalari yukori bulgan pul-kredit mexanizmi birinchi uringa chikdi. 70 yillarning 2 yarmidan boshlab pul massasini kuchaytirish yunalishi pul kredit tartibga solishining muxim mezoni sifatida karaldi. Bu vositadan foydalanishda kupgina chetga chikishlarga karamasdan, siyosatning umumiy antiinfluyaiya yunalishi uzgarmay koldi. Influyaiyaga karshi maksadlarning yunalishi davlat xarajatlari usib borishini kamaytirishga va byudjet kamomadini kiskartirish bilan birgalikda olib borildi. Oxirgisi uzok muddatli iqtisodiy usish uchun tusik bulishi mumkin. CHunki foiz tulovlari usib borishi bilan ular uz uzini kullab kuvvatlovchi bulib koldi. Ularning saklanib kolishi pul kredit siyosatini kamaytirgan xolda influyaiyaning asosiy manbalaridan biri bulib koladi.

Iqtisodiy siyosatni kayta kurishning 80 yillardagi asosiy belgilaridan biri davlat mulkini xususiylashtirish va davlatning bosh tadbirkor sifatidagi urnini keskin kamaytirish buldi. Bu jarayon Buyuk Britaniyada katta mikyosga ega buldi.

Xamma industrial rivojlangan mamlakatlarda davlat korxonalarining YAIMdagi xissasi 1982 yillardagi 9%dan 1988 yildagi 7%gacha kiskardi. Xukumat ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini davlat tomonidan kullab kuvvatlashga katta e'tibor berdi. Davlat tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalash kiskarganligiga karamasdan 1994 yilda u Italiya va Franiyada 45-46%, Germaniyada 46%, AKSHda 36%, Yaponiyada 28%ni tashkil kildi. Asosiy e'tibor uncha kup bulmagan ilgor tarmoklarga karatildi. Bevosita davlat moliyalashi tizimi turli bevosita va bilvosita ta'sir usullari bilan birgalikda olib borildi. Eng kup foydalaniladigan vositalar ichida dasturlar va loyixalar, institutsional tarkiblar rivojlanishi, ilmiy institutsional va sanoatning xamkorligini kullab kuvvatlashning turli usullari aloxida ajralib turadi.

Germaniyada, SHveytseyda va Buyuk Britaniyada xukumat xarajatlari 70 yillar oxiridagi darajadan past buldi. Ish xakining indeksa'iyalash tizimi kayta kurib chikildi yoki tugatildi. Ular oldingi 10 yilliklarda yollanma ishchilarni inflyatsiyadan ximoya kilish vositasi sifatida juda ommalashib ketgan edi. Minimal ish xaki tugrisidagi konunchilikning usishini cheklash tomonga uzgartirildi. 70 yillarda kupchilik mamlakatlarda minimal ish xakining konuniy usishi urtacha ish xakining usishidan yukori bulgan edi. Ijtimoiy iktisodiy siyosatdagi uzgarishlar axolii turli guruxlari daromadlarini farklari usib ketishiga olib keldi. Daromadlar boylar kulamida usdi, milliy daromadda yollanma mexnatning ulushi esa pasaydi. Daromadlar darajasidagi uzgarishlar ularning manbalaridagi uzgarishlari bilan birga kechdi. Masalan, AKSHda 70 yillarda oilalar daromadining taxminan 61%ini oila boshliklarining ish xaki va boshka daromadlari tashkil kilardi, 80 yilga kelib bu xissa 56%ga, 1990 yilga kelib esa 52%gacha kiskardi. Nafakalar ulushi xam pasaydi, lekin shu bilan birgalikda kapitaldan olinadigan daromadlar ulushi oshdi.

Keyingi yillarda SRMLar o'rtasida iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha bir-biriga yaqinlashishning jarayoni yuz berdi. Portugaliya, Gretsiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlar katoridan urin oldilar.

Mexnat bozoridagi siyosat. 80 yillarda unumdorligi past bulgan xodimlarni ishdan chetlatish yuli bilan iktisodiyotning rakobatbardoshligini oshirish intilishlari kuchaydi. Bu turli shakllarda amalga oshirilardi. Ishbilarmonlik faolliga uzgarishi Bilan band bulganlar soniga aniklik kiritish, ish vaktini uzgartirish, kichik pudratni rivojlantirish, vaktinchalik ishlardan keng foydalanish mexnat bozorini erkinlashtirish kupchilik xukumatlarning asosiy e'tibor beradigan soxasi bulib koldi. Barkaror iktisodiy usishni ta'minlay olmaslik kupincha mexnat bozorining moslasha olmasligi Bilan boglanardi. Bu soxada siyosatning uzgartirilishi bilan mexnat bozorida taklif kupaydi. Mexnat unumdorligi Osha boshladi. 1975-1987 yillarda mexnat unumdorligining usishi industrial rivojlangan mamlakatlarda real ish xakining usishidan 1,5-10 marta yukori buldi(Kanada). SHu Bilan birgalikda keyingi 10 yilliklarda tajribasi shuni kursatdiki inson omilidan foydalanishda ziddiyatli yondashuvlar yulidan borish yaramaydi. Keng kurinishdagi ijtimoiy katamlarning manfaati xisobga olinadigan mamlakatlar odatda rivojlanishning YAngi modellarini kullashda rakobatbardoshlikni oshirishda afzalliklarga ega buldilar. SHuning uchun industrial rivojlangan mamlakatlar bandlik va ishsizlik

masalalariga katta e'tibor karata boshladilar. Ishsizlikning yukori darajada bulishi ularni mexnat bozori buyicha dasturlarni davlat tomonidan moliyalashni kuchaytirishga undadi. Bandlik siyosatini utkazishga ketadigan xarajatlarning YAIMdagi ulushi 1990-1994 yillarda Buyuk Britaniyada 1,6-2,2%gacha, Daniyada 5,7-7%gacha, Germaniyada 2,1-38%gacha, SHveçiyada 2,6-5,4%gacha, Françiyada 2,6-3,3%gacha, YAponiyada 0,3-0,4%gacha usdi. Garb mamlakatlarida iktisodiyotning rakobatbardoshligini oshirishga karatilgan iktisodiy siyosatning amalga oshirilishi 70-80 yillardagi bozor kuchlari uz uzidan iktisodiyotning okilona tarkibini ta'minlab beradigan tasavvurlarni uzgartirishiga olib keldi. Davlatning tartibga solish darajasi ma'lum darajadan pastga tushmasligi kerak degan tushunchaga keldilar. Bozorning kurinmas kuli kiyinchiliklarini engib utishi kafolatlay olmaydi, xujalik faoliyatini erkinlashtirish esa kuchligina davlat tartibga solishi Bilan bozor mexanizmlarini kushimcha kilishni talab kiladi.

7.3. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining hozirgi davr strukturasi

Rivojlangan davlatlar sanoatiga xarakteristika. Jaxon mamlakatlari iqtisodiyotida sanoat tarmog'i juda muhim o'rin tutib, u boshqa tarmoqlar kabi mehnat taqsimoti natijasida ajralib chiqqan. Sanoat tarmog'i – ishlab chiqarish vositalari va ist'emol tovarlarining asosiy qismi ishlab chiqariladigan, xamda yonilg'i va xom-ashe qazib olinadigan fabrika, zavod, elektrostançiya, shaxta, konlar, ishlab chiqarish kompaniyalari va konçernlardan tashkil topgan sanoat korxonalarining yigindisidan iboratdir.

Iqtisodiyotning sanoat ishlab chiqarish soxasi 2 bulinmaga ajratiladi:

A) bulinma - ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish. (stanoklar, apparatlar, mashinalar va x.)

B) bulinma - iste'mol vositalari ishlab chiqarish. (tug'ridan-tug'ri iste'molga ishlatiladigan tovarlar).

A - guruhning o'zi yana bir qancha guruhlarga ajratiladi:


1) YOnilg'i va energiya ishlab chiqarish.


2) Xom-ashyo va materiallar ishlab chikarish.

3) Mashina va jihozlar ishlab chiqarish, ya'ni mehnat qurollari ishlab chiqarish.

Mamlakat iqtisodiyotida YAMM ning ancha qismi jamg'arishga yo'naltirilishi sanoatning A - bo'linmasi ulushining oshib borishiga olib keladi. Lekin keyingi yillarda jaxonning rivojlangan mamlakatlarida aholining turmush darajasini oshirish jarayoni kuchayib borayotganligi sababli sanoatning "B"-bulinmasi ulushi ham oshib bormoqda.

12.2.1-rasm. Jahon sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Milliy iqtisodiyotning strukturasi o'ziga xos xususiyatlari.

Sanoatni tarkib jihatdan ko'rib chiqadigan bo'lsak, u asosan xom-ashyo qazib olish va qayta ishlash sanoatiga ajratiladi.

Kayta ishlash sanoati o'z navbatida og'ir va engil sanoatga ajratiladi. Sanoat ishlab chiqarishda bu bo'limlarning ulushi turlichadir. Butun sanoat ishlab chiqarishning 83,4 %, ya'ni 4/5 kismi qayta ishlash sanoatiga tug'ri keladi. Qayta ishlash sanoatida butun maxsulotning 2/3 qismi, ya'ni 68 % og'ir sanoatda ishlab chiqariladi. Og'ir sanoat mashinasozlik, metallurgiya, ximiya tarmoqlaridan iborat bulib, ularning ichida mashinasozlikning ulushi juda kattadir. YA'ni, butun og'ir sanoatning 64 % mahsuloti mashinasozlik tarmog'ida ishlab chiqariladi.

Rivojlangan mamlakatlar sanoatida mashinasozlik tarmog'i eng asosiy o'rin tutadi. Mashinasozlik 3 ta bo'limga ajratiladi:

- a) umumiy mashinasozlik;
- b) transport mashinasozligi;
- v) qishloq xo'jaligi mashinasozligi va qurilish mashinasozligi.

Umumiy mashinasozlikka stanoksozlik, sanoatning turli tarmoqlari uchun jihozlar ishlab chiqarish, elektrotexnika va elektronika tarmoqlari kiritiladi.

Transport mashinasozligiga avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik, temir yo'l mashinasozligi tarmoqlari kiritiladi.

Qishloq xo'jaligi va qurilish mashinasozligi o'z nomlariga yarasha qishloq xo'jaligi va qurilish uchun mashinalar va turli jihozlar ishlab chiqaradilar.

Umumiy mashinasozlikning eng rivojlangan va FTT kuchli ta'sir ko'rsatgan tarmog'i stanoksozlik xisoblanadi. Bu tarmoqda avtomat boshqariladigan, metall qirqadigan, sonli dastur bilan (chislovoe programmnoe upravlenie) boshqariladigan stanoklar, o'zgaruvchan ishlab chiqaruvchi tizimlar (gibkie proizvodstvennie sistemi) ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan.

Stanoksozlik kuchli rivojlangan mamlakatlar Germaniya, YAponiya, AKSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya hisoblanadi. Birinchi o'rinda Germaniya turadi.

Mashinasozlikning yildan-yilga rivojlanib borayotgan soxalaridan biri bu - elektronikadir. Elektronika mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchisi bulib AKSH hisoblanadi. Undan keyin YAponiya va G'arbiy Evropa mamlakatlari turadi (Germaniya, Angliya).

Jadval 7.2.1.

Rivojlangan mamlakatlar sanoat ishlab chiqarishining tarkibi, % larda

Xamma tarmoqlar	100,0
Xom ashyo qazib olish sanoati	8,1
Kumir qazib olish	1,4
Neft va gaz qazib olish	4,6
Metall rudalar qazib olish	1,2
Elektr energiyasi ishlab chiqarish	8,5
Qayta ishlash sanoati	83,4
Og'ir sanoat	57,3
Mashinasozlik	36,6
Metallurgiya	5,7
Ximiya	11,8
Engil sanoat	26,1
To'qimachilik	2,9
Tikuv va poyafzal	2,4
Oziq-ovqat	8,9

Elektronika sanoatida hozirgi kunda kuchli rivojlanayotgani kosmik aloqa, teleboshkaruv, teletekshiruv, radioulchov asboblari ishlab chiqarish hisoblanadi. Elektron texnika maxsulotlaridan: radio va televizorlar, magnitofonlar, videotexnika, uy ruzg'orning eng keng tarqalgan buyumlari bulib qolmoqda. Elektrotexnikada tranzistorlar o'rniga integral sxemalar keng qo'llanilmoqda. YArim o'tkazgichlar va integral sxemalar ishlab chiqarish buyicha YAponiya eng oldingi o'rinda bormoqda. Bunday maxsulotlarni ishlab chiqarishda AQSH va G'arbiy Evropa mamlakatlari bilan birgalikda Janubi-SHarqiy Osiyoning "yangi industrial davlatlari" katta salmoqqa ega bo'lmoqdalar.

Informatika vositalarini ishlab chiqarishda kompyuterlar ishlab chiqarish va ularni dasturlar bilan ta'minlashda AQSH eng ilg'or mamlakat xisoblanadi. YAponiya va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari xam unga eng raqobardosh davlatlar xisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda lazer texnikasini qo'llash xam keyingi paytlarda keng tarqalmoqda.

Transport mashinasozligida avtomobilsozlik aloxida o'rin tutadi. FTT natijasida bu tarmoqda tejamli dvigatellar, detal va qismlarni yangi materiallar asosida ishlab chiqarish, avtomobilning umumiy konstrukuiyasini takomillashtirish ustida ish olib borilmoqda. Xozirgi yangi avtomobillar tezligi yuqori, yoqilg'ini tejab ishlatadigan, benzin o'rniga dizel va gaz yonilg'isini ishlatadigan qilib ishlab chiqarmokda. Ularning xajmlari kichraytirilib, ichki qismida turli qulayliklar yaratilgan, xamda bahosini arzonlashtirish uchun xarakat kuchaymoqda. YAngi avtomobil zavodlarida mashinani yig'ish va bo'yash ishlarida sanoat robotlari tobora keng ishlatilmoqda. Avtomobilsozlikda nafaqat ishlab chiqarish, balki loyixa konstruktorlik ishlari xam takomillashtirilmoqda. Avtomat loyixalash tizimi

qo'llanishi natijasida avtomobilsozlikda mehnat unumdorligi 4-5 marta oshirilmoqda.

Metallurgiya sanoatida rudani boyitish va metall eritish jarayonini yanada takomillashtirishga e'tibor berilmoqda. Rudani boyitishda flotatsion usul qo'llanishi natijasida nafaqat metallga boy, balki metallga nisbatan kambag'al bo'lgan rudalarni qayta ishlash xam katta foyda keltiradigan bo'ldi. Metallni eritishda an'anaviy (pirometallurgiya) usullar asosiy o'rin tutayotgan bo'lsada, yangi elektrometallurgiya va gidrometallurgiya usullari xam tez rivojlanib bormoqda. Metallarni va quymalarni qayta ishlashning asosiy usuli bo'lib bosim ostida prokat yasash xisoblanadi. Xozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda eritilayotgan pulatning 80 % i shu usulda prokatga aylantiriladi. Pulat eritishda marten pechlari o'rniga keyingi yillarda kislorod konvertorli pechlar ko'p ishlatilmoqda. YAponiyada eritiladigan pulat ning 40 % i xozirgi kunda shu usulda olinmoqda.

Metallurgiya ning 2 ta asosiy tarmog'i bulib, qora va rangli metallurgiya xisoblanadi. Qora metallurgiyada asosan pulat ishlab chiqariladi. Undan tashqari chuyan, prokat xam ishlab chiqariladi. Pulat ishlab chiqarish buyicha rivojlangan mamlakatlar ichida YAponiya birinchi o'rinda turadi. Undan keyingi o'rinlarda AQSH, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlar bormoqda. Rangli metallurgiyada alyuminiy, mis, rux, qurg'oshin, qalay kabi metallar eritib olinadi.

Rivojlangan mamlakatlar sanoatida ximiya sanoatining xam o'rni kattadir. Unda tabiiy xom-ashyolar o'rniga, sun'iy kauchuk, sun'iy tola, buyoqlar ishlab chiqarish rivojlangan.

Sanoatda yonilg'i resurslarini ishlatish juda muximdir. Xozirgi kunda dunyo bo'yicha sanoatda ishlatiladigan yonilg'ilarning 41 % neft, 32 % - kattik yonilg'i (asosan kumir) va 22 % - tabiiy gaz xisoblanadi. Ko'mir qazib olish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar ichida AQSH birinchi o'rinni egallaydi. Keyingi o'rinlarda Avstraliya, Buyuk Britaniya, Germaniya turadi. Neft qazib olish bo'yicha AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Norvegiya oldingi o'rinda. Bu yonilg'ini qazib olishda OPEK ga ahzo bo'lgan mamlakatlar xissasi kattadir. Tabiiy gaz qazib olish bo'yicha AQSH (rivojlangan mamlakatlarda qazib olinadigan gazning qariyb yarmi), Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Norvegiya oldingi o'rindadir.

Kishlok xujaligi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish keng yulga qo'yilgan. Yirik xo'jaliklarda ishlatishga mo'ljallangan kuchli katta traktor va kombaynlar bilan birgalikda mayda dehqon xo'jaliklari kichik mexanizatsiya bilan keng ta'minlangan.

Qishloq xo'jaligi elektrlashtirishga juda yuqori darajada amalga oshirilgan. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi EXM lar ya'ni kompyuterlar keng qo'llanilmoqda. CHorvachilikda sigirlarni sog'ish, em-xashak tayyorlash va oziqlantirish, erlarni sug'orish tizimlarini boshqarish, issiqxonalar to'liq kompyuterlashtirilgan.

Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligida ximiyaviy o'g'itlar va zaxarli ximikatlar ishlatish xam keng yulga qo'yilgan. Natijada qishloq xo'jaligi xosildorligi o'sishining 40 % mana shu ximiyaviy o'g'itlarni ishlatish natijasida erishilmoqda.

Qishloq xo'jaligini intensiv yuritishning yana bir yo'nalishi bu ilmiy selektsiya yutuqlaridan keng foydalanishdir. Bu soxada ayniqsa, donli ekinlarning va em-xashak ekinlarining yuqori xosilli gibril sortlarini yaratish juda rivojlangan. Urug'chilik soxasida gen injeneriyasi usullari keng qo'llaniladi. AQSH va G'arbiy Evropaning dehqonchiligida gibril navlarining yaratilishi bug'doy xosildorligini 30-50 % larga, makkajo'xori xosildorligini 35 % ga oshirdi. G'arbiy Evropa mamlakatlarida intensiv dehqonchilik yuritilishi natijasida bug'doy xosildorligi 75-80 ц. etkazildi (Buyuk Britaniya, Daniya, Niderlandiya).

CHorvachilikda intensiv usullarning qo'llanishi chorva mollarini oziqlantirish ilmiy asosga qo'yilishida namoyon bo'ladi. To'yimli raqion ishlab chiqilishi, em-ozuqalari ishlab chiqarishning industriyasini shakllantirish, madaniy yaylovlarning yaratilishi kabi jarayonlar xar bir bosh sigirga sut sog'ib olishni va go'sht etishtirishni ancha oshirdi. Garbiy Evropaning Umumiy bozor mamlakatlarida go'sht etishtirishning yillik o'sishi 3 % ni tashkil qiladi va yiliga 25 mln.t. oshiq go'sht etishtiriladi. AQSH da bir bosh sigirdan yiliga 6 ming kg. atrofida sut sog'ib olinadi. Daniya, Belgiya, Niderlandiya mamlakatlarida bu kursatkich undan xam yuqoridir.

Rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligida mexnat unumdorligining o'sishi sanoatdagiga nisbatan yuqori bo'lib bordi va xozirgi kunda ularning darajasi deyarli tenglashib qoldi. Bu mamlakatlarda qishloq xo'jaligi maxsulotlarining 80 % i oziq-ovqatga tug'ri keladi. Axoli iste'molida dehqonchilik maxsulotlarini iste'mol qilishga nisbatan chorva maxsulotlarini iste'mol qilish oshib bormoqda. Natijada, 90 yillarga kelib qishloq xo'jaligida chorvachilikning xissasi Germaniyada-66 % ga, Angliyada-67 % ga, Franziyada- 52 % ga, Niderlandiyada-67 % ga, Irlandiyada- 85 % ga etdi. Dunyo bozoriga qishloq xo'jalik maxsulotlarini eng ko'p etkazib beruvchi mamlakatlar bo'lib AQSH, Kanada, Avstraliya va G'arbiy Evropa davlatlari xisoblanadi. Ayniqsa, Evropa Ittifoqi mamlakatlari bu soxada asosiy eksportchi mamlakatlardir.

Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligida em-xashak ekinlariga talab kuchaymoqda. SHimoliy Amerika mamlakatlari butun rivojlangan mamlakatlar chorvachiligi uchun asosiy em-xashak bazasi xisoblanadi. Umuman, rivojlangan mamlakatlar butun dunyoda etishtiriladigan donli ekinlarning 1/3 ini, go'shtning 40 % ini etkazib beradilar.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat kursatish soxasi.

Nomoddiy ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlarning eng rivojlangan soxalaridan biridir. Nomoddiy ishlab chiqarish - bu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarini ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish kabi extiyojlarini qondiruvchi tarmoqlar majmuasidir. Nomoddiy ishlab chiqarish soxasida ishlovchilar soniga ko'ra savdo, sog'likni saqlash, ta'lim, madaniyat va xalq xo'jaligiga xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlar eng katta ulushga egadir. Nomoddiy ishlab chiqarish soxasining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarishga bevosita bog'likdir. Moddiy ishlab chiqarish qanchalik rivojlangan bo'lsa, nomoddiy soxasi rivojlanishi uchun shunchalik imkoniyat yaratib beradi. SHuning uchun xam rivojlangan mamlakatlarda nomoddiy soxa juda kuchli rivojlangandir.

Ichki savdo. Bu soxaning rivojlanishida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, yangi tarmoqlarning paydo bulishi, maxsulotlarni yangilash sur'atlarining yuqoriligi, aholi tarkibidagi demografik va geografik o'zgarishlar, aholi ehtiyojlarining yuksalib borishi asosiy o'rin tutadi.

Ichki savdoning 2 ta asosiy bo'limi bo'lib, bular: ulgurji va chakana savdodir.

Ulgurji savdo bu, sanoat korxonalari bilan savdo kompaniyalari o'rtasidagi va savdo kompaniyalarining o'zaro vositachilik aloqalarida asosiy bug'in xisoblanadi. Bu soxada yirik partiyali maxsulotlar bilan savdo sotiq qilinadi. Asosan, sanoat iste'moli uchun zarur bo'lgan mollar ulgurji savdo sohasida sotiladi. Ulgurji savdo infrastrukturasiga yarmarkalar, tovar birjalari, aukcionlar xizmat ko'rsatadi. Tovar birjalarida paxta, ko'mir, yog'och, neft kabi yirik partiyali maxsulotlar sotilsa, aukcionlarda qishloq xo'jalik maxsulotlari, mo'yna va shu kabi maxsulotlar sotiladi.

CHakana savdo - asosan aholi iste'moli uchun kerak bo'lgan mahsulotlar bilan savdo qilinadi. CHakana savdo yirik korxonalar birgalikda o'rta va kichik firmalar tomonidan xam olib boriladi. 70-80 yillarda chakana savdoning monopoliyalashishiga, savdo kapitalining markazlashuvi va yiriklashuviga va uning sanoat va bank kapitali bilan aloqasi jipslashuviga olib keldi. CHakana savdoning turli shakllari: supermarketlar, universal magazinlar, savdo markazlari, kreditga savdo qilish va katalog orqali savdo qilish kabi turlari yuksak darajaga ko'tarildi.

Rivojlangan mamlakatlarning YAMM ida va aholisining bu sohada ish bilan bandligida ichki savdoning o'rni ancha kattadir. Masalan, 80 yillarning oxirida AQSH YAMM da ichki savdoning ulushi 12 % ni tashkil qilib, mamlakatdagi butun band aholining 20 % i ichki savdoda ishlardi. Savdo sohasida band bo'lganlarning ko'payib borishi chakana savdoning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ulgurji savdo esa intensiv rivojlanishiga ega bo'lib, ish jarayonida yangi texnologiyalarni, avtomatlashtirish, mexanizatsiya va EXM larni tobora keng qo'llab bormokda.

Savdo sohasida asosiy, muhim o'rinni savdo monopoliyalari egallaydi. Ayniksa, AQSH da savdo monopoliyalari o'z rivojlanishida juda yuksak darajaga erishganlar. 50 tacha savdo firmasi AQSH da savdo oborotining yarmidan ko'pini amalga oshiradilar. Dunedagi eng yirik savdo kompaniyalardan biri amerikaning "Sirs, Robak end kompani" kompaniyasi xisoblanadi. Buyuk Britaniyada 10 ta savdo kompaniyasi mamlakat savdo oborotini 25 % ini ta'minlaydi. Franziya, Germaniya, Italiya va YAponiyada xam savdo kompaniyalari mamlakat ichki savdosida muhim o'rin tutadilar. Yirik savdo kompaniyalari o'z foydalarini oshirish yulida o'z ishlab chiqarishini xam tashkil qiladilar. Deyarli xamma yirik savdo kompaniyalari sanoat korxonalari ustidan nazorat o'rnatganlar. Yirik savdo kompaniyalar o'z mamlakatlari bilan cheklanib qolmasdan boshka mamlakatlarga xam chiqqanlar.

Savdo sohasini rivojlantirishda marketingning juda ahamiyatga egadir. Marketing bozorni o'rganib ishlab chiqarishni unga moslashtirishdir. Savdo kompaniyalari marketing dasturlarini ishlab chiqib, unda sotiladigan tovarlar xajmi, sotiladigan bozor, iste'molchilarning ma'lum guruhi, ularning did va ehtiyojlari,

savdoning shakli va usullari, sotish yo'nalishlari kabi jarayonlar ko'rsatilgan bo'ladi. Marketingni asosan, ishlab chiqarish kompaniyalarini qullasa xam, ular bilan bevosita aloqada bo'lgan savdo kompaniyalari xam keng qullaydilar. Marketingni rivojlantirmasdan turib juda kuchayib borayotgan raqobatda engib chiqish qiyindir.

Rivojlangan mamlakatlarda **tibbiy xizmat ko'rsatish sohasining** ahamiyati juda yuqoridir. FTT bu sohaga chuqur kirib borgan. Xayot sharoitining yildan-yilga qulaylashib borishi aholi o'rtasidagi kasalliklarning turini xam o'zgartirib bormokda. Xozirgi kunda yurak-qon tomir kasalliklari, saraton, nerv va ruxiy kasalliklar bilan birga ishlab chiqarish xamda maishiy jaroxatlari keng tarqalgandir. Bu kasalliklar bilan samarali kurashish - tibbiyot fanining taraqqiyoti, sog'liqni saqlash sohasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, uni profilaktik yordamning qudrati texnikasi bilan ta'minlash, xalq xo'jaligi bilan sog'liqni saqlash xizmatlarining muvofiqlashtirilishi, sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishning milliy dasturini ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshirmasdan mumkin bo'lmaydi. Bu masalani echish ancha iqtisodiy xarajatlarni, xuquqiy asoslarni, yagona tibbiy statistik axborotlar bo'lishini talab qiladi. Buning uchun esa davlatning yordami zarurdir. Lekin xar bir mamlakatda sog'liqni saqlash sohasida tashkil qilish va rivojlantirishda davlatning roli turlichadir.

Rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlash sohasini tashkil qilishning 3 ta shaklini ko'rsatish mumkin:

1) **davlat mediiinasi**, xususiy mediiina va sug'urta mediiinasi. Davlat mediiinasining yaqqol ko'rinishini Buyuk Britaniyada kuzatish mumkin. Bu mamlakatda mediiinani moliyalashtirishning 85 % davlat tomonidan, 10 % ishlovchilarning maxsus badallari asosida, 5 % kasallarning o'z to'lovlaridan asosida yuzaga keladi.

2) **xususiy mediiina** to'liq ravishda kasallarning to'lovi asosida faoliyat kursatadi. AQSH da mediiina mana shu asosda tashkil qilingan. Bu erda tibbiy xizmat xarajatlarining 60 % axoli to'lovi asosida yuzaga keladi. Mamlakatda davlatning tibbiy sohadagi yordami faqat davlat xizmatchilariga, urush veteranlariga, 65 yoshdan oshgan qariyalarga, ruxiy kasallarga va juda kam ta'minlanganlarga ajratiladi. Davolash muassasalari faoliyati mijozlarning to'lovi xisobiga moliyalashtiriladi. Uyda ko'rsatiladigan tibbiy xizmat oila vrachlari tomonidan amalga oshiriladi.

3) **sug'urta mediiinasi** Evropa mamlakatlarida keng ko'llaniladi. Aholini majburiy ijtimoiy sug'urta qilish orqali sog'liqni saqlash sohasi xarajatlari tuliq yoki qisman qoplanadi. Sug'urta qilinganlar uchun tibbiy xizmat arzonga tushadi va davlatning xam ma'lum ma'noda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda ma'suliyatni yuzaga keltiradi.

Ishlab chiqarishning murakkablashuvi, sanoatning yangi va eng yangi tarmoqlari rivojlanishi, ishlab chiqarishda avtomatlashtirish tizimining keng qo'llanib borilishi, ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi ta'lim tizimini takomillashtirishni talab etadi. Uning butun davrida maktab ta'limi, o'rta, maxsus-texnik, oliy ta'limni rivojlantirish zarurdir.

Rivojlangan mamlakatlarda **ta'lim tizimining** rivojlanib bo- rayotganligini o'rta-maxsus ma'lumotli va oliy ma'lumotlilar soni oshib borayotganligida ko'rish mumkin. Bu esa davlat tomonidan ta'lim tizimi moliyalashtirilishining oshib borishi tufayli yuzaga kelmoqda. Masalan, AQSH da ta'lim uchun 60-yillarda YAMM ning 5 % ajratilgan bulsa, 80 yillarga kelib 8 % ajratiladigan bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlarda maktab ta'limiga katta e'tibor beradilar. Davlat maktablari bilan birgalikda pul to'lab uqitiladigan, test sinovlariga tayyorlaydigan maktablar ahamiyati kattadir. Maktablarda yagona tizim asosida, xar tomonlama bilim beriladi. Undan tashkari liuey, gimnaziya, o'rta ta'lim kollejlari xam mavjuddir. Texnik, qishloq xo'jaligi, tijorat, uy xo'jaligi yuritish yo'nalishlariga ega bulgan urta maktablar xam bor. O'rta maxsus va xunar-texnika ta'limi xam bu mamlakatlarda kuchli rivojlangan. Ularda asosan sanoat uchun va idora ishi olib borish dasturlarida o'qitiladi.

Mamlakatlarning ilmiy-texnikaviy va mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi, tabiiy resurslari va mehnat taksimoti sohasidagi imkoniyatlari. Oliy malakali injener texnik xodimlar va ilmiy xodimlar rivojlangan mamlakatlarda universitetlarda, maxsus institutlarda, oliy kollejlarda tayyorlanadi. Oliy maktablarda uqitish asosan pulli asosda olib boriladi. Bu dargohlarni bitirib chiqqanlar ko'pincha magistrlik yoki doktorlik dissertatuiyasini yoqlaydilar. Fan va texnikaning rivojlanishi ilmning eng ilg'or sohalari bulgan elektronika, tizimli tahlil, dasturlashtirish soxalari uchun kadrlar tayerlashni talab etadi. Ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi EXMda ishlay oladigan oliy ma'lumotli mutaxassislarni ko'payishiga olib keldi. Ko'pchilik universitet va institutlarda ta'lim ilmiy izlanishlar bilan birgalikda olib boriladi. SHuning uchun bu ta'lim dargohlarida yuqori sifatli mutaxas-sislar tayerlanadi.

Bozor iqtisodiyotining raqobat kurashi yuqori sifatli kadrlarga talabni kuchaytiradi. YAponiyaning ta'lim tizimi aynan shu asosga qurilgan bulib, bu erda tashqi bozorda raqobatli tovarlarni ishlab chiqaradigan kadrlar tayerlanadi. YApon bolalariga yoshlikdan chuqur bilim olish miyasiga quyiladi, chunki u faqat shundagina xayotda muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin.

7.4. “Katta ettilik” davlatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi

O'tgan asrning ikkinchi yarmida dunyoning xo'jalik aloqalarining tez sur'atlarda o'sib borishi tashqi iqtisodiy soxaning axamiyatini oshirdi va kengaytirdi. Buning sabablari shundaki, baynalminallashuv jarayoni muomala soxasining chegaralardan allaqachon chiqib ketdi, va u yoki bu darajada butun takror ishlab chiqarish jarayonini qamrab oldi. Xo'jalik faoliyatining baynalmainallashuvi o'sib borishi bilan tashqi soxaning milliy bozorlarga ta'sir doirasi kuchaydi. Qator mamlakatlar uchun tashqi iqtisodiy aloqalar ikkinchi darajalidan birinchi darajaliga chiqdi. CHunki mamlakatning raqobatbardoshligi oshishi, uning jaxon bozoridagi o'z urnini yaxshilashga, yangi o'rinlarni egallashga bo'lgan qobiliyati xal qiluvchi masalaga aylandi. Tashqi iqtisodiy siyosat xalqaro mexnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanishga qaratilgan masalalarni echishga yo'naltirildi. Uning yordamida xukumatlar xalqaro

bozorlarda milliy kapitalning moslashib ketishini engillashtiruvchi siyosiy sharoitlarni ta'minlashga intildilar. Tashqi iqtisodiy faoliyat umuman tashqi siyosatning tarkibiy qismi xisoblanadi. Mamlakatning tashqi sektorini tartibga solish qobiliyati xukumatlarning o'z ichki iqtisodiyotini tartibga solish imkoniyatlariga boglikdir.

Ikkinchi jaxon urushidan keyin g'arb mamlakatlarida ichki siyosiy va iqtisodiy kuchlar milliy daromadni taqsimlash va iqtisodiyotning tarkibi borasida ma'lum darajada kelishuvga erishdilar. Mamlakatda kelishuvga erishgandan keyin xukumatlar xalkaro majburiyatlarni o'z zimmlariga olishlari va xalqaro iqtisodiy tartibda yaratishda qatnashishlari mumkin bo'ldi. Mamlakat ichidagi barqarorlik ularning xalqaro majburiyatlari qobiliyatini ta'minlardi. XX asrning birinchi yarmiga xos bo'lgan g'arb mamlakatlari o'rtasidagi qarama qarshiliklar tashqi siyosiy va iqtisodiy strategiyani muvofiqlashtirish xarakati bilan o'rin almashdi. Bunga AQSHning dunyoni Amerika rahbarligi ostida tartibga solish xarakatlari sabab bo'ldi. Bunga esa ularning urush davrida iqtisodiy ustunlikka erishganligi yordam berdi. Industrial rivojlangan mamlakatlar o'rtasida xo'jalik aloqalarida erishilgan miqyoslar va darajalar ular siyosatidagi uzoq muddatli maqsadlarga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Tashqi iqtisodiy munosabatlar tizimi 50-60 yillarda 3 tarkibiy kismga ega edi.

- dollarga va belgilangan valyuta kurslariga asoslangan valyuta tizimi;
- tariflar kuchli bo'lgan savdo tizimi;
- yordam berish to'g'risidagi kelishuvlar tarmogi.

Bretton-Vuds tizimining yaratilishi valyuta kurslarining keskin o'zgarishini oldini olish, devalvatsiyalar kilishga qaratilgan edi. Valyuta tizimida dollarning markaziy o'rin tutishini mustaxkamlashga intilgan AQSHning etakchi bo'lishi bu tizimning asosiy xususiyatlaridan biri edi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning va tashqi iqtisodiy siyosatning amal qilishida qator bosqichlar ko'zga tashlanadi.

Birinchi boskichga belgilangan valyuta kurslari, kuchli valyuta nazorati va mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama to'lov mexanizmi ustuvor bo'lishi xos edi. Tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy vazifalaridan biri tashqi iqtisodiy bitimlarning ma'lum muvozanatiga erishish, mamlakatlar to'lov balanslarini to'g'irlash edi. Bunday sharoitlarda jaxon bozori mexanizmi jiddiy talofatlarsiz amal kildi. Asta sekin davlatlar o'z kuchlarini milliy kapitalning xalqaro bozorlardagi xarakati erkinligini kengaytirish, tashqi iqtisodiy faollikni ragbatlantirishga karatdilar.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirishda tashabbuskor AQSH bo'ldi. Chunki bu jarayon yirik Amerika korporatsiyalarining manfaatlariga mos kelardi. Erkinlashtirish jarayoni turli yo'nalishlarda namoyon buldi. Bu 50 yillarning oxirida kiritilgan valyutalar to'lik almashinuvi bilan ko'p tomonlama ayriboshlash va to'lovlarning samarali tizimini qo'llash, qayta ishlash sanoati maxsulotlarini import qilishda miqdoriy cheklovlarni qisqartirish, qayta ishlangan maxsulotlarga tariflarni kamaytirishdir.

Sanoat maxsulotlariga savdo bojlari 1947 yildagi 40%dan 1990 yillarda 3% ga pasaytirildi. Bu davrda xalqaro mexanizmlar orqali xalqaro munosabatlarga va milliy iqtisodiy siyosatlarga ta'sir ko'rsatadigan qoidalar va xarakatlar tizimi yaratildi. Umumiy muvaffaqiyatlarga qaramasdan tashqi savdoning ko'pgina

tarmoqlari (xizmatlar, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik maxsulotlari) erkinlashtirish jarayonidan tashqarida qoldilar.

Iqtisodiy bloklarni tashkil qilgan ayrim mamlakatlar guruxlarining aloxidalashuvi jarayoni xam davom etdi. Kapitalning xarakati soxasida g'arb mamlakatlarining siyosati eksport bozorlarini kengaytirish, xom ashyo va energetika resurslarini etkazishni ta'minlash, takror ishlab chikarish sharoitlarining o'zgarib turishi davrida iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish, qoloq xududlarni rivojlantirishga ko'maklashish jarayonlariga qaratildi.

Xamma industrial rivojlangan mamlakatlar kapital xarakatini erkinlashtirish tarafdori bo'ldilar. Kapital oqimini va transmilliy korporatsiyalar faoliyatini tartibga solish uchun iqtisodiy rag'batlantirishlar va cheklashlar vositalari, xamda ma'muriy chora tadbirlar kullanildi.

Keyingi bosqich 70-90 yillarga to'g'ri kelib unda industrial rivojlangan mamlakatlar chuqur iqtisodiy va tarkibiy inqirozlarni, inflyatsiyaning keskin o'sib ketishini boshidan kechirdilar. Tashqi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish yo'nalishidan voz kechmagan xolda ular o'zlari aloxida ravishda dunyo xo'jaligi soxasidagi tarkibiy jarayonlar okibatidan ichki bozorni muxofaza qilishning yashirin vositalari tizimini kiritdilar.

Bunday chora tadbirlar boshka industrial rivojlangan mamlakatlardan keladigan importning 17 % iga, rivojlanayotgan mamlakatlardagi importning 20 % iga, SHarkiy Evropa mamlakatlaridan importning 30,4 % iga taallukli buldi.

Bunday chora tadbirlarni qo'llash shunga bog'liq bo'lgan ediki, protektsionizmning an'anaviy shakllarini: bojxona tariflari, kvotalar, valyuta cheklovlaridan foydalanish – GATT, Xalqaro valyuta fondi va boshka tashkilotlarning doirasidagi ko'p sonli kelishuvlar bilan cheklangan edi.

80-90 yillardagi tashqi iqtisodiy munosabatlarda ikki yo'nalish qayta tartibga solish va protektsionizmning kuchayishi namoyon bo'lgan edi. Bunda, qayta tartibga solish valyuta va kredit soxasida, to'siqlarning kuchayishi esa savdo soxasida ayniksa ko'p namoyon bo'ldi. Natijada tashqi iqtisodiy siyosatda ikki tomonlamalik yuzaga keldi. Ular e'lon kilingan maksadlarda va amalga oshirilgan chora tadbirlarda namoyon buldi. Bundan tashqari, 90 yillarda industrial rivojlangan mamlakatlarda savdo siyosati umuman iqtisodiy siyosatdan ancha kuchli farq qila boshladi. 80 yillarda xukumatlar ko'prok narx va bozor mexanizmlariga e'tibor berdilar. 70 yillarga nisbatan erkinlashtirish kamaygan savdo tartibida katta iqtisodiy erkinlikka intilish pasaydi.

Kredit soxasida qayta tartibga solish yo'nalishi o'tkazila boshlandi, ko'pgina cheklovlar olib tashlandi, bu esa kapital chiqarilishining o'sishiga va xalqaro moliya okimlarining jadal kengayishiga olib keldi. Qator mamlakatlar kredit tizimidagi turli bugimlardan foydalangan xolda tashqi resurslarni olib kirish uchun yirik operatsiyalarni o'tkaza boshladilar. Bu chora tadbirlar tufayli jaxon iqtisodiyotida moddiy va valyuta moliya oqimlari o'rtasida katta farqlar yuzaga kelib, kuchlar nisbatining o'zgarishini keltirib chikardi.

Ba'zi mamlakatlarda ishlab chikarish imkoniyatlariga mos kelmaydigan quvvatlar paydo bo'ldi.

Industrial rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatida valyuta munosabatalari markaziy o'rinlardan birini egalladi, chunki ular to'lov balanslari, xalqaro kapital xarakati orkali takror ishlab chiqarish jarayonlariga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Valyuta kursi ko'p jixatdan narxlarning shakllanishini va tovarlarning xalqaro rakobatbardoshligi darajasini belgilab beradi. Bu 70 yillarning boshlarida suzib yuruvchi valyuta kurslariga o'tilgandan keyin namoyon bo'la boshladi. Bu paytda suzib yuruvchi valyuta kurslari o'z o'zidan to'lov balans muvozanatiga olib keladi deb xisoblanardi, lekin umidlar o'zini oklamadi, kurslarning o'zgarib turishi kuchaydi

Bunday vaziyatda amerika dollarining xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ahamiyati oshib bordi. AQSH dollar diplomatiyasi sohasida o'zining qarorlarini boshqalarga tiqishtirish tizimini qo'lladilar, bu esa valyuta sohasidagi muammolarni boshqa mamlakatlar zimmasiga yuklash edi.

Valyuta kurslarining keskin o'zgarib turishi valyuta yo'qotishlari tavakkalchiligini oshirdi, rakobatchilikning kuchayishiga olib keldi. «Valyuta urushlari» yuzaga kelishi xavfi g'arb mamlakatlarini o'z valyuta siyosatlarini kelishib olib borishga undadi. Bu yo'nalishdagi katta burilish 1985 yil sentyabr oyida Plaza kelishuviga (g'arbning etakchi beshta mamlakati moliya vazirlari va bank boshqaruvchilari ishtirokida yigilish bo'lib o'tgan mexmonxona nomi bilan) erishilgandan keyin bo'ldi. Valyuta intervensiyalari yordamida valyuta sohasidagi siyosatni muvofiqlashtirishga qiziqishning o'sishiga etakchi industrial mamlakatlar tashqi to'lovlarida katta kamomadlar paydo bo'lishi xam sabab buldi.

Industrial rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasidagi umumiy yo'nalish xususiy mulkka asoslangan munosabatlarini takroran barpo qilishga asoslangan edi. U ta'sir etiladigan ob'ektlarning turlicha bo'lishi va industrial xamda boshqa mamlakatlarning rivojlanishidagi ayrim bosqichlarga nisbatan aniqlanar edi.

G'arb mamlakatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatiga sotsialistik va kapitalistik tizimning qarama qarshiligi katta ta'sir ko'rsatdi, u butun munosabatlarning, jumladan siyosiy va goyaviy munosabatlarning asosini tashkil etardi. AQSH 1947 yildan boshlab sotsialistik mamlakatlarni «ushlab turish» strategiyasiga asos soldi.

Uning birinchi ko'rinishlaridan biri Marshall rejasi bo'ldi. Uning mualliflari fikricha sog'lom Evropa iqtisodiyoti Sovet Ittifoqining afsonaviy sakrashlariga qarshi tura oladi. Infratuzilmani zamonaviylashtirish, negiz tarmoklarda ishlab chikarish hajmini oshirish, qishloq xo'jaligini va engil sanoatni oqilona rivojlantirish, pul va moliya barqarorligiga erishish maqsadlari belgilab olindi. G'arbiy Evropa mamlakatlariga 17 mlrd. dollar miqdorida iqtisodiy yordam ajratildi. Urushdan keyin zaiflashib qolgan G'arbiy Evropa mamlakatlari sharoitida Marshall rejasi «atlantika o'qi» paydo bo'lishiga olib keldi. U dunyoni ikki katta ta'sir doirasiga bo'linishini mustaxkamladi. G'arbiy Evropa AQSH ta'sir doirasida qoldi.

Uchinchi davrda keskinlikni yumshatish siyosatidan yana chetga chiqildi, aloxida tovarlar nazoratidan yukori texnologiyalar nazoratiga o'tildi, iqtisodiy aloqalarni muayyan tashqi siyosat bilan bog'lash kuchaydi. Sotsialistik mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy tarkibidagi dramatik o'zgarishlar munosabati

bilan, ularda xususiy mulkchilikka va bozor iqtisodiyotiga o'tilishi bilan g'arb mamlakatlarning asosiy maqsadlari siyosiy jarayonlarni orqaga qaytarmaslikni ta'minlashga qaratildi. 1993 yilda bozor demokratiyasiga ega bo'lgan dunyo jamoatchiligini kengaytirish strategiyasi olg'a surildi. Sovet Ittifoqi tugab ketgandan keyin G'arb to'siq bo'lish strategiyasidan voz kechdi va e'tiborni butun rivojlanayotgan mamlakatlar dunyosiga qaratdi. Xususan AQSHda bu siyosat milliy xavfsizlikning umumiy strategiyasiga kiritilgan.

G'arbning rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan siyosati. Mustamlakachilik tizimining qulashi va yosh mustakil davlatlarning oyokka turishining yakunlanishi g'arb mamlakatlarning dunyoning chekka o'lkalariga nisbatan iqtisodiy siyosatining vazifalarini kengaytirishga olib keldi. Industrial mamlakatlar markaz bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida karama karshiliklarni yumshatish yo'llarini qidirish, an'anaviy aloqalarni saqlab qolishni ko'zda tutuvchi muvozanatli yo'lni o'tkazishga majbur bo'ldi.

Ozodlikka chikkan mamlakatlarga nisbatan tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi bu mamlakatlarni kapitalizm xo'jalik aloqalari tizimida saqlab qolish edi. Yo'l yo'lakay bu mamlakatlarning iqtisodiy xayotiga yordam berish vazifasi xam echilardi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy darajasini ko'tarish va xo'jalik tarkibini g'arb mamlakatlarning o'zgarib borayotgan extiyojlariga moslashtirish ularning iqtisodiy rivojlanishiga yordam berishni talab qiladi. CHunki ular xom ashyoning muxim manbalari va sotuv bozori xisoblanardi.

70 yillarda industrial rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga metropoliyalarning asosiy agrar xom ashyo etkazib beruvchisi sifatida qaraladigan xalqaro mexnat taqsimotidan voz kechishi namoyon bo'la boshladi. Mustamlaka xukmronligi davrida yuzaga kelgan, dunyo xo'jaligining bu ikki tizimi o'rtasida xalo'aro mexnat taqsimoti industrial rivojlangan mamlakatlardagi ishlab chikarish kuchlarining rivojlanish darajasiga mos kelmay qoldi. U qoloq mamlakatlar iqtisodiyotini g'arb mamlakatlarning zamonaviylashgan extiyojlariga etkazishni talab qilardi. SHuning uchun ular dunyo xo'jaligi tizimida uchinchi dunyo mamlakatlarning buysunuvchan xolatini saqlab qolish maqsadida bu ikki gurux mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy bog'likligini kuchaytirishga intildilar.

7.5. Etakchi rivojlangan davlatlarning dunyo xo'jaligida tutgan o'rni

Sanoati rivojlanib kelayotgan mamlakatlar iqtisodiyotda hamma ko'rsatkichlar bo'yicha dunyo xo'jaligida ustunlik qiladilar. 90 yillarga kelib ularning rivojlanishi yanada kuchaydi. CHunki ishlab chiqarish yanada rivojlandi va undan tashqari sobiq soqial mamlakatning o'z mavqeini yo'qotdi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar (SRM) dunyo yalpi milliy mahsulotning (YAMM) 2\3 qismini yaratadilar. Bularning ichida ayniksa **etakchi rivojlangan mamlakatlar** (ERM) – AKSH, YAponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Franqiya, Italiya va Kanada aloxida ajralib turadilar.

Keyingi chorak asrda ERMda iqtisodiy o'sish mo'tadil ko'rsatkichga ega bo'ldi. 1970 yildan 1995 yilgacha ishlab chiqarishning umumiy hajmi 1,9 marta oshib, bu oldingi yillarga nisbatan sal pastroq bo'ldi.

Iqtisodiy o'sish asosan kapitalning jamg'arilishi, foydaning kupaytirilishi, ishchi kuchlaridan va ITT dan unumli foydalanish natijasida amalga oshirildi. Buning hammasi mehnat unumdorligining yuqori sur'atlarini keltirib chiqardi. Resurslardan unumli foydalanish ham iqtisodiy usishga katta imkoniyatlar yaratdi.

Bu yillarda mehnat unumdorligi ayniqsa YAponiya, GFR, Fransiya. Italiya kabi mamlakatlarda yuqori sur'atlarda o'sdi.

Natijada boshqa ERMlar AQSHga nisbatan qoloqligini kamaytirib unga etib ola boshladilar. G'rabiyy Evropa mamlakatlarida mehnat unumdorligining oshishi ish vaqtining kamayishiga olib keldi.

Jon boshiga mahsulot etkazishning o'sish sur'atlari keyingi yillarda biroz pasayganiga qaramasdan bu mamlakatlar ushbu ko'rsatkich bo'yicha duneda eng oldinda turadilar.

Ishlab chikarishni yangi texnologiyalar bilan boyitish yuz berdi Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni boshqarish, EXM, mikroprocessorlar, sanoat robotlari keng kulanila boshlandi.

Ishlab chiqarish tarkibi resurslarni tejash hisobiga takomillashtirilib borildi.

ERMlar xalkaro iqtisodiy munosabatlarda salmokli o'ringa egalar. Bu kuyidagi iqtisodiy jarenlarning moxiyatida yakkol namoen buladi:

1. Iqtisodiyotning ochiqligi
2. Tadbirkorlik kapitalining xarakati
3. Iqtisodiy yordam.
4. Tashqi savdo.

SRMLar YAMMining 1\5 qismi chet mamlakatlarga chiqariladigan eksportdan va yana shuncha qismi importdan iboratdir. Iqtisodiyotning ochiqligi SRMLarning kichiklarida ayniksa kuchli namoyon bo'ladi. Ularda eksport va import hissasi YAMMining yarmidan ham ko'pdir.

Etakchi rivojlangan mamlakatlarlarning tashqi iqtisodiy aloqalarining asosini kapitallar xarakati tashkil etadi. Butun dunyodagi tadbirkorlik va ssuda kapitalining 75-95% industrial mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladi. Moliya mablag'larini o'ziga eng ko'p jalb qiluvchi mamlakatlar bulib AQSH, hamda Buyuk Britaniya, YAponiya, Germaniya hisoblanadilar.

7.5.1 Jadval

Etakchi rivojlangan mamlakatlarda axoli soni, o'sishi va urbanizauiya darajasi

	Axoli soni	Axoli soni o'rtacha o'sishi		Urbanizauiya darajasi	
		1990-1995	2010-2015	1990	2010
Mamlakatlar AQSH	317,6	1,2	0,9	75,3	82,3

Kanada	33,9	1,1	0,9	76,6	80,6
Germaniya	82,1	0,5	-0,2	73,1	73,9
YAponiya	127,0	0,4	-0,2	63,1	66,8
Fransiya	62,5	0,4	0,4	74,1	85,3
Italiya	60,1	0,1	0,2	66,7	68,4
Buyuk Britaniya	61,9	0,3	0,5	78,1	79,6

Resurslar xarakatning asosiy qismi bevosita va portfel investitsiyalari sifatida amalga oshadi.

Moliyaviy resurslar xarakatining 19% ini iqtisodiy yordam ko'rinishidagi kapitallar xarakati tashkil etadi. Iqtisodiy yordamning 60 %ga yakini sovg'a sifatida beriladi. Asosiy yordam beruvchi YAponiya bo'lib, u rivojlanayotgan mamlakatlarga 13 mlrd. dollardan oshiq mablag' ajratdi. Iqtisodiy yordamning 1/4 qismi berayotgan mamlakatlar tovar va xizmatlari ko'rinishida bo'ladi. Bu olayotgan mamlakat uchun odatdagi savdoga nisbatan 15 % qimmatroq tushadi.

ERMLarning jahon tashqi savdosidagi o'rni ham katta. Dunyo eksportidagi ularning hissasi 1970 yili 71 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 1995 yilga kelib bu ko'rsatkich 69 % dan iborat bo'ldi. Eksporti eng rivojlanib borayotgan mamlakat YAponiya hisoblanadi. Tashqi savdoning asosiy qismini qayta ishlangan tovarlarning oldi-sotdisi tashkil etadi.

Ko'pchilik mamlakatlarda yuqori texnologiyali tovarlarni eksport qilish kuchaymoqda. 80 yillarda bu ko'rsatkich AQSHda 28 dan 38% gacha, YAponiyada 25 dan 35 % gacha. GFRda 17 dan 18% gacha ko'paydi.

ERMLarning importi ham yildan yilga oshib bormoqda. 70-90 yillarda importning umumiy iste'moldagi hissasi 9 dan 20 %gacha oshdi.

Etakchi rivojlangan mamlakatlar taraqqietidagi yana bir ajralib turadigan xususiyatlardan biri ular qo'shilgan iqtisodiyotga davlatning aralashuvi yuqori darajada ekanligidir. YAponiya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlarda iqtisodiyotning muhim sohalari davlatning qo'lida bo'lib ularni rivojlantirishga xukumatlar katta yordam beradilar.

Lekin 2007 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi etakchi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga katta zarar etkazdi.

Asosan etakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishiga asosiy sabablaridan hisoblanadi:

- noratsional pul-kredit siyosatini, hamda qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzgacha yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;

- moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;

- qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;

- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarini buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;

- moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;

- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarni vujudga

kelishi va hokazo.

Ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanishi bilan unga qarshi birgalikda kurashish maqsadida "Katta yigirmalik" mamlakatlar guruhi tashkil etilgan edi. Ushbu guruh tarkibiga yalpi ichki mahsuloti hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etuvchi 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan yirik davlatlar, jumladan, Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Fransiya, JAR, Janubiy Koreya, Yaponiya, Evropa Ittifoqi davlatlari kiradi.

"Katta yigirmalik" (G-20) – jahondagi 20 ta eng boy va rivojlanayotgan yirik davlatlarni o'z ichiga oluvchi mamlakatlar guruhi bo'lib, ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etadi.


"Katta yigirmalik" guruhi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi kurashish samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bu boradagi muammolarni birgalikda hal etish maqsadida vaqti-vaqti bilan sammit (yig'ilish)lar o'tkazib turadi. Dastlabki sammit 2008 yil noyabrida Vashington (AQSH)da, keyinchalik 2009 yil aprelda London (Buyuk Britaniya)da, Kanada, 2010 yil noyabrda Seul (Janubiy Koreya)da o'tkazildi.

Xususan, Seul sammitida AQSH va Xitoyning valyuta siyosatlari, Xalqaro hisob-kitoblar bankini nazorat qilish bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan jahon bank sohasi uchun yangi qoidalar, XVFn isloh qilish kabi masalalar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, sammit tasdig'iga jahon iqtisodiyoti o'sishi va ijtimoiy taraqqiyotning "Seul konsensusi" deb nom olgan yangi konsepsiyasi kiritildi. U "Vashington konsensusi" nomi bilan tanilgan taraqqiyotning oldingi etalonini almashtirishi lozim edi. "Vashington konsensusi" 1980 yillarning so'ngidan amal qilib, o'ziga o'ta liberal (erkin) bozor g'oyalarini singdirgan edi. Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelishi bilan ushbu g'oyalar inkor etila boshladi.

Seul sammiti nihoyasida YAkuniy deklaratsiya qabul qilinib, unda xususan, 2013 yilga borib rivojlangan mamlakatlar byudjet taqchilligini kamida 2 barobarga qisqartirish majburiyati belgilandi. "Katta yigirmalik" guruhining navbatdagi uchrashuvlari 2011 yil noyabrida Fransiya, 2012 yili esa Meksikada o'tkazilishi rejalashtirilgan.


Ammo, jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlariga erishish yo'lida hozircha biron-bir jiddiy siljish ko'zga tashlanmayotganligini qayd etish zarur.

Haqiqatan ham, eng rivojlangan mamlakatlardagi YAIM o'sish sur'atlari aksariyat hollarda inqirozdan oldingi darajaga etmaganligini ko'rishimiz mumkin (7.5.1-rasm).



7.5.1-rasm. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda YAIMning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)

Rasmda ifodalangan 2010 yildagi tezkor olingan ma'lumotlarga ko'ra, YAIMning o'sish sur'ati AQSHda 1,5 foizni, Yaponiyada 1,7 foizni, Buyuk Britaniyada 0,9 foizni, Germaniyada 3,6 foizni tashkil etgan. Faqat Germaniya o'zining iqtisodiy o'sish sur'ati bo'yicha inqirozdan oldingi davr ko'rsatkichlariga etgan. Biroq, umumiy holda jahon iqtisodiyotidagi o'sish sur'atlarini barqaror deb bo'lmaydi. Bu xulosaning to'g'riligini rivojlangan mamlakatlarda hamon ishsizlik yuqori darajasining saqlanib qolayotganligi ham yana bir bor tasdiqlaydi.



*Izoh: 2010 yilda tezkor holda oldindan olingan ma'lumotlar keltirilgan.

1.2.2-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi.

Tovarlar bozorida esa 2000-2007 yillar mobaynida jahon bozoridagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi o'rtacha ikki barobarga oshdi, benzin narxi esa 3,5 barobarga oshdi. Neft narxi rekord darajada, ya'ni bir barreli 147 dollardan ortdi.

7.6. Amerika Qo'shma SHtatlari: dunyo xukmronligini qo'lda ushlab turish siyosati

AQSH – dunyodagi xududi va aholisi bo'yicha eng yirik mamlakatlardan bo'lib dunyo xo'jaligida ham eng ilg'or mamlakat hisoblanadi. Mamlakat xududi 9,3 mln. km² bo'lib, unda 317,6 mln kishi (dunyo aholisining 4,7%) istiqomat qiladi. AQSH xo'jaligini mavqei bo'yicha (YAIM 14,3 trillion dollarga teng) har qanday sanoati rivojlangan mamlakatlardan ustun turadi. AKSHning YAIM YAponiyanikidan 3 barobar, GFRnikidan – 5 barobar, Buyuk Britaniyanikidan 7 barobar kattadir.

2010 yilga kelib butun dunyo YAIMning 20% ni AKSH etkazib bermokda. Lekin shu bilan birgalikda u SHveytariya, YAponiya, SHveçiya, Kanada kabi mamlakatlardan YAMM aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha orqada turadi.

AQSHdagi iqtisodiy jarayonlarning kechishi butun dunyo iqtisodiyotiga, boshqa mamlakatlardagi xo'jalikning ahvoriga, jahon savdosiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.


Iqtisodiy rivojlanishning xususiyatlari. XX asrning ikkinchi yarmida AQSH iqtisodiyotining rivojlanishida 3 davrni ajratib ko'rsatish mumkin.

1. 1945-1960 yillar. Urushdan keyingi rivojlanish.
2. 1960-1975 yillar. Krizisgacha bo'lgan davr.
3. 1975-2007 yillar. YAngi texnologiyalarga o'tish davri.
4. 2007 yillardan keyingi davr. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va undan chiqish davri.

Keyingi o'n yilliklarning asosiy xususiyati AQSHning dunyo xo'jaligida tutgan o'rnining biroz pasayganligi bo'ldi. 1950 - 1990 yillarda bulgan davrda AKSH ning rivojlangan mamlakatlar urtasida sanoatni ishlab chiqish bo'yicha xissasi 48.7 % dan 36.1 % gacha, eksportdagi xissasi 18.3 % dan 12.0 % gacha kamaydi.

2011 yilga kelib AQSH davlat qarzi o'tgan asrning 50-yillaridan keyin birinchi marta YAIM hajmidan oshib ketdi (1980-27,2% YAIM, 1995 – 68%, 2011 – 110 % YAIM). Bu ko'rsatkich Germaniya, Françiya va Buyuk Britaniyanikidan yuqoridir.

**Jahondagi ayrim davlatlar tashqi qarzining
YAIMga nisbatan dinamikasi, foizda**



7.6.1-rasm

5.3.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, keyingi 4 yil mobaynida xususan, AQSH va MDH davlatlari tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotlariga nisbatan salmog'i ortib borgan. Xususan, 2009 yilda AQSH tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i qariyb 90% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Rossiyada 37% ni, Qozog'istonda 102% ni, Ukrainada 64% ni tashkil etgan. Qirg'izistonda esa keyingi 3 yil mobaynida pasayish tendenciyasi kuzatilib 2008 yilda 81% ni tashkil qilgan.

Dunyo xo'jaligida tutgan o'rni. AQSHning jahon iqtisodiyotidagi ilg'orligi boshqa mamlakatlarga nisbatan ichki bozorining kattaligi va boyligi, ilmiy texnik darajasining yuqoriligi, boshqa mamlakatlar bilan savdo, investitsiya va bank kapitali sohasidagi kuchli aloqasi bilan ajralib turadi. Ichki bozoridagi iste'mol yuqori daromadliligi bilan boshqa mamlakatlardan ustun turadi.

Qayta ishlash sanoatida avtomobilsozlik, aviakosmos tarmog'i, telekommunikatsiya, ximiya, elektrotexnika va elektronika tarmoqlari ustunlikka egadir. AQSH dunyo yuqori texnologiya mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchisidir. Informatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ham dunyoda oldingi o'rindadir. Yuqori malakali olimlar va injenerlarni o'ziga jamlagan. Eksport va importning xajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi.

AQSH dunyoda ko'mir, neft, gaz kazib olish buyicha, elektroenergiya, alyuminiy, plastmassalar, samoletlar, EXM lar sanoatning muhim tarmoqlari uchun mashina va jixozlar, lokomotivlar va poezd vagonlari ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

Iqtisodiy faol aholining 53 % i xizmat ko'rsatish sohasida (savdo, moliya, turli xizmatlar), 47 % - moddiy ishlab chiqarishda banddir. AQSH iqtisodiyotida band bo'lganlar ichida yuqori malakali mutaxassislar va yuqori maosh oladiganlar xissasi oshib bormoqda.

AQSH iqtisodiyotida ishlab chiqarish va kapitalning birlashuvchi juda kuchli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotda TMK ning o'rni juda

yuqoridir. Ular sanoatning turli tarmoqlarida, savdo sohasida, kommunal qurilishda tulik xukmronlikka egalar. "Djeneral Motorz" (avtomobil ishlab chiqarish), "Eksson" (neft sanoatida) kabi yirik korporatsiyalar nafaqat o'z mamlakatida balki, butun dunyoda katta obro'ga egadirlar. 200 ga yaqin korporatsiya mamlakat sanoat ishlab chiqarishning 43 % ini nazorat qiladi. Bu korporatsiyalar transport, savdo, bank sohasi, sug'urta kompaniyalarini o'z qo'llariga olganlar.

SHu bilan birgalikda AQSH iqtisodiyatida davlatning o'rni ham juda kattadir. Mamlakatning soliq siyosati dunyodagi eng taraqqiy etgan tuzimlardan biridir. Uning yaxshi yo'lga qo'yilganligi uchun davlat katta miqdorda daromadlarga ega bo'lib, iqtisodiyatni boshqarish imkoniyatiga egadir.

AQSH ning tashqi iqtisodiy aloqalari. Iqtisodiy xorijiy mamlakatlar bilan tovar va kapital ayirboshlashga yuqori darajada yo'naltirilgandir. AQSH savdo balansi salbiy ko'rsatkichga ega bo'lishi, uning ko'proq neft va neft mahsulotlarini chetdan keltirishi hamda mamlakat bozorlariga Yaponiya va GFR tovarlarining (ayniqsa avtomobil, elektronika mahsulotlari) keng miqyosda kirib kelishi bilan izohlanadi. AQSH eksportining tovarlar tarkibida mashina va jixozlar (100 %), ximiya mahsulotlari (10 %), oziq-ovqat mahsulotlari (20 %) yuqori xissaga egadir. Mamlakat importida mineral resurslar mahsulotlari (30 %), neft va neft mahsulotlari katta o'rin tutadi. AQSH ko'plab miqdorda umumiy mashinasozlik mahsulotlari, transport vositalari, oziq - ovqatni chetdan keltiradi.

AQSH tashqi savdosining 60 % rivojlangan mamlakatlarga, 40 % rivojlanaётgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarida kapital eksport qilish muhim o'rin tutadi. AQSH investitsiyalari ko'proq rivojlangan mamlakatlarga qaratiladi. Rivojlangan mamlakatlardan esa yaxshi investitsiya muxiti yaratilganligidan AQSH ga investitsiya ko'p kiritiladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va AQSH iqtisodiyoti. Bu "inqiroz Amerika Qo'shma SHtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning etakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aktsiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»⁸.

Natijada AQSHda iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichi YAIMning oldingi yillarga nisbatan o'sishi pasayib keta boshladi: u 2007 yilda 2,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2008 yilga kelib bor-yo'g'i 0,2 foizga teng bo'ldi, 2009 yilda esa hatto salbiy ko'rsatkich -2,0 foizga tushib qoldi, 2010 yilga kelib, birmuncha o'sish kuzatildi, va oldingi yilga nisbatan 1,5 foiz o'sishni tashkil qildi (7.4.1-rasm).

⁸ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 4-б.

Mehnat bozori unga xos b lmagan holda zaif b lib qolmoqa. Inqiroz boshidan buyon 7 mln. dan oshiq ishchi  rni yaratildi va 8,8 mln. kishi t liq b lmagan ish kunida ishlashga majbur b lmoqda. Xozirgi kunda ishchi  rinlari sonining qisqarishi sur'atlari ancha pasaydi, ammo bandlikning  sishi salbiy b lib qolmoqda, ishsizlik darajasi esa 2009 yilning oxiriga borib 10 foizga etdi, lekin 2010 yilning birinchi choragida u biroz pasaydi. Ishsizlik darajasining  sishi, YAIM  sishini hisobga olib kutilganidan ancha yuqori b lmoqda. AQSHning tiklash va investitsiyalash rejasi ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: mamlakat iqtisodiyotiga katta miqyoslarda davlat investitsiyalarini va soliqlarni qisqartirishdir. U birinchi navbatda, ishsizlikka qarshi kurash, istiqbolda esa barqaror iqtisodiy o'sishga yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. Reja quyidagilardan iborat:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va biznes soliqlarini kamaytirish.

2. Ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash uchun mintaqalarga subsidiyalar berish, bu kabi nafaqalarni to'lash muddatini uvzaytirish, kasbga qayta tayyorlash dasturlarini moliyaviy ta'minlash, sog'liqni saqlash uchun investitsiyalar, ipoteka turar joylari egalari uchun ko'rsatiladigan yordam miqdorini oshirish va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga oziq-ovqat yordami ko'rsatish.

7.7. YAponiya kuchli iqtisodiy markaz

Keyingi o'n yillikda YAponiya dunyoda iqtisodiy jixatdan eng kudratli mamlakatlardan biri sifatida sanalib, rivojlanish darajasi bo'yicha AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi mamlakat hisoblanadi. YAponiya dunyo aholisining 2,3 % ini o'zida jam qilgan holda dunyo yalpi mahsulotning 16 % ini yaratib beradi. Uning iqtisodiy saloxiyati AQSH nikining 61 % ini tashkil qilsada, aholi jon boshiga mahsulot etkazish bo'yicha undan oldinda turadi. SHarqiy Osiyo mamlakatlarining jami mahsulotida YAponiyaning hissasi 70 % ni tashkil etib, uning YAIM mahsuloti Xitoy YAIMdan to'rt marta kattadir. Bu mamlakat texnika taraqqiyotining, ayniqsa yuqori texnologiyaning yo'nalishi bo'yicha eng yuqori cho'qqiga chiqib olgandir.

YAponiyaning hozirgi kundagi taraqqiyot darajasi asrimizning ikkinchi yarmida erishilgan yutuqdir. 1938 yilda u dunyo mahsulotining 3 % inigina berardi.

YAponiya iqtisodiyotining taraqqiyot bosqichlari. Ikkinchi jahon urushidan keyin YAponiya ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari va mehnat unumdorligini o'siishi butun sanoati rivojlangan mamlakatlardan ustun bo'ldi. 50-80 yillarda bu ko'rsatkichlar bo'yicha ulardan ikki barobar tez o'sdi. Bu davrda aholi jon boshiga YAIM etkazish 20 barobar oshdi. O'rtacha yillik o'sish 7,7 % ni tashkil etib, AQSH nikidan 4 barobar, Buyuk Britaniyanikidan 8 barobar yuqori bo'ldi.

YAponiya iqtisodiy islohotlarni 50 yillarda sanoatning asosiy tarmoqlarini yangilashdan boshladi. YAngi tarmoqlar – sintetik tolalar, elektrotexnika tarmoqlari paydo bo'ldi. Eksport ishlab chiqarishga e'tibor kuchaytirildi. Iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari YAIMning katta qismini jamg'arishga,

ya'ni yangi ishlab chiqarish vositalari yaratishga sarflash bilan erishildi. Keyinchalik ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga katta e'tibor berildi. Mehnat munosabatlarida firmaga «umrlik yollanish» shoriga amal qilish juda yuqoridir. YAponiya ish kunining uzunligi bilan ajralib turadi. O'rtacha haftalik ish soat 57,7 soatni tashkil etadi.

YAponiyaning 2- jaxon urushidan keyin tez sur'atlarda rivojlanib ketishiga fan - texnika taraqqiati yutuqlari asosida asosiy kapitalni yangilash, xorijiy patentlar va liqenziyalardan keng foydalanish kabi yo'nalishlar sabab bo'ldi.

Asosiy kapitalni yoppasiga yangilash va sanoatning tez sur'atlarda rivojlanishi ishlab chiqarish va kapitalning birlashuviga va yiriklashuviga olib keldi. Iqtisodiyda muhim o'rin tutadigan korporatsiyalar etishib chiqdi. Hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyda 6 ta qudratli moliya - sanoat guruhini asosiy o'rin tutadi. "Daychi - Kangin", "Mitsubishi", "Sanva", "Fudzi", "Mitsui" va "Sumitomo" korporatsiyalari. Iqtisodiy boshqarishda davlatning hissasi ham ortib bormoqda.

Sanoatining rivojlanganlik darajasi bo'yicha GFR, Fransiya va Buyuk Britaniya quvib o'tib, dunyoda AQSH dan keyin 2- o'ringa chiqib oldi. Hozirgi kunda YAponiya mashina va jihozlarning ba'zi turlarini, radiopremniklar, elektronika mahsulotlari, televizorlar, po'lat ishlab chiqarish, neftni qayta ishlash, plastmassalar, ulyuza va sintetik tolalar, azot o'g'itlari, kauchuk va smolalar, jun va paxta gazlamalari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda yoki eng oldingi o'rinlardan birini egallaydi.

Sanoatida og'ir sanoat tarmoqlari jumladan, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va ximiya sanoati asosiy o'rin tutadi. Butun sanoat mahsulotining 4/3 qismi og'ir sanoatda ishlab chiqariladi. Mashinasozlikda eng yuqori o'sish ko'rsatkichlariga stanoklar, avtomobillar, kemalar, radioelektronika mahsulotlari ishlab chiqarishga egadir. YAponiyaning industrial rivojlanishida ximiya va metallurgiya sanoatining zamonaviy tarmoqlari asosiy o'rin tutadi. 70 - yillardan keyin sanoatning tarmoq tarkibini qayta qurish ilmiy - talab ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. YAponiyaning iqtisodiy tashqi bozor bilan juda mustahkam bog'langandir. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari neft, temir rudasi, boksit, paxta, jun, shakar kabi xom- ashe mahsulotlarining chetdan keltirilishiga butunlay yoki deyarli butunlay bog'liqdir. YAponiya sanoat mahsulotlarining sotilishida ham tashqi bozor muhim o'rin tutadi. Tashqi savdo hajmi bo'yicha YAponiya AQSH va GFR dan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Importga nisbatan eksport kuchli rivojlanishga ega bo'lganligi uchun YAponiyaning savdo balansi ijodiy ko'rinishga egadir.

YAponiya xalqaro mehnat taqsimotida o'zining mashina va jihozlar, qora metallar, ximiya mahsulotlari, maishiy elektrotexnika, to'qimachilik kabi eksport mahsulotlari bilan qatnashadi. YAponiya dunyoning deyarli hamma mamlakatlari bilan savdo - sotiq qiladi. Lekin uning asosiy savdo sherigi bo'lib AQSH hisoblanadi. YAponiya tashqi savdosining 21 % i mana shu mamlakatga to'g'ri keladi. YAponiyaning importida Yaqin va O'rta SHarq mamlakatlari muhim o'rin tutadi. Bu mintaqadan mamlakat neft va neft mahsulotlari olib keladi. G'arbiy Evropa davlatlari bilan savdo - sotig'i ham yuqori ulushga ega.

CHetga kapital chiqarishning 15% dunyo eksportining 10% YAponiya yaratadi. Mahsulotlarining raqobatbardoshligi bo'yicha Osiyoda eng oldingi o'rinlarni egalladi.

Keyingi o'n yillikda YAponiya dunyoda iqtisodiy jixatdan eng qudratli mamlakatlardan biri sifatida sanalib, rivojlanish darajasi bo'yicha AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi mamlakat hisoblanadi. YAponiya dunyo aholisining 2,3 % ini o'zida jam qilgan holda dunyo yalpi mahsulotning 16 % ini yaratib beradi. Uning iqtisodiy saloxiyati AQSH nikining yarmini tashkil qilsada, aholi jon boshiga mahsulot etkazish bo'yicha undan oldinda turadi. SHarqiy Osiyo mamlakatlarining jami mahsulotida YAponiyaning hissasi 70 % ni tashkil etib, uning YAIM mahsuloti Xitoy YAIMdan to'rt marta kattadir. Bu mamlakat texnika taraqqiyotining, ayniqsa yuqori texnologiyaning yo'nalishi bo'yicha eng yuqori cho'qqiga chiqib olgandir.

YAponiyaning hozirgi kundagi taraqqiyot darajasi asrimizning ikkinchi yarmida erishilgan yutuqdir. 1938 yilda u dunyo mahsulotining 3 % inigina berardi.

YAponiya iqtisodiyotining taraqqiyot bosqichlari. Ikkinchi jahon urushidan keyin YAponiya ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari va mehnat unumdorligini o'siishi butun sanoati rivojlangan mamlakatlardan ustun bo'ldi. 50-80 yillarda bu ko'rsatkichlar bo'yicha ulardan ikki barobar tez o'sdi. Bu davrda aholi jon boshiga YAIM etkazish 20 barobar oshdi. O'rtacha yillik o'sish 7,7 % ni tashkil etib, AQSH nikidan 4 barobar, Buyuk Britaniyanikidan 8 barobar yuqori bo'ldi.

YAponiya iqtisodiy isloxotlarni 50 yillarda sanoatning asosiy tarmoqlarini yangilashdan boshladi. YAngi tarmoqlar – sintetik tolalar, elektrotexnika tarmoqlari paydo bo'ldi. Eksport ishlab chiqarishga e'tibor kuchaytirildi. Iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari YAIMning katta qismini jamg'arishga, ya'ni yangi ishlab chiqarish vositalari yaratishga sarflash bilan erishildi. Keyinchalik ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga katta e'tibor berildi. Mehnat munosabatlarida firmaga «umrlilik yollanish» shoriga amal qilish juda yuqoridir. YAponiya ish kunining uzunligi bilan ajralib turadi. O'rtacha haftalik ish soat 57,7 soatni tashkil etadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va YAponiya iqtisodiyoti. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida YAponiyada ishlab chiqarishning pasayishi kuzatildi (7.7.1 jadval). YAIM inqiroz endi boshlanayotgan 2007 yilda YAIM o'sishi 2,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2008 yilda pasayish natijasini berdi (-0,7 foiz), 2009 yilda, ya'ni inqirozning eng avjiga chiqqan davrida pasayish -5,2 foizga etdi. 2010 yilga kelibgina YAIM ning ozgina o'sishi kuzatildi (1,7 foiz). Binobarin, ishsizlik darajasi ham salbiy ko'rsatkichlarga ega bo'lib, yildan yilga oshib bordi.

7.7.1 jadval.

YAponiyada jahon inqirozi davrida YAIM o'sishi va ishsizlik darajasi

Yillar

YAIM

Ishsizlik

2007	2,0	3,8
2008	-0,7	4,1
2009	-5,2	5,4
2010	1,7	6,2

Mamlakatda inqirozni bartaraf etishda, uy-joy xarid qilishda soliq stavkalarining vaqtinchalik pasaytirilishi, kichik va o'rta korxonalar uchun xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlari uchun sarflanadigan mablag'laridan olinadigan soliqning kamaytirilishi, shuningdek, ITTKI (ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari) xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan soliq imtiyozlarining kengaytirilishini ko'zda tutuvchi soliq tizimining isloh qilinishi muhim moliyaviy ko'mak hisoblanadi. Inqiroz oqibatlarini engib o'tish va istiqbolda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash yuzasidan strategik tadbirlarning amalga oshirilishi hukumat tomonidan byudjetdan 15,4 trln. iena (169 mlrd. dollar) miqdorida mablag' ajratiladi, unga xususiy kapital qo'yilmalaridan keladigan mablag'ni qo'shadigan bo'lsak, bu miqdor taxminan 56,8 trln. Iena (600 mlrd. dollar)ga teng bo'ladi. Bundan tashqari, Hukumat fond bozorini qo'llab-quvvatlash maqsadida 50 trln. Iena miqdorda kafolat ajratadigan bo'ldi.

Rejalashtirilayotgan moliyaviy xarajatlarning muhim natijasi kutilayotgan ko'p qirrali samara hisoblanadi. 2011 yilgacha bo'lgan davrda mamlakatda 1,0-1,9 mln. amaldagi ish o'rinlari saqlanib qolishi va taxminan 1,4-2,0 mln. yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

7.8. Evropa Ittifoqi mamlakatlari dunyo xo'jaligida

Evropa ittifoqi (EI) dunyo xo'jaligida o'ziga xos o'ringa ega. Bu Ittifoqda dunyoning 6,4% aholisi yashab, dunyo yalpi mahsulotining 28%ini yaratib beradi. EI o'ziga xududining kattaligi, tabiiy resurslari, iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyati turlicha bo'lgan 15 ta mamlakatni qamrab olgan. (Fransiya, Germaniya, Italiya, BuyukBritaniya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, SHvetsiya, Avstriya, Finlandiya).

G'arbiy Evropada 1957 yilda Umumiy Bozorning tashkil qilinishi tovarlar, xizmatlar, kapitallar va mehnat resurslarining erkin xarakat qiladigan mintaqaviy iqtisodiy birlashmasini vujudga keltirdi.

Iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari. EI mamlakatlari bir xil iqtisodiyotga ega bo'lgan sanoati rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. Ular iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan bo'lib, aholi jon boshiga mahsulot etishtirish bo'yicha dunyoda 2 inchi o'rindan 44 inchi o'ringacha egallaydilar.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi, xo'jaligining tarkibiy tuzilishi, iqtisodiy faoliyatining mavqei bo'yicha Ittifoq mamlakatlarini bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Mintaqaning asosiy iqtisodiy qudrati sanoati yuqori darajada rivojlangan 4 ta yirik mamlakat Germaniya, Fransiya, Italiya, va Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. Bu mamlakatlarda EIning 50 % aholisi joylashgan bo'lib, jami YAIMning 70 % i yaratiladi.

EIning boshqa mamlakatlari sanoati rivojlangan kichik mamlakatlar hisoblanadi. Bu mamlakatlarning alohida o'rni ularning yuqori sifatli, texnik jihatdan murakkab mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi bilan belgilanadi.

EIning kichik mamlakatlari YAIM ning hajmi bo'yicha bir-biridan kuchli farq qiladilar. Birinchi guruxga Belgiya, Niderlandiya, SHvetsiya va Ispaniyani kiritish mumkin. Ularda mintaqaning yirik mamlakatlariga nisbatan bu ko'rsatkich 4-5 marta kamdir, ular butun YAIMning 20 % ini yaratdilar.

Ikkinchi guruhga Avstriya, Daniya, Gretsiya va Finlandiyani kiritish mumkin, ular EIning 8% YAIMini yaratdilar. Uchinchi guruh – Portugaliya, Irlandiya, Lyusemburg mamlakatlari ittifoq YAIMining bor-yo'g'i 2% ini ishlab chiqaradilar. Italiya, Gretsiya, Portugaliya YAIMda qishloq xo'jaligining hissasi yuqori turadi.

EIda ilmiy texnika salohiyati juda kuchli. Uning ilg'or mamlakatlari bu sohaga YAIMining 2% igacha ajratadilar. «Filips», «Simens», «Olivetti», «Alkatel», «Tomson», «Erikson», «Bosh» firmalari ilg'ordir.

G'arbiy Evropa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi o'tgan asrning oxirgi o'n yilliklarida tarkibiy o'zgarishlar negizi ostida yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar fan texnika taraqqiyotining yangi bosqichi sharoitida ishlab chiqarish rivojlanishining va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi umumiy yo'nalishlarini aks ettiradi va 70 yillardagi va 80 yillar boshidagi ortiqcha ishlab chiqarishning tarkibiy inqirozlari oqibati hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiyotda tutgan o'rnida ham turli o'zgarishlar yuz berdi. Ko'pchilik mamlakatlarda uning ahamiyati pasaydi. Janubiy va qator shimoliy mamlakatlarda (Finlyandiya, Irlandiya) sanoat ishlab

chiqarishining YAIMdagi hissassi oshdi. Bu mamlakatlarda sanoatlashish jarayoni davom etdi, umumiy ahamiyatdagi yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi.

O'tgan o'n yilliklarda Evropa Ittifoqi tarmoq tarkibining ilg'orligi bo'yicha ega bo'lgan mahsulotlar EI qayta ishlash sanoatida 25 % ni, AQSHda 30 %ni, Yaponiyada 40 % ni tashkil etadi. EI iqtisodiyotida rentabellik bilan ishlab turgan sohalarda modernizatsiyalash ustunlik qilardi, lekin yangi texnika asosida tubdan qayta qurish amalga oshirilmadi. SHuning uchun EI mamlakatlari an'anaviy mahsulotlarni ishlab chiqarishda muhim o'rinlarga egalar, xususan, ular butun dunyodagi stanoklarning 35 %ini, avtomobillarning 37 %ini ishlab chiqaradilar.

Qayta ishlash sanoati tarkibi mamlakatlar bo'yicha taqqoslaydigan bo'lsak, mashinasozlik va og'ir sanoat mintaqaning etakchi mamlakatlarida kuchli rivojlangan. Huddi shunday ularda kimyo sanoatining ulushi ham kattadir. Ko'pgina G'arbiy Evropa mamlakatlari iste'mol mahsulotlarinig yirik ishlab chiqaruvchilari hisoblanadilar. Italiya, Greçiya, Portugaliyada engil sanoat tarmoqlarining hissassi 18-24 %ga etadi. Ko'pchilik mamlakatlar uchun oziq-ovqat sanoatining – ishlab chiqarishda ham, bandlik sohasida ahamiyati oshib borayotganligi xosdir. Belgiya, Daniya, Greçiya va Portugaliyada uning hissassi 20 %ni tashkil qiladi.

Tog'-kon sanoati G'arbiy Evropada unchalik katta hissaga ega emas – YAIMning 1 %dan ham kamdir. (Greçiyada – 4 %, Ispaniyada – 1,3 %). Qazilma boyliklarning 30 ga yaqin turi qazib olinadi, lekin ulardan 3-4 tasigina dunyo miqyosijagi ahamiyatga ega (ruh, boksitlar, potash, nikel).

Qishloq xo'jaligining ancha yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi G'arbiy Evropa mamlakatlarining bu tarmoq mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlash oshib borishiga olib keldi. 80 – yillarning oxirida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlashi 90 %ni tashkil qildi. Mahsulotlarning ayrim turlarini – don (makkajo'xoridan tashqari), sut va sut mahsulotlari, shakar, tuxum – etishtirish ichki ehtiyojlarni to'liq qoplaydi va ortiqchasi tashqi bozorlarga chiqariladi.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i – chorvachilikdir. Uning samaradorligini oshirishda ozuqalardan oqilona foydalanish, xususan kombikormalardan keng miqyosda foydalanish muhim o'rin tutadi. Kombikormalar ishlab ko'p jihatdan tashqi xom ashyo manbalariga: soya-dukkaklilar, makkajo'xori, tapioka va boshqalarga bog'liqdir. Mahalliy donning qimmatliligi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tartibga solishning amaldagi tizimida kombikormalarni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga intilish kelajakda ham xorijdan arzon don sotib olishni rag'batlantirib turadi.

EI mamlakatlarining yonilg'i-energetika balansida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. YUqori darajada tejash va energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks energiya dasturlarini amalga oshirish natijasida energiya iste'molining nisbatan kamayishiga olib keldi. Mintaqada energiya iste'molining pasayishi turlicha jadallikda yuz berdi. Agar ko'pchilik yuqori rivojlangan mamlakatlar uchun energiyaga bo'lgan talabning ancha pasayishi kuzatilgan bo'lsa, o'rtacha darajada rivojlangan qator

mamlakatlarda (Portugaliya, Greçiya, Ispaniya, Irlandiya) uning oshib borishi tendenciyasi namoyon bo'ldi.

Energiya balansi tarkibidagi o'zgarishlar neftning ulushi pasayganligi (52 %dan 45 %gacha), atom energiyasi ulushining ancha o'sganligi, tabiiy gazning ahamiyati ham oshib borishi bilan bog'liqdir. Tabiiy gaz Niderlandiyada ancha ko'p ishlatiladi va energiya iste'molining yarmini tashkil qiladi, huddi shunday hol Buyuk Britaniyada ham mavjuddir. Atom energiyasi o'nta mamlakatda ishlab chiqariladi va iste'molining katta qismi ushbu energiya turiga to'g'ri keladi: Finlyadiya, Belgiya, SHveyçariyada – 15-20%, SHveyçiya va Françiyada – 75 %dan yuqoridir.

G'arbiy Evropa mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'zgarishlar YAIMda moddiy ishlab chiqarish sohasining hissasini kamaytirish va xizmatlar hissasini oshirish yo'nalishida bordi. Aynan mana shu soha hozirgi paytda milliy ishlab chiqarishning o'sishi va investitsiyalarning ko'payishini ko'p jihatdan belgilab bermoqda. Iqtisodiy faol aholining uchdan biri shu sohaga to'g'ri keladi. Bu G'arbiy Evropa mamlakatlarining moliya markazi sifatida, boshqa turli xizmatlarni ko'rsatish markazi sifatidagi ahamiyatini oshirdi.

Bir xil tendentsiyalarning mavjudligiga qaramasdan, EI mamlakatlarining tarmoq tarkibida katta farqlar mavjud, bu esa milliy iqtisodiyotlardagi monopolistik tuzilmalarning barqarorligi bilan izohlanadi. Jami YAIMning katta qismining ishlab chiqarilishi eng yirik kompaniyalar tomonidan nazorat qilinadi. 400 ta etakchi sanoat kompaniyalari (G'arbiy Evropada hammasi bo'lib 10 mln. dan oshiq firma bor) butun band aholining 39 %ini, EI mamlakatlari qayta ishlash sanoatining mahsulot sotishidagi 37,4 %ini ta'minlaydi.

YAngi texnologik asoslarga o'tish, xizmat ko'rsatish sohaslarining kengayishi va xo'jaliklarning yakuniy iste'mol talablariga qarab ish yuritishining kuchayishi oligopoliya tuzilmalarining o'zgarishiga olib keldi. 90-yillarning ikkinchi yarmida birlashishlar va qo'shib olishlar davri bo'ldi. Kapital markazlashuvining hozirgi bosqichi bitimlarning xalqaro tus olganligi bilan ajralib turadi. Natijada juda yirik SHveyçiya-SHveyçariya elektrotexnika konçerni «ASEA – Broun Boveri», «DEK – Alstxom» va boshqa xalqaro kompaniyalarning paydo bo'lishi yuz berdi.

Yirik kapitalning tarkibiy qayta qurilishi G'arbiy Evropa kompaniyalarining dunyo xo'jaligida mustahkam o'rin olishiga olib keldi. Dunyoning eng yirik 500 ta kompaniyalari ichida 60-90 yillarda g'arbiy Evropa kompaniyalari 134 tadan 178 tachaga ko'paydi. Hamma yirik kompaniyalar xalqaro mohiyatga egalar. G'arbiy Evropa gigantlari o'rtasida kuchlar nisbati o'zgardi. Germaniya korporatsiyalari ilg'orlikni qo'lga oldilar, Françiya va Italiya korporatsiyalari kamroq darajada rivojlandilar. Buyuk Britaniya kompaniyalarining mavqei kamaydi. G'arbiy Evropaning eng yirik banklari o'z mavqelarini saqlab qoldilar. Ularning 23 tasi dunyoning eng yirik 50 ta banklari qatoridan o'rin oldilar (8 ta nemis va 6 ta françuz banklari).

G'arbiy Evropadagi monopollashish jarayonlari SHimoliy Amerikadagi shunday jarayondan farq qiladi. Eng yirik G'arbiy Evropa kompaniyalari an'anaviy tarmoqlarda mustahkam mavqega egalar, yangi ilm talab tarmoqlarda esa

orqadalar. G'arbiy Evropaning eng yirik birlashmalarida tarmoq ixtisoslashuvi amerika korporatsiyalariga qaraganda faolligi kamdir. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni to'xtatib qo'yadi.

Eng yirik kompaniyalarning ilmtalab tarmoqlarida nisbatan zaifligi EI va milliy iqtisodiyotlarni xususiy monopolistik kapital faoliyatini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi Evropa Ittifoqi mamlakatlariga ham katta salbiy ta'sirini o'tkazdi. Inqiroz ushbu mintaqada mamlakatlarining YAIM o'sishiga ham, ishsizlik darajasi va boshqa ko'rsatkichlariga o'z salbiy ta'sirini o'tkazdi.

7.7.1 jadval.

Buyuk Britaniya va Germaniyada jahon inqirozi davrida YAIM o'sishi va ishsizlik darajasi

Buyuk Britaniya

Germaniya

Agar, mintaqaning eng katta ikkita mamlakati bo'lgan Buyuk Britaniya va Germaniya misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, (7.8.1 jadval) 2007 yildan keyingi davrda YAIM o'sishi pasayib ketganligini, 2009 yilda esa oldingi yilga nisbatan kamayganligini ham ko'rishimiz mumkin. Ishsizlik darajasi esa yildan yilga oshib bordi. Ishsizlikning oshishi ko'pgina korxonalarning inqiroz tufayli yopilishi oqibati bo'lib, bu ikkinchi itomondan davlat byudjeti daromadlarining kamayib ketishiga va xarajatlar kamaymagan bir paytda byudjet taqchilligining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi (7.8.2 jadval).

7.8.1-jadval

Ayrim mamlakatlarda byudjet taqchilligi, tashqi qarzlarning holati to'g'risida ma'lumot

YAIMga nisbatan

Mamlakatlar	Byudjet taqchilligi	Tashqi qarz
Italiya	5,3 foiz	115,8 foiz
Franziya	7,5 foiz	78,0 foiz
Portugaliya	9,3 foiz	76,0 foiz
Ispaniya	11,1 foiz	91,0 foiz
Buyuk Britaniya	11,4 foiz	68,0 foiz
Grechiya	15,4 foiz	115,1 foiz
Irlandiya	32,0 foiz	116,0 foiz
O'zbekiston	0,3 foiz profiuit	10,0 foiz kamroq

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari

Byudjet taqchilligining oshib borishi o'z navbatida tashqi qarzlarning ham oshib ketishiga olib keladi. Tashqi qarzlarning eng yuqori ko'rsatkichi Irlandiya, Italiya Grechiya kabi mamlakatlarda namoyon bo'ldi (7.8.2 jadval).

Evropa Ittifoqi mamlakatlarining iqtisodiy inqiroz bilan bog'liq o'z-o'zidan ko'rinib turgan xususiyatlaridan biri – bu uning tarkibiga kirgan mamlakatlar iqtisodiyotining kuchli darajadagi o'zaro bog'liqligidir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ittifoqning etakchi mamlakatlarining tanazzulga yuz tutishi nisbatan kam rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ham tushkunlikka tushib qolishiga sabab bo'ladi. Agar 27 tadan 16 mamlakat evrodan rasmiy valyuta sifatida foydalanishini hisobga oladigan bo'lsak, uning kursi o'zgarishi (0 inqirozning dastlabki uch oyi davomida 20 % ga pasayib ketdi) bu mamlakatlarning barchasiga ta'sir ko'rsatadi, buni esa Evropa Markaziy banki pul kredit siyosatini o'tkazishda albatta e'tiborga olishga majbur. Inqirozning yana bir muhim tomoni uning EI bank sohasiga, ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatishida, sababi AQSHdan farqli ravishda, Evropaning rivojlangan mamlakatlarida aynan u iqtisodiyotning real sektorini kreditlash manbai hisoblanadi.

2008 yilning dekabrda EIning Iqtisodiy tiklanish rejasi tasdiqlandi. Reja ikki ustivor yo'nalishda amalga oshirildi. Faoliyatning birinchi yo'nalishi – ist'emoatchi talabi va ishonchini rag'batlantirish, uning uchun 200 mlrd. Evro ajratish taklif etilgan. Ikkinchi yo'nalish – uzoq istiqbolda iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, ITTKI samaradorligini oshirish maqsadida mashinasozlik va tadqiqotatuzilmasini, toza texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutgan investitsiyalar dasturi ishlab chiqildi.

Savol va topshiriklar:

1. Sanoati rivojlangan mamlakatlar qanday xususiyatlari bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi?
2. Qaysi mamlakatlarni sanoati rivojlangan qatoriga qo'shish mumkin?
3. AQSHning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini aytib bering?
4. AQSH keyingi yillarda o'zining yagona ilg'orligini nima uchun yo'qota boshladi?
5. Kanada qanday mahsulotlari bilan xalqaro mehnat taqsimotida qatnashadi?
6. Yaponiya iqtisodiyotining qaysi sohalarida jahonda eng ilg'or hisoblanadi?
7. Evropa Ittifoqining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini ta'riflab bering.

Asosiy tushunchalar va atamalar:

«Sanoati rivojlangan mamlakatlar» tushunchasi; Sanoati rivojlangan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rne; Sanoati rivojlangan mamlakatlarning asosiy belgilari; Iqtisodiy o'sish omillari; Sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi-ning hozirgi davrdagi xususiyatlari; Sanoati rivojlangan mamlakatlar-ning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rne; Qayta ishlash sanoati; Og'ir sanoat; Engil sanoat; Mashinasozlik; Umumiy mashinasoz-

lik; Transport mashinasozligi; Stanoksozlik; Elektronika tarmog'i; Avtomobilsozlik; Metallurgiya sanoati; Qora metallurgiya; Ximiya sanoati; YOnilg'i-energetika sanoati; Etakchi rivojlangan mamlakatlar; Iqtisodiyotning ochiqqligi; Tadbirkorlik kapitalining harakati; Iqtisodiy yordam; Sanoati rivojlangan mamlakatlar tashqi savdosi; AQSHning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rne; AQSH iqtisodiy rivojlanishining bosqichlari; AQSH iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari; AQSH iqtisodiyotining tarmoq tarkibi; AQSHning tashqi iqtisodiy aloqalari; Yaponiyaning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rne; Yaponiya iqtisodiyotining taraqqiyot bosqichlari; Yapon menejmentida mehnat munosabatlari; Yaponiyaning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'rne; Evropa Ittifoqining jaxon iqtisodiyotidagi o'rne; EI ning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari

8 - Mavzu: Rivojlanayotgan mamlakatlar – xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida

- 8.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy belgilari, xususiyatlari.
- 8.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni.
- 8.3. Mamlakatlarning asosiy guruhlari.
- 8.4. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar

8.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy - iqtisodiy xususiyatlari

XX-asrning ikkinchi yarmida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojida yuz bergan asosiy xususiyatlardan biri, bu ilgari mustamlaka bo'lgan, hozirda esa, "rivojlanaётgan mamlakatlar", "uchinchi dunyo mamlakatlari" deb ataluvchi mustakillikni qo'lga kiritgan mamlakatlar ning o'rni va ahamiyatining oshishida bo'ldi. Bu mamlakatlarda hozirgi kunda 4 mlrd.ga yaqin axoli yashaydi. Bu mamlakatlar juda har xildir. Ularda murakkab ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlar yuz bermoqda. SHu bilan birgalikda ularning rivojidagi asosiy yo'nalish, bu ular o'rtasida rivojlanish darajasi bo'yicha farqning kuchayib borayotganligidadir. Binobarin, 1950 yilda iqtisodiy jihatdan eng ilg'or rivojlanayotgan mamlakatlar (35 mamlakat) o'rtacha rivojlanganlaridan (54 mamlakat) 2,5 barobar, eng qoloqlaridan (36 mamlakat) 5,4 barobar o'zib ketgan edi. Keyingi yillarda bu farq yanada kuchayib ketdi.

Masalan, 1992 yilga kelib aholi jon boshiga o'rtacha daromad rivojlanaётgan mamlakatlarning birinchi guruhida (19 mamlakat) "o'rtacha" lardan 2,9 marta, eng quyi guruhdan esa 12,2 marta yuqori edi. Rivojlanaётgan mamlakatlar guruhlarining tarkibi ham, bu guruhlardagi ayrim mamlakatlar o'rtasidagi rivojlanish darajasida ham o'zgarishlar yuz berdi.

SHunday qilib farqlar kuchayishi natijasida ikki qutb yuzaga keldi. Qutblarning bir tomonida neftga boy mamlakatlar, birinchi navbatda, Fors qo'ltig'i mamlakatlari - Katar, Kuvayt, Birlashgan Arab Amirliги bilan Bagam o-ri, Bermud o-ri mamlakatlari, hamda Janubiy-SHarqiy Osiyo va Lotin Amerikasining "yangi sanoatlashgan mamlakatlari" paydo bo'ldi. Qutbning ikkinchi tomonini turg'unlik davrini boshidan kechiraётgan qashshoq mamlakatlar egallaydilar. Bular sarasiga 48 ta mamlakat kiritiladi. Ular ichida Afrika mamlakatlari, shu jumladan Mozambik (aholi jon boshiga YAMM 80 dollardan to'g'ri keladi), Efiopiya (100 doll.), Tanzaniya (100 doll.), Serra-Leone (140 doll.), Burundi (180 doll.), Uganda (190 doll.), CHad va Ruanda (200 doll.) mamlakatlari urin olgan. Bulardan tashqari, eng qashshoqlar katorida Osiening bir necha mamlakatlari: Nepal (160 doll.), Butan va Vetnam (170 doll.), Myanma va boshqalar ham bor. Mana shu ikki qutb o'rtasida esa rivojlanaётgan mamlakatlarning qolganlari joylashgan. Bularning o'zi ham bir-biridan ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha farq qiladilar. Bundan

tashqari ular o'rtasidagi farq yanada kuchayib bormoqda: ba'zilar jadal iqtisodiy o'sishga ega bo'laётgan bo'lsa, boshqalarining qoloqlikdan boshlari chiqmayapti.

Rivojlanaётgan mamlakatlarning juda ham turli-tumanligiga qaramasdan ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan belgilarni, xususiyatlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Bularga:

rivojlanaётgan mamlakatlar iqtisodietining ko'p ukladli-ligi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning qoloqligi, sanoatining, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy infrastrukturasining past darajada rivojlanganligi (yuqori qutbdagi birinchi guruh mamlakatlaridan tashqari);

dunyo xo'jaligi tizimida boshqalarga qaramligi. Qoloq mamlakatlarga xos kapitalizm mavjudligi.

Bu xususiyatlarni kengroq ko'rib chiqamiz.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodieti ko'p ukladli ijtimoiy iqtisodiy tarkibga ega. Ko'pchilik mamlakatlarda kapitalistik uklad bilan birgalikda, ibtidoiy va patriarxal munosabatlar ham saqlanib qolgan. Rivojlanaётgan mamlakatlar iqtisodietida davlat va davlat mulkiga asoslangan uklad muhim o'rin tutadi. Davlat sektorini rivojlantirishga qaratilgan tamoyil bilan birgalikda xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish siyosati ham olib boriladi. Natijada davlat kapitalizmi yuzaga keladi va rivojlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'p ukladli rivojlanishiga egaligini qayd etib o'tish birgalikda, ularning asosiy ko'pchiligi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi xukmron bo'lgan agrar (dehqonchilik) mamlakatlari ekanligini aytib o'tish zarur. Qishloq xo'jaligida patriarxal, natural (sotish uchun emas, o'zi uchun mahsulot etkazuvchi) xo'jalikka asoslangan mayda tovar xo'jaligi asosiy o'rin tutadi.

8.1.1 Jadval.

Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik ko'rsatkichlari

	Axoli soni 2010 yil	Axoli soni o'rtacha o'sishi		Urbanizatsiya darajasi		Tug'ilish darajasi (xar bir ayolga to'g'ri keladigan tug'ish)	
		1990-1995	2010-2015	1990	2010	1990	2010
Mamlakatlar							
Rivojlanayotgan mamlakatlar							
Arab mamlakatlari	348.2	2.4	1.9	49.2	55.3	4.7	2.6
SHarqiy Osiyo va Tinch okeani	1974.3	1.1	0.8	28.1	45.3	2.3	2.8
Evropa va Markaziy Osiyo	410.3	0.3	0.2	62.8	64.4	2.1	1.6
Lotin Amerikasi va Karib havzasi	582.7	1.7	1.0	70.3	79.5	3.0	2.2
Janubiy Osiyo	1719.1	2.1	1.4	26.5	31.7	9.1	2.5
Saxroi Kabirdan janubdagi	808.8	2.8	2.4	28.3	37.0	6.1	3.6

Afrika							
Inson rivojlanishi past bo'lgan mamlakatlar	1099,0	2,7	2,2	24,2	33,4	5,7	4,1
Dunyo bo'yicha	6908,7	1,6	1,1	42,6	50,5	3,1	2,3

Inson rivojlanishi to'g'risida doklad. UNDP. 2010.

Mustaqillikka erishgan mamlakatlarda mavjud bo'lgan xususiy kapitalistik ukld o'z ichida kapitalistik mulkning turli shakllarini namoyon etadi. Xususiy kapitalistik munosabatlarning rivojlanish darajasi bo'yicha bu mamlakatlar bir-biridan ancha farq qiladilar.

Iqtisodiy jihatdan ilg'or bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalistik bozor munosabatlari asosiy o'rin tutib, o'ziga xos davlat monopolistik kapitalizmi vujudga kelgan. Kamroq rivojlanganlarida esa milliy xususiy kapitalizm ukladi shakllanish arafasidadir.

Milliy xususiy kapitalizm ukladining rivojlanishi jamg'arish jarayoni (pul mablag'larining etishmasligi) muammolari va jamg'arilgan mablag'larni ishlatish masalalariga bog'liqdir. Bu mablag'lar savdo sohasiga (ichki va tashqi savdo), ko'chmas mulk sotib olishga, mashinalarni ta'mirlashga, sug'urtaga, yoqilg'i quyish shoxobchalarini egallashga, taksiga ishlatilmoqda, ya'ni kapital tez aylanadigan sohalarga qaratilgandir. Kapitalning ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilishi esa, eng qulay sharoitlardagina amalga oshiriladi. Biroq, chet el kapitali mamlakat iqtisodietida asosiy o'rinlarni egallab olib, maxalliy tadbirkorlarga imkoniyatni bermaslikka harakat qiladilar. Ko'pgina rivojlanaetgan mamlakatlarda mohiyatan qoloq kapitalizm vujudga kelgandir. Bu kapitalizm sanoati rivojlangan mamlakatlar kapitalizmidan nafaqat rivojlanish darajasi bo'yicha, balki ishlab chiqarish usuli va moddiy boyliklarni taqsimlash yo'llari bo'yicha ham tubdan farq qiladi. Rivojlangan mamlakatlar kapitalizmi milliy kelib chiqishga ega bo'lib, uzoq davr mobaynida jamg'arishning muntazam o'sib borish sharoitida vujudga kelgan.

Rivojlanaetgn mamlakatlarda esa kapitalizmning taqlidiy ko'rinishi chet el kapitalining, texnologiya va mafkurasining kirib kelishi asosida yuzaga kelgan. Taqlid qilish bozorni shakllantirishdan boshlanib, unda eng boy tabaqalar uchun o'ziga zarur hamma narsani sotib olish imkoniyati yaratiladi. Bu esa aholining ko'pchilik qismi bozor munosabatlarida ishtirok qilishdan chetda qolib, qoloqlikka yuz tutishiga olib keladi.

Transmilliy korporatuiyalar tomonidan olib kelingan texnologiyalar eskirgan bo'lishi bilan birgalikda bahosi ham qimmatdir. Qoloq kapitalizm modeli aholining ilg'or, malakali qismlari ko'chib ketishiga ham olib keladi. Qashshoqlik, ortiqcha aholi, yuqori darajada ishsizlik, sanoati rivojlangan mamlakatlarga katta qarzdorlik ko'pchilik rivojlanaetgan mamlakatlar uchun umumiy xususiyat hisoblanadi. Asosiy ko'pchilik rivojlanaetgan mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishida aholisining turmush darajasi bo'yicha ilg'or sanoati rivojlangan mamlakatlardan 20-50 barobar orqada turadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida **qishloq xo'jaligi** asosiy o'rin tutadi. Bu mamlakatlar sanoat ishlab chiqarishni kuchaytirishga e'tibor berayotganliklari ular iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining xissasi kamayayotgan

bo'lishiga qaramasdan uning darajasi xali xam yuqoridir. Masalan, Sudan, Uganda va Burundi kabi Afrika mamlakatlari eksportining 90 % ini, Burkina-Faso Efiopiya, Madagaskar davlatlarining esa 80 % ini qishloq xo'jalik maxsulotlari tashkil etadi.

Rivojlanaётgan mamlakatlarda xam qishloq xo'jaligida agrar islohotlar o'tkazishga e'tibor bermoqda. Eski natural xo'jalikdan tovar ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tilmoqda. Natijada ilgari o'z eriga ega bo'lmagan dehqonlar, erni ijaraga olib ishlash yuliga o'tdilar. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi texnika bilan ta'minlanishi jihatidan juda qoloq soha xisoblanadi. Ba'zi joylarda xatto oddiy belkurak yoki omoch kabi ishlab chiqarish vositalari xam yuk.

SHu bilan birga shunday mamlakatlar borki, ularda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ancha yaxshi darajada mexanizatsiyalashtirilgan. Bu mamlakatlarda FTT asosida "yashil inkilob"ni amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning asosida bioximiya, gen injeneriyasi, o'simlik avlodlari axborotlarini EXM ga kiritish kabi fan yutuqlaridan foydalanib o'simliklar selektsiyasining yangi usullarini qo'llash etadi. SHu usullar yordamida tropik va subtropik dehqonchilik rayonlarida ko'p ekinlarning, ayniqsa, donli ekinlarning yuqori xosilli navlarini yaratishga muvaffaq bo'lindi. Mana shunday xosildor bug'doy navi Meksikada, sholi navi esa Filippinda birinchi marta yaratildi. Bu navlar boshka oddiy navlarga nisbatan 5-6 marta ko'p xosil beradi. Xindiston, Bangladesh, Pokiston, Nepal kabi mamlakatlarida xam ekin maydonlarining 75 % iga shunday xosildor navli bug'doy ekiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishga xam katta e'tibor berilmoqda. SHunday bulsa xam xali bir traktorga tug'ri keladigan xaydaladigan erlar xissasi ko'pdir. Mineral o'g'itlarni keng qo'llash rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo'jaligi sohasida xosildorlikni oshirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Mineral o'g'itlarni ishlatish keyingi 20 yil ichida 4 barobarga ko'paydi. Lekin shunga qaramay bu mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarnikidan ancha orqadadir (2-2,5 marta).

Qishloq xo'jalik maxsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish sug'orma dehqonchilikka xosdir. Aynan, "yashil revolyutsiya" amalga oshirilayotgan xudud xam, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining ilg'or usullarini qullayotgan mamlakatlar xam ana shu sug'orma dehqonchilik zonasida joylashgandir. SHuning uchun yildan-yilga sug'oriladigan maydonlar xajmi kengayib bormoqda. Keyingi 20 yil ichida rivojlanayotgan mamlakatlarda sug'oriladigan maydonlar 72 mln.GA dan 112 mln.GA gacha ko'paydi. Ammo, sug'orish maydonlarini kengaytirish irrigatsiya inshootlarini ko'plab qurishni talab qiladi. Bunga esa xamma qoloq mamlakatlarning qurbi etavermaydi. Bundan tashqari bu mamlakatlarda qul mexnati keng tarqalganligi sababli mexnat unumdorligi juda pastdir. Agarda rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida ishlovchi xar bir kishiga 0,9 GA tug'ri kelsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,3 GA tug'ri keladi va shunday vaziyatda rivojlangan mamlakatlarda bir qishloq xo'jaligi xodimi 70 yillarda 5220 dollar maxsulot yaratgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 550 dollar maxsulot yaratdi.

8.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning

xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni

Xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, dunyo xo'jaligi aloqalarining keng tarmoqli bo'lishi, moddiy va moliya resurslarining mamlakatlararo oqimi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy sharti ekanligi anchadan buyon ma'lum. Mustaqil davlat sharoitida dunyo hamjamiyatiga qo'shilgan rivojlanayotgan mamlakatlar 70 yillarning boshidan buyon xalqaro mehnat taqsimotida yanada faolroq qatnashishga intilmoqdalar.

Takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ko'pgina tovarlarni o'z larida ishlab chiqara olmasligi ularning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishini zarur qilib qo'yadi. Ayni paytda ular sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun juda zarur bo'lgan xom ashyoni etkazib beruvchi va arzon ishchi kuchi manbai hisoblanadilar. Ma'lumki, xalqaro mehnat taqsimoti xo'jalik faoliyatining ko'pgina sohalarini o'z ichiga oladi. Avvalambor, unga rivojlanayotgan mamlakatlar bilan dunyoning boshqa mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy resurslarning oqimini ta'minlaydigan va xalqaro savdoning asosini tashkil qiluvchi xom ashyo va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish kiradi. Xalqaro savdo rivojlanaётgan mamlakatlar uchun, ayniqsa juda qashshoq mamlakatlar uchun tashqi daromadlarning ishonchli manbai hisoblanadi. Ammo, sanoati rivojlangan mamlakatlar xom ashyo talab va energiya talab ishlab chiqarishni kamaytirayotganligi tufayli tabiiy xom ashyolarning xalqaro savdodagi ahamiyati yildan-yilga pasayib bormoqda. Masalan, 1991 yilda uning dunyo eksportidagi hissasi 25 % ni tashkil qildi, xolos.

SHu bilan birgalikda rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zaro an'anaviy tovarlarni etkazishdagi hissasi o'zgarib bormoqda. Masalan, 70 yillardan 90 yillargacha bo'lgan davrda rivojlanayotgan mamlakatlar eksportining umumiy hajmida Afrikaning hissasi pasayib bordi. Osiyo mamlakatlaridan eksportning kuchayishi natijasida Afrikaning xissasi ikki barobardan ko'pga (17% dan 8% gacha) qisqardi.

Xom ashyo asosiy eksport tovari hisoblangan ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining dunyo bozoridagi ahvolining yomonlashganini oldini olish uchun qo'shimcha eksport resurslarini izlashga majburlarlar. Bunday holatda ular uchun asosiy yo'nalish bo'lib eksportning tarkibini o'zgartirish vazifasi turadi, ya'ni xom ashyoni qayta ishlash, dunyo bozoriga boshqa sanoat mahsulotlarini etkazib berish zarur bo'ladi.

An'anaviy mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirishda ko'pgina muammolar turgan bo'lishiga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy dunyo eksportidagi hissasi asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, o'sib bormoqda. Masalan bu ko'rsatkich, 1987 yilga nisbatan 1992 yilda 22 % dan 24,7 % gacha o'sdi. 1993 yilda eksportning miqdoriy hajmi ularda yana ham o'sdi, rivojlangan mamlakatlarda esa pasaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi eksporti tarkibiy o'zgarishlarga uchramoqda. Masalan, ularning eksportida sanoat mahsulotlarining hissasi 1991 yilda 57,7% gacha etdi. Dunyo sanoat mahsulotlari eksportida ham rivojlanayotgan mamlakatlar hissasi oshib bormoqda (1970 y.- 7,6 %, 1980 y.- 11,0 % va 1991 y.- 19,5 %).

Sanoat mahsulotlari eksportining o'sishida mashina va uskunalarning ahamiyati oshib bormoqda. Ularni eksport qilish 1970-1991 yilda 90 barobar oshdi. Dunyo sanoat mahsulotlari eksportida rivojlanayotgan mamlakatlar hissasining oshib borishida turli mamlakatlarning yutug'i turlicha bo'lmoqda. Masalan, 1980-1992 yillar davrida ayrim mamlakatlar o'zlarining xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokining o'sishiga xom ashyo tovarlarini etkazish hisobiga erishdilar (Eron, Kongo, Laos, Boliviya, Paragvay kabi 12 ta mamlakat). Boshqa mamlakatlar dunyo eksportidagi hissasini qayta ishlash sanoati mahsulotlarini tashqi bozorga olib chiqish hisobiga oshirdilar. O'z navbatida, bu guruh mamlakatlarining ichida ham ayrimlarining erishgan yutuqlari turlichadir. Ayniqsa, "YAngi industrial mamlakatlar" ancha ilg'ordirlar. Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarning dunyo eksportidagi hissasi juda kamdir. Ba'zi birlari esa, masalan, Afrikaning eng yirik davlati bo'lgan Nigeriya, hatto o'z sanoat eksporti hissasini kamaytirib yubordi.

Xalqaro savdo misolida rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishini ko'rib chiqqanimizdan keyin shunday xulosa qilish mumkinki, dunyo xo'jaligidagi o'zgarishlar notekis ravishda yuz bermoqda. Ba'zi bir mamlakatlar ITT yutuqlaridan keng foydalanayotgan bo'lsa, ba'zilar haligacha an'anaviy sanoat texnologiyalariga asoslangan holda ish yuritmoqdalar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rnini to'g'risida gapirganda shuni ham aytib o'tish kerakki, juda qoloq mamlakatlarni borgan sari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidan chetlashtirilib borish xavfi mavjud bo'lmoqda. 1996 yilda BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha Konferençiyasida (YUNKTAD) qilingan dokladda bu narsa qayd qilib o'tildi. Unda ko'rsatib o'tilishicha GATT ning Urugvay raundida qabul qilingan yirik savdo pakti qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishga beriladigan subsidiyalarni qisqartirishni qayd qilgan. Bu esa qoloq mamlakatlarga katta zarba berish demakdir. Subsidiyalarning kamaytirilishi bug'doy, shakar, go'sht va boshqa mahsulotlarning tannarxi oshadi demakdir. Natijada, eng qoloq mamlakatlarning umumiy yillik savdo kamomadi 2000 yilga kelib 300-600 mlrd. dollarni tashkil etishi mumkin.

Jahon savdosida xom-ashyo va oziq-ovqatning hissasi kamayib borayotganligi ularni ishlab chiqarishga ixtisoslashishni xam befoyda qilib qo'ydi. Xom ashyoga ixtisoslashish iqtisodiy o'sishga faqat qo'shimcha yordam sifatida qaralishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy tovar ayirboshlashning oddiy sanoat tovarlari va xizmatlari sohasiga ixtisoslashishi iqtisodiy o'sishga birmuncha yordam berishi mumkin. Lekin u, juda ko'p ish kuchi mehnatini talab qiladi. Xalqaro savdoning rivojlanish yunalishi shuni ko'rsatadiki, keyingi o'n yillikda turli xizmatlar ko'rsatishning xajmi va ahamiyati oshib bormoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar bu yo'nalishdan faol foydalanishlari kerak va foydalanishga o'tmoqdalar ham. Masalan, turizm va ish xizmatlari, maosh kam to'lanadigan va "qora" ishlarni bajarish uchun ishchi kuchlarini eksport qilish va boshqalar.

Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sayyohlik anchadan buyon chet el valyutasi ishlashning muhim manbalaridan biri bo'lib qolgan. Masalan, Misr uchun turizmdan tushadigan erkin konvertirlanadigan valyuta mablag'lari - ahamiyati bo'yicha chet elda vaqtincha ishlayotgan misrliklar olib keladigan

valyutadan va xorijiy yordam mablag'laridan keyin uchinchi o'rinda turadi. Keyingi yillarda Turkiyada chet el turizmi ayniqsa kuchli rivojlanishga ega bo'ldi (turizmning dunyo bo'yicha yillik o'sishi 4% bulgan holda, bu erda 8% o'sish yuz bermoqda). Turkiya, milliy iqtisodiyotining mana shu sohasi kuchli rivojlanishga ega bo'layotgan dunyoning beshta davlatidan biridir. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2005 yilga borib bu mamlakat sayyohlikdan keladigan daromadi miqdori bo'yicha dunyoda oltinchi o'ringa chiqadi. Turkiya bu sohadagi o'zining asosiy raqiblari Gretsiya va Ispaniyani sayyohlik xizmatlarining nisbatan arzonligi bilan raqobatda engib chiqmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ishchi kuchini eksport qilish hisobiga valyuta tushumlari tez sur'atda (yiliga 10 %) o'sib borayotganlardan hisoblanadi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar bu sohadan yiliga katta mablag'lar ishlab, mehnat xizmatlari ko'rsatishni eksport ixtisosligiga aylantirganlar. Ko'pincha bu valyuta tushumlarining asosiy manbai bo'lib qolgandir. 80-yillarning boshlaridan xozirgi paytgacha ishchi kuchini eksport qilish Pokiston iqtisodiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Pokiston uchun ishchilarning chet eldan yuboradigan mablag'lari bu mamlakatning tovar va xizmatlarni eksport qilishdan tushadigan mablag'laridan besh barobar ko'pdir. Misr uchun bu ko'rsatkich - 40 % ni, Marokash uchun - 50 % ni, Turkiya uchun - 60 % ni, va Hindiston uchun - 80 % ni tashkil etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida xorijiy sarmoyalarning ahamiyati. Qashshoqlikning ayanchli doirasi" dan chiqishga intilish, iqtisodietning ilgor tarmoklari rivojini rag'batlantirish, umuman iqtisodiyotning hamma sohalari faoliyatini jadallashtirish maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarni chet el kapitalini faol ravishda jalb qilishga undaydi. SHu maqsadda investitiya muhiti yanada takomillash-tirilib, zarur infrastruktura yaratildi, chet el tadbirkorlik kapitali uchun imtiyozli sharoitlar yaratilgan maxsus iqtisodiy zonalar tashkil qilindi. Natijada, bu ishlar o'z samarasini ko'rsatib, 1992 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritilgan bevosita investitiyalar 51,5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu esa, 80-yillardagi o'rtacha yillik darajadan ikki barobar ortiqdir. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotiga kirib kelgan xususiy kapital 1994 yilda eng yuqori ko'rsatkich 173 mlrd. dollarga etdi. Uning tarkibini ko'radigan bo'lsak, 1990-1993 yillarda portfel investitiyalari 45,7 dan 55,5 mlrd. dollargacha, bevosita investitiyalar 66,6 dan 77,9 mlrd. dollargacha oshdi. SHuni ham aytib o'tish kerakki, rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zlari chet elga eksport qilgan kapital 1993 yilda 14 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Amerika konsalting firmasi "Ernest va YAng" ning fikriga ko'ra, yaqin kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlar ichida kapital kiritishga eng qulay mamlakatlar sifatida Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Meksika va Braziliya bo'lib qoladi. Xususiy kapital albatta, tez rivojlanayotgan, kelajagiga ishonch bo'lgan iqtisodiyotga kiritiladi. Xususiy investitiyalarning 80 % i rivojlanayotgan mamlakatlardan atigi 20 % iga olib kiriladi, ular ham asosan, SHarqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlaridir. Qoloq iqtisodiyotli, kam rivojlangan va ayniqsa, siyosiy jihatdan barqaror bo'lmagan mamlakatlar ilg'or rivojlangan mamlakatlar tadbirkorlarini o'ziga jalb qila olmaydilar. Bu mamlakatlarda davlat tomonidan

iqtisodiyotga mablag' ajratish ham kamayib bormoqda. Xususiyl kapitalni o'ziga jalb qila olmaydigan mamlakatlarga boshqa davlatlarning hukumat miqyosidagi yordami ham 90 yillarning o'rtalariga kelib kamaya boshladi.

Xalqaro valyuta fondi mutaxassislarining ma'lumotiga qaraganda, 1994 yilda hukumat yo'nalishidagi rasmiy yordam uchun butun dunyo bo'yicha 59 mlrd. dollar ajratilgan. Bu ko'rsatkich, 1990 yilgi eng yuqori kursatkichdan 12 mlrd. dollarga kamdir. SHu jumladan, dunening eng ilg'or 24 ta mamlakatini o'ziga jamlagan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan beriladigan yordam bu mamlakatlar yalpi milliy mahsulotining atigi 0,3 % ini tashkil etadi, xolos.

SHuni ham ta'kidlash kerakki, Afrika mamlakatlariga ajratiladigan yordamning yarmidan ko'pi G'arb mamlakatlarining o'ziga qarz foizi sifatida qaytariladi. Natijada, Afrikaning Sahroi Kabiridan janubida joylashgan mamlakatlari qarzi 90 yillarning o'rtalariga kelib 211 mlrd. dollarga etdi, bu esa shu mamlakatlarning eksportdan oladigan daromadlaridan ikki barobar ko'pdir. Afrika qit'asi bo'yicha umumiy qarz 313 mlrd. dollarni tashkil etadi.

1994 yilning oxiriga kelib, eng katta qarz Meksikada - 125 mlrd. doll. va Xitoyda - 111 mlrd. dollar bo'ldi. Xozirgi kunda Braziliya, Rossiya va Argentina kabi mamlakatlarning karzi xam juda katta mikdorga etgan. Osiyo mamlakatlari - Tailand Janubiy, Koreya, Indoneziya, Hindiston, Filippin kabi mamlakatlarning qarzi xam tez o'sib bordi. Butun Osiyo mamlakatlarining umumiy qarzi 1,7 trln. dollarga etdi.

Tashqi qarzlarni ko'payishi, hal etish muammolari. Lotin Amerikasi mamlakatlarida ancha katta sur'atlarga ega bulib, ular tashqi qarzning aholi jon boshiga taqsimlanishi bo'yicha (1000 dollardan) boshqa qit'alardan ancha oldinda hisoblanadi (Osiyoda 250 doll.). Rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzi asosan xususiyl kapitalarning kiritilishidan yig'ilib qolmoqda. Qarz beruvchi mamlakatlar ichida birinchi o'rinni Yaponiya egallaydi. Uning rivojlanayotgan mamlakatlarga va birinchi navbatda Osiyo mamlakatlariga bergan jami kreditlari 236 mlrd. doll.ga etdi. Keyingi o'rinda AQSH bormoqda 147 mlrd. doll. (AQSH yalpi milliy mahsulotining 0,15 % iga teng). Uning bergan qarzlarining yarmi Lotin Amerikasi mamlakatlariga tug'ri keladi.

Uchinchi o'rin Germaniyada bo'lib, uning bergan qarzlari 106 mlrd. dollarga tengdir. Franziyaniki undan sal kamroq bo'lib (103 mlrd. doll.), asosan Afrika va Osiyo mamlakatlariga berilgandir.

Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzlarini to'lash imkoniyatlari bo'lmaganligi uchun, ular qarzlarini kechishni talab qilib chiqadilar. Ba'zi bir hisob-kitoblarga ko'ra, 2000 yilga borib Afrikaning va boshqa juda qashshoq mamlakatlarning 75-100 % qarzlaridan kechiladi, chunki ularning iqtisodiy ahvoli boshqacha yo'l tutib bo'lmasligini ko'rsatib turibdi.

YUqorida aytib o'tganimizdek, xalqaro mehnat taqsimotining yangi ko'rinishi asosan transmilliy korporatsiyalar tomonidan shakllantiriladi. Aynan shular, rivojlanayotgan mamlakatlarni o'z manfaatlarni amalga oshirish uchun tanlab, ularda o'z ishlab chiqarishlarini joylashtiradilar, chunki bu iqtisodiy va texnologik jihatdan juda foydalidir.

Transmilliy korporatsiyalar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi munosabat 80-yillardan boshlab yaxshilana boshladi. Bunga ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan bevosita chet el investitsiyalarini kiritish borasida o'z qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritishlari sabab bo'ldi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, transmilliy korporatsiyalar "uchinchi dunyo" mamlakatlarining rivojiga katta hissa qo'shmoqdalar. Bu qo'yidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga (to'kimachilik, tikuvchilik, elektron sanoati) ishlab chiqarish texnologiyalarini kiritishda TMK lar kapital mablag'ini investitsiya qilishda ham, investitsiya tovarlari yoki texnologiyalarini olib kirishda ham muhim o'rin tutadilar;

rivojlanayotgan mamlakatlarning xom ashyo eksport qiluvchidan tayyor mahsulot eksportchisiga aylanishida ham TMK lar katta yordam bermoqdalar. Ularning iqtisodiyot tarkibiga bunday o'zgartirish kiritishdagi yordami bevosita investitsiya sifatida moliyaviy mablag'larni olib kiritishiga nisbatan ancha muhimdir;

TMK lar yangi texnologiya va uslublarning kirib kelishini kuchaytiradilar. Texnologik yangiliklar asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarda jamlangandir, lekin keyingi o'n yilliklarda ular boshqa mamlakatlarga, ayniqsa, yangi industrial mamlakatlarga ko'chib o'tmoqda. Texnologiyalarni kiritish bilan kutilmaganda atrof muxitga salbiy ta'sir ham kuzatilishi mumkin. Transmilliy korporatsiyalar filiallarining faoliyati joylashgan mamlakatlar tabiatiga, va binobarin, aholisi turmush sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun xam rivojlanayotgan mamlakatlarda o'z korxonalarining ham, chet el korxonalarining ham faoliyati ustidan ekologik nazoratni kuchaytiradigan qonunlar qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi;

TMK lar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining ish bilan bandligini yaxshilaydi. Lekin, shuni ham aytib o'tish kerakki, bevosita investitsiyalar natijasida ochiladigan ish o'rinlari faqat 1 % ni tashkil qiladi, xolos.

Xalqaro tashkilotlar rivojlanayotgan mamlakatlarga TMK lardan texnik yordam olishlarini maslahat beradilar. O'z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlari TMK larni o'z iqtisodiyotiga jalb qilish uchun intiladilar. Mana bir misol.

Amerikaning "Jeneral motorz" kompaniyasi o'zining Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari bozoridagi hissasini 10 % gacha etkazishga harakat qiladi. SHu maqsadda kompaniya Filippin yoki Tailandda 1 mlrd. qiymatga tushadigan mashina va ehtiyot qismlari ishlab chiqaradigan zavod qurish niyatidadir. Mutaxassislarning fikricha bu zavodni o'ziga jalb qilishda Tailandning imkoniyatlari kattadir, chunki bu mamlakatda avtomobil bozori kuchli taraqqiy etgan. Ammo, Filippin "Jeneral motorz" kompaniyasini o'ziga jalb qilish uchun tashabbus ko'rsatib, soliq va bojxona imtiyozlari yaratib berishga qaror qiladi. Dunyo xo'jaligining va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ob'ektiv qonunlariga bo'ysungan holda rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi maqsadlari bilan TMK lar manfaatlarini muvofiq holga keltirishga intiladilar.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarida rivojlanayotgan mamlakatlar o'рни. O'zbekistonning rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy

aloqalari yildan-yilga kuchayib bormoqda. Ularning ichida ayniqsa, Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari: Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya, Tailand, Indoneziya, Turkiya kabi mamlakatlar bilan aloqalar e'tiborga sazovordir. Osiyoning "yangi industrial mamlakatlari"dan biri bo'lgan Janubiy Koreya bilan O'zbekistonning iqtisodiy hamkorligi ayniqsa juda taraqqiy etgandir.

Bu ikki mamlakat o'rtasida 16 ta davlatlararo va xukumatlararo shartnomalar tuzilgan. Janubiy Koreya bilan respublikamizning savdo oboroti 2000 yilda 570 mln. dollardan oshik buldi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki O'zbekiston Respublikasi uchun Koreya respublikasining eng yirik banklaridan "Koreya Ekscheynj", "Xanil bank", "Koreya eksim banki", "Koreya tijorat banki", "Koreya Fyorst bank", bilan vakillik munosabatlarini o'rnatdi. O'zbekistonda 6 ta koreys kompaniyasi "DEU Korpopeyshn", "Samsung Korpopeyshn", "Kabul Tekstaylz", "DEU Xavi Indastriz", "DEU Telekom LTD" vakolatxonalari va "Dai Sung" gospital birlashmasining vakolatxonasi joylashgan.

Xozirgi kunda 200 dan oshik O'zbekiston Koreya qo'shma korxonalari ro'yxatga olingan. Ular quyidagi sohalarda faoliyat ko'rsatadilar: - qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash; - xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish; - paxta chiqindilarini qayta ishlash; - radioelektron mahsulotlari ishlab chiqarish; - engil avtomobil va ularning butlovchi qismlarini sotish: - UZ DEU avto (Neksiya va Tiko avtomobillari, Damas mikroavtobuslari ishlab chiqarish) va UZDEU elektroniks (rangli televizorlar, videomagnitofonlar, dazmollar ishlab chiqarish) eng katta qo'shma korxonalar bo'lib qoldi.

8.3. Mamlakatlarning asosiy guruhleri

Rivojlanayotgan mamlakatlarni guruhlariga ajratishning bir necha klassifikatsiyasi mavjud. BMT tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi klassifikatsiyaga muvofiq, ular uch guruhga ajratiladi:

- birinchi guruhga eng kambag'al 44 ta mamlakat kiritiladi;
- ikkinchi guruhga neft eksport qiluvchilardan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlarning 88 tasi kiritiladi;
- uchinchi guruhga 14 ta neft qazib oladigan va eksport qiladigan OPEK a'zolari bo'lgan mamlakatlar kiritiladi.

Jami 146 ta mamlakat.

Keyingi klassifikatsiya BMTning rivojlanish Dasturi – UNDP tomonidan ishlab chiqilgan. Bunda asosiy e'tibor "inson rivojlanishi" ko'rsatkichlariga qaratilgan bo'lib, ular faqat daraomadlarga nisbatan kengroqdir va o'z ichiga aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardan tashqari, iqtisodiy bo'lmagan ko'rsatkichlarni, ya'ni kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davri va ta'lim sohasidagi yutuqlarni qamrab oladi.

Binobarin, inson rivojlanishi Indeksi hisoblab chiqiladi, unga ko'ra 174 ta mamlakat uch guruhga ajratiladi

- "yuqori inson rivojlanishi" ga ega 64 ta mamlakat, unga rivojlangan mamlakatlarning kamroq rivojlanganlari ham kiritiladi;
- "o'rtacha inson rivojlanishi" ga ega 65 ta mamlakat;

- “past inson rivojlanishi” ga ega 45 ta mamlakat.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) tomonidan taklif qilingan klassifikatsiyaga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlar (jami 158 ta) to'rtta guruhga ajratiladi:

- aholi jon boshiga daromadlar past bo'lgan 61 ta mamlakat (650 AQSH dollaridan kam, bular safiga eng past rivojlangan 29 ta mamlakat ham kiritilgan);
- aholi jon boshiga daromadlar o'rtacha bo'lgan 73 ta mamlakat;
- yangi sanoatlashgan 11 ta mamlakat;
- OPEK a'zolari bo'lgan – 13 ta mamlakat.

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiya (1997 yil) bo'yicha aholisi bir million kishidan oshiq bo'lgan 133 ta mamlakat (rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) jon boshiga to'g'ri keladigan daromad darajasi mezoniga ko'ra to'rtta guruhga ajratilgan:

- past daromad darajasiga ega mamlakatlar (aholi jon boshiga YAIM – 750 AQSH dollaridan kam);
- o'rtacha daromad darajasiga ega mamlakatlar (aholi jon boshiga YAIM – 786 dan 3125 AQSH dollarigacha);
- o'rtachadan yuqori daromad darajasiga ega mamlakatlar (aholi jon boshiga YAIM – 3126 dan 9655 AQSH dollarigacha);
- yuqori daromad darajasiga ega mamlakatlar (aholi jon boshiga YAIM – 9655 AQSH dollaridan yuqori).

Birinchi uch guruh 107 ta asosan rivojlanayotgan mamlakatlar kiritilgan. Qolgan 26 ta mamlakat o'z navbatida ikki guruhga ajratiladi: 24 tasi eng rivojlangan mamlakatlar va ikkitasi (Quvayt va Birlashgan Arab Amirligi) BMT tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga qo'shilgan.

Va, nihoyat, UNCTAD (BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha komissiyasi) uslubiyatiga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlar bir necha darajalar (kategoriyalar) bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Avvalambor, asosiy neft eksport qiluvchi mamlakatlar (20 ta) va boshqa mamlakatlarga ajratiladi. Ular o'z navbatida ikki kategoriyaga ajratiladi: asosiy sanoat mahsulotlari eksportchilari (12 ta) va qolgan mamlakatlar (154ta), ular asosiy geografik hududlar bo'yicha taqsimlanadi.

Bundan tashqari, UNCTAD uslubiyatiga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlar qo'shimcha ravishda yana uch guruhga ajratiladi:

- dengizga chiqish yo'li bo'lmagan mamlakatlar – 30 ta;
- kam rivojlangan mamlakatlar – 49 ta;
- katta qarzlarga ega bo'lgan kambag'al mamlakatlar – 41 ta.

7.3.1 Jadval

Dunyo mamlakatlari guruhlariga bo'yicha demografik ko'rsatkichlar

*darajasi (xar bir
ayolga to'g'ri
keladigan tug'ish)*

Inson rivojlanishi to'g'risida doklad. UNDP. 2010.

8.4. "YAngi sanoatlashgan mamlakatlar"ning umumiy tavsifi

XX asrning 60-80 yillari rivojlanayotgan mamlakatlar tarkibidagi katta o'zgarishlar (ular orasidan "yangi industrial mamlakatlar" nomi bilan ataladigan davlatlar ajralib chiqdi) bilan birgalikda, "yangi sanoatlashgan mamlakatlarning" (YAIM) o'zlarining iqtisodiyotida, ijtimoiy-iqtisodiy tarkibida ham anchagina o'zgarishlar yuz bergan davr bo'ldi. "YAngi sanoatlashgan mamlakatlar" o'zlarining ko'pchilik xususiyatlari bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy qismidan ajralib turadi. YAIM ning o'zlari ajralib chiqqan rivojlanayotgan mamlakatlardan, hamda ularning ba'zi birlari tarkibiga kirishga yaqinlashib qolgan rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan farq qiladigan belgilari ular to'g'risida rivojlanishning alohida "YAngi sanoatlashgan" modeli paydo bo'lganligini qayd etish kerakligini ko'rsatdi. Bunday o'ziga xos xususiyatlar Lotin Amerikasi va Osiyoning YAIM rivojlanish tajribasini taxlil qilganimizda yaqqol namoyon bo'ladi. Lotin Amerikasi YAIM ning rivojlanish tajribasining ahamiyatini kamsitmagan holda aytib o'tish kerak-ki, Osiyoning YAIM, aynan: Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur mamlakatlari ko'pchilik mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlar uchun iqtisodietni yuqori sur'atlarda o'stirish jihatidan ham, tashqi iqtisodiy munosabatlarni olib borish jihatidan rivojlanish namunasi bo'lib qoldilar. Qabul qilingan qoida bo'yicha, "yangi sanoatlashgan mamlakatlar"ga Osiyoning 4 ta "kichik ajdarxo" si, ya'ni yuqorida aytib o'tilgan Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong hamda Lotin Amerikasining Argentina, Braziliya, Meksika davlatlari kiritiladi. Bu mamlakatlar xammasi "YAngi sanoatlashgan mamlakatlarning" birinchi avlodlari deb yuritiladilar.

Ulardan so'ng keyingi avlod "yangi sanoatlashgan mamlakatlari" chiqib keldilar. SHunday qilib, ikkinchi avlod mamlakatlariga - Malayziya, Tailand, Hindiston, CHili; uchinchi avlod mamlakatlariga Kipr, Tunis, Turkiya, Indoneziya; to'rtinchi avlod mamlakatlariga Filippin, Xitoyning janubiy viloyatlari va boshqalar etishib chiqdilar. Natijada, o'z ta'sirini atrofdagi mintaqalarga o'tkazadigan "yangi sanoatlashganlikning butun zonolari, iqtisodiy o'sish qutblari paydo bo'ldi.

BMT ning ishlab chiqqan uslubi bo'yicha "yangi sanoatlashgan mamlakatlar" qatoriga kiritishning mezonlari quyidagilardir:

aholi jon boshiga yalpi ichki maxsulotnig to'g'ri kelishi;
o'rtacha yillik o'sish sur'atlari;
yalpi ichki mahsulotida qayta ishlash sanoatining hissasi. U 20 %
dan kam bo'lmasligi kerak;

sanoat mahsulotlarini eksport qilishning hajmi va uning chetga mahsulot chiqarishdagi hissasi;

chetga bevosita investitsiyalar chiqarish hajmi;

Mana shu ko'rsatkichlar bo'yicha "yangi sanoatlashgan mamlakatlar" nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar ichida ajralib turadi, balki ko'pincha qator sanoati rivojlangan mamlakatlarning shunday ko'rsatkichlarini ham orqada qoldiradi. Masalan, Taivan 1952 yildan 1993 yilgacha bo'lgan davrda yalpi ichki mahsulot hajmini 170 marta, tashqi savdo hajmini 535 marta oshirdi (aholisi bu davrda bor-yo'g'i 2,5 barobarga ko'paydi).

Iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'atlari 8,7 % ni, inflyatsiya darajasi juda past darajada - 3,6 % ni tashkil etdi. Ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha Taivan dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoridan o'rin oldi. Jon boshiga yalpi milliy mahsulot 12 ming dollardan (90-yillarning o'rtalari) to'g'ri keladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, Osiyo mintaqasining 30 yil davomidagi (1960-1990 yy.) iqtisodiy rivojlanish sur'atlari yiliga 5 % dan to'g'ri kelgan bo'lsa, bu davrda Evropa mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich -2 % ni tashkil qildi. 90-yillarda Taivandan tashqari yuqori o'sish sur'atlariga Janubiy Koreya- 8 % ni, Singapur- 8 % atrofida, Malayziya- 9 % dan oshiq darajaga ega bo'ldilar.

Jadval 15.1.1.

Osiyoning "yangi sanoatlashgan mamlakatlarida" yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari (% larda)

Mamlakatlar "	1980- 1990 y.da urtacha	1991 y.	1992 y.	1993 y.	1994 y.
Janubiy Koreya	9,9	8,3	7,3	6,4	7,6
Taivan	8,3	7,3	6,7	6,7	6,9
Gonkong	7,1	4,0	5,8	5,8	5,5
Singapur	6,3	7,0	6,1	6,1	6,1
Malayziya	5,1	8,6	8,5	8,5	7,7

YAngi sanoatlashgan mamlakatlarda" iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlari aholi turmush farovonligining o'sishiga ham olib keldi. 60 yillardan 90 yillarning boshigacha bu mamlakatlarda aholi jon boshiga yillik daromadlarning o'sishi 4 martadan oshdi. Jahon eksportlarining hisob-kitoblariga ko'ra, SHarqiy Osiyo yalpi milliy mahsulotining hajmi bo'yicha 2010 yilga borib G'arbiy Evropadan, 2020 yilga borib esa SHimoliy Amerikadan o'zib ketadi. Singapur to'g'risida alohida to'xtalish lozim, chunki u 1995 yilda Janubiy-SHarqiy

mamlakatlari ichida birinchi bo'lib " sanoatlashgan rivojlangan" maqomini oldi. Bunday daraja unga dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari yig'ilgan iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish nish tashkiloti tomonidan berilgan. O'ttiz yillik barqaror iqtisodiy o'sish bu, uncha katta bo'lgan port mamlakatni dunyo eng boy davlatlari (aholi jon boshiga yalpi milliy mahsulotning to'g'ri kelishi bo'yicha) qatoriga qo'shdi. Siyosiy barqarorlik sharoitida mamlakatning sanoati juda tez sur'atlar bilan (yiliga 8,4) o'sdi, mamlakat aholisining har biri o'z turmush darajasini 7 barobarga oshirdi. Singapurning har bir aholisi 1995 yilda 22,3 ming dollar yillik daromadga ega bo'ldi. Bu esa, oldin o'zi qaram-mustamlakasi bo'lgan Buyuk Britaniyanikidan ham yuqoridir. Jumladan, 1997 yil 1 iyuldan Xitoyning tarkibiga qayta qo'shilgan Gonkong ham Buyuk Britaniyaning mustamlakasi bo'lib, 90 yillarning o'rtalariga kelib ko'pgina ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha undan o'zib ketdi.

"YAngi sanoatlashgan mamlakatlarning" muvaffakiyatli o'sishga olib kelgan iqtisodiy modeli shov-shuvga olib kelgan yutug'ining ichki va tashqi omillarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xaqiqatda bu omillar har bir YAIM xukumatlarining oqilona olib borgan iqtisodiy siyosati natijasidir. YAngi sanoatlashgan mamlakatlar xo'jalik yuritishning ichki mexanizmlarini enlab o'tib, bu YAIM tashqi iqtisodiy omillarining xususiyatlarini va uning Osiyo "ajdarxolari" hamda Lotin Amerikasi YAIM ning muvaffaqiyatlaridagi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakat xalqaro iqtisodiy hamkorlikka qo'shilishini chet el investitsiyalarini jalb qilishdan va tashqi savdoni rag'batlantirishdan boshlaydi. Bunda hamma mamlakatlar o'z iqtisodiyoti tarkibini qayta ko'rishning hamma bosqichlarini, ya'ni xom ashyodan tortib ilm talab ishlab chiqarishga bosib o'tadilar. Xalqaro mehnat taqsimoti nuqtai nazaridan eng samarali va kelajagi porloq bo'lgan tarmoqlarni yangi texnologiyalar bilan ta'minlashni eksportdan tushadigan daromadlar hisobiga amalga oshiradilar.

AQSH, Germaniya, YAponiya ham mana shu yo'li bosib o'tdilar. Masalan, AQSH xom ashe, bug'doy, paxta, mis, ko'mir va boshqalarni eksport qilishdan boshladi. GFR - 1950 yillarda ko'mir, qora metallar, ximiya mahsulotlarini, YAponiya metall, kimyo, to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilish bilan bu ishni amalga oshirdilar. SHarqiy Osiyo va Lotin Amerikasining "yangi sanoatlashgan mamlakatlari" 60 yillarda mana shu yo'ldan boshladilar. Ularning hammasi iqtisodiy o'sishning tashqi manbalaridan samarali foydalandilar.

Bunga, dastavval, sanoat rivojlangan mamlakatlaridan chet el kapitalini texnika va texnologiyalarini keng jalb qilinganligini ko'rsatib o'tish kerak.

"YAngi sanoatlashgan mamlakatlarning" boshqa rivojlanaetgan mamlakatlardan farq qilib turadigan tomoni nimada?

Ba'zi bir YAIM qator sabablarga ko'ra sanoati rivojlangan mamlakatlarning siesiy va iqtisodiy manfaatlari doirasiga kirib qoldilar. Masalan, AQSH ning siyosiy manfaatlari Osiyoga "kommunistik g'oyalarning" tarqalishiga qarshi turadigan mamlakatlar sifatida Janubiy Koreya va Taivanga qaratildi. Bu mamlakatlarga juda katta iqtisodiy va harbiy yordam ko'rsatildi. Masalan, Taivanga 1,5 mlrd. dollarlik yordam ko'rsatildi. Taivanga ko'rsatilgan yordamlardan infrastruktura uchun ishlatilganining 74 %, qishloq xo'jaligiga kiritilganining 59 %

va sanoat uchun investitsiyalarning 13 % AQSH dan olindi. Bularning hammasi Taivan iqtisodietining dastlabki rivojlanishida muhim o'rin tutdi. "YAngi sanoatlashgan mamlakatlar" iqtisodietining hozirgi tarkibi shakllanishida bevosita investitsiyalarning ta'siri katta bo'ldi.

YAIM ning iqtisodietida 80 yillarda kiritilgan bevosita investitsiyalar butun rivojlanayotgan mamlakatlarga qo'yilgan kapitallarning 42 % ini tashkil etdi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar ichida YAIM ga investitsiya kiritish bo'yicha AQSH asosiy investor hisoblanadi. AQSH ning chetga chiqariladigan investitsiyalarining 10 % i mana shu mamlakatlarga to'g'ri keladi. YAIM ga investitsiya kiritish bo'yicha ikkinchi o'rinda Yaponiya turadi.

Yapon investitsiyalari YAIM ning sanoatlashuviga va ular eksportining raqobatdoshligi oshishiga yordam berdi. Bu investitsiyalar YAIM ni qayta ishlash sanoati mahsulotlarining yirik eksportchisiga aylantirdi. Faqat 1982-1985 yy.ning o'zidagina bunday investitsiyalar Taivanda 2 barobardan kup, Gonkongda 61 % ga tushdi. SHu vaqt ichida yapon kapitalining ishtirokida yirik ishlab chiqarish bazasi yuzaga keltirilib, bu mamlakatlarni yuqori sifatli mahsulotlar eksportchisi sifatida tanitdi. Janubiy Koreyada yapon investitsiyalari xorijiy investitsiyalarning yarmidan ko'p tashkil qilib, stanoklar, elektro - texnika jixozlari, dengiz kemalari va shu kabi maxsulotlarni ishlab chiqaradigan kompleks barpo etildi.

Osiyoning "yangi sanoatlashgan mamlakatlari" uchun shu narsa o'ziga xos bo'ldiki, bularda tadbirkorlik kapitali asosan qayta ishlash sanoatiga va xom ashyo tarmoqlariga jalb qilindi. Lotin Amerikasining YAIM ida esa u savdoga, xizmat ko'rsatish sohasiga va qayta ishlash sanoatiga yo'naltirildi. CHet el kapitalidan keng foydalanish shunga olib keldiki, YAIM da xorijiy kapital kiritilmagan bitta ham tarmoq qolmadi.

Ko'rinib turibdiki, Osiyo YAIM iga kiritilgan kapitallarning daromad keltirishi Lotin Amerikasidan kuchli bo'lgan. Nima uchun Osiyoning ba'zi mintaqalariga chet el kapitalini kiritish juda faol ravishda yuz bergan?

Jadval 8.1.2.

Lotin Amerikasi va Osiyo YAIM iga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligi (foizlarda)

Argentina	58,0
Braziliya	83,5
Mesika	39,9
CHili	38,9
Indoneziya	78,7
Janubiy Koreya	26,0
Taivan	104,0
Tailand	121,3
Filippin	165,2

Dunyo xo'jaligining 60 yillar oxiridagi rivojlanishida shunday holat yuz berdiki, bunda transmilliy korporatsiyalarning manfaatlari va rivojlanish strategiyasi qator Osiyo davlatlarining imkoniyatlari va intilishlariga muvofiq qoldi. Transmilliy korporatsiyalar rivojlanaётgan mamlakatlarda importning cheklanganligi va to'lov qobiliyatining pastligini hisobga olib, istiqbolli bozorlarni yo'qotmaslik uchun tovar eksporti o'rniga kapital kiritib o'sha erning o'zida ishlab chiqarishni tashkil qilishga o'tdilar.

Transmilliy korporatsiyalarni bunday xarakat qilishga rivojlangan mamlakatlar bozorlarining to'liq egallanganligi, raqobatning kuchayishi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun kurash majbur qildi. O'zlari ishlab chiqarishni tashkil qilgan joylarida transmilliy korporatsiyalar ilm talab mahsulotlarni yaratishga harakat qiladilar. Ayni paytda, "osie ajdarxolari" jaxon xo'jaligidagi bunday o'zgarishlarga va undan o'z manfaatlarida foydalanishga tayer ekanligini namoyish qildilar.

Transmilliy korporatsiyalarning aynan Osiyo mintaqasiga jalb qilinishida quyidagi holatlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

4. "YAngi sanoatlashgan mamlakatlarning" qulay geografik o'ri. Ularning hammasi dunyoning savdo va iqtisodiy yo'llari kesishgan joyda, hamda dunyo xo'jaligining markazlari - AQSH va Yaponiyaga yaqin joylashganlar.

5. Deyarli hamma "yangi sanoatlashgan mamlakatlarda" rivojlangan mamlakatlar siyosatini qo'llab quvvatlaydigan xokimiyat rahbarlik qiladi. Ularda siyosiy barqarorlik ta'minlangan bo'lib, demokratik va siyosiy qayta qurishlar iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishga yo'naltirilgandir.

6. Osiyo "YAngi sanoatlashgan mamlakatlari" aholisining mehnatsevarligi, intizomligi, tejamkorligi kabi iqtisodiy bo'lmagan omillar ham muhim o'rin tutdi.

"YAngi sanoatlashgan mamlakatlarning" O'zbekiston bilan iqtisodiy aloqalari ham kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, Janubiy Koreya bilan O'zbekiston iqtisodiy munosabatlarini alohida ko'rib o'tish lozim.

Koreya Respublikasi. O'zbekiston bilan Koreya Respublikasi o'rtasida 16 ta davlatlararo va xukumatlararo xujjatlar imzolangan. Koreya bilan savdo 1994 yilda tovar oboroti bo'yicha 66.5 mln.dol. (40.1 mln. eksport, 26.4 mln. import), 1995 yilda tovar oboroti 576.4 mln.dol.(146.8 mln eksport, 429.6 mln import). Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki O'zbekiston Respublikasi uchun Koreya Respublikasining eng yirik banklari, "Koreya Ekscheynj Bank", "Xavil Bank", "Koreya eksimbanki", Koreya tijorat banki", "Koreya Feret Bank" bilan vakillik munosabatlarini o'rnatdi. O'zbekistonda 6 ta koreys kompaniyasi "DEU Korporeyshn", "Samsung Korporeyshn", "Kebul Tekstaylz", DEU Xavn Indestriz", "DEU Telekom LTD" vakolatxonasidan va "Dam Sung" gospital birlashmasining vakolatxonasi joylashgan. 45 ta O'zbekiston Koreya qo'shma korxonalari ro'yxatga olingan. Ular quyidagi sohalarda faoliyat ko'rsatadilar: - qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash; xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish; paxta chiqindilarini qayta ishlash; radioelektron mahsulotlarini ishlab chiqarish; engil avtomobillar va ularning butlovchi qismlarini sotish. "UzDEU avto" (Neksiya va Tiko avtomobillari, Damas mikroavtobuslari ishlab chiqarish) va "UzDEU

elektroniks" (rangli televizorlar, videomagnitofonlar, dazmollar ishlab chiqarish) eng katta qo'shma korxonalar bo'lib qoldi.

Savol va topshiriklar:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning guruhleri o'rtasidagi farqlarni aytib bering?
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Xalqaro mehnat taqsimotida rivojlanayotgan mamlakatlar qanday o'rin tutadi?
4. Dunyo sanoat mahsulotlari eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning hissasi qanday?
5. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida sayyohlik xizmati qanday o'ringa ega bo'lmoqda?
6. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi qarzdorlik muammosini aytib bering?
7. Transmilliy korporatsiyalar bilan rivojlanaётgan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntiring?
8. "YAngi sanoatlashgan davlatlarni" avlodlari tartibi bo'yicha sanab bering?
9. YAID qatoriga kiritishning mezonlarini aytib bering?
10. Bevosita investitsiyalarning YAID iqtisodiyotiga ko'rsatgan ta'sirini izohlab bering?
11. Transmilliy korporatsiyalarning YAID iqtisodiyoti rivojlani-shida tutgan o'rnini aytib bering?
12. Osiyo va Lotin Amerikasi YAID modellarining farqi nimada?
13. Osiyo YAID tajribasining mohiyati nimada?
14. YAID ning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rne?

Asosiy tushunchalar va atamalar:

Rivojlanayotgan mamlakatlar; Rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy belgilari; Ko'p ukkladli iqtisodiyot; Qoloq kapitalizmning mavjudligi; Iqtisodiyotning an'anaviy sektori; Iqtisodiyotning qoloqligi; Rivojlangan mamlakatlarga qaramligi; Ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishda davlatning o'rne; Rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimotida; Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida chet el kapitalining o'rne; Rivojlanayotgan mamlakatlarni guruhlarga ajratish; Aholi jon boshiga yuqori daromadga ega bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar; Aholi jon boshiga o'rtacha daromadga ega bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar; Neft eksport qiluvchi mamlakatlar guruhi; Kambag'al rivojlanayotgan mamlakatlar; Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar; Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rne; Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro kapital xarakatidagi ishtiroki; Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy strategiyasi; Iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari; YAngi sanoatlashgan mamlakatlar (YASM); YAngi sanoatlashgan mamlakatlar avlodlari; YASM

rivojlanish yo'nalishlari; YASM rivojlanishining siyosiy omillari; YASM rivojlanishida yapon investitsiyalarining o'rni; YASM rivojlanishida tadbirkorlik kapitalining ishtiroki; Transmilliy korporatsiyalarning YASM rivojlanishiga ta'siri YASMning rivojlanish modellari; Import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish; Eksport yo'nalishli iqtisodiyotni rivojlantirish; Osiyo YASMning tajribasi; YASMning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni; YASMning kapital chiqarishi; YASM iqtisodiyotining raqobatbardoshligi; YASMDa mehnat unumdorligi yuqori darajasining omillari; YASMDa ish haqi darajasi; YASMDa fan texnika taraqqiyoti;

9-Mavzu: Xalqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari

9.1. Milliy va mintaqaviy valyutalar tizimidagi asosiy qonun-qoidalar.

9.2. Valyuta bozorlari, ularning funktsiyalari, ko'rinishlari.

9.3. Valyuta operatsiyalari, ularning ko'rinishi.

9.4. Xalqaro kredit munosabatlari.

9.5. Xalqaro moliyaviy kredit tashkilotlar.

9.1. Milliy va mintaqaviy valyutalar tizimidagi asosiy qonun-qoidalar

XX asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodiy, moliyaviy va valyuta munosabatlari yanada kuchli rivojlanish bosqichiga o'tdi. Ochiq iqtisodiyotni barpo qilishning umumiy yo'nalishi savdo-sotiqni jadallashtirishga, xalqaro moliya tizimining rivojiga, yangi valyuta bozorlarining paydo bo'lishiga, turli mamlakatlar o'rtasida moliya-valyuta munosabatlarining kengayishiga olib keldi.

Valyuta munosabatlari jahon puli sifatida pullarning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarning yig'indisidir. Pullar, jahon puli sifatida tashqi savdo va xizmatlarga, kapitalning ko'chib yurishiga, foydaning investitsiyalarga sarf qilinishiga, qarz va subsidiyalarning berilishiga, fan-texnika aloqalariga, sayyohlik, davlat va xususiy pul o'tkazishlarga xizmat ko'rsatadi.

Valyuta munosabatlari mamlakat ichida va xalqaro miqyosda olib boriladi. Mamlakat ichida milliy valyuta tizimini (MVT) o'z ichiga qamrab oladi. Milliy valyuta tizimi mamlakat qonunchiligi bilan belgilanadigan valyuta munosabatlarini tashkil qilish shaklidir. MVT ning mohiyati muayyan bir mamlakat iqtisodiyoti rivoji va xususiyatlari, hamda tashqi iqtisodiy aloqalari bilan ifodalanadi.

Milliy valyuta tizimi quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

- ◆ milliy valyuta birligi bilan;
- ◆ rasmiy oltin-valyuta zaxiralari tarkibi bilan;
- ◆ milliy valyuta pariteti va valyuta kursini shakllantirish mexanizmi bilan;
- ◆ valyutani ishlatish shartlari bilan;
- ◆ valyuta cheklovlarning mavjudligi yoki yo'qligi bilan;
- ◆ mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy hisob-kitoblarni olib borish tartib qoidalari bilan.

Milliy valyuta tizimlarini bir-biri bilan valyuta kursi va pariteti bog'lab turadi. Valyuta kursi deganda, ayrim mamlakatlar valyutalari o'rtasidagi munosabatga yoki bir mamlakat valyutasining narxini boshqa mamlakat valyutasi bilan aniqlashga tushunamiz.

Paritet deganda, valyutalarning oltin bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqib yuritiladigan munosabatlar tushuniladi. Valyutalar kursining asosida mana shu paritet etadi. Lekin valyutalarning kursi hech qachon paritet bilan teng bo'lmaydi.

Xalqaro valyuta tizimi (XVT) dunyo xo'jaligi doirasida valyuta munosabatlarini tashkil qilish shaklidir. U dunyo kapitalistik xo'jaligi rivoji natijasida vujudga keldi va hududiy jihatdan davlatlararo kelishuvlarga asoslanadi.

Xalqaro valyuta tizimining tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ◆ milliy va guruhiy zaxira valyuta birliklari;
- ◆ xalqaro valyuta zaxiralarining tarkibi va tuzilishi;
- ◆ valyuta kurslari va paritetlarining mexanizmi;
- ◆ valyutalarni bir-biriga almashish shartlari;
- ◆ xalqaro hisob-kitoblar shakllari;
- ◆ xalqaro valyuta bozorlari va jahon oltin bozorlarining ish tartibi;
- ◆ valyuta-moliya tashkilotlarini boshqarib turadigan davlatlararo valyuta-kredit tashkilotlari (XVF, Jahon banki va b.) maqomi.

Xalqaro valyuta tizimining asosiy vazifasi - muntazam iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiyaning oldini olish, tashqi iqtisodiy ayirboshlov va to'lovlar muvozanatini saqlash maqsadida xalqaro hisob-kitob va valyuta bozorlari sohasini tartibga solib turishdir.

XVT xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayishiga ta'sir qiluvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro valyuta tizimi - o'zgaruvchan, rivojlanishdagi tizimdir.

XVT rivojlanishining yo'nalishi G'arb mamlakatlarining iqtisodiyotidagi o'zgarishlar va umuman dunyo xo'jaligidagi sharoit va ehtiyojlarning o'zgarishlari bilan belgilanadi. XVT o'z rivoji davrida to'rtta bosqichni bosib o'tdi va ular to'rt xil xalqaro valyuta tizimini o'zida namoyon qildi.

Birinchi tizim, oltin standarti tizimi bo'lib, 19 asrning oxirida o'z-o'zidan vujudga keldi. Bunda ko'pincha valyutalar o'z mamlakatlarida oltinga erkin ravishda almashtirilar edi.

Ikkinchi tizim - oltin o'rnini bosuvchi qimmatli qog'ozlar standarti - Genue konferentsiyasining (1992 y.) qarorlari natijasida paydo bo'ldi. Keyinchalik u ko'pchilik kapitalistik mamlakatlar tomonidan tan olindi. Bu standart tizimida pul banknotlari oltinga emas, balki boshqa mamlakatlarning oltin o'rnini bosuvchi qimmatbaho qog'ozlariga (pul banknotlari, veksellar, cheklar) almashtirilib, keyinchalik ular oltinga almashtirilishi mumkin bo'ldi. Oltin o'rnini bosuvchi valyuta sifatida dollar va funt sterling tanlandi.

60-yillarning oxiriga kelib dunyo xo'jaligining baynalminallashuvi va transmilliy korporatsiyalarning valyuta sohasidagi chayqovchilik faoliyati tufayli

Bretton-Vuds tizimi bir qancha ziddiyatli holatlarni keltirib chiqardi. Oltin-dollar standarti amalda asta-sekin dollar standarti tizimiga o'tib keta boshladi.

90-yillarning boshida AQSH dan tashqarida bo'lgan dollar zaxiralari 300 mlrd. dollarga etdi, bu esa muomaladagi naqd dollarlarning uchdan ikki qismini tashkil etadi.

XVF ning 1976 yil Kingstondagi (Yamayka) navbatdagi kengashida kapitalistik dunyoning yangi jahon valyuta tizimiga asos solindi.

Evropa Ittifoqida o'zlarining yagona valyutasi «evro»ning kiritilishi xalqaro valyuta tizimi rivojlanishidagi eng oliy taraqqiyot bosqichi bo'ldi. Lekin, ushbu yagona valyutaning muomalaga kiritilishi ancha qiyin va ko'p davrni bosib o'tishni talab qildi. EI ning qaroriga ko'ra valyuta ittifoqini yaratishda quyidagi bosqichlar bosib o'tildi.

Birinchi bosqich, 1998 yildan boshlanib, unda valyuta ittifoqiga kirish mezonlariga javob beradigan mamlakatlar aniqlanadi. Maastrixt shartnomasiga ko'ra bu mezonlarga: inflyatsiya darajasi, davlat byudjetining kamomadi (3 % dan oshmasligi kerak), kredit stavkalarining miqdori, milliy valyutaning bar-qarorligi kabi ko'rsatkichlar kiritiladi.

Bu mezonlarga to'liq javob beradigan davlatlar birinchi guruhga kiritilib, ulardan mana shu ittifoq barpo qilinadi. 1998 yilda Evropa Markaziy banki tashkil etildi va markaziy banklarning evropa tizimi ish yurita boshladi.

Ikkinchi bosqich, 1999-2001 yillarga mo'ljallandi. 1999 yilning 1 yanvaridan Evropa Markaziy banki, u Germaniyaning Frankfurt Mayn shahrida joylashgan, yagona valyuta - "evro" ni muomalaga kiritdi va undan valyuta operatsiyalarida foydalaniladigan bo'ldi. Tijorat banklari va moliya tashkilotlari ham undan valyuta bozorlarida foydalana boshladilar. "Evro" ni kiritishga EI ga a'zo bo'lgan mamlakatlarning 15 tasidan 11 tasi - Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Lyuksemburg, Gollandiya, Irlandiya, Finlyandiya, Avstriya, Ispaniya, Portugaliya - rozi bo'ldilar. Angliya, Daniya, SHveitsiya hozircha "evro" ittifoqiga kirishga rozi bo'lmadilar. Greitsiyaga kelsak esa, bu mamlakatning moliyaviy ahvoli yagona valyuta ittifoqiga kirish talablariga hozircha javob bermaydi.

"Evro" kiritilgandan keyin uning EI mamlakatlari valyutalariga va AQSH dollariga nisbatan kursi belgilandi: 1 "evro"- 1,96 nemis markasiga, 6,56 frantsuz frankiga va 1,17 AQSH dollariga teng deb belgilandi.

2002 yil 1 yanvardan "evro" nakd pul sifatida chiqarilib, u qog'oz pul sifatida 7 xil ko'rinishda (hammasi bo'lib 12 mlrd. banknot, tanga sifatida 8 xil ko'rinishda (hammasi bo'lib 70 mlrd. dona tanga) muomalaga kiritildi.

Valyuta ittifoqini tashkil qilishdagi keyingi qadam (2002-2003 y.y) milliy qog'oz pullar va tangalarni "evro"ga almashtirishdan boshlandi. Yangi yagona valyuta naqd pul sifatida muomalada yura boshladi. U 8 xil tangadan (0,01 dan 2 "Evro" gacha bo'lgan) va 7 xil qog'oz puldan (5 dan to 500 "evro" gacha bo'lgan) iboratdir. Dastlabki davrda (6 oy davomida) yangi valyuta milliy valyutalar bilan birgalikda muomalada bo'ldi. SHu davrning oxirida, 2002 yil 1 iyulidan boshlab, rejaga ko'ra, milliy valyutalar "to'lov vositasi maqomini" yo'qotdilar.

Uchinchi etapda, Evropa valyuta-iqtisodiy ittifoqi doirasida hamma bank hisob-kitoblari evropa valyutasiga almashtirildi.

Iqtisodchilarning fikriga ko'ra, yagona evropa valyutasi dunyodagi eng kudratli pullardan biri bo'ladi. U inflyatsiyaga qarshi kurashni engillashtirib, hamda EI davlatlari tovar va xizmatlarining AQSH va YAPoniya bozorlaridagi raqobat bardoshligini kuchaytirib EI barqarorligini ta'minlaydi-gan asosiy omillardan biri bo'lib qoladi. "Evro" ning paydo bo'lishi qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan hamma hisob- kitoblar hajmini oshirib yuboradi. SHu vaqtgacha evropa moliya bozorlari tarqoqligidan dunyo investitsiyalarining juda oz qismini o'ziga jalb qilib kelardi. Bunday holat EI ning iqtisodiy va moliyaviy qudratiga muvofiq emasdi. Endi esa, yagona valyutaning kiritilishi butun dunyo investorlarining qiziqishini EI ga qaratishi mumkin.

"Evro" ning kiritilishi uning bozorini darhol dunyoning eng muhim valyuta bozorlaridan biriga aylantirdi. Valyutaning o'zi esa kapitallar bozorida dollar uchun kuchli raqobatchiga aylandi.

9.2. Valyuta bozorlari, ularning funktsiyalari, ko'rinishlari

Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari jahon xo'jaligining, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim bir bo'g'imlaridan hisoblanadi. Keyingi yigirma yillik, moliya bozorlarining shiddatli o'sish davri bo'ldi. Jahonning etakchi mamlakatlarining moliyaviy mablag'lari yig'indisi 1980 yildan buyon ularning yalpi ichki mahsulotiga (YAIM) nisbatan 2,5 barobar tez ko'paydi. Jahondagi valyuta va savdo operatsiyalari nisbati 1980 yil 10:1 nisbatda bo'lgan bo'lsa, 1992 yilga kelib u 60:1 ga etdi.

Iqtisodiyotga qo'yilgan kapital mablag'larining doiraviy harakati moliya bozorlari rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlari hisoblanadi. Ba'zi joylarda kapitalning ortiqchasi mavjud bo'lsa, boshqa joylarda unga kuchli extiyoj paydo bo'ladi. Jahonning valyuta va moliya-kredit bozorlari dunyo miqyosida mana shu ziddiyatlarni echishga yordam beradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, shu jumladan, jahon savdosi, xizmatlar, kapitallar harakati mana shu aloqalarni muntazam ravishda valyuta bilan ta'minlanib turish va milliy valyutalarni ayirboshlash zaruratini tug'diradi.

Jahon valyuta-kredit va qimmatli qog'ozlar bozorlarining shakllanishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- ◆ kapitallarning ishlab chiqarishda va banklarda yig'ilib qolishi;
- ◆ xo'jalik aloqalarining bayналminallashuvi;
- ◆ banklararo telekommunikatsiyalarning rivojlanishi.

Valyuta bozorlari mohiyati nimada? Valyuta bozorlari talab va taklif asosida yuzaga keladigan kurslar orqali milliy valyutani chet el valyutalariga oldi-sotdi qilish markazlaridir. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan hamma mamlakatlarda milliy valyuta bozorlari mavjuddir. Milliy valyuta bozorlarining rivojlanib borishi va ularning o'zaro aloqalari kuchayishi yagona jahon valyuta bozorining paydo bo'lishiga olib keldi. YAGona jahon valyuta bozori milliy, mintaqaviy, jahon valyuta bozorlarini o'z ichiga oladi. Bu bozorlar bir-biridan hajmi, valyuta operatsiyalarining mohiyati, va bu operatsiyalarda qatnashadigan

valyutalar soni bo'yicha farq qiladi. Jahon valyuta bozorlari jahon moliya markazlari sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

Jahon moliya markazlari - bu, maxsus moliya-kredit muassasalarining, banklarning yig'ilgan joyidir. Bu erda xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar va oltin oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Dunyodagi eng yirik moliya markazlari sifatida London, Nyu-York, Frankfurt-Mayn, Parij, Qyurix va Tokio valyuta bozorlarini ko'rsatish mumkin. Bu bozorlarda kuniga 900 mlrd. dollardan oshiq valyuta operatsiyalari bajariladi.

90-yillarning boshlarida xalqaro valyuta oldi-sotdisining 50 % i uchta yirik valyuta bozorlarida: London (kuniga 187 mlrd. doll.), Nyu-York (129 mlrd. doll.) va Tokioda (115 mlrd. doll.) amalga oshiriladi. 90-yillarning o'rtalarida bir kunlik valyuta operatsiyalarning hajmi 1 trln. 230 mlrd. doll.ga etdi. Mintaqaviy va milliy valyuta bozorlarida ayrim konvertirlanadigan valyutalar bilangina ish yuritiladi. Masalan, Xitoyda valyuta markazlari asosan 5 ta sanoati rivojlangan mamlakatlar valyutalari bilan operatsiyalar amalga oshiriladi.

9.3. Valyuta operatsiyalari, ularning ko'rinishi

Hozirgi kunda valyuta bozorlari uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

1) dunyo xo'jalik aloqalarini bayналminallashuvi, valyuta oldi-sotdisini amalga oshirishda avtomat aloqa vositalarini keng qo'llash asosida valyuta bozorlarining bayналminallashuvi;

2) valyuta operatsiyalarining erkinlashtirilishi va dunyo miqyosida olib borilishi. Valyuta oldi-sotdilarining asosiy qismini banklar o'rtasida, EXM lar vositasida olib borilishi;

3) valyuta operatsiyalarini takomillashtirilishi;

4) chayqovchilik faoliyatining yanada keng tus olishi;

5) valyuta kurslarining barqaror emasligi.

Valyuta bozorlari xalqaro hisob-kitoblarni, dunyo valyuta bozorlarining moliya va kredit bozorlari bilan aloqalarni tezda amalga oshirib boradi. Valyuta bozorlari yordamida banklarning, korxonalarining, davlatning valyuta zaxiralari to'ldiriladi. Bundan tashqari, valyuta bozori mexanizmi iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishda, shu jumladan, davlatlar guruhi doirasida makro darajada boshqarishda (masalan, EI) qo'llaniladi. Valyuta bozorlarida qatnashuvchi muassasalarga kelsak, bular: birjalar, broker firmalari, banklar, transmilliy korporatsiyalardir. 80-yillarning oxirida banklararo operatsiyalardan, hamda savdo-sanoat kompaniyalari bilan bo'ladigan valyuta operatsiyalarning 85-95 % ini banklar bajarar edi. 90-yillarning o'rtalariga kelib ko'pgina valyuta oldi-sotdi operatsiyalari, endi banklar tomonidan emas, balki investitsiya fondlari tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi.

Ma'lumki, ichki bozor bilan jahon bozoridagi to'lovlar vositasi bir-biridan mohiyatan farq qiladi. Ichki bozorda bir valyuta amal qilsa, chet el tadbirkorlari bilan munosabat boshqa valyutada olib boriladi. CHet elda savdo-sotiq olib borish uchun valyutalar kurs bo'yicha bir-biri bilan almashtirilishi kerak.

Valyutaning almashinuv kursi boshqa mamlakat valyutasi birligini sotib bolish uchun kerak bo'ladigan milliy valyutaning miqdori bilan o'lchanadi. Maslan, bir AQSH dollarini sotib bolish uchun 1240 so'm zarur bo'ladi.

Joriy savdo-sotiq uchun amalga oshiriladigan valyuta kursi **spot kurs** deyiladi. U banklararo operatsiyalarda foydalaniladi va ikki ish kuni ichida amalga oshirilishi shart. Kelajakdagi valyuta savdo-sotig'i uchun foydalaniladigan kurs **forvard kurs** deyiladi, va bu chet el valyutasini sotuvchi va uning mijozi o'rtasida amalga oshiriladi.

Valyuta bozorida sotish kursi bilan sotib olish kursi e'lon qilinadi. **Sotib olish kursi** valyuta sotuvchining sotib bolishga rozi bo'lgan kursidir, **sotish kursi** esa, uning valyutani sotishga rozi bo'lgan kursidir. Sotish kursi bilan sotib olish kursi o'rtasidagi farq – **spread** deyiladi va u valyuta sotuvchining foydasi, ya'ni **marjasi** hisoblanadi.

Banklar tomonidan chet el valyutasi kursi e'lon qilinganda ular **kotirovka** deyiladi. Agar bank chet el valyutasi birligini sotib olish uchun qancha miqdorda milliy valyuta zarurligini e'lon qilsa – bu, **to'g'ridan-to'g'ri kotirovka** deyiladi. Masalan, bir AQSH dollari sotib olish uchun 1240 so'm zarur bo'ladi. Agarda milliy valyuta birligi sotib bolish uchun qancha chet el valyutasi zarur bo'lishi e'lon qilinsa bu **teskari kotirovka** deyiladi.

Amaliyotda ikki xil kotirovka ham amal qilaveradi. AQSHda o'z ichki bozori uchun to'g'ridan-to'g'ri kotirovkadan foydalaniladi. Buni ko'pincha amerikacha tizim deb ataydilar. Xalqaro savdo-sotiq uchun evropa tizimidan foydalaniladi, u teskari kotirovkaga asoslanadi. Xalqaro savdo-sotiqda AQSH dollari asosiy valyuta hisoblanadi.

Joriy valyuta bozorida yana bir kursdan foydalaniladiki, unga **kross kurs** deyiladi. Bunda ikkita boshqa mamlakat valyutasining bir-biriga nisbatan kursi AQSH dollari orqali aniqlanadi. Masalan, SHveyuariya franki bilan Buyuk Britaniya funt sterlingining bir-biriga nisbatan kursini aniqlaymiz. 0,560 funt sterling = 1 dollarga. 1,277 shveyuariya franki = 1 dollarga. Demak, kross kurs bo'yicha,

$$\frac{1,277 \text{ sh.f.}}{0,560 \text{ f.s.}} = 2280 \text{ sh.f.} = 1 \text{ f.s.}$$

Valyutani cheklanishi, uning ko'rinishlari.

Ba'zi mamlakatlarda chet el valyutasini sotib olishni cheklab qo'yish qo'llaniladi. Bunday cheklash turlariga: importni lienzizyalash, turli almashuv kurslarini kiritish, import depozitlarini talab qilish, miqdorini nazorat qilish kabilar misol bo'ladi.

1. Importni lienzizyalash – mahsulot eksport qilib chet el valyutasiga ega bo'lgan firmalar bu valyutani rasmiy kurs bo'yicha Markaziy banka sotishlari kerak. Keyin import maxsulotlarini sotib olish uchun shu bankdan lienziya oladilar.

2. Turli valyuta kurslari. Bunday holda, agar hukumat importni to'xtatishni hohlasa juda yuqori kurs belgilab qo'yishi, va aksincha qilishi mumkin.

3. Import depozitlarini talab qilish – bu holda hukumat chet el valyutasidan foydalanmoqchi bo'lganlarga oldindan (bir oy oldin) rasmiy kurs bo'yicha depozit qo'yishni talab qiladi.

4. Miqdorini cheklash – bunda, masalan, chetga chiqayotgan sayyohlarga chet el valyutasini olib chiqish miqdori cheklab qo'yiladi.

Kurslarning o'zgarib turishi ikkita asosiy omilga bog'liq bo'ladi:

- a) mamlakatlarning ichki bozorida valyutaning xarid quvvatiga;
- b) xalqaro bozorda milliy valyutaga bo'lgan talab va taklif nisbatiga;

Xalqaro amaliyotda xarid quvvatiga valyutalarning kursi ham aniqlanib boriladi. Bu ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun zarur, chunki ularning ichki bozoridagi narxlar jahon bozori narxlaridan arzon bo'lib, ularning milliy valyutalarining xarid quvvati talab va taklifdan kelib chiqqan valyuta kursiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Xususan, O'zbekistonnig milliy valyutasi so'mning xarid quvvati talab va taklifdan kelib chiqib yuzaga kelgan kursiga (1240 so'm) nisbatan uch barobar yuqoridir, ya'ni xarid quvvatiga ko'ra 1 AQSH dollari 400 o'zbek so'miga tengdir. Bu degani, O'zbekiston ichki bozorida 400 so'mga sotib olish mumkin bo'lgan mahsulotni jahon bozorida 1 AQSH dollariga sotib olish mumkin bo'ladi, va aksincha jahon bozorida 1 AQSH dollariga sotib olish mumkin bo'lgan mahsulotni O'zbekistonda 400 so'mga sotib olish mumkin.

Suzib yuruvchi va fiksatsiya qilingan valyuta kurslari.

Valyuta kurslarining uchta asosiy tizimi mavjud:

- 1) qayd etilgan;
- 2) erkin suzib yuruvchi;
- 3) boshqariladigan suzib yuruvchi valyuta kurslari.

Qayd etilgan valyuta kursi sharoitida har bir mamlakat o'z pul birligining oltin (dollardagi) miqdorini o'rnatadi, shu orqali o'z valyutasi va boshqa mamlakatlar valyutalri o'rtasidagi ayirboshlash kursini belgilaydi. Milliy valyutaning qayd (fiksatsiya) etilgan kursini qo'llab-qo'vvatlash uchun, mamlakat o'zining xorijiy valyuta zahiralari yoki oltin oldi-sotdisini qo'llaydi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif asosida belgilanadi, hamda o'z valyutasi narxiga davlatning har qanday aralashuvini istisno qiladi. Valyuta kurslarining erkin tebranishi to'lov balanslarining taqchilligini yoki faolligini beixtiyor to'g'rilaydi.

Boshqariladigan suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimiga ko'ra, turli mamlakatlar markaziy banklari valyuta kurslarining qisqa muddatli va sezilarli tebranishlarini yumshatish uchun, xorijiy valyutani ochiq bozorlardan sotib olishlari va sotishlari lozim.

O'tgan asrning 90-yillari boshiga kelib suzib yuruvchi kurslar (o'zgarib turuvchi valyuta kurslari) tizimining qo'llanilishi natijasida xalqaro valyuta tizimini tashkil qilishning murakkab ko'rinishi yuzaga keldi.

CHunki u quyidagi xususiyatlar asosida amal qilardi:

- 1) ayrim milliy valyutalarning o'rtasidagi munosabatlar ya'ni, aniqrog'i ularning kurslari tanlab olingan asosiy bir valyuta birligiga asoslanadigan bo'ldi;
- 2) valyuta kurslarining o'zgarib turishi turlicha miqyosga ega.

Ba'zi bir valyutalar kursi ma'lum bir diapazonda ushlab turilsa, ba'zilariniki erkin ravishda o'zgarib turadi.

Amalda, mamlakatlar tomonidan e'lon qilingan valyuta tartib qoidalari turlichadir. 1988 yilda 58 ta mamlakat o'z valyutalari kursini o'zlari tanlagan mamlakat valyutasiga asosan aniqlaydigan bo'ldilar: amerika dollarida 39 mamlakat, fransuz frankida 14 ta va boshqa valyutalarda 5 ta mamlakat. Ba'zi mamlakatlar o'z valyutalarini SDR ga (17 ta) yoki boshqa bir valyutalar to'plamiga (29 ta) bog'liq qilib qo'ydilar. O'z navbatida EI ning 8 ta davlati o'zlari uchun valyuta hamkorligi mexanizmini tavsiya qilib, valyuta kurslarini barqaror ushlab turdilar. AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, YAponiya kabi 19 ta mamlakat valyutalarining mustaqil suzib yurishini ma'qul ko'rdilar.

9.4. Xalqaro kredit munosabatlari

Xalqaro moliya-kredit munosabatlari deganda, dunyo moliya va kredit bozorlarida kapital qarz berish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tushuniladi. Xalqaro kredit bozorida mamlakatlar o'rtasida qaytarib berish sharti, muddati, qarz foizi ko'rsatilgan pul kapitallarining harakati kuzatiladi.

Xalqaro kredit – bir mamlakatdagi kreditorning boshqa mamlakatdagi qarz oluvchiga qaytarishlik, moddiylik va foiz to'lash shartlari bilan beriladigan pul yoki tovar ko'rinishidagi ssudadir.

Ssuda mablag'i (sarmoyasi) – mamlakatning xalqaro qarzlar, kreditlar shaklida chiqaradigan yoki kirishadigan hamda ssuda foizi keltiradigan kapital.

Xalqaro kredit feodalizm davrida paydo bo'lgan xarbiy yurishlarning hamda monarx va zadoganlar saroylari xarajatlarini qoplash uchun qarzga mablag'lar olingan. Bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan xalqaro kredit tashqi savdoga xizmat ko'rsata boshladi va jahon xo'jaligi aloqalarining muhim unsuriga aylandi. Bunday kredit turi mamlakatlardagi kreditorlar bilan qarz oluvchilar o'rtasida muayyan muddatga hamda foiz to'lash shartlari bilan ssuda, berish foydalanish va uni qaytarish bo'yicha paydo bo'ladigan munosabatlarini ifoda etadi. SHunday qilib, ssuda mablag'ini chiqarish boshqa mamlakatlar xukumatlari yoki tadbirkorlariga qisqa yoki uzoq muddatli qarzlar berilishini bildiradi.

CHetga mablag' chiqarish XX asr boshlarida avj oldi. Dastlab ssuda mablag'ini chetga chiqarish aksariyat xususiy shaklida, ya'ni davlatning aralashuviz olib bordi. Keyinchalik bunday faoliyat xalqaro kredit munosabatlariga tobora ko'proq aralasha boshlagan xukumatlar tomonidan rag'batlantirila boshladi.

Xorijiy kreditlar bir qancha toifalarga bo'linadi. Jahonda u yoki bu mamlakat boshqa mamlakatning iqtisodiy dasturlariga yordam berish maqsadlarida moliyaviy vositalar berish ishi keng tarqalgan. Bunday hollarda davlatlararo shartnomalar tuziladi. SHartnoma moliya resurslari beradigan ixtisoslashgan xukumat moliya muassasalariga ajratiladigan kreditlarni berish va sug'urtalash hamda kafolatlarni ta'minlashiga asoslanadi.

Bunday ixtisoslashgan xukumat moliya muassasalaridan KFW yoki AKA banklarini (Germaniya), Hermes (Germaniya), SACE (Italiya), ECGD (Buyuk Britaniya), EID/MITI (YAponiya), CESCE (Ispaniya) kabi eksportni kreditlash vakilliklarini sanab o'tish mumkin. AQSH, YAponiya, Turkiya va boshqa mamlakatlardagi eksport-import banklari, EDS (Kanada) kabi vakilliklar esa loyihalarni bevosita kreditlashni ta'minlaydi.

Odatda bunday moliyalashtirish kreditni oladigan mamlakat xukumati tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kafolat asosida amalga oshiriladi. Bunday ishga faqat katta oltin valyuta zahiralari va boshqa likvid aktivlarga ega bo'lgan mamlakatgina qo'l urishi mumkin. O'zbekistonda moliyalashning shunday usuli asosida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Germaniya, YAponiya, AQSHdagi eksport-import banklari birgan kredit resurslari yordamida iqtisodiy infratuzilma sohasida g'oyat muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu borada telekommunikatsiya tarmog'ini yangilash bo'yicha bir qator loyihalarni, jumladan, Transsivo Evropa shisha tolali aloqa yo'lining O'zbekiston xududi orqali o'tadigan qismini ko'rish, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini rekonstruksiyalash va zamonaviylashtirish, Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurish, Ko'kdumaloq neft konini ishga solish, «Toshkent» aeroportini qayta qurish va boshqa loyihalarni sanab o'tish mumkin.

Tashqi investitsiya qarzlarini yana boshqa bir toifasi mavjud. U ham bo'lsa xalqaro moliya muassasalari u yoki bu mamlakatlardagi investitsiya loyihalarni kreditlaydi. O'zbekistondagi loyihalarni moliyalashni amalga oshiradigan yoki amalga oshirish mumkin bo'lgan to'rtta eng nufuzli xalqaro muassasani ko'rsatib o'tish mumkin:

Jahon tiklanish va taraqqiyot banki. Xalqaro taraqqiyot vakilligi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banki. CHetdan olingan qarzlar muayyan tavakkalchilik bilan bog'liq, shuning uchun davlat yoki xususiy tarmoq doirasida undan chet el investitsiyalaridan oqilona foydalanilmaslik mamlakatga juda qimmatga tushishi mumkin. Korxonalar tomonidan haqiqiy kafolatlar bo'lmaganda zararni davlatning o'zi, uning byudjeti ko'taradi. SHu sababli chet el investitsiyalari sohasidagi xalqaro ekspertlar tavakkallikni davlat byudjetidan kreditorlar, xususiy qarzdorlar va sarmoya bozorlariga ko'chirishni strategik yo'nalish tarzida maslahat beradi. Sarmoya bozorida mablag'larni xususiy tadbirkorlik tuzilmalari tomonidan jalb etilishi va qimmatli qog'ozlar bozori vositachiligida taqsimlanishi davlat nochor korxonalarini saqlab qolish bilan shug'ullanmagan sharoitlarda aholini samaraliroq himoya qilishga imkoniyat beradi.

Tadbirkorlik sarmoyasini chiqarish uning chet ellarda uzoq muddatga ishlab chiqarish, savdo, moliya ob'ektlariga sarflanish demakdir. Sarmoya eksporti bevosita va portfel investitsiyalari shakllarida amalga oshiriladi. Xorijiy korxonaga qo'yilgan kapital mablag'ni investorlar nazorat qilsa, bunday kapital qo'yilmalar bevosita chet el investitsiyalari deyiladi. Xalqaro statistikada investitsiyalarni «bevosita» turga kiritishning quyi «ostonasini» belgilashga har xil yondoshuvlar bor. Odatda bu ko'rsatkich 10 va 25 foiz o'rtasida o'zgarib turadi. Bizning qonunlarimizga ko'ra kompaniya aktsiyalangan kapitalining kamida 10 foizini chet el investitsiyalari tashkil etganda bevosita chet el investitsiyalari deb hisoblanadi. shuningdek shu korxonaning menejmentida bevosita ishtirok etish, amalga oshirilayotgan investitsiyalarini uzoq muddatli ekanligi ham ularning muhim belgilari hisoblanadi. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun ma'suliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamasdan, tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan vositasi hisoblanadi.

Ularning hajmi jahon bo'yicha barqaror o'sib bormoqda, bu esa biznesning jahon miqyosida umumlashishi jarayonini turli mamlakatlar iqtisodiyotining o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirini kuchaytirmoqda. Hisob – kitoblarga qaraganda, 1990 yil o'rtalariga kelib bevosita chet el investitsiyalarining umumiy miqdori 2,5 trillion AQSH dollariga teng bo'ldi.

Savdo, hisob-kitob va to'lov balanslari.

Mamlakatning xalkaro xisob-kitoblardagi o'rnini baxolashda birinchi navbatda eksport va importning nisbatini aniklash zarur bo'ladi. CHet eldan tovarlar kirib kelishini va chet elga tovarlar sotilishi xajmlari xisob-kitob kilish natijasida **savdo balansi** kelib chiqadi. Savdo balansi doimiy ravishda bojxona idoralarining savdo buyicha statistikani yigish va ishlab chikishi asosida amalga oshiriladi.

Savdo balansi eksport bilan importning farki sifatida juda kam ma'lumotga ega bo'ladi. Ammo, u umumiy vaziyatning muxim bosh ko'rsatkichi bo'lib xisoblanadi, chunki xalkaro iktisodiy munosabatlarning 80 % ini savdo tashkil kiladi. Savdo balansining saldosi keltirib chikarishda ba'zi bir murakkabliklar yuzaga keladi, chunki dunyo statistikasida eksport **fob** baxolarida xisobga olinadi, ya'ni transport, sugurta xarajatlari xisobga olinmagan buladi. Import esa **sif** baxosida xisobga olinadi, unda sugurta, transport ijarasi (**fraxt**) xisobga olingan buladi. Fraxt va sugurta baxolari o'rtasidagi fark tovarlar umumiy kiymatining o'rtacha 10 % ini tashkil kiladi va yakuniy xisob-kitobda e'tiborga olinadi.

Savdo saldosi to'lov balansining umumiy yakunlarini asosan belgilab beruvchi kismi xisoblanadi, lekin savdo saldosi salbiy bo'lishi umumiy kamomadning kelib chikishini bildirmaydi. Masalan, Buyuk Britaniya XIX – asrning oxirgi o'ttiz yilligida savdo balansi bo'yicha ko'p vaqtlargacha salbiy saldoga ega bo'lib keldi, lekin u boshka manbalardan, shu jumladan, xizmat ko'rsatish soxasi xisobidan bemaolol koplanar edi.

AKSH ikkinchi jaxon urushidan keyin tashki savdoda doimo ijobiy saldoga ega bo'lib kelgandi, lekin u kapital eksporti va chet mamlakatlardagi xarbiy bazalarni saklash uchun sarf kilinib, ijobiy saldoni yo'kka chikardi. Eksport –

import bitimlari qiymatining «ko'rinmas» savdo (xizmatlar) bilan to'ldirilishi savdo va xizmatlar balansini keltirib chikaradi.

Xizmatlar bilan savdo qilish o'z ichiga chet elga sayyoxatlar, dengiz yuk tashishlari va moliya bilan bog'lik xarajatlarni oladi. Masalan, O'zbekistonlik sayyoxlar chet ellarda bo'lib, ularning tovar va xizmatlarini sotib oladilar va import uchun xarajat qilgan bo'ladilar, o'z navbatida chet elliklar xam O'zbekistonga kelib tovarlar va xizmatlar sotib olib o'zlariga import qiladilar. Xuddi shunday ravishda dengiz kemachiligiga ega mamlakatlarning kemalari boshkalarga yuk tashib berib xizmat eksport qiladilar.

Ba'zi mamlakatlar uchun «xizmatlar» bo'limi juda katta xajmda bo'ladi. Masalan, o'z xududidan katta miqdorda sayyoxlik okimlari o'tuvchi mamlakatlarda turizmdan tushadigan mablaglar juda katta o'rin tutadi. Gretsiya va Ispaniyada chet el sayyoxlaridan tushadigan tushumlar tovar eksporti qiymati xajmining 60-80 % ini tashkil qiladi.

Tovarlar savdosidan farkli ravishda xizmatlar savdosi bo'yicha ma'lumotlarni olish fakat bilvosita xisob-kitoblar orkali bo'ladi, bu esa balansni tuzish vaktini cho'zib yuboradi. Tovarlar va xizmatlar balansini chikarish birinchi navbatda milliy daromad xisob – kitobining jami xarajatlar (extiyojlar) ko'rsatkichi uchun muximdir. Bu ko'rsatkichning ahamiyati xam cheklangan bulib, fakat boshka ko'rsatkichlar bilan birgalikda foydalanish mumkin bo'ladi.

Mamlakatning xalkaro xisob-kitoblardagi axvolini pensiyalar, sovgalar, tekin subsidiyalar shaklidagi o'tkaziladigan pul mablaglari xam tavsiflab beradi. Bularni mamlakatga beg'araz yordam shaklidagi chet el tovarlarining importi deb tushunish kerak. Muximi, bunday bitimlar bir tomonlama bo'ladi, va mablaglarni o'tkazayotgan mamlakat o'rniga xech narsa olmaydi.

Bir tomonlama o'tkazmalar mablaglari yigindisini tovar va xizmatlar balansiga kushadigan bulsak **joriy operatsiyalar bo'yicha balans** kelib chikadi. Bu erda saldo beruvchi o'rta chizikdan yukorida tovarlar va xizmatlar bo'yicha mablaglarning xarakatini belgilovchi moddalar, chizikdan pastda esa xam xususiy, xam davlat xazinalarining xarakati bilan boglik moddalar ko'rsatiladi.

Joriy operatsiyalar bo'yicha balans mamlakatning iktisodiy axvoliga doir ma'lumotlarni to'laligicha ifodalab beradi.

Joriy operatsiyalar bo'yicha balansning ijobiy saldosi shuni ko'rsatadiki, mamlakat sotib olishiga nisbatan o'zida ishlab chikarilgan tovar va xizmatlarni sotishi ko'prokdir. Misol tarikasida, o'z moliyaviy mablaglari kutilmagan vaziyatlar uchun, yoki boshkalarga yordam (karz) berish uchun to'la etadigan jamgarmalarga ega oilani tasavvur kilsak bo'ladi.

Joriy bitimlar bo'yicha kamomad esa mamlakatning boshka mamlakatlardan karzlari ko'payganligini bildiradi. Xuddi yukoridagidek bir oila misolida kuradigan bo'lsak, bu karzlar va kreditlar xisobiga yoki ilgari jamgargan mablaglari xisobiga kun ko'radigan oila bo'ladi.

Xozirgi paytda, to'lov balansini xalkaro iktisodiy munosabatlar soxasidagi

mutaxassislar tomonidan mamlakatning xalkaro tovar, xizmatlar va kapitallar

almashinuvida katnashishini yoritib beruvchi muxim axborot manbasi sifatida xar tomonlama o'rganiladi.

To'lov balansining asosi - tovar va xizmatlarga extiyojning o'sib borishi (mamlakatdan valyuta chikib ketadi) yoki chet el valyutasining kirib kelishi bilan boglik bo'lgan xamma bitimlarni guruxlashtirishdir. Masalaan, O'zbekistonga chet el valyutasi kirib kelishi bilan boglik bo'lgan tashki savdo bitimlarining turlarini kuyidagicha aniklash mumkin:

1. **Tovarlar eksporti.** Unga O'zbekistonning bojxona chegarasini kesib o'tuvchi xamma tovarlar kiritiladi.

2. **Xizmatlar eksporti.** Unga mamlakatimizga kelgan chet el sayyoxlariga, diplomatlariga va tadbirkorlariga ko'rsatilgan xizmatlar kiradi.

3. **Foizlar va dividendlar.** Bu, xorijiy akuiyalarga ega bo'lgan O'zbekistonliklarga to'lanadigan mablaglardir. Bu, fond bozoridan sotib olingan chet el kompaniyalarining akuiyalariga to'lanadigan foizlardir, xamda chet elda faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston korxonalarining (aralash korxonalar sifatida) o'tkazadigan daromadlaridir.

4. **Bir tomonlama o'tkazmalar yoki transfertlar.** Unga pensiyalarni o'tkazish, chet el yordami, chet eldagi emigrantlarning karindoshlariga yuborgan ish xaklari, O'zbekistonga ko'rsatiladigan xukumatlarning yoki xususiy shaxslarning insonparvarlik (gumanitar) yordami dasturlari kiradi. Bu moddaning o'ziga xos tomoni shundaki, u kaytarmaslik xisobi bilan olingan bir tomonlama o'tkazmalarni o'z ichiga oladi.

5. O'zbekistondagi xorijiy rezidentlarning **uzok muddatli karzlari va investiuviyalari.** U xorijiy davlatlar va firmalar tomonidan O'zbekistonga va uning tashkilotlariga berilgan karzlarni o'z ichiga oladi. Xususiy tadbirkorlik soxasida bu xorijliklar tomonidan O'zbekistondagi korxonalarni, bino-inshoatlarni, erlarni va boshka ko'chmas mulk shakllarini sotib olishdir. Ba'zan kapital eksporti shaklidagi bitimlar xam xisobga olinadi. Bu bitimlarning moxiyati shundaki, mamlakat o'z ko'chmas mulklarini sotish bilan eksportni amalga oshirgan xisoblanadi, lekin bu, bitim natijasida xorijiy valyutada mablag olinsa xam, o'ziga xos tovarlar xisoblanadi.

6. Xorijiy firma va tashkilotlar tomonidan O'zbekistonga beriladigan **kiska muddatli investiuviyalar va karzlar.** Bu bitimlar oldingiga (5 modda) o'xshash bo'lsa xam, ular kiska muddatli ekanligi bilan (O'zbekiston firmalariga beriladigan firma va banklarning kiska muddatli kreditlari) fark kiladi. Agarda chet eldagi O'zbekiston firmalari xam o'z banklaridagi aktivlarining ma'lum kismini O'zbekistonga o'tkazsalar xam shunday bitim xisoblanadi.

7. Xorijiy rezervlar. Unga xorijiy davlatlar tomonidan o'z zaxiralarini to'ldirish uchun O'zbekiston Markaziy bankidan sotib olgan valyutalar yoki rezervlar kiradi.

YUkorida sanab utilgan bitimlar karama-karshi shakldagi okimlarga xam ega, ya'ni O'zbekistondan chet el valyutasining chikib ketishiga sabab buluvchi xorijiy maxsulotlarni import kilish, pensiyalar va turli pul mablaglarini o'tkazish, xorijiy davlatlar va firmalarga kreditlar berish va xakazolar xam mavjuddir.

Tovarlar, xizmatlar eksporti va importi foizlar va dividendlar, bir tomonlama pul o'tkazmalari va transfertlar, olinadigan va beriladigan uzok muddatli va kiska muddatli karzlar, xamda davlat rezervlarining kirib kelishi va chikib ketishi kabi bitimlarning xammasini ko'shib chikkanimizda xalkaro iktisodiy adabiyotlarda, «tulov balansi» deb ataladigan xujjatga ega bo'lamiz.

Ko'rib chikilgan bitimlarni shartli ravishda uch guruxga birlashtirish mumkin:

a) joriy xisob-kitoblar bo'yicha bitimlar, u eksport-import operatsiyalaridan iboratdir (1,2,3,4 punktlar);

b) kapitallar xarakati bilan boglik bitimlar (5,6 punktlar);

v) rasmiy rezervlar xisob-kitobi (7 punkt).

Xisobga olinmagan turli operatsiyalar «xatolar va kursatilmaganlar» moddasida jamlanadi (8 punkt).

Birinchi gurux bitimlari tovar va xizmatlarning eksport va importidan iboratdir. Ikkinchi gurux bitimlari – bu mablaglarni (aktivlar) sotish va sotib olishdir. Aktivlar deganda, akuiya, davlat karzi yoki xar kandy kimmatbaxo kogoزدan iborat boyliklarni saklash shaklini tushunamiz.

Markaziy banklarning xalkaro valyutalar uchun foydalaniladigan likvid (ishlatiladigan) aktivlari «xalkaro likvidlik» nomi bilan yuritiladi, ba'zan esa ularni rasmiy zaxiralar (rezervlar) deb xam ataydilar. Ilgarilari ular fakat oltindan iborat bulardi. Xozirgi paytda unga markaziy bankning xalkaro mikyosda kabul kilinadigan xamma majburiy likvidlari kiritiladi. Markaziy banklar, javobgarligi zimmasida bulgan makroiiktisodiy barkarorlashtirish dasturlarini amalga oshirish uchun o'z zaxiralarining tarkibini o'zgartirib turadilar. Rasmiy zaxiralar markaziy bankning ixtiyorida bo'lgan oltin zaxiralari, Xalkaro valyuta fondining (XVF) Maxsus o'rnini bosish xukuki (SDR), XVF dagi rezervlar, xorijiy valyutalar zaxiralaridan iborat bo'ladi.

Valyutalari boshka mamlakatlar davlat zaxiralarining bir kismi

xisoblanadigan mamlakatlar uchun to'lov balansidagi xisoblarning uchinchi guruxi,

ularning valyutalarini (AQSH dollari, funt sterling, nemis markasi va x.) boshka

davlatlar tomonidan sotib olinishini aks ettiradi.

Jahon kredit bozorlari

Xalqaro kredit bozori - bu qarz kapitali bozorining bir qismidir. Uning tarkibiga:

1) xalqaro pul bozori (1 kundan 1 yilgacha bo'lgan qisqa muddatli depozit - qarz operatsiyalari, hamda evrovalyuta bozori);

2) dunyo kapitallar bozori (1 yildan 15 yilgacha bo'lgan o'rta va uzoq muddatli xorijiy kreditlar va evrokreditlar bozori) kiritiladi.

Xalqaro moliya bozori - bu qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi va emissiya qilinadigan bozor bo'lib, u shu bilan birgalikda qarz kapitali bozorining bir qismi hisoblanadi. Dunyo qarz kapitallari bozori milliy qarz kapitallari bozorida xalqaro operatsiyalarining bajarilishi va uning baynalminallashuvi oqibatida yuzaga keldi.

Dunyo qarz kapitallari bozori keyingi o'n yilliklarda shiddatli rivojlanishga ega bo'ldi. Bunga sabab qarz kapitali harakatining muddatli tusga kirishi, bu harakatni milliy darajada tartibga soluvchi davlat huquqiy normalarining erkinlashtirilishi, qimmatbaho qog'ozlar harakatining keng tarqalishi va integratsiya jarayonlari bo'ldi. Dunyo qarz kapitallari bozori dunyo xo'jaligida qarz kapitallarining harakatini ta'minlovchi turli kompaniyalarni, banklarni, valyuta kredit muassasalarini o'z ichiga oladi. Xalqaro moliya-kredit munosabatlari o'sish sur'atlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishidan ham, xalqaro savdo o'sishidan ham o'zib ketishi asrimizning oxirida dunyo xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib qoldi.

Xalqaro moliya-kredit bozorining XX asrning 50-yillaridan keyingi rivoji dunyo qarz kapitallari bozorining o'ziga xos qismi bo'lgan - evrobozorni vujudga keltiradi.

Evrobozor - bu, shunday bozorki, unda kreditlar va qarzlar bo'yicha operatsiyalar evrovalyutada olib boriladi.

Evrovalyuta - bu, har qanday mamlakatning chet el banklariga o'tkazilgan va bu banklar tomonidan barcha mamlakatlardagi operatsiyalarda, shu jumladan, valyuta egasi bo'lgan mamlakatda ham foydalaniladigan konvertirlanadigan valyutadir.

Evrobozorlar hukumat, davlat maqomiga ega bo'lmaydilar. Ularning paydo bo'lishi korxonalar, investorlar, hamda ayrim mamlakatlarning ehtiyoji bilan bo'ladi. Evrobozorlardagi operatsiyalar muayyan bir mamlakatning valyuta kursini tartibga solish va soliq qonunlariga bo'ysunmaydilar.

Evrobozorlar 50-yillarning oxirida paydo bo'ldi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi:

1) AQSH dan tashqarida dollarlarni joylashtirish takliflarining paydo bo'lishi;

2) Evropada dollarga talabning kuchayishi;

3) AQSH da dollar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning erkin bozordagi operatsiyalariga nisbatan murakkabligi;

4) Evropa banklarining xalqaro operatsiyalarni moliyalashtirish uchun vosita topishga intilishi.

Evrovalyuta bozorlarida dastlab faqat evrodollar hukmronlik qildi.

Evrodollar - bu, g'arbiy evropa banki tomonidan jamg'arma sifatida qabul qilingan amerika dollaridir. Franza yoki ingliz bankida majburiyat sifatida

bankning passiviga yozilgan dollar evrodollar hisoblanadi. Keyinchalik, evrodollar faqat evrovalyutaning bir ko'rinishi sifatida o'rin tutadigan bo'ldi. Endi, masalan, Lyuksemburg yoki Buyuk Britaniya bankining passiviga qo'yilgan fransuz franki yoki nemis markasi evrofrank yoki evromarka sifatida tan olina boshladi.

Hozirgi kunda evrobozorlardagi oldi-sotdilarining 70 % i evrodollarda, 20 % i evromarkada va 6 % i shveytsariya frankida olib boriladi.

80-yillarga kelib evrobozorlar o'z faoliyatini boshqacha yo'nalishda olib bora boshladilar. Natijada, qimmatli qog'ozlar: evroobligatsiyalar, evroaktsiyalar, evroeksellar bozorining rivoji shiddatli tus oldi.

Evrobozorlarning rivojlanishi dunyo miqyosida moliya resurslariga bo'lgan talab va taklifning erkin yuzaga kelishiga imkon yaratdi. Evrobozorlar korxonalarga o'z mamlakatining ichki kapitallar bozoriga murojaat qilmasdan moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ular moliyaviy resurslarini oqilona joylashtirish imkonini beradi.

SHunday qilib, evrobozorlar o'z faoliyati turlarini ko'paytirib dunyo miqyosida faoliyat yuritmoqdalar. Evrobozorlar hamma yirik xalqaro banklarni, dunyoning hamma moliya markazlarini va barcha konvertirlanadigan valyutalarni harakatga keltirmoqda. Evrobozorlarning rivojlanishi yangi xalqaro moliya markazlarining (Singapur, Gonkong, Quvayt, Kayman orollari va b.) paydo bo'lishiga olib keldi. 1991 yilda Nyu-York xalqaro bank xizmatlari ko'rsatish erkin zonasi vujudga keltirildi. 80-yillarning oxiriga kelib dunyoning yangi moliya markazlarida xalqaro valyuta-moliya operatsiyalarining uchdan biri amalga oshiriladigan bo'ldi.

Evrobozorlarning rivojlanishi va xalqaro moliya bozorlarining baynalminallashuvi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi xuddi xalqaro mehnat taqsimotida tovarlar bozorlarining rivojlanishi va baynalminallashuvi kabi ijobiy jarayon hisoblanadi.

9.5. Xalkaro moliya-kredit tashkilotlari

***Jahon banki guruhi.** BMT ning Xalqaro tiklash va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) va Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha Xalqaro agentligi (IKXA) kabi ixtisoslashgan muassasalaridan tashkil etilgan guruh Jahon banki deb ataladi.*

Jahon banki umumiy rahbarlik va balansga ega. U qarzlarning ma'lum qismini imtiyozli shartlarda, ba'zan tekin berishiga qaramay, uning faoliyati umuman foyda keltiruvchi hisoblanadi. Umumjahon banki hissasiga rivojlanayotgan mamlakatlarga barcha xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag'lar yillik hajmining deyarli 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Jahon bankining asosiy tashkiloti bo'lib, o'z faoliyatini 1946 yilda boshlagan XTTB hisoblanadi. Bu tashkilotga faqat XVF ga a'zo bo'lgan mamlakatlar kirishi mumkin.

XTTB ning asosiy maqsadlari – bu a'zo-mamlakatlar iqtisodiyotini qayta qurishga va rivojlanishiga kapital qo'yilmalar berish hamda xususiy chet el

investitsiyalarini rag'batlantirish orqali ko'maklashish, to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qarz berish.

Faoliyatining xususiyatlari:

- qarzlarni faqat ishlab chiqarish maqsadlari uchun asosan rivojlanayotgan mamlakatlarga qishloq xo'jaligi, energetika, sog'liqni saqlash, yo'l xo'jaligi va boshqalarni rivojlantirishga beriladi;

- qarzlarni mos ravishda hukumat tomonidan kafolatlanishi va aniq loyihalar uchun berilishi lozim;

- qarzlarni zarur mablag'larni boshqa manbalardan olish mumkin bo'lmagan hollardagina beriladi.

XTTB ning moliyaviy resurslari bank tomonidan chiqariladigan obligatsiyalarga a'zo-davlatlarning yozilishi yo'li bilan, shuningdek xalqaro pul bozorlarida joylashtiriladigan obligatsiya zayomlari mablag'laridan tashkil etiladi. XTTB muayyan mamlakatga kredit berishda uning iqtisodiy ahvoli haqida to'liq ma'lumot talab qiladi va u erga ekspertlar guruhini jo'natadi. Ekspertlar guruhi mamlakat iqtisodiy va moliyaviy ahvolini tekshiradilar, bu xususda aniq tavsiyalar ishlab chiqadilar. Agar kredit olayotgan mamlakat bu tavsiyalarni qabul qilmasa, unga kredit berilmasligi mumkin.

80-yillardan boshlab XTTB faoliyati qarzlariga muhtoj mamlakatlarda iqtisodiyot tuzilishini qayta qurish dasturini amalga oshirishga qaratilmoqda. (Turkiya, Filippin, Indoneziya, Chili, Argentina, Meksika, Nigeriya). Bu erda XTTB faoliyati XVF faoliyati bilan birlashib ketadi. XTTB a'zo-mamlakatlar hukumatlariga yoki hukumatlar kafolat bergan xususiy tashkilotlarga o'rta va uzoq muddatli (25 yilgacha) qarzlarni beradi hamda ularni ko'rsatilgan maqsadlarga ishlatilishini nazorat qiladi. Qarzlarni bo'yicha foizlar xalqaro kapital bozoridan Bank oladigan kreditlar qiymatiga bog'liq. 1993 moliya yilida o'rta va uzoq muddatli qarz kapitalining o'rtacha qiymati 5,97 foizni tashkil etdi.

Bankning boshqaruv Kengashida hal qiluvchi ovozga 7 etakchi mamlakat – AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Germaniya, Italiya ega. Ular XTTB ning kredit siyosatini aniqlaydilar.

XTTB ikkita ixtisoslashgan shoxobchaga ega: Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU).

XTTB ning shoxobchasi sifatida 1956 yilda yaratilgan XMK o'z shaxsiy resurslariga ega bo'lgan mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi, lekin uning faoliyati XTTB bilan chambarchas bog'langan. 1995 yilda uning a'zolari 165 mamlakat edi.

Korporatsiyaning asosiy maqsadlari- rivojlanayotgan mamlakatlarni qo'llab – quvvatlash, xususiy va aralash iqtisodidagi korxonalarni kapital qo'yilmalar yordamida moliyalashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishga xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish, iqtisodiyotni boshqarishda yordam berish.

XMK faoliyatining xususiyati shundaki, u xususiy aktsionerlarga aksiyalarni qayta sotish huquqiga ega bo'lgan holda, qurilayotgan yoki kengayayotgan korxonalarining aktsionerlik kapitalida bevosita qatnashishi mumkin. biroq XMK ning hissasi aktsionerlik kapitalining 1/5 dan oshmasligi lozim.

XMK moliyaviy resurslari quyidagilar hisobiga yaratiladi:

- XMK akçiyalariga yozilishiga muvofiq a'zo-davlatlarning badallaridan;
- XMK foydasidan ajratmalardan;
- XTTB dotaçiyalaridan;
- XTTB dan qarzlar ko'inishida jalb etilgan mablag'lardan.

Korporaçiya Umumjahon banki muassasalari ichida eng daromadli tashkilot hisoblanadi. u ustivor ravishda o'rta muddatli qarzlar (7-12 yil muddatga) beradi, ular bo'yicha foiz stavkalari bozordagidan yuqori, chunki XMK resurslarining katta qismi XTTB badallari hisobiga tashkil topadi. SHu sababdan uning kreditlaridan ko'pincha barqaror rivojlanayotgan mamlakatlardagi yuqori foyda oluvchi korxonalar foydalanadi. Asosan qayta ishlovchi, qazib oluvchi sanoat, sayyohlik, kommunal korxonalarga ajratmalar yo'naltiriladi.

Qarz qanday valyutada olingan bo'lsa, shu valyutada qaytariladi.

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) – 1960 yildan XTTB ning shoxobchasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda va uning mansabdor shaxslari tomonidan boshqariladi.

Faoliyatining xususiyati kam rivojlangan mamlakatlarga yordam berishdir. XTU dan kredit olish uchun quyidagi 4 shart yoki holat asos bo'ladi:

1. Kredit olayotgan mamlakat juda kambag'al bo'lishi kerak (bu toifaga 1993 yilda YAMM aholi jon boshiga 690 dollar miqdorida to'g'ri kelgan mamlakatlar kirdi).

2. Kredit olayotgan mamlakatda iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy barqarorlik bo'lishi lozim.

3. Kredit olayotgan mamlakat o'z to'lov balansida katta qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan bo'lishi va xorijiy valyutani imtiyozli shartlarda olishdan boshqa imkoniyatlarga ega bo'lmasligi kerak.

4. Kredit olayotgan mamlakat rivojlanishiga haqiqatda intilishi lozim va bu uning siyosatida aks etishi kerak.

SHunday qilib, XTU ning asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarga imtiyozli kreditlar berishdir. Uyushmaning moliyaviy resurslari quyidagilardan tashkil topadi:

- birinchi guruh mamlakatlarning badallari – bu 20 dan ortiq rivojlangan mamlakat, shuningdek Quvayt va Birlashgan Arab Amirliklarining konvertirlanadigan valyutadagi badallari;

- ikkinchi guruh mamlakatlarning badallari – bu kam rivojlangan mamlakatlar badallari (10 foiz konvertirlanadigan valyutada va 90 foiz milliy valyutada);

- a'zo-mamlakatlarning milliy valyutadagi qo'shimcha badallari;

- XTTB subsidiyalari;

- SHveyçariya ajratadigan kreditlar.

XTU asosan uzoq muddatli kreditlarni beradi: 40 yil muddatga kam rivojlangan mamlakatlar uchun (BMT ro'yxati bo'yicha) va 35 yil muddatga boshqa mamlakatlar uchun; bu muddatga qarz olgan mamlakat hech qanday to'lovlarni amalga oshirmaydigan 10 yillik davr ham kiritilidi (bunda faqat ma'muriy xarajatlar uchun 0,75 foiz miqdorida vositachilik haqi olinadi).

Xalqaro valyuta fondi. Jahon valyuta tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, jahon moliyaviy resurslar bozorini barqarorlashtirish va kapital aylanishini rag'batlantirish maqsadida xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari tashkil etilgan edi. Ular ichida eng ahamiyatlisi Xalqaro valyuta fondi (XVF) va qator yirik banklar – Umumjahon banki (UB), Evropa tiklash va taraqqiyot banki (ETTB), Xalqaro hisob-kitoblar banki (XHB), Islom taraqqiyot banki (ITB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqalar hisoblanadi.

1944 yil Bretton-Vudsa (AQSH) valyuta – moliya masalalari bo'yicha Birlashgan millatlarning Anjumani bo'ldi va unda 44 davlat hukumati vakillari qatnashdi. Anjumanda qator bitimlar, jumladan Xalqaro valyuta fondi to'g'risida, Xalqaro tiklash va taraqqiyot banki (Umumjahon banki) to'g'risida bitimlar tuzildi. Bu bitimlar 28 mamlakat tomonidan imzolandi va ular BMT doirasida yirik jahon moliya tashkilotlarini yaratishning huquqiy asosi bo'ldi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) 1945 yilning oxirlaridan ish yurita boshladi, hozirda unga 178 mamlakat a'zodir.

Uning asosiy maqsadi a'zo-davlatlar valyuta – moliya siyosatini muvofiqlashtirish va ularga to'lov balansini tartibga solish hamda valyuta kursini saqlash uchun qarz berish hisoblanadi. Buning uchun fond to'lov balansida qiyinchiliklar sezayotgan o'z a'zolarini moliyalashtiradi, ularning xo'jalik yuritish usullarini yaxshilashga qaratilgan texnik yordam ko'rsatadi. Oxirgi o'n yillarda XVF ning moliyaviy vositachi va yirik kreditor sifatidagi roli oshdi.

Fondning moliyaviy resurslari a'zo – mamlakatlart badallaridan, shuningdek rasmiy va xususiy moliyaviy muassasalaridan bozor shartida qarzga olingan mablag'lardan tashkil topadi. Badallarning miqdori mamlakatning fond kapitalidagi hissasiga bog'liq bo'lib, IHTT a'zolari hissasiga deyarli 62 foiz, jumladan AQSH ga 20 foizga yaqin, rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga 38 foiz to'g'ri keladi.

Qarzlari a'zo-mamlakatlar badallaridan tashkil topgan umumiy resurslar hisobidan hamda SDR⁹ shartli birliklaridagi maxsus hisobdan berilishi mumkin.

XVF operatsiyalarining xususiyati shundaki, u mablag'larni chet el valyutasini yoki SDRni milliy valyutaga ayirboshlash yo'li bilan beradi. Ma'lum vaqtdan so'ng qarz olgan mamlakat o'z qarzini fond tomonidan o'z hissasidan ortiq jamg'arilgan milliy valyutasini sotib olish yo'li bilan qoplaydi.

Umumiy hisob bo'yicha XVF barcha a'zo-mamlakatlari xorijiy valyutani oltinda, konvertirlangan valyuta va SDR da fond kapitalidagi o'z hissasining taxminan 25 foizi chegarasida shartsiz olishi mumkin. bu miqdordan ortiq qarz XVF ning iqtisodiy va ijtimoiy siyosat sohasidagi tavsiyalari bajarilgan taqdirdagina beriladi.

Oddiy kreditorlardan tashqari kam rivojlangan davlatlar aniq maqsadlar uchun ma'muriy hisoblar deb nomlangan imtiyozli kreditlar olishi mumkin. 1987 yilda har bir mamlakatning fondan olinadigan kreditlari bo'yicha qarz chegarasi shu mamlakat kvotasining 400-440 foizini tashkil qildi. Kreditlash muddati, asosan, 3-5 yil bilan chegaralangan (qarzning ba'zi turlari bo'yicha 7-10 yil bilan).

⁹ СДР – 70 – йиллардан бошлаб халқаро резерв тулов маблағи ва киймат улчови сифатида олтин урнига чиқарилган халқаро валюта.

kreditlar uchun foizlar doimo qayta ko'rib turiladi. 80-yillarning oxirida u o'rtacha 6,4 foizni tashkil etdi.

1986 yildan kam rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tuzilishini qayta qurishni moliyalashtirishning maxsus tizimi – SAF ish yurita boshladi. Bu tizim doirasida kreditlar imtiyozli davr 5,5 yil, stavka 0,5 foiz. Qarz olayotgan mamlakat o'zining butun iqtisodiyoti tuzilishini qayta qurishning XVF bilan kelishilgan uch yillik dasturini amalga oshirish yuzasidan majburiyat oladi.

1988 yildan kam rivojlangan mamlakatlar uchun iqtisodiyot tuzilishini qayta qurishni moliyalashtirishning kengaytirilgan tizimi (ESAF) ish yurita boshladi. Bu tizimda moliyaviy resurslardan foydalanish chegarasi 1986 yildagi tizimga taqqoslaganda uch yil mobaynida mamlakat hissasining 150 foizgacha, ayrim hollarda 350 foizgacha kengaydi.

Kreditlash XVF faoliyatining asosiy sohasi bo'lib qolishi sababli, u yirik iqtisodiy tadqiqotlar markaziga aylandi, bu esa unga muvofiqlashtirish funksiyasini samarali bajarishga imkon berdi.

Asosiy tushunchalar va atamalar:

Valyuta munosabatlari; Milliy valyuta tizimi; Milliy valyuta tizimi belgilari; Valyuta kursi; Valyuta pariteti; Xalqaro valyuta tizimi; Xalqaro valyuta tizimining tarkibi; Xalqaro valyuta tizimining asosiy vazifasi; Oltin standarti tizimi; Oltin o'rnini bosuvchi qimmatbaho qog'ozlar standarti; Oltin valyuta tizimi; Zamonaviy jahon valyuta tizimi; Valyuta kursiga ta'sir qiluvchi omillar; Evropa valyuta ittifoqi; Valyuta bozorlari; Jahon valyuta bozori; Xalqaro moliya-kredit munosabatlari; Xalqaro kredit bozori; Ssuda mablag'i (sarmoyasi); Tulov balansi; Savdo balansi; Fob baxolar; Sif baxolar; Savdo va xizmatlar balansi; Bir tomonlama utkazmalar; Joriy operatsiyalar buyicha balans; Tulov balansi; Foizlar va dividendlar; Uzoq muddatli karzlar va investitsiyalar; Kiska muddatli investitsiyalar va karzlar; Xorijiy rezervlar; Xalkaro likvidlik; Xalqaro moliya bozori; Evrobozor; Evrovalyuta; Evrodollar; Iqtisodiy birlashgan tashkilotlar; Ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar; Savdo sohasidagi xalkaro iqtisodiy tashkilotlar; Intellektual mulkni himoya qilish umumjahon tashkiloti; Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot; Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHTT); Xalkaro valyuta – moliya tashkilotlari; Xalqaro valyuta fondi (XVF); Jahon banki guruhi; Xalkaro Tiklanish va Tarakkiyot Banki (XTTB); Xalkaro Moliya Korporatsiyasi (XMK); Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU).

10 - Mavzu: Xalqaro iqtisodiy integratsiya va uning milliy xo'jaliklar rivojlanishiga ta'siri

- 10.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, ko'rinishlari.
- 10.2. G'arbiy Evropa integratsiyasining rivojlanish bosqichlari.
- 10.3. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalarning asosiy belgilari.
- 10.4. Xalqaro tashkilotlar klassifikatsiyasiga umumiy tafsiv.
- 10.5. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda qatnashishi.

10.1.Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, ko'rinishlari

Jahon tajribasi ko'rsatadiki, integratsion jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi nisbatan uzoq davrni qamrab oladi. Bu jarayonlarning amal qilish mexanizmi esa, mantiqiy ketma-ketlikda bosqichma-bochqich shakllanadi.

Integratsion munosabatlarning amal qilishi asosan quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Tovar va xizmatlar xalqaro savdosi;

Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlik;

Xalqaro ilmiy-texnika hamkorligi;

Mintaqaviy integratsion birlashmalarning shakllanishi va rivojlanishi.

Xalqaro savdo dunyodagi barcha mamlakatlarning tashqi savdosini qamrab oluvchi jamlama tushuncha bo'lib, xalqaro tovar-pul munosabatlari sohasi hisoblanadi. Bu bozorda xaridor va sotuvchilar sifatida davlat, davlat korxonalari, transmilliy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar, turli firmalar, alohida jismoniy shaxslar faoliyatda bo'lishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotdagi tarmoqlar integratsiyasi. Mamlakatlar o'zaro integratsion aloqalarining asosini tovar va xizmatlar savdosi tashkil etadi. SHu sababli ular mazkur savdo aloqalarini erkinlashtirish, o'zaro qulay savdo shart-sharoitlarini yaratish, protektsionistik vositalarga barham berish, tarifli savdo tartibini takomillashtirib borish, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish kabilar orqali integratsion munosabatlarni tartibga solish va rag'batlantirishga harakat qiladilar.

Integratsiyaning muhim mexanizmlaridan yana biri ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishdagi halqaro hamkorlik hisoblanadi. Buning asosida alohida tovarlar guruhi, tovar yoki tovarning ehtiyot qismlarini ishlab chiqarishda tarmoq va tarmoq ichi ixtisoslashuvi yotadi. Boshqacha aytganda u yoki bu mamlakat yuqori mehnat unumdorligiga erishish, iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va xarajatlarini imkon qadar kamaytirish uchun muayyan ishlab chiqarish yo'nalishiga ixtisoslashadi. Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlikning asosiy shakllari tovar ishlab chiqarish va sotishdagi kooperatsiya, korxonalarga birgalikda egalik qilish (qo'shma korxona), qurilish sohasidagi konsorviumlar tashkil etish kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sohasidagi xalqaro hamkorlik integratsion aloqalarda o'zining barqarorligi va doimiyligi bilan, loyihalarni keng qamrab olishi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli shartnomalar asosida bunday hamkorlikni nafaqat rivojlangan

davlatlar o'rtasida, balki taraqqiyot darajasida tafovut katta bo'lgan sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ham rivojlantirib borish imkoniyati keng hisoblanadi.

Xalqaro integratsiyada ilmiy-texnika hamkorligining ahamiyati so'nggi o'n yillikda ortib bormoqda. Chunki, ilmiy-texnika taraqqiyoti milliy xo'jaliklarning jadal rivojlanishiga, ijtimoiy-maishiy muammolarni nisbatan tez hal qilishga imkoniyat yaratmoqda.

Ilmiy-texnika hamkorligi ilmiy tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, texnik va muxandis xodimlar guruhini shakllantirish va qo'shma loyihalarda qatnashish, ilmiy-tadqiqot markazlari, laboratoriyalari, byurolari tashkil etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabilarda namoyon bo'lmoqda.

Ayni vaqtda, dunyo mamlakatlarining ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion salohiyati jahonning muayyan markazlarida to'planib qolishi tendentsiyasi kuchaymoqda. Bu markazlar asosan, AQSH, Evropa va Janubiy-Sharqiy Osiyo (Yaponiya, Janubiy Koreya kabilar) hisoblanadi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish yuqori innovatsion salohiyatni, yuqori ilmiy malakali xodimlarni, chuqur fundamental va amaliy tadqiqotlar majmuasini shakllantirish talabini qo'ymoqda. Bu, o'z navbatida, mamlakatlar axborot ta'minoti va almashinuvida, ilmiy-innovatsion infratuzilmani rivojlantirishda hamkorlikda ishlashlarini taqozo etayapti.

Mamlakatlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar savdosini kengaytirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini ta'minlash, ilmiy-texnika hamkorligini chuqurlashtirish ularning hududiy jihatdan yaqin bo'lishini ob'ektiv zaruratga aylantirgan. Shu sababli, rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, ba'zi mamlakatlar hududiy integratsion aloqalarni shakllantirgan.

Integratsiya yo'nalishiga ko'ra ikkiga bo'linadi. Ulardan birinchisi, mintaqaviy, ikkinchisi, xalqaro miqyosdagi integratsiyadir. Integratsiyaning ana shu ko'rinishlari o'zaro to'ldiruvchanlik xususiyatiga ega. Mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi integratsiyadan maqsad iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mamlakatlar manfaatlarini yanada kengroq ro'yobga chiqarishdan iboratdir.

Mamlakatlarning geografik joylashgan o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va shu kabi boshqa omillar integratsiyaning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan integratsiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, mintaqaviy integratsiyani ustun takomillashtirib boradilar. Bunga Evropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (NAFTA), Osiyo – Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mamlakatlarning mintqa miqyosida integratsiyalashuvi orqali xalqaro integratsiya rivojlanib borishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib boriladi. Chunki, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo mintaqaviy integratsiyaning rivoji uchun asos bo'lgani singari, mintaqaviy integratsiya ham xalqaro integratsiya rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Mintaqaviy doirada integratsiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, o'zaro tashqi savdoni cheklashga qaratilgan kvota kabi to'siqlarni bartaraf qiladilar. Shundan so'ng, yagona bojxona tizimi shakllanadi, mintaqaviy integratsiyaga a'zo mamlakatlar

uchun bir xil boj stavkalari joriy etilib, uning to'la amal qilinishiga erishiladi. Bu jarayon mamlakatlardagi ishlab chiqarishning rivojlanishini yanada rag'batlantirish uchun, soliq tizimidagi imtiyoz va turli cheklovlarni bekor qilish maqsadida, integratsion hududga kiruvchi davlatlarda soliq stavkalarining yaqinlashtirilishini ham taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra dunyo mamlakatlarida ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va uni bosqichma-bosqich erkinlashtirish bilan bog'liq islohotlarni amalga oshirishda barcha zaruriy qulayliklarga ega bo'lgan samarali iqtisodiy model sifatida tarkib topdi va doimiy ravishda takomillashib bordi.

Biroq bu jarayon uzoq davom etgan bo'lib, er yuzida tabiiy resurslarning notekis taqsimlanganligi tufayli jahon xo'jaligi tizimida halqaro mehnat taqsimotini vujudga keltirdi va uni ob'ektiv zaruratga aylantirdi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, jahon xo'jaligi tizimida halqaro mehnat taqsimoti jarayonining keng miqyosda tarqalib borishi, turli mamlakatlar va qit'alar o'rtasida muntazam iqtisodiy aloqalarni o'rnatish zarur ekanligini taqozo etdi va iqtisodiyotning milliy alohidalashuvini keskin chekladi.

XX asrning ikkinchi yarmida xo'jalik aloqalarining bayналminallashuvi hozirgi zamon dunyo xo'jaligining rivojlanishida etakchi yo'nalishlardan biri bo'lib qoldi. Dunyo xo'jaligining katta miqyosda bayналminallashuvi asosiy yo'nalishlaridan biri u yoki bu mamlakatning, yoki kuchli rivojlangan davlatlar guruhining ta'sir zonalari paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Bu mamlakatlar yoki davlatlar guruhi o'ziga xos integratsiya markazlariga aylanib ular atrofida boshqa mamlakatlar birlashadilar.

Jahon xo'jaligi iqtisodiy integratsiyasi – bu milliy bozorlar va mamlakatlar milliy xo'jaliklari o'rtasidagi bog'liqlikni anglatib, turli mamlakatlar doirasida resurslarning erkin harakatlanishi orqali yagona umumiy bozorlarning vujudga kelish jarayoni demakdir.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunga qadar jahon xo'jaligi amaliyotida tarkib topgan iqtisodiy aloqalar tizimi har doim ham iqtisodiy integratsiyani anglatavermaydi.

Iqtisodiy integratsiyaga ikki asosiy omil: ilmiy texnika taraqqiyoti va transmilliy korporatsiyalar katta ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatlarning xalqaro integratsiya jarayonlarida ishtirok etishi uchun kuyidagi asosiy shartlarning mavjud bo'lishi talab etiladi:

birinchidan, yirik sanoatlashgan ishlab chiqarishning chuqur ixtisoslashuvi oqibatida tashqi aloqalarning rivojlantirish zarurati paydo bo'ladi, ya'ni mashinalashgan ishlab chiqarish tashqi aloqalarsiz rivojlana olmay qoladi;

ikkinchidan, turli mamlakatlar iqtisodiy qudratida g'oyat katta tafovutlar bo'lmasdan, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-birini taqozo etadi;

uchinchidan, turli mamlakatlar hududiy umumiylikka ega bo'lib, ularning tarixan rivojlangan hamkorlik aloqalari mavjud bo'ladi.

Iqtisodiy integratsiyaga ikki asosiy omil: ilmiy texnika taraqqiyoti va transmilliy korporatsiyalar katta ta'sir ko'rsatadi.

Integratsiya aloqalarining paydo bo'lishiga olib keluvchi birinchi shart bu mamlakatlarning geografik, ya'ni hududiy yaqinligidir.

Xuddi shu asosda Evropa Ittifoqi, AQSH va Kanada erkin savdo kelishuvi, Evropa erkin savdo assotsiatsiyasi, Lotin Amerika integratsiya assotsiatsiyasi kabi

uyushmalar tashkil topgan. Geografik yaqinlik bu mamlakatlar uchun tovar oqimini kam masofada tashishga yordam beradi.

Bir-biriga yaqin xalqlarning tovarlarga bo'lgan talabi, didi hohishi ham o'xshab ketadi. Geografik yaqinlik tarixiy kelib chiqishi va qiziqishlarining o'xshashligini ham keltirib chiqaradi.

Integratsiya yuzaga kelishining asosiy shartlariga yana, bu mamlakatlar iqtisodiy darajasining bir-biriga yaqinligi, ya'ni kuchli tafovut qilmasligi sabab bo'ladi.

Mashinalashgan ishlab chiqarishning chuqur ixtisoslashuvi va tashqi iqtisodiy aloqalarsiz rivojlana olmay qolishi ham integratsiyani keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy integratsiyaning 4 ta asosiy shakli mavjuddir:

1) Erkin savdo zonasi. Bu integratsiyaga kirgan mamlakatlar o'zaro boj to'lovlarini yo'q qildilar, lekin boshqa mamlakatlar uchun boj to'lovi saqlanib qoldi. Integratsiyaning bunday shakliga AQSH bilan Kanada o'rtasidagi kelishuv, Evropa erkin savdo assotsiatsiyasi va Lotin Amerika integratsiya assotsiatsiyasi misol bo'la oladi.

2) Bojxona ittifoqi. Bunda ichki tariflar yo'qolib, yagona tashqi tarifga aylantiriladi. Evropa Ittifoqi tashkil topishi mana shu bojxona ittifoqidan boshlangan. Bojxona ittifoqiga misol qilib, And gruppasi, Markaziy Amerika umumiy bozori, Karib havzasi hamjamiyati va umumiy bozorini ko'rsatsa bo'ladi.

3) Umumiy bozor. Bunda bojxona ittifoqining hamma xususiyatlari saqlanib qolishi bilan birgalikda, ishlab chiqarish omillarining, masalan, mehnat va kapitalning ham erkin harakatiga yo'l ochib berilgan bo'ladi. Unga Evropa Ittifoqi misol bo'ladi.

4) To'liq iqtisodiy integratsiya. Bunday integratsiyada pul kredit siyosati, ijtimoiy siyosat, rivojlanish strategiyasi, soliqqa tortish bir xil holga keltirilgan bo'ladi, hamda hamma davlatlarnikidan ustun turuvchi tashkilot tuzilib, unga barchasi bo'ysunadilar.

Evropa parlamenti xuddi shunday tashkilot bo'lib, EI ga a'zo bo'lgan mamlakatlarning siyosiy jihatdan birlashganligini bildiradi.

10.2. G'arbiy Evropa iqtisodiy integratsiyasining rivojlanish xususiyatlari

XX asrning 50-yillaridan so'ng ruy bergan bir necha tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqealar G'arbiy Evropa mamlakatlari integratsion guruhining tarkib topishiga zamin yaratdi. Ushbu tashkilotni tashkil topishida 1960 yilning 9 mayida Germaniya va Fransiya o'rtasida ko'mir va po'lat ishlab chiqarishni muvofiqlashtirishni taklif etgan Fransiya tashqi ishlar vaziri R.SHumanning taklifini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir. Umumevropa hamkorligini umumlashtirishda "Marshall rejasi" (1948-yil) ham ma'lum ahamiyatga ega bo'ldi. Bu reja doirasida G'arbiy Evropa davlatlari o'z xo'jalik hayotini tiklash va qayta qurish uchun AQSHdan juda katta (12,4 mlrd.AQSH dollari) moddiy yordam oldilar. Bundan tashqari 1949 yilda sobiq SSSR boshchiligida SHarqiy Evropa davlatlarining O'zaro Iqtisodiy YOrdam Kengashining (O'IYOK) tashkil etilishi ham G'arbiy Evropa mamlakatlarini

milliy xo'jaliklarini bir-biriga yaqinlashishiga turtki bo'lgan edi. Va nihoyat, muctamlakachilik imperiyaning (Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya va boshqalarning) parchalanishi sobiq metropol davlatlarining o'z materigidagi qo'shnilari bilan iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga e'tibor berishga majbur etdi. SHunday qilib, 1961 yilning aprelida **ko'mir va po'lat bo'yicha Evropa birlashmasi (KPEB)**ni ta'sis etish xaqida Parij shartnomasi imzoladi. Ushbu tashkilotga olti davlat (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg (BENILYUKS davlatlari), GFR, Fransiya va Italiya) a'zo bo'lib kirdi, 1955 yilning iyun oyida bo'lib o'tgan Messin anjumani qarorlari ham integratsion jarayonlarning rivojlanishiga yangi turtki bo'ldi. Ushbu anjumanda Evropa integratsiyasining istiqbollari belgilab olingan bo'lib, bundan maqsad milliy xo'jaliklarni birlashtirish va shuningdek ijtimoiy, siyosatda muvofiqlashtirish orqali umumiy bozorni shakllantirish edi.

Evropa Ittifoqining (EI) navbatdagi ikkinchi yirik tarixiy bosqichi 1957 yilning mart oyida bojxona ittifoqi va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy siyosat olib borishga asoslangan Evropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EIX)ni tashkil etish to'g'risidagi Rim shartnomasini imzolanishi bo'ldi. SHu yili atom energetikasi bo'yicha Evropa Hamjamiyati (EH) tashkil topdi. Rim shartnomasining kuchga kirishi bilan ko'mir va po'lat bo'yicha Evropa birlashmasi (KPEB), Evropa Iqtisodiy Hamjamiyati va Evroatom tashkilotlari birlashdi. YUqorida zikr etilgan olti mamlakat (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, GFR, Fransiya va Italiya) unga a'zo bo'lib kirdi. Ushbu hujjatlar integratsion jarayonlarni rivojlantirishga doir asosiy yondashuvlarni, jumladan, "to'rtta erkin makon" ni (tovarlar va xizmatlar ko'rsatish; kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishi makonlarini) yaratish imkonini berdi. XX asrning 60-yillarida Evropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EIH) tashkilotining davlatlararo muvofiqlashtiruvchi organlarini shakllantirish jarayoni amalga oshirildi. Vazirlar kengashi, Evropa Komissiyasi va Evropa sudi tashkil topdi.

1969 yilda Gaaga shahrida (Niderlandiya) bo'lib o'tgan majlis EI tarixida ikkinchi bosqich tugaganligidan dalolat beradi. Bu davrni Bojxona Ittifoqi (BI) bosqichi deb ham atash mumkin. 1978 yilda "oltilik" davlatlar tarkibiga Buyuk Britaniya va Irlandiya davlatlari, 1981 yilda Gretsiya, 1986 yilda Ispaniya va Portugaliya davlatlari ham qo'shildi. 1974 yilda Evropa Kengashi tashkil topdi. 1979 yildan boshlab esa Evropa parlamenti saylanib, faoliyat ko'rsata boshladi. 1979 yilda Evropa valyuta tizimi vujudga keldi.

EI davlatlarining tashkil topishida 1986 yilda imzolangan yagona Evropa Akti (YAEA) ham muhim rol o'ynadi. Ushbu akt umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirishning barcha yo'llarini (savdo yo'lidagi barcha to'siqlarni olib tashlash, ishtirokchi mamlakatlar o'rtasidagi chegaralarni ochish, ilmiy-texnologik ayirboshlashni jadallashtirish, yagona valyuta tizimini joriy etish, EIning barcha fuqarolari teng huquqliligi hamda ijtimoiy kafotlanishi va boshqalar) belgilab berdi.

Evropa ittifoqi davlatlarining rivojlanishini uchinchi, ya'ni zamonaviy bosqichi G'arbiy Evropada iqtisodiy ittifoqni yaratishga qaratilgan bo'lib, u XX asrning oxirgi o'n yilliklariga to'g'ri kelgan edi. 1990 yilda Evropa hamjamiyatining 12 davlat rahbarlari inson va tovarlarning, kapital va axborotlarning erkin harakatlanishi uchun ishtirokchi mamlakatlar o'rtasidagi chegaralarni 1993

yilning 1 yanvaridan ochish to'g'risida SHengen bitimini imzoladilar. 1992 yilda EI to'g'risida Maastrixt shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga ko'ra quyidagilar ta'sis etildi:

- yagona Evropa fuqaroligi;
- siyosiy ittifoqligi;
- iqtisodiy valyuta ittifoqligi va boshqalar.

Maastrixt shartnomasida milliy valyutalarni asta-sekin muomaladan chiqarib, yagona umumevropa pul birligini (evro) joriy etishdek murakkab jarayonga ilk qadam qo'yildi. Va nihoyat, 1995 yilda Evropa Iqtisodiy Hamjamiyatga yana uchta davlat (Avstriya, Finlandiya va SHvetsiya)ning kirishi va EIHning EI deb nomlanishidan so'ng yana bir integratsion birlashma o'zining hozirgi zamonaviy ko'rinishiga ega bo'ldi.

2004 yilning 1 mayida EI tarkibiga Evropaning yana 10ta davlati qo'shildi. 2004 yilning mayiga qadar EI davlatlari aholisi 370 mln. kishidan ortiq bo'lib, Evropaning 15 mamlakatini o'z tarkibiga birlashtirgan edi (9.2.1-jadval).

Evropa ittifoqining asosiy maqsadi, Evropa xalqlarining uzviy aloqasini tashkil etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish, ichki chegaralarsiz umumiy makonni yaratish, ijtimoiy sohada aloqalarni kuchaytirish hisoblanadi.

Evropa Ittifoqini Evropa kengashi boshqaradi. (2009 yil noyabr oyida Evropa Ittifoqi Prezidenti tayinlandi.) Kengash a'zolari bo'lib mamlakatlarning davlat yoki hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari, Evropa Komissiyasi Raisi va uning bir a'zosidan tarkib topgan. Evroparlament o'zining umumiy majlislarini oyda bir marta bir hafta davomida Fransiyaning Strasburg shahrida o'tkazadi. Parlamentning muhim huquqi - EI byudjetini tasdiqlashdir.

Evropa Ittifoqi kengashi a'zo davlatlarning hukumat vazirlaridan iborat. Bu tashkilotning qarorlari ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi, bu esa mamlakatlarga ma'lum kvota berishni talab qiladi.

Evropa ittifoqining iqtisodiy masalalariga keladigan bo'lsak yaqin yillardagi eng yaxshi vazifasi valyuta islohotlarini o'tkazish hisoblanadi. Bu milliy valyutalarning muomaladan chiqarish va yagona valyuta - evroni joriy etishdan iborat.

9.2.1-jadval

Evropa Ittifoqi va Evropa monetar birligining a'zolari

№	EI mamlakatlari	A'zo bo'lgan vaqti	EVRO zonasiga a'zoligi
1.	Germaniya	1952	A'zo
2.	Fransiya	1952	A'zo
3.	Italiya	1952	A'zo
4.	Gollandiya	1952	A'zo
5.	Belgiya	1952	A'zo
6.	Lyuksemburg	1952	A'zo
7.	Buyuk Britaniya	1973	----
8.	Daniya	1973	A'zo

9.	Irlandiya	1973	A'zo
10.	Greçiya	1981	----
11.	Ispaniya	1986	A'zo
12.	Portugaliya	1986	A'zo
13.	SHveçiya	1995	----
14.	Finlandiya	1995	A'zo
15.	Avstriya	1995	A'zo
16.	CHexiya Respublikasi	2004	----
17.	Polsha	2004	----
18.	Vengriya	2004	----
19.	Sloveniya	2004	----
20.	Kipr	2004	A'zo
21.	Slovakiya	2004	----
22.	Malta	2004	----
23.	Estoniya	2004	----
24.	Latviya	2004	----
25.	Litva	2004	----
26.	Bolgariya	2007	----
27.	Ruminiya	2007	----

Ushbu jarayon ibtidosi 1992 yildagi Maastrixt shartnomasidan boshlangan. Valyuta ittifoqi tomon harakat uch bosqichda amalga oshirilmoqda. 1996 yilning 1 yanvarigacha tayyorgarlik, 1999 yilning 1 yanvarigacha tashkiliy va 2002 yilgacha yakuniy bosqichlardir. Evro hududiga kirish uchun asosiy mezonlar quyidagilardan iboratdir:

- byudjet kamomadi 2%dan yuqori bo'lmasligi;
- davlat qarzi YAIMning 60%dan yuqori bo'lmasligi;
- yillik inflyatsiya 1,5%dan yuqori bo'lmasligi;
- uzoq muddatli kreditlar bo'yicha o'rtacha nominal foiz stavkasi yiliga 2%dan yuqori bo'lmasligi;
- valyuta kursining tebranishi 2,25%dan baland bo'lmasligi va boshqalar.

Valyuta ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarga qo'yilgan talablarning qattiqligi EI davlatlarining 2 guruhga saralanishiga olib keldi. 2002 yilgacha evroni muomalaga kiritadigan davlatlar (15tadan 11tasi) va bu jarayon 2002 yildan keyinga qoldiruvchi davlatlar (Buyuk Britaniya, Greçiya, Daniya, SHveçiya) hisoblanadi. 2002 yilning o'rtalariga kelib 11 ta davlat o'z milliy valyutalarini emissiya qilishni to'xtatishdi. Muomalaga evroning 5ta tanga puli va 9ta kog'oz pullari kiritildi. Mavjud milliy pul belgilari asta sekin muomaladan chiqarildi. Barcha hisob-kitob operatsiyalari xalqaro elektron tizim «Target» yordamida evroga o'tkazildi.

Evropa Valyuta Ittifoqining shakllanishida uning bosqichlari hamda YAgona Valyutaga o'tish tartibi, shuningdek, "Evro zona" siga kirish uchun "konvergençiya shartlari" to'g'risida chuqurroq tuxtalib o'tish talab etiladi.

Evropa va Valyuta Ittifoqi shakllanishining birinchi bosqichi 1990 yil 1 iyuldan 1993 yil 31 dekabrgacha davom etdi va hozirda to'liq yakunlangan. Uning doirasida Evropa Ittifoqi haqidagi Maastrixt shartnomasidagi bandlar ruyobga chiqishi uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik ishlari olib borildi. Xususan, Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va Evropa Ittifoqi hamda uchinchi davlatlar o'rtasida kapital migratsiyasi

yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlandi. Evropa Ittifoqi ichidagi davlatlardagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni bir-biriga yaqinlashtirishga katta e'tibor berildi va a'zo davlatlar bir necha yilga mo'ljallangan shu maqsaddagi shartnomalar imzolashdi, ularda antinflayon, byudjet siyosatining konkret maqsadlari va ko'rsatkichlari ko'rsatildi.. Evroni kiritishga tayyorgarlik sifatida bu dasturlar Evropa Ittifoqining iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi (EkOFIN) ga taqdim etilib va Maastrixt shartnomasida ko'rsatib o'tilgan, inflyatsiyaning past sur'atlarini davlat moliyasini sog'lomlashtirishga va a'zo-davlatlar valyutalari o'rtasidagi almashinuv barqarorligini saqlab qolishga qaratilgan edi.

Evropa Valyuta Ittifoqini shakllantirishning ikkinchi bosqichi 1994 yil 1 yanvaridan boshlanib, 1998 yil 31 dekabrda tugadi. U a'zo davlatlar evroning kiritilishiga yanada konkret va chuqurroq tayyorgarlik ko'rishiga mo'ljallandi. Uning asosiy tashkiliy voqeasi Evropa Markaziy Bankining avvalgi sifatida Evropa Valyuta instituti tuzilmasi bo'ldi. Asosiy vazifasi esa evro kiritilishining 3-bosqichidan Evropa Markaziy Banki o'z funktsiyalarini bajara olishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik shart-sharoitlarni shakllantirish edi. U bundan tashqari, EVI tuzilishi jarayonida Evropa Ittifoqining a'zo davlatlari olib boradigan milliy pul siyosatlari muvofiqlashuvining kuchayishiga javob berar va shu doirasda milliy davlatlar Milliy Banklariga tavsiyanomalar bera olar edi.

Bu bosqichning boshqa asosiy voqealari quyidagilar hisoblanadi:

Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar ichida davlat sektoridagi korxona va tashkilotlarni Markaziy Banklar tomonidan kreditlash orqali moliyalashni va Markaziy Banklar davlat qarzlarini sotib olishini taqiqlovchi qonunchilikning qabul etilishi. Bu ta'qiq 3-bosqichda EMBga ham tarqatildi;

Davlat sektori korxonalari moliyaviy institutlar mablag'idan imtiyozli foydalanishini taqiqlovchi qonun qabul etilishi. Bu narsa 3-bosqichda EMB ga ham tarqatildi;

Biron a'zo davlatning davlat sektorlari qarzlarini boshqa a'zo davlat va EVI sotib olishini ta'qiqlash;

Barcha a'zo davlatlar byudjet defitsitining haddan tashqari oshib ketmasligiga hamma kuchlarni safarbar etishlariga kat'iy talab (YAIM ning 3 % defitsit, ya'ni YAIM 60 % gacha davlat qarzi). Bu EI kengashi tomonidan nazorat procedurasiga kiritildi va bunaqa defitsit bo'lgan taqdirda sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlar haqida takliflar kiritish bilan mustahkamlandi;

SHaroiti bor davlatlarda milliy Markaziy Banklar ustav mustaqilligini ta'minlovchi milliy qonunchilikning qabul etilishi va bu bilan ularning huquqiy statusini EMB bilan tenglashtirish.

Nihoyat, 1998 yil 2 mayda davlat boshliqlari va hukumat raislaridan iborat EI ning kengashi sessiyasida ko'pchilik ovoz bilan EVI shakllanishining 3-bosqichida qaysi davlatlar Evroga o'tishini belgilandi. Bu qaror EkOFIN tavsiyasi bilan qabul etildi. Tavsiya esa Maastrixt shartnomasi bo'lib, bunga tegishli protokol bilan o'rnatilgan evroga o'tishda bajarilishi lozim bo'lgan davlat moliyasini stabillashtirish bo'yicha "o'tish" me'zonlaridan kelib chiqqan. Bu mavzuda Evro Parlament bilan konsultatsiyalar o'tkazildi va tegishli xulosalar EI kengashiga yuborildi. 3-bosqichdan

evroga o'ta olmaydigan davlatlar ayrim shartlarni vaqtincha bajarmaslik huquqini oldi.

Uchinchi bosqich 1999 yil 1 yanvardan boshlandi. SHundan boshlab evroning milliy valyutalarga nisbatan qat'iy almashuv kurslari o'rnatildi, Evro esa ularning umumiy valyutasi bo'lib qoldi. U EKYU ni 1:1 nisbatda almashtirdi. Evropa Markaziy Banklari tizimi o'z ishini boshladi, EMV esa a'zo-davlatlar uchun pul siyosatini olib borish maqsadida evrodan foydalana boshladi.

EMVT evroni xalqaro valyuta bozorlariga sig'ira boshladi. Uning ushbu bozorlardagi operatsiyalarini o'tkazish va hisobga olishda evrodan foydalannila boshladi. Pul siyosati mexanizmlari orqali tijorat banklari va yirik korxonalar o'z operatsiyalarini evroga o'tkazishni rag'barlantiradi. A'zo-davlatlar obligatsiyalari evroda hisoblanadi. Xullas, yirik operatsiyalar evroda o'tkazila boshlangan bu bosqichda evro a'zo davlatlarning asosiy pul birligi bo'lib qolishi kerak.

Evro banknotlari va tangalari 2002 yil 1 yanvardan muomilaga chiqarildi boshlanadi va milliy valyutalarni muomiladan chiqarish jarayoni boshlandi. Bu bosqich 2002 yil 1 iyuligacha davom ettirilib, evroni yagona qonuniy to'lov va muomila vositasiga aylantirdi.

To'rtinchidan, "Evro zonasi"da qatnashish uchun "konvergeniya kriteriyalari" EI doirasida iqtisodiy va Valyuta Ittifoqi samarali faoliyat olib borishi uchun a'zo davlatlar barqaror konvergeniyaning yuqori darajasiga erishishi zarur. SHu maqsadda yagona valyutaga o'tishdan manfaatdor davlatlar uchun Maastrixt shartnomasida va 6-protokolda ko'zda tutilgan barcha «konvergeniya kriteriyalari»ga rioya etish talab qilinadi. Bular quyidagilardir:

- baholar barqarorligining yuqori darajasiga erishish;
- hukumatning barqaror moliyaviy holati;
- kurs tebranishining o'rnatilgan me'yorlariga rioya etish;
- "yaqinlashish" dinamikasi.

1995 yilda EH roziligi bilan Avstriya, Norvegiya, SHveitsiya va Finlandiya unga a'zo bo'ldilar (Buyukbritaniya, Daniya, Portugaliya mamlakatlari 70-yillardayoq EHga a'zo bo'lib kirgan edi).

Hozirgi kunda Evropa Ittifoqi deb ataladigan bu tashkilotning umumiy va milliy manfaatlarini muvofiqlashtirib turadigan 4 ta muassasa mavjuddir: EI komissiyasi, Vazirlar kengashi, Evropa Parlamenti va Evropa Sudi.

Komissiyaning shtab kvartirasi Bryusselda joylashgan bo'lib, u ittifoqning siyosatini ishlab chiqadi, qonun va shartnomalarning ittifoq a'zolari tomonidan amal qilishlarini nazorat qilib turadi.

Vazirlar kengashi shtab kvartirasi ham Bryusselda bo'lib, unda har bir a'zo mamlakatdan bir vakil qatnashadi. Ular ittifoq siyosatini xayotga taqdim qiladilar va real kuchga egadirlar.

Parlament Lyuksemburgda joylashgan bo'lib, hamma mamlakatlar tomonidan saylanadi. Lekin uning a'zolari hech qachon o'z mamlakati manfaatlarini ko'tarib chiqmaydilar, umummanfaati uchun kurashadilar.

Parlamentning yillik sessiyalari Strasburgda o'tkaziladi. Parlament mamlakatlardagi qonun chiqaruvchi organlardek kuchga ega bo'lmasada, EI ning byudjeti tasdiqlanishida hal qiluvchi kuchga egadir.

Evropa Ittifoqining sudi ham Lyuksemburgda joylashgan. Unda ham har bir mamlakatdan bir vakil qatnashadi. Sud a'zo mamlakatlar tomonidan shartnomalarning buzilishini ko'rib chiqadi.

Hozirgi kunda EI oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlar quyidagilardir:

♦ qishloq xo'jaligi, baliqchilik, transport, atrof-muhitni himoya qilish, raqobatni tartibga solib turish singari sohalardagi siyosatni, mintaqaviy siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalar, energetika siyosatini birgalikda o'tkazish;

♦ ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari doirasidagi faoliyati, telekommunikatsiyalar, qatnashchi mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyasini chuqurlashtirish, ijtimoiy siyosat sohasidagi iqtisodiy tadbirlarni muvofiqlashtirish, iqtisodiy va valyuta ittifoqini yaratish (1999 y.1 yanvardan yagona pul-kredit siyosatini o'tkazish boshlandi).

SHu tarzda EI o'zining qariyb 350 mln. aholisi bilan dunyoda eng katta birlashgan bozorga aylanmoqda. Evropa kompaniyalari hozir faqat amerika va yapon firmalarining qurbi etishi mumkin bo'lgan keng ko'lamli iqtisoddan foydalanmoqdalar. O'z mahsulotini g'oyat katta miqyosdagi yagona bozorda sota oladigan tadbirkorlar uchun ishlab chiqarish harajatlari kamaymoqda. Eksport chiqimlari ham pasaymoqda. Bundan milliy iqtisodiyotlar ham, EI mamlakatlari ham manfaat ko'rayotir.

Hozirgi kunda dunyo eksportining 40 % ini EI, 12 % ini AQSH va 10 % ini Yaponiya etkazib beradi. Evropa Ittifoqining ichki tariflarni yo'q qilish va boshqa siyosatlarini qabul qilmagan Evropaning 7 ta davlati 1960 yilda Evropa erkin savdo assotsiatsiyasini tashkil qildilar (Avstriya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, SHveçiya, SHveyçariya, Angliya). YAqin kunlarga bu tashkilotga 6 ta mamlakat a'zo edi (Avstriya, Finlyandiya, SHveçiya, Norvegiya, Islandiya, SHveyçariya).

Ma'lumki, birinchi uchasi 1995 yilda EI ga a'zo bo'lib kirdilar.

10.3. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalarning asosiy belgilari

G'arbiy Evropada iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish muvaffaqiyatlari dunyoning rivojlanayotgan mintaqalari diqqatini o'ziga tortdi. Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyoda 30 dan oshiq erkin savdo zonalari, bojxona ittifoqi va iqtisodiy uyushmalar paydo bo'ldi.

Ammo, eng shiddatli rivojlanayotgan integratsion jarayon **SHimoliy Amerika erkin savdo zonasi - NAFTA** ning tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi bo'ldi. AQSH ning Kanada bilan, va bu ikkisining g'arbiy evropalik sheriklari bilan bo'lgan hamkorligi AQSH ni qoniqtirmay qo'ydi. Natijada SHimoliy Amerikadagi integratsion jarayon ikki mamlakat doirasidan chiqib, 1994 yil 1 yanvarda SHimoliy Amerika savdo zonasi to'g'risida shartnoma qabul qilindi, unga AQSH bilan Kanadadan tashqari Meksika ham qo'shildi. Bu, juda katta hududga va kuchli iqtisodiy qudratga ega bo'lgan uyushmada 370 mln. kishi aholi yashaydi.

Ushbu mamlakatlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning yillik hajmi 7 trln. dollarni tashkil etdi. Ularga jahon savdosi hajmining 20 % i to'g'ri keladi.

Bu uyushmani tashkil qilishdan maqsad:

♦ AQSH, Kanada va Meksikaning o'zaro savdosida hamma tovarlarga bojxona to'lovlarini bekor qilish;

♦ o'z tovarlarini amerika bojxonalarini chetlab o'tib, Meksika orqali AQSH ga o'tkazishga harakat qiladigan Osiyo va Evropa kompaniyalaridan SHimoliy Amerika bozorini himoya qilish;

♦ Amerika va Kanada kompaniyalarining Meksikada olib boradigan bank va sug'urta ishidagi raqobatiga va kapital qo'yishni taqiklashga chek qo'yish;

♦ atrof-muhitni muhofaza qilishdagi muammolarni echish uchun uch tomonlama guruhlar tashkil qilish. AQSH Meksikadan import qilib keltiriladigan mahsulotlarning uchdan ikki qismiga 5 yil davomida savdo to'siqlarini bekor qiladi.

Bu uyushmaning tashkil qilinishidan, ayniqsa savdo mahsulotlarining iste'molchilari katta manfaat ko'radilar, chunki raqobatning kuchayishi va savdo to'siqlarini kamaytirish - keng iste'mol mollarining narxi pasayishiga olib keladi. Bu uyushmadan amerika sanoatchilari ham manfaat ko'radilar, chunki arzon ishchi kuchlarining kirib kelishi kuchayadi. Amerika iqtisodiyotining elektronika, kompyuterlashtirish, qurilish materiallari, avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari ham ortiqqa ega bo'lishi aniqdir. Lekin, shu bilan birgalikda, shakar, qitrus mevalari, sabzavot ishlab chiqaradigan amerika fermerlari yutqazadilar. Meksika esa, NAFTA ga a'zo bo'lishdan o'z iqtisodiy o'sish sur'atlarini (YAMM ni yiliga 1,6- 2,6 % ga) o'stirishga va sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish davrini 50 yildan 10-15 yilgacha qisqartirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dastlabki davrda, NAFTA ga a'zo bo'lishdan eng kam manfaat ko'radigan mamlakat Kanada bo'ladi. Uning iqtisodi AQSH bilan juda mustahkam bog'langan, lekin Meksika bilan sezilar-sezilmas bog'lanishga ega. Ammo, NAFTA ning rivojlanib borishi bilan, Kanada integratsiya jarayonlariga yanada keng jalb qilinib, bozorlarning kengayishidan katta manfaat ko'ra boshlaydi.

NAFTA ning birinchi davridagi faoliyat ko'rsatishi eksport hajmini oshirish hisobiga qo'shimcha ish joylarini yaratishga qaratilgan umidlarni oklamadi. Bundan tashqari, 1995 yilga kelib AQSH ning Meksika bilan savdosidagi ijobiy saldo yo'qolib salbiy ko'rinishga ega bo'ldi. Pirovard natijada, mutaxassislarning fikriga qaraganda SHimoliy Amerika umumiy bozori 2010 yilga boribgina to'liq ravishda ishlay boshlaydi.

Integratsiya jarayonlari Janubiy Amerikada ham kuchayib bormoqda. O'z vaqtida (60-yillarning boshida) bu erda "erkin savdo zonasi"ni tashkil qilish rejalashtirilgan edi. Ammo, siyosiy va iqtisodiy inqiroz bu rejaning amalga oshishiga yo'l bermadi.

1991 yilda Argentina, Braziliya, Urugvay va keyinchalik qo'shilgan Paragvay davlatlari "MERKOSUR" savdo uyushmasini tashkil qilishga kirishdilar va uning 1995 yil birinchi yanvarda kuchga kirishi bilan integratsiya jarayonlari kuchayib ketdi. Bu kelishuv 200 mln.dan oshiq aholisi va umumiy YAMM 550 mlrd. dollarga yaqin bo'lgan davlatlarni birlashtirgan yirik mintaqaviy savdo iqtisodiy uyushmasini yuzaga keltirdi.

MERKOSUR tashkiloti yuzaga kelishi natijasida ushbu 4 ta mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdo har qanday to'siqlardan ozod bo'ladi. Boshqa mamlakatlardan keltiriladigan import mahsulotlariga umumiy tariflar va bojxona qoidalari saqlanib qoldi.

Afrika mamlakatlari ham o'z mintaqasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga intilmoqdalar. Afrika qit'asining shimoliy qismida 1989 yili Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash va Tunis mamlakatlari ishtirokida Arab Mag'ribi Ittifoqi tashkil qilindi. Bu ittifoqni tuzishdan maqsad mintaqaviy integratsiya orqali keng qamrovli iqtisodiy hamkorlik qilishdir. Ammo, SHimoliy Afrika mintaqasi bir-biridan ajralib qolgan, milliy chegaralar bilan o'ralib qolgan 5 ta bozordan iborat.

Boshqa Afrika mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyaga intilishlari qoloq, bir-biri bilan hech qanday aloqalari bo'lmagan davlatlarning Afrikaning ba'zi-bir mintaqalarida ichki bozor ehtiyojlarini qondiradigan sanoatni rivojlantirishga urinishidir. Iqtisodiy va bojxona ittifoqlarini tashkil etib, Afrika mamlakatlari bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan siyosat orqali o'zaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni rejalashtirmoqdalar. Binobarin, ayrim hududlar iqtisodiyotini zamonaviylashtirish asosida nisbatan katta hajmli ichki bozorlarni tashkil qilishga urinmoqdalar. Integratsiyani rivojlantirishning bir yo'li sifatida, "o'z kuchlariga tayangan holda" taraqqiyotga erishishni ko'zlaydilar. "O'z kuchlariga tayanish" konsepsiyasi iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishda o'z resurslaridan foydalanishni, rivojlanishning ichki omillarini harakatga keltirishni ifodalaydi.

Afrika birligi tashkilotining 2025 yilga borib Afrika Iqtisodiy Hamjamiyatini tashkil qilish rejasi ham mana shunday g'oyalarga asoslangan.

Afrikadagi integratsiya jarayonlarining amalda rivojlanishi, afrika davlatlari rahbarlarining chuqur hamkorlikka erishish maqsadlaridagi chaqiriqlarining amalga oshirilishi hozircha faqat oliyjanob orzular bo'lib qolmoqda. Qashshoq va qoloq mamlakatlarning an'anaviy shakldagi iqtisodiy hamkorligi ularni "qashshoqlikning ayanchli doirasi" dan chiqishga, qanday bo'lmasin sezilarli taraqqiyotga erishishga yordam bera olmayapti. SHu bilan birgalikda, Afrika umumiy bozori g'oyasi uni tashkil qilishdagi muvaffaqiyatsizliklarga qaramasdan, qit'ada hali ham ommaviyligini yo'qotmayapti.

XX asrning oxiriga kelib, SHarqiy Osiyoda integratsiya jarayonlari kuchayib ketdi. Keyingi 30 yil davomida Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Uning tarkibiga 4 ta Osiyo "ajdarholaridan" biri bo'lgan - Singapur va "yangi idustrial mamlakatlar"ning keyingi avlodlari bo'lgan - Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney va Filippin mamlakatlari kiradi. Bu guruh doirasidagi o'zaro hamkorlikning muvaffaqiyati ASEAN a'zolari bo'lgan mamlakatlarning aksariyati shiddatli iqtisodiy o'sishga ega bo'layotganligida, ularning iqtisodiy darajalari bir-biriga yaqinligida, yaxshi yo'lga qo'yilgan va tarixiy an'analarga ega bo'lgan o'zaro savdo aloqalari, hamda oqilona tartibga solingan hamkorlik shaklida yaqqol namoyon bo'ladi. ASEANning rejasida 2000 yilga borib, a'zo mamlakatlar savdosotiqida 38000 turdagi tovarlarga bojxona to'lovlarini o'rtacha 5 % gacha pasaytirish mo'ljallangan. 1995 yilning oxirida qabul qilingan qaror bo'yicha bu erda 2003 yilga borib to'liq takomillashgan erkin savdo zonasi tashkil etiladi.

SHarqiy Osiyoda iqtisodiy integratsiya rivojining kelajagini ko'p jihatdan **Osiyo Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkilotining** tashkil etilishi bilan bog'lamoqdalar. Unga Osiyo, hamda SHimoliy va Janubiy Amerikaning 18 ta

davlati a'zodir. Xalqaro ekspertlarning bashoratiga ko'ra SHarqiy Osiyo yalpi milliy mahsulotining hajmi bo'yicha 2000 yilga borib G'arbiy Evropani, 2020 yilga etganda esa SHimoliy Amerikani quvib o'tadi. Bu SHarqiy Osiyo tashkilotining rejasida 2020 yilga borib dunyodagi eng yirik bojxonasiz va ichki savdo to'siqlarisiz erkin savdo zonasini tashkil etish mo'ljallangan.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy integratsiyalarning faoliyatini baholar ekan, ko'pchilik mutaxassislar bu jarayon uncha rivojlanmagan, kurtak holatda ekanligini ta'kidlamodalar. Masalan, ASEAN tizimidagi savdo zonasi iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichiga, ya'ni savdo to'siqlari va boshqa cheklovlar man qilingan erkin savdo zonasiga to'g'ri keladi. SHarqiy Osiyo tashkilotiga kelsak, bu hali erkin savdo zonasi ham emas, balki "ochiq iqtisodiy uyushma"dir, xolos.

Ayni paytda, iqtisodiy siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish natijasida mintqa ichidagi savdo va kapitallar bozorining shiddat bilan rivojlanib borishi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi integratsiyaning birinchi bosqichiga, ya'ni erkin savdo zonasiga o'tishini ko'rsatib turibdi. Qolaversa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ichida ayrim mamlakatlar guruhi va hududlarida integratsiya darajasi juda yuqoridir va ular butun mintaqada integratsiya jarayonlarining kuchli rivojlanishida uning negizi, o'ziga xos qutblari bo'lishlari mumkin.

Masalan, hozirda mavjud bo'lgan "O'sish uchburchagi" - Janubi Xitoy iqtisodiy zonasi (XXR, Gonkong, Taivan), "Oltin o'sish uchburchagi" - (Indoneziya, Malayziya, Singapur), Yapon dengizi havzasi mamlakatlari iqtisodiy zonasi, Hindixitoy iqtisodiy zonasi kabilar bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Fors qo'ltig'idagi arab mamlakatlarida ham integratsiyaga, o'zaro manfaatli hamkorlikka intilish kuchlidir. Qator arab mamlakatlari - Saudiya Arabistoni, Quvayt, Katar, Baxreyn, Birlashgan Arab Amirliklari va Yaman 1981 yilda hamkorlik bo'yicha kengash tuzdilar va u hozirda faoliyat ko'rsatmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy hamkorlik to'g'risida shuni aytish kerak-ki, amalda integratsiya jarayonlari ancha zaif bo'lib, bir-birlaridan mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari va rivojlanish sur'atlari bo'yicha farq qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda integratsiya jarayonlarining rivojlangan ko'rinishi hali amalda yo'q, ya'ni firmalar va korxonalar darajasida ham, milliy xo'jaliklar darajasida ham muntazam rivojlanayotgan va chuqur shakllangan mamlakatlararo aloqalar yo'q. Ko'pchilik e'lon qilingan integratsiya guruhlar ijtimoiiy-iqtisodiy munosabatlarning pishib etilmaganligi, milliy xo'jaliklar tarkibini soddaligi va bir yoklamaligi, moliyaviy va bozor infrastrukturalarining rivojlanmaganligi tufayli qotib qolganlar yoki muvaffaqiyatsizlikka uchradilar.

Boshqa yirik integratsiyalarga Lotin Amerikasi integratsiya assotsiatsiyasini (Argentina, Boliviya, Braziliya, CHili, Kolumbiya, Ekvador, Meksika, Paragvay, Peru, Urugvay, Venesuela), EKOVAS - G'arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamkorligi (Benin, Burkina-Faso, Kot'd-Ivuar, YAshil burun orollari, Gambia, Gana, Gvineya, Gvineya-Bisau, Liberiya, Mali, Mavritaniya, Niger, Nigeriya, Senegal, Serro-Leone, Togo) ni misol qilish mumkin.

XX asrning oxiriga kelib, SHarqiy Osiyoda integratsiya jarayonlari kuchayib ketdi. Keyingi 30 yil davomida Janubiy - SHarqiy Osiyo mamlakatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Uning tarkibiga 4 ta Osiyo ajdarholaridan biri bo'lgan-Singapur va «yangi sanoatlashgan mamlakatlarning keyingi avlodi» bo'lgan-

Malayziya, Indoneziya, Tailand, Brunej va Filippin mamlakatlari kiradi. Bu guruh doirasidagi o'zaro hamjamiyatlikning muvaffaqiyati ASEAN a'zolari bo'lgan mamlakatlarning aksariyati shiddatli iqtisodiy o'sishga ega bo'layotganligida, ularning iqtisodiy darajalari bir-biriga yaqinligida, yaxshi yo'lga qo'yilgan va tarixiy an'analarga ega bo'lgan o'zaro savdo aloqalari hamda oqilona tartibga solingan hamkorlik shaklida yaqqol namayon bo'ladi.

ASEAN ning rejasida 2000 yilga borib a'zo mamlakatlar savdo sotig'ida 38 ming turdagi tovarlarga bojxona boji to'lovlarini 5% gacha pasaytirish mo'ljallangan. 1995 yilning oxirida qabul qilingan qaror bo'yicha bu erda 2003 yilga borib to'liq takomillashgan erkin savdo zonasi tashkil etiladi. ASEAN tizimidagi savdo jarayonini iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichiga, ya'ni tariflar va boshqa cheklolrsiz erkin savdo zonasiga kiritish mumkin. ATES ga nisbatan hali erkin savdo zonasi sifatida emas, balki «ochiq iqtisodiy assotsiatsiya» deb gapirish mumkin.

ASEAN 1967 yilda qaror topdi, faqat 1992 yilda uning qatnashchilari yaqin 15 yil mobaynida asta-sekin mahsulotlar tannarxini bosqichma-bosqich kamaytira borishga erishiladigan mintaqaviy savdo erkinligi zonasini yaratishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ydilar. ASEAN mamlakatlarining xo'jalik sohasida bir-biriga yaqinlashuvi masalasiga kelganda, ularning iqtisodiyotini o'zaro to'ldirib borish, ichki mintaqaviy savdo-sotiqni tashkil etish borasidagi faoliyat jarayonlari hali keng ravishda rivojlanish yo'lga o'tganicha yo'q.

Haqiqatdan ham ASEAN mamlakatlarining har biri Yaponiya, AQSH, hamda Osiyoning yangi sanoatlashgan mamlakatlari (Gongkong, Janubiy Koreya, Tayvan) iqtisodiyoti bilan to'liq bog'langan.

10.4. Xalqaro tashkilotlar klassifikatsiyasiga umumiy tavsif

XX asr o'rtalarida keng tarqalgan mahsulotlar va xizmatlarni, kapital va ishchi kuchini, ilmiy-texnik axborotlar va boshqarishning yangi usullarini xalqaro ayirboshlash qator davlatlarning o'zaro kelishilgan harakatini muammolarni yuzaga keltirdi.

Bunday muammolar qatoriga avvalo qo'yidagilar kiradi:

- Bojxona tariflari va bojlari, eksport va import kvotalari, narxlar, valyuta kurslari, foiz stavkalari va boshqalar xususida kelishib olish zarurligi;
 - Jahon bozorida sotiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanishning texnik-iqtisodiy, ekologik shartlarga qo'yiladigan yagona talablarni ta'minlash;
- turli mamlakatlardagi hisobot, statistika, rejalashtirishning uslubiy asoslarini, qonuniy va me'yoriy bazasini bir xil andozaga keltirish zarurligi va boshqalar.

Boshqacha qilib aytanda, turli mamlakatlar o'rtasida jahon xo'jalik aloqalari barqarorligi va o'sishini ta'minlash, ayirboshlash uchun teng huquqli sharoitlarni yaratish va uning yo'lidagi barcha to'siqlarni yo'qotish maqsadida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarga ehtiyoj yuzaga keldi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning guruhlariga bo'linishi. Keng doiradagi muammolarni hal etishda davlatlarning o'zaro birgalikdagi harakatlarini ta'minlovchi tarixdagi birinchi tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hisoblanadi. BMT 1945 yilda, g'olib mamlakatlar tomonidan tinchlik va xavfsizlikni saqlash xalqaro tashkiloti sifatida tuzildi.

Keyingi yillarda xalqaro tashkilotlarning soni tez ko'paya boshladi, biroq bu asosan ikki qarama-qarshi tizim doirasida yuz berdi. Bu tizimlarning har biri a'zo-davlatlarning siyosiy, iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi o'z tashkilotlariga ega edi. Turli mamlakatlarni yagona jahon hamjamiyatiga birlashishi jarayoniga xalaqit beruvchi siyosiy va mafkuraviy to'siqlar yo'qolishi bilan ko'plab xalqaro tashkilotlarning faoliyat sohasi ancha kengaydi va bunda energiya, xom-ashyo,

oziq-ovqat, ekologiya muammolari bilan bir qatorda, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga katta e'tibor berila boshlandi. Davlatlar guruhlarini xududiy belgisi bo'yicha yoki iqtisodiy faoliyatining ma'lum sohalaridan manfaatdorlikning umumiyligi asosida birlashtiruvchi tashkilotlar yuzaga keldi. Bu tashkilotlar savdo, ishlab chiqarish, transport, valyuta-moliya operatsiyalari va boshqa sohalarda ham yuzaga keldi.

Bu belgilarga ko'ra barcha xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Umumiy huquq doirasi keng bo'lgan, shuningdek iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar. Masalan, BMT, Arab davlatlari ittifoqi, Afrika Birdamlik tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti va boshqalar.

Umumiqtisodiy muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar. Bu tashkilotlar iqtisodiy hamkorlikning barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha a'zo-davlatlar siyosatini nazorat qiladi. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT).

Iqtisodiy birlashgan tashkilotlar. Bu tashkilotlarning maqsadi a'zo – mamlakatlar doirasida mahsulotlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi harakati yo'lidagi barcha chegaralarni bosqichma-bosqich yo'qotishdan hamda yagona iqtisodiy siyosatga asoslangan umumiy iqtisodiy makonini yaratishdan iborat.

Masalan, Evropa hamjamiyati (YOH), SHimoliy Amerika mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (NAFTA), Osiyo Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEK), Lotin Amerikasi davlatlari birlashgan uyushmasi va boshqalar.

Ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.

1. Savdo sohasidagi, shu jumladan umumiy xarakterdagi tashkilotlar: savdo va tariflar buyicha Bosh bitim (GATT) – 1995 yildan boshlab Umumjahon savdo tashkiloti (UST), savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YUNKTAD), shuningdek tabiiy kauchuk bo'yicha kakao bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar, neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) mis eksport qiluvchi mamlakatlar Hukumatlararo kengashi va boshqalar. Bu tashkilotlar xalqaro savdoning rivojlanishiga yordam beradi va jahon bozorida xom ashyo mahsulotlarining muhim turlari aylanishini tartibga soladi.

2. Sanoat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, energetika, transport va aloqa hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari sohasidagi tashkilotlar. Bu tashkilotlarning faoliyati a'zo-mamlakatlar milliy xo'jaligi muhim sohalari rivojlanishini rag'batlantirish va nazorat qilishga, uning yirik masalalarini hal etishga qaratilgan. Masalan, Sanoat rivojlanishi bo'yicha tashkilot (YUNIDO), BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkiloti (FAO), Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT tashkiloti (YUNESKO), Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Umumjahon pochta ittifoqi va boshqalar.

3. Valyuta – moliya, shuningdek, sarmoyalarni himoyalash sohasidagi tashkilotlar. Masalan, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Umumjahon banki (UB), Evropa tiklash va taraqqiyot banki (ETTB), Xalqaro hisob-kitoblar banki (XHB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB), ko'ptomonli sarmoyaviy kafolat beruvchi Agentlik, sarmoyaviy bahslarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markaz va boshqalar.

4. Iqtisodiy xarakterdagi faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar. Masalan, intellektual mulkni himoya qilish umumjahon tashkiloti, standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot va boshqalar.

BMT tizimidagi tashkilotlar. Ba'zi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar o'z faoliyatida muxtor, mustaqil hisoblangan hukumatlararo tashkilotlardir (IHTT, YOH, ETTB, XHB va boshqalar), biroq ulardan ko'pchiligi BMT ning ixtisoslashgan muassasalaridir. BMT ning asosiy tashkiloti Bosh Assambleya hisoblanadi. U BMT ga a'zo barcha davlatlardan tashkil topgan.¹⁰ Ular BMT Nizomi doirasida barcha harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, huquqiy masalalarni muhokama qilish huquqiga egadirlar.

Bosh Assambleya bilan bir qatorda va uning boshchiligida xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik uchun javobgarlikni BMT ning muhim tashkiloti – Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) o'z zimmasiga oladi. U Bosh Assambleya tomonidan saylanadi va tashkilotning 54 mamlakatidan iborat. Uning bevosita tashkilotlari quyidagilar:

- sessiya tashkilotlari;
- funktsional tashkilotlar;
- EKOSOS qo'mitalari va komissiyalari;
- Ekspertlar tashkilotlari;
- Hududiy komissiyalar; EKE, EKA, ESKATO va boshqalar.¹¹

Bu tashkilotlar barcha iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatlar, tavsiyalar beradi, bu masalalarni o'rganadi, kengashga materiallar va hujjatlar tayyorlaydi.

EKOSOS BMT ning bir qator hukumatlararo muassasalariga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bu muassasalarning har biri xalqaro darajada ma'lum funktsional yoki tarmoq muammolarini hal etishga javobgardir (XVF, XTTB, XMK, FAO, YUNESKO va boshqalar).

Bundan tashqari EKOSOSga iqtisodiy masalalar bo'yicha Bosh Assambleya tashkilotlari (YUNKTAD, PROON va boshqalar), shuningdek BMT ning turli maqsadli fondlari (YUNISEF va boshqalar) ustidan ham nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.

BMT ning teng huquqli a'zosi sifatida O'zbekiston uning ko'plab iqtisodiy tashkilotlari faoliyatiga qo'shilgan (XVF, XTTB, XMK, UST, ESATO va boshqalarga).

Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti

¹⁰ 1994 йил бошида 178 давлат БМТ нинг аъзоси ҳисобланган.

¹¹ Худудий иқтисодий комиссиялар: ЭКЕ – Европа бўйича, ЭКА – Африка бўйича, ЭСКАТО – Осиё ва Тинч океани региони бўйича.

Bir tomondan, iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning kuchayishi, ikkinchi tomondan, jahon bozoridagi kuchli raqobat davlatlarni o'z milliy manfaatlari doirasini saqlash va kengaytirishga, maqsadlar biriligi asosida iqtisodiy guruhlar, tashkilotlar tuzishga majbur etdi. Bu guruhlar, tashkilotlar tarkibida davlatlar o'z harakatlarini kelishib oladilar va jahon hamjamiyatidagi mavqelarini birgalikda himoya qiladilar, shuningdek, jahon xo'jalik aloqalarini o'rnatish tartibi va qoidalarini aniqlaydilar.

Bu tashkilotlar ham umumiy iqtisodiy, ham birlashgan xarakterga ega. Bunda har bir mamlakat bu tashkilotlarning bir nechtasiga a'zo bo'lishi mumkin.

Eng yirik umumiy iqtisodiy tashkilot 24 davlatni yoki deyarli barcha rivojlangan kapitalistik mamlakatlarni (Janubiy Afrika Respublikasi va Isroildan tashqari) birlashtirgan Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) hisoblanadi.¹² U 1961 yilda ishtirokchi-mamlakatlarning yagona iqtisodiy siyosatini ishlab – chiqish va nazorat qilish maqsadida tuzilgan bo'lib, quyidagi muammolarni hal etadi:

- jahon iqtisodiyotining ahvoli va kelajakda rivojlanish yo'llari;
- xalqaro savdoni erkin qo'yish va tartibga solish;
- valyuta-kredit tuzilishni barqarorlashtirish;
- sanoati rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar hamda sobiq soqialistik mamlakatlar bilan munosabatlari.

Rahbarlikning oliy tashkiloti Kengash hisoblanadi va unga barcha ishtirokchi-mamlakatlarning vakillari kiradi. biroq barcha masalalarni ishchi tartibda Ijroiya qo'mita hal etadi. «Katta ettilik» davlatlari – AQSH, YAponiya, Germaniya, Franqiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Italiya, bu qo'mitaning doimiy a'zolaridir. Uning qarorlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lsa-da, biroq mamlakatlar iqtisodiyoti to'g'risidagi ma'lumotlarning hajmi va ishonchliligini, uning ishlash sifatini, shuningdek taqsimlanayotgan zahiralar miqdorini hisobga olgan holda, bu tavsiyalarga munosabat jiddiydir. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga, shuningdek mahsulot va kapitalni jahondagi aylanishiga ta'sir ko'rsatuvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi barcha yirik loyihalarning aksariyati shu tashkilot doirasida muhokama qilinadi. Bu loyihalarning amalga oshishi ko'proq uning qarorlariga bog'liq.

Keyingi yillarda IHTT a'zo-mamlakatlar o'rtasidagi (YAponiya va AQSH, G'arbiy Evropa va AQSH va boshqalar) ba'zi keskin iqtisodiy muammolarni hal qilishga, shuningdek sobiq soqialistik mamlakatlarga nisbatan birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirishga ko'p e'tibor bermoqda. IHTT tarkibida bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratayotgan sobiq soqialistik mamlakatlarga moliyaviy, texnik yordam ko'rsatish, loyihalarni baholash, maslahat berish va tuzilish siyosatini tahlil etish bilan shug'ullanuvchi SHarqiy Evropa mamlakatlari bilan hamkorlik bo'yicha markaz tuzilgan.

Xalkaro moliya-kredit tashkilotlari.

Xalqaro valyuta fondi. Jahon valyuta tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, jahon moliyaviy resurslar bozorini barqarorlashtirish va kapital

¹² IHTT ga a'zo mamlakatlar: AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Evropa Hamjamiyatiga kiruvchi 15 mamlakat, shuningdek Islandiya, Norvegiya, Shveysariya, Turkiya.

aylanishini rag'batlantirish maqsadida xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari tashkil etilgan edi. Ular ichida eng ahamiyatlisi Xalqaro valyuta fondi (XVF) va qator yirik banklar – Umumjahon banki (UB), Evropa tiklash va taraqqiyot banki (ETTB), Xalqaro hisob-kitoblar banki (XHB), Islom taraqqiyot banki (ITB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqalar hisoblanadi.

1944 yil Bretton-Vudsdan (AQSH) valyuta – moliya masalalari bo'yicha Birlashgan millatlarning Anjumani bo'ldi va unda 44 davlat hukumati vakillari qatnashdi. Anjumanda qator bitimlar, jumladan Xalqaro valyuta fondi to'g'risida, Xalqaro tiklash va taraqqiyot banki (Umumjahon banki) to'g'risida bitimlar tuzildi. Bu bitimlar 28 mamlakat tomonidan imzolandi va ular BMT doirasida yirik jahon moliya tashkilotlarini yaratishning huquqiy asosi bo'ldi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) 1945 yilning oxirlaridan ish yuritib boshladi, hozirda unga 178 mamlakat a'zodir.

Uning asosiy maqsadi a'zo-davlatlar valyuta – moliya siyosatini muvofiqlashtirish va ularga to'lov balansini tartibga solish hamda valyuta kursini saqlash uchun qarz berish hisoblanadi. Buning uchun fond to'lov balansida qiyinchiliklar sezayotgan o'z a'zolarini moliyalashtiradi, ularning xo'jalik yuritish usullarini yaxshilashga qaratilgan texnik yordam ko'rsatadi. Oxirgi o'n yillarda XVF ning moliyaviy vositachi va yirik kreditor sifatidagi roli oshdi.

Fondning moliyaviy resurslari a'zo – mamlakatlardan badallaridan, shuningdek rasmiy va xususiy moliyaviy muassasalaridan bozor shartida qarzga olingan mablag'lardan tashkil topadi. Badallarning miqdori mamlakatning fond kapitalidagi hissasiga bog'liq bo'lib, IHTT a'zolari hissasiga deyarli 62 foiz, jumladan AQSH ga 20 foizga yaqin, rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga 38 foiz to'g'ri keladi.

Qarzlarni a'zo-mamlakatlar badallaridan tashkil topgan umumiy resurslar hisobidan hamda SDR¹³ shartli birliklaridagi maxsus hisobdan berilishi mumkin.

XVF operatsiyalarining xususiyati shundaki, u mablag'larni chet el valyutasini yoki SDRni milliy valyutaga ayirboshlash yo'li bilan beradi. Ma'lum vaqtdan so'ng qarz olgan mamlakat o'z qarzini fond tomonidan o'z hissasidan ortiq jamg'arilgan milliy valyutasini sotib olish yo'li bilan qoplaydi.

Umumiy hisob bo'yicha XVF barcha a'zo-mamlakatlari xorijiy valyutani oltinda, konvertirlangan valyuta va SDR da fond kapitalidagi o'z hissasining taxminan 25 foizi chegarasida shartsiz olishi mumkin. bu miqdordan ortiq qarz XVF ning iqtisodiy va ijtimoiy siyosat sohasidagi tavsiyalari bajarilgan taqdirdagina beriladi.

Oddiy kreditorlardan tashqari kam rivojlangan davlatlar aniq maqsadlar uchun ma'muriy hisoblar deb nomlangan imtiyozli kreditlar olishi mumkin. 1987 yilda har bir mamlakatning fondan olinadigan kreditlari bo'yicha qarz chegarasi shu mamlakat kvotasining 400-440 foizini tashkil qildi. Kreditlash muddati, asosan, 3-5 yil bilan chegaralangan (qarzning ba'zi turlari bo'yicha 7-10 yil bilan). kreditlar uchun foizlar doimo qayta ko'rib turiladi. 80-yillarning oxirida u o'rtacha 6,4 foizni tashkil etdi.

¹³ СДР – 70 – йиллардан бошлаб халқаро резерв тулов маблагі ва киймат улчови сифатида олтин урнига чиқарилган халқаро валюта.

1986 yildan kam rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tuzilishini qayta qurishni moliyalashtirishning maxsus tizimi – SAF ish yurita boshladi. Bu tizim doirasida kreditlar imtiyozli davr 5,5 yil, stavka 0,5 foiz. Qarz olayotgan mamlakat o'zining butun iqtisodiyoti tuzilishini qayta qurishning XVF bilan kelishilgan uch yillik dasturini amalga oshirish yuzasidan majburiyat oladi.

1988 yildan kam rivojlangan mamlakatlar uchun iqtisodiyot tuzilishini qayta qurishni moliyalashtirishning kengaytirilgan tizimi (ESAF) ish yurita boshladi. Bu tizimda moliyaviy resurslardan foydalanish chegarasi 1986 yildagi tizimga taqqoslaganda uch yil mobaynida mamlakat hissasining 150 foizgacha, ayrim hollarda 350 foizgacha kengaydi.

Kreditlash XVF faoliyatining asosiy sohasi bo'lib qolishi sababli, u yirik iqtisodiy tadqiqotlar markaziga aylandi, bu esa unga muvofiqlashtirish funktsiyasini samarali bajarishga imkon berdi.

***Jahon banki guruhi.** BMT ning Xalqaro tiklash va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) va Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha Xalqaro agentligi (IKXA) kabi ixtisoslashgan muassasalaridan tashkil etilgan guruh Jahon banki deb ataladi.*

Jahon banki umumiy rahbarlik va balansga ega. U qarzlarining ma'lum qismini imtiyozli shartlarda, ba'zan tekin berishiga qaramay, uning faoliyati umuman foyda keltiruvchi hisoblanadi. Umumjahon banki hissasiga rivojlanayotgan mamlakatlarga barcha xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag'lar yillik hajmining deyarli 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Jahon bankining asosiy tashkiloti bo'lib, o'z faoliyatini 1946 yilda boshlagan XTTB hisoblanadi. Bu tashkilotga faqat XVF ga a'zo bo'lgan mamlakatlar kirishi mumkin.

XTTB ning asosiy maqsadlari – bu a'zo-mamlakatlar iqtisodiyotini qayta qurishga va rivojlanishiga kapital qo'yilmalar berish hamda xususiy chet el investitsiyalarini rag'batlantirish orqali ko'maklashish, to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qarz berish.

Faoliyatining xususiyatlari:

- qarzlar faqat ishlab chiqarish maqsadlari uchun asosan rivojlanayotgan mamlakatlarga qishloq xo'jaligi, energetika, sog'liqni saqlash, yo'l xo'jaligi va boshqalarni rivojlantirishga beriladi;

- qarzlar mos ravishda hukumat tomonidan kafolatlanishi va aniq loyihalar uchun berilishi lozim;

- qarzlar zarur mablag'larni boshqa manbalardan olish mumkin bo'lmagan hollardagina beriladi.

XTTB ning moliyaviy resurslari bank tomonidan chiqariladigan obligatsiyalarga a'zo-davlatlarning yozilishi yo'li bilan, shuningdek xalqaro pul bozorlarida joylashtiriladigan obligatsiya zayomlari mablag'laridan tashkil etiladi. XTTB muayyan mamlakatga kredit berishda uning iqtisodiy ahvoli haqida to'liq ma'lumot talab qiladi va u erga ekspertlar guruhini jo'natadi. Ekspertlar guruhi mamlakat iqtisodiy va moliyaviy ahvolini tekshiradilar, bu xususda aniq tavsiyalar ishlab chiqadilar. Agar kredit olayotgan mamlakat bu tavsiyalarni qabul qilmasa, unga kredit berilmasligi mumkin.

80-yillardan boshlab XTTB faoliyati qarzlariga muhtoj mamlakatlarda iqtisodiyot tuzilishini qayta qurish dasturini amalga oshirishga qaratilmoqda. (Turkiya, Filippin, Indoneziya, Chili, Argentina, Meksika, Nigeriya). Bu erda XTTB faoliyati XVF faoliyati bilan birlashib ketadi. XTTB a'zo-mamlakatlar hukumatlariga yoki hukumatlar kafolat bergan xususiy tashkilotlarga o'rta va uzoq muddatli (25 yilgacha) qarzlar beradi hamda ularni ko'rsatilgan maqsadlarga ishlatilishini nazorat qiladi. Qarzlar bo'yicha foizlar xalqaro kapitallar bozoridan Bank oladigan kreditlar qiymatiga bog'liq. 1993 moliya yilida o'rta va uzoq muddatli qarz kapitalining o'rtacha qiymati 5,97 foizni tashkil etdi.

Bankning boshqaruv Kengashida hal qiluvchi ovozga 7 etakchi mamlakat – AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Germaniya, Italiya ega. Ular XTTB ning kredit siyosatini aniqlaydilar.

XTTB ikkita ixtisoslashgan shoxobchaga ega: Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU).

XTTB ning shoxobchasi sifatida 1956 yilda yaratilgan XMK o'z shaxsiy resurslariga ega bo'lgan mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi, lekin uning faoliyati XTTB bilan chambarchas bog'langan. 1995 yilda uning a'zolari 165 mamlakat edi.

Korporatsiyaning asosiy maqsadlari- rivojlanayotgan mamlakatlarni qo'llab – quvvatlash, xususiy va aralash iqtisoddagi korxonalarni kapital qo'yilmalar yordamida moliyalashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishga xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish, iqtisodiyotni boshqarishda yordam berish.

XMK faoliyatining xususiyati shundaki, u xususiy aktsionerlarga aktsiyalarni qayta sotish huquqiga ega bo'lgan holda, qurilayotgan yoki kengayayotgan korxonalarining aktsionerlik kapitalida bevosita qatnashishi mumkin. biroq XMK ning hissasi aktsionerlik kapitalining 1/5 dan oshmasligi lozim.

XMK moliyaviy resurslari quyidagilar hisobiga yaratiladi:

- XMK aktsiyalariga yozilishiga muvofiq a'zo-davlatlarning badallaridan;
- XMK foydasidan ajratmalardan;
- XTTB dotatsiyalaridan;
- XTTB dan qarzlar ko'rinishida jalb etilgan mablag'lardan.

Korporatsiya Umumjahon banki muassasalari ichida eng daromadli tashkilot hisoblanadi. u ustun ravishda o'rta muddatli qarzlar (7-12 yil muddatga) beradi, ular bo'yicha foiz stavkalari bozordagidan yuqori, chunki XMK resurslarining katta qismi XTTB badallari hisobiga tashkil topadi. SHu sababdan uning kreditlaridan ko'pincha barqaror rivojlanayotgan mamlakatlardagi yuqori foyda oluvchi korxonalar foydalanadi. Asosan qayta ishlovchi, qazib oluvchi sanoat, sayyohlik, kommunal korxonalarga ajratmalar yo'naltiriladi.

Qarz qanday valyutada olingan bo'lsa, shu valyutada qaytariladi.

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) – 1960 yildan XTTB ning shoxobchasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda va uning mansabdor shaxslari tomonidan boshqariladi.

Faoliyatining xususiyati kam rivojlangan mamlakatlarga yordam berishdir. XTU dan kredit olish uchun quyidagi 4 shart yoki holat asos bo'ladi:

5. Kredit olayotgan mamlakat juda kambag'al bo'lishi kerak (bu toifaga 1993 yilda YAMM aholi jon boshiga 690 dollar miqdorida to'g'ri kelgan mamlakatlar kirdi).

6. Kredit olayotgan mamlakatda iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy barqarorlik bo'lishi lozim.

7. Kredit olayotgan mamlakat o'z to'lov balansida katta qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan bo'lishi va xorijiy valyutani imtiyozli shartlarda olishdan boshqa imkoniyatlarga ega bo'lmasligi kerak.

8. Kredit olayotgan mamlakat rivojlanishiga haqiqatda intilishi lozim va bu uning siyosatida aks etishi kerak.

SHunday qilib, XTU ning asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarga imtiyozli kreditlar berishdir. Uyushmaning moliyaviy resurslari quyidagilardan tashkil topadi:

- birinchi guruh mamlakatlarning badallari – bu 20 dan ortiq rivojlangan mamlakat, shuningdek Quvayt va Birlashgan Arab Amirliklarining konvertirlanadigan valyutadagi badallari;

- ikkinchi guruh mamlakatlarning badallari – bu kam rivojlangan mamlakatlar badallari (10 foiz konvertirlanadigan valyutada va 90 foiz milliy valyutada);

- a'zo-mamlakatlarning milliy valyutadagi qo'shimcha badallari;

- XTTB subsidiyalari;

- SHveytariya ajratadigan kreditlar.

XTU asosan uzoq muddatli kreditlarni beradi: 40 yil muddatga kam rivojlangan mamlakatlar uchun (BMT ro'yxati bo'yicha) va 35 yil muddatga boshqa mamlakatlar uchun; bu muddatga qarz olgan mamlakat hech qanday to'lovlarni amalga oshirmaydigan 10 yillik davr ham kiritiladi (bunda faqat ma'muriy xarajatlar uchun 0,75 foiz miqdorida vositachilik haqi olinadi).

10.5.O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda qatnashishi

Jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gapirganimizda, eng avvalo, bu jamiyat faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz. 2010 yil 2 martda O'zbekiston BMTga a'zo bo'lganligiga o'n sakkiz yil to'ldi. Bunday obro'li xalqaro tashkilot ishidagi ishtirokimiz Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish imkoniyatidir.

Hozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador xalqaro tashkilotlar g'oyat xilma-xil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat qiladigan, nizolarning oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan hamma vositalarga ega.

O'zbekistonning tashabbusi bilan BMT rahnomoligida 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminar muvaffaqiyatli o'tdi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va 30 dan ortiq mamlakat, shu jumladan, AKSH, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy,

Hindiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomatiya korpusi hamda hukumat vakillari ishtirok etishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2010 yil 20 sentyabrda BMT sammitida ma'ruza qildi. Ma'ruzada quyidagi masalalar yoritildi:

1. Mintakada tinchlikni saklash (Afyoniston, Kirgiziston voqeala-ri).
2. Orolbuyidagi ekologik vaziyat.
3. Mingyillik rivojlanish maksadlari Deklaratsiyasining O'zbekis-tonda bajarilishi:

O'zbekistonda mustakillik yillarida

- yalpi ichki maxsulot – 3,5 barobar;
- axoli jon boshiga YAIM – 2,5 barobar;
- o'rtacha oylik maosh – 14 barobar o'sdi;
- Davlat byudjetining 50 % ijtimoiy soxaga ajratilmokda;
- axolining 82,5 % toza ichimlik suv va 83,5 % tabiiy gaz bilan ta'minlangan;
- onalar o'limi – 2 barobarga, go'daklar o'limi - 3 barobarga kiskardi;
- axolining o'rtacha umr ko'rish davri 73 yoshga, ayollarniki – 75 yoshgacha oshdi.

BMT bilan munosabatlarimiz xalqaro jamoatchilikdan yordam va madad olish istagimizdan ko'ra (garchi, bugungi kunda bu ham juda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da), ko'proq BMT sa'y-harakatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, uning faoliyati yangi mazmun bilan boyishiga ko'maklashishga intilishga asoslanadi. Jahondagi jo'g'rofiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi yangi ming yillikda BMT tarkibiy tuzilishi va uning faoliyatini takomillashtirishni ham talab qilmoqda.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida dunyoda bir qator davlatlar paydo bo'ldi. Kudrati va jahon siyosati ko'lamidagi ta'siri ortib borayotganligi tufayli bu davlatlar Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lishlari mumkin. Ayni vaqtda BMT tuzilmasigina emas, balki uning amaliy ish tartibi va harakatlarni amalga oshirish jarayoni ham buyuk davlatlar, doiralar eskicha kurash ta'siridan hali qutula olgani yo'q. BMTning mintaqaviy mojarolarni tartibga solish, tinchlik o'rnatish yo'lidagi ishlari hamma vaqt ham muvaffaqiyatli bo'lmayotganligini qisman shu bilan izohlash mumkin.

SHuning uchun ham O'zbekiston tabiatan jahonshumul va universal bo'lgan bu tashkilotning tarkibiy tuzilishi va faoliyatini takomillashtirishni bundan buyon ham faol yoqlab chiqaveradi.

SHu o'rinda BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligi va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarning tashkil etuvchilari hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda. BMT doirasida jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv bo'yicha uning ixtisoslashgan muassasalari – YUNESKO, Jahon sog'likni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNKDAT, YUNISEF va boshqalar bilan keng hamkorlik qilinmoqda.

O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvni ta'minlashga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar - Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar ham katta yordam ko'rsatmoqda. Mamlakatimizning

har yili Davos shahrida o'tadigan Jahon iqtisodiy anjumanida qatnashishi katta ahamiyatga ega. Anjumanda qatnashish O'zbekistondagi mavjud imkoniyatlarni tanishtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun muhim ahamiyatga molik.

Mamlakatimizda Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li – konsepsiyasiga amal qilingan holda, iqtisodiyotda tub institutsional va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarishni qayta tashkil etish va davlat tasarrufidagi korxonalarni xususiylashtirish asosida mulkchilik munosabatlari qayta ko'rilmoqda, yangi bozor mexanizmlari va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. SHu bilan birga, respublikaning XXI asrga qadam ko'yishi milliy tizimlarga yuksak talablar qo'yuvchi iqtisodiy integratsiya asosida globallashuvning jahon tendentsiyalari kuchaygan bir sharoitga to'g'ri keldi.

O'zbekistonning jahon miqyosida, global darajada amalga oshirilayotgan strategik integratsion vazifasi – mamlakatdagi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashqi dunyo bilan o'zaro hamkorligi uchun teng huquqli va milliy manfaatlariga javob beruvchi shart-sharoitlar yaratish asosida xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo'shilishidir. Ushbu vazifaning amalga oshirilishi O'zbekistonga XXI asrda jahon iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan globallashuv jarayonlarida to'liqroq ishtirok etishi uchun imkon beradi.

O'zbekiston iqtisodining eksportga yo'naltirilganligi va raqobatbardoshligi eng ko'p darajada samarali amalga oshirilishi jahon xo'jaligida o'z o'rnini topishi, jahon xo'jalik aloqalariga integratsiyalashuvi asosiy muammolardan hisoblanadi. Yaponiya va yangi sanoatlashgan mamlakatlar tajribasi ushbu muammo ustuvor tarmoqlar konsepsiyasini ishlab chiqish asosida hal etilganligini ko'rsatadi.

Raqobat siyosatini qo'llab-quvvatlash sohasida Evropa Ittifoqining raqobat siyosati milliy bozorlarning amalda integratsiyalashuvini ta'minlash, bozorlarni bo'lib olish to'g'risida bitimlar tuzish yo'li bilan milliy bozorlar o'rtasida o'z tizimini barpo etishga intiluvchi kompaniyalarga to'siq yaratish, bozorda ustunlik mavqeini egallab olishdan kelib chikuvchi suiste'mollarni ta'qiqlash yo'li bilan iqtisodiy xokimiyatning haddan tashqari bir joyga tuplanishi uchun to'siqlar yaratish vazifalarini hal etishga qaratilgan.

O'zbekiston uchun raqobatbardoshlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning uch guruhini o'z ichiga olishi kerak. Bular: iqtisodiy salohiyatni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar, xalqaro mehnat taqsimotiga kirishish darajasi va iqtisodiyotning innovatsiya sig'imi. Iqtisodiy salohiyatni yalpi ichki mahsulot va oltin-valyuta zahirasi kabi integral ko'rsatkichlar eng ko'p darajada xarakterlaydi.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. Bular orasida Evropa ittifoqi alohida o'rin tutadi. 1996 yilda Evropa ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muhim ishlar amalga oshirildi. Fevral oyida Evropa Ittifoqi kengashi sherikchilik va hamkorlik to'g'risida bitim tuzish yuzasidan O'zbekiston bilan Tashqi ishlar vazirligi darajasida muzoqaralar boshlash haqida qaror qabul qildi, iyul oyida esa bitim imzolandi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiyotining Evropa yo'nalishi ancha kengaydi. Ushbu yo'nalish Evropa qit'asidagi mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. Bu qit'aning o'ziga xos integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Evropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik O'zbekistonning xavfsizligi va tarraqqiyotini ta'minlashga qo'shilgan yana bir hissadir. Chunki, bu sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalar bilan bir qatorda siyosiy, sohani ham nazarda tutadi. Bu hujjat hamkorlik qilishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab beradi, O'zbekiston, Evropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy negizini vujudga keltiradi, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochadi, muntazam siyosiy muloqot uchun institutsional asos yaratadi.

Imzolangan bitim ikkala tomon ham faol sherikchilik qilish uchun asos yaratishga intilayotganidan dalolat beribgina qolmasdan, O'zbekistonda demokratik jamiyat muvaffaqiyatli qurilayotganini, inson huquqlarini hurmat qilish, fuqarolik erkinliklari va huquqiy davlat singari umumiy qadriyatlar qaror topayotganini ham tasdiqlaydi.

Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) bilan samarali hamkorlik qilayotganligimiz EXHT bilan birgalikda amalga oshirilayotgan tadbirlarda va bu tashkilot rahbarlarining O'zbekistonga tashrifida ko'zga tashlanmoqda.

1996 yil dekabrda Lissabon Sammitida ishtirok etganimiz O'zbekistonning EXHT bilan munosabatlarini rivojlantirishda salmoqli voqea bo'ldi. Mazkur anjuman doirasida O'zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o'z qarashlarini bayon etish huquqiga va imkoniyatiga ega bo'ldi.

EXHTning Markaziy Osiyodagi faoliyatini kuchaytirishga oid da'vatimiz ishtirokchilar tomonidan tushunib qabul qilindi va u Lissabon deklaratsiyasida hujjatlashtirildi. SHu bilan birga so'nggi vaqtlarda Toshkentda O'zbekiston tashabbusi bilan EXHTning bir qator yirik anjumanlari o'tkazildi. EXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha Byurosi (DIIXB)ning «Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar» mavzusidagi xalqaro seminar-kengashi Markaziy Osiyo, Evropa, Amerikadagi 21 mamlakat ekspertlari, shuningdek, 29 ta xalqaro va nohukumat tashkilotlari vakillari ishtirokida keng muloqot o'tkazish imkoniyatini berdi. Ular Markaziy va SHarqiy Evropada ombudsman instituti, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimlarini takomillashtirish hamda xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalalarini ko'rib chikdilar.

EXHTning DIIXB tashabbusi bilan «Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida» mavzuida seminar o'tkazildi. EXHT kelishtiruv va hakamlik sudi tomonidan tashkil etilgan EXHT xalqaro seminari ham bo'lib o'tdi. Bularning barchasi tinchlik o'rnatuvchi va huquqni himoya qiluvchi ushbu nufuzli tashkilot bilan yaqin va samarali munosabat o'rnatilganidan dalolat beradi.

Hozirda mamlakatimiz bilan NATOdek xalqaro tashkilot o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud deb aytish mumkin.

Bizningcha, o'z tarkibiga demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Evropa qit'asidagina emas, balki o'zining siyosiy ustqurmasini mustahkamlash va «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi hisobiga Evroosiyo mintaqasida tinchlik o'rnatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'zbekiston «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga 1995 yil iyul oyida qo'shilgan. Bu dasturdagi ishtirokimizga o'z mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlaridan bahramand bo'lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarimizni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraymiz.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Evropa imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan hayotiy zaruratsidir. Evropa va butun g'arb yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir. Bularning barchasi XXI asrga xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo'lib kirish maqsadida yangilanish va tarraqqiyotni strategik vazifa qilib olgan yosh O'zbekiston davlati uchun nihoyatda muhimdir.

Biz bunda xavfsizlik va tarraqqiyot bir-birini taqozo etishi tamoyiliga amal qilamiz. Bu esa, bir tomondan, iqtisodiyotga investitsiyalar olib kelish uchun barqaror xavfsiz muhit yaratishni, ikkinchi tomondan, hayotning hamma sohalarida keng

ko'lamda islohotlarni amalga oshiradigan mamlakatgina bunday xavfsiz muhitni ta'minlashga qodir bo'lishini nazarda tutadi.

Jamiyatimizning demokratik o'zgarishlarini chuqurlashtirish yo'lida sobitqadamlik bilan rivojlanib borishiga boshqa xalqaro tashkilotlar bilan va eng avvalo, Osiyo mintaqasidagi tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish ham yordam beradi. «Buyuk ipak yo'lini tiklash: ma'rifiy turizmni rivojlantirish, turkiy tilli davlatlarning madaniy merosini qayta tiklash, asrash va barqaror rivojlantirish» dasturini birgalikda ishlab chiqish nazarda tutilmoqda. Bu dasturning maqsadi sayohat yo'nalishlari tarmog'ini va sayyohlikning tegishli infratuzilmasini kengaytirishdan iborat.

YUqorida aytib o'tilganidek, O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish har qaysi tomonning manfaatlarini yanada aniqroq hisobga olish, bir-birimizni yaqindan tanish, uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikka mustahkam zamin hozirlash, shu tariqa barqarorlik va xavfsizlik uchun mustahkam negiz yaratish imkonini beradi. O'zbekiston er yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarga ega ekanligi ma'lum. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda.

AKSH bilan ikki tomonlama munosabatlarimiz davlatlararo aloqalarning g'oyat muhim yo'nalishlari bo'yicha izchil va sobitqadamlik bilan rivojlanib bormoqda.

Juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AKSH bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish hozir biz uchun ustuvorlik kasb etmoqda. Biz Amerika kompaniyalari va firmalari bilan qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, ular bilan uzoq muddatli, o'zaro foydali sherikchilik munosabatlarini o'rnatishga, Amerika kapitalining bozorlarimizdagi ishtiroki kengayishiga katta ahamiyat beramiz.

So'nggi yillarda Evropadagi ko'pgina mamlakatlar – Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Gretsiya, CHexiya, Slovakiya, Ruminiya va bir boshqa mamlakatlar bilan bevosita, ikkita tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustahkamlandi.

SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari – YAponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vetnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlanib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Keyingi vaqtlarda YAponiya mintaqamizning murakkab muammolarini xavfsizlik va barqarorlikka, tinchlikka erishish, atrof-muhit muhofazasi masalalarini hal qilishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyalarda qatnashishi. O'zbekiston ham 1991 yilda mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy sohada ham keng hamkorlik qila boshladi. Ma'lumki, Sobiq SSSR tarqab ketgandan keyin yangi mustaqil davlatlar iqtisodiy hamkorlik qilish maqsadida 1991 y. dekabrda Mustaqil Davlatlar Hamdustligini (MDH) ni tuzdilar. Unga Rossiya, Ukraina, Belarus, Maldova, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Kirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari kirgan. MDH ning asosiy maqsadlari demokratik, huquqiy davlatlar qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hamkorlik qilishdir.

O'zbekiston a'zo bo'lgan eng yirik integratsiyalardan biri Osiyo Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotidir (EKO). U 1964 yilda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan tuzilgan. 1992 yilda unga O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Kirg'iziston,

Tojikiston, Turkmaniston a'zo bo'lib kirdilar. Hozirgi kunda Afg'oniston ham unga a'zodir.

Osiyoning bu mintaqasida iqtisodiy integratsiyani tuzishdan asosiy maqsad: transport, aloqa, savdo, investitsiya, energetika sohalarida hamkorlik qilish. Bundan tashqari tranzit savdo, mintaqada ichida xalqaro huquqiy me'yorlarga muvofiq bo'xona tadbirlarining umumiy tizimini yaratish yuzasidan loyihalar tuzilmoqda. 1996 yilda ishga tushirilgan g'oyat muhim Tajan-Seraxs Mashxad temir yo'li Markaziy Osiyo davlatlarini Fors qo'ltig'idagi Eron portlari, shuningdek, Turkiya orqali Evropa mamlakatlari bilan birlashtiruvchi ko'priklar bo'ldi. Turkmaniston va O'zbekistonni Afg'oniston orqali Karachi va Gvadar portlari bilan birlashtiruvchi tranzit yo'llarini qurish mo'ljallanmoqda. Termiz-Xirot-Kandaxor-Chaman temir yo'li va uning Xirot-Kushka, Kerman-Zoxidon, Astara (Ozarbayjon)-Resht-Kazvin tarmoqlari bilan, shuningdek, Van ko'li atrofini aylanib utuvchi temir yo'lni tugallashga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Mintaqada gaz va neft o'tkazish tarmoqlarini rivojlantirish rejalari ishlab chiqildi va ma'qullandi. Bunda Turkmanistondan Eron va Turkiya orqali Evropaga, Afg'oniston orqali Pokistonga, shuningdek, Erondan Pokistonga o'tadigan gaz quvurlari qurilishi alohida e'tiborda turibdi. Hamkorlikda erkin savdo mintaqasi tuzishga (EKOFTA) asta-sekin o'tish ko'zda tutilmoqda.

O'zbekiston a'zo bo'lgan iqtisodiy integratsiyalardan yana biri Markaziy Osiyo yagona iqtisodiy makonidir. Unga 1994 yilda O'zbekiston, Qozoqiston va Kirg'iziston tomonidan yagona iqtisodiy maydon vujudga keltirish haqida shartnoma tuzilib, asos solindi.

Shartnomaga imzo chekkan davlatlar quyidagilar haqida kelishib olishdi:

- ♦ iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy, g'arbiy va boshqa sohalarda mustahkam hamkorlik qilish;

- ♦ atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy ofatlar va falokatlar oqibatini tugatish ishida kuch-g'ayratlarini birlashtirish, Orol dengizi havzasida va Orol bo'yida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan qo'shimcha tadbirlarni ko'rish;

- ♦ tashqi siyosiy faoliyat sohasida mintaqada va xalqaro darajalarda kelishilgan mavqelarda turib harakat qilish.

Savol va topshiriklar:

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyatini tushuntiring?

Xalqaro iqtisodiy integratsiya yuzaga kelishining shartlarini sanab bering?

Xalqaro iqtisodiy integratsiya shakllarini aytib bering?

Evropa Ittifoqi qanday integratsiya va unga qaysi mamlakatlar a'zo?

SHimoliy Amerika iqtisodiy uyushmasini tashkil qilishdan maqsad nima?

Janubiy Amerikadagi asosiy integratsiya tashkilotini aytib bering?

Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) ta'qarida gapirib bering?

O'zbekiston Respublikasi qanday xalqaro iqtisodiy integratsiyalarga a'zo?

Asosiy tushunchalar va atamalar:

Xalqaro iqtisodiy integratsiya; Iqtisodiy integratsiya shartlari; Iqtisodiy integratsiyaning shakllari; Erkin savdo zonasi; Bojxona ittifoqi; Umumiy bozor; To'liq iqtisodiy integratsiya; Evropa Ittifoqi; Evropa Ittifoqining boshqaruv organlari; Evropa Ittifoqi integratsiyasining vazifalari; SHimoliy Amerika erkin savdo zonasi NAFTA va uning vazifalari; «MERKOSUR» integratsiyasi; Arab Mag'ribi Ittifoqi; Janubiy – SHarqiy Osiyo mamlakatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN); Osiyo Tinch okeani hamkorligi tashkiloti; Lotin Amerikasi integratsiya assotsiatsiyasi; G'arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamkorligi – EKOVAS; Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi; Osiyo Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (EKO); Markaziy Osiyo Iqtisodiy hamkorligi; Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT); Umumiy huquq doirasi keng bo'lgan, shuningdek iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar; Umumiy iqtisodiy muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar; Iqtisodiy birlashgan tashkilotlar; Ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar; Savdo sohasidagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar; Sanoat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, energetika, transport va aloqa hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari sohasidagi tashkilotlar; Valyuta – moliya, shuningdek, sarmoyalarni himoyalash sohasidagi tashkilotlar; Intellectual mulkni himoya qilish umumjahon tashkiloti; Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot; Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHTT); Xalqaro valyuta – moliya tashkilotlari; Xalqaro valyuta fondi (XVF); Jahon banki guruhi; Xalqaro Tiklanish va Tarakkiyot Banki (XTTB); Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK); Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU). Mingyillik rivojlanish maksadlari Deklaratsiyasi; BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari; Iqtisodiy salohiyatni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar; Xalqaro mehnat taqsimotiga kirishish darajasi va iqtisodiyotning innovatsiya sig'imi; Evropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik.

11 – Mavzu. Jahon integratsion jarayonlarida O'zbekistonning ishtiroki

11.1. O'zbekiston Respublikasining XX-XXI asrlar bo'sag'asidagi resurslari va rivojlanish imkoniyatlari.

11.2. Sobiq SSSR tugatilganidan keyin respublikaning iqtisodiy ahvoli.

11.3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri muammolari.

11.4. O'zbekistonni jahon ho'jaligiga qo'shilishi.

11.5. Xalqaro savdoda respublikani ishtiroqi.

11.1. O'zbekiston Respublikasining XX-XXI asrlar bo'sag'asidagi resurslari va rivojlanish imkoniyatlari

O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga tushganidan buyon o'tgan tarixan qisqa davr mobaynida uni suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Xozir O'zbekiston 165 davlat tomonidan tan olingan, 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlarini o'rnatgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirmoqda. Eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ruyxatdan o'tgan, hukumatlararo 24 ta tashkilot va 13 ta nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. O'tgan yillar mobaynida respublika ko'plab juda muhim xalqaro konvençiyalarga qo'shildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirish yuzasidan ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda:

o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligiga erishish;

teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

halqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

tashqi aloqalarni ham ikki, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirish xavfsizlik va barqarorlikning kafolati hisoblanadi. Hozir dunyo O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini xis etmoqdamiz. Bu esa respublikaning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolat bo'lib, dunyo miqyosida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan tobora e'tiborni tortayotganligida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo jo'g'rofiyasi siyosatida o'zgarishlar ruy bermoqda. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni talab qiladi.

XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integraciya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi emas, balqi ayrim mintaqalar hamda sayyoramiz qo'lamida ham sobit qadamlik va barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur. Bu holda masala xalqaro integraciya jarayonlarida qatnashish yoqi qatnashmaslik tarzida qo'yilmaydi. Mustaqil O'zbekiston uchun, eng avvalo, tashqi siyosatning oqilona hamda jamiyat va inson manfaatlariga asoslanadigan eng muhim tamoyillarga qat'i rioya etish ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlat haqidagi hozirgi zamon tushunchalariga mos kelgan taqdirdagina jahon hamjamiyatiga kirishimiz mumkinligiga asoslanamiz. Ayni chog'da mamlakat jahon hamjamiyati bilan hamkorlik o'rnatgan taqdirdagina, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida o'zining munosib o'rnini topganda, mintaq va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol ishtirok etganda uni zamonaviylashtirish mumkin bo'ladi.

Tabiiy resurs imkoniyatlarining hajmi – bu tabiiy resurslar alohida turlari – er, suv, mineral xom-ashyo va boshqalarning umumiy summasi bilan belgilanadi. Buning uchun ball tizimi, qiymat ko'rsatkichlari va mutloq energetik imkoniyatlardan foydalanish mumkin. Bozor iqtisodiyoti qaror topayotgan sharoitda qiymat (pul) yoki tabiiy resurs imkoniyatlarni iqtisodiy baholash muhimroq ahamiyatga ega. Ammo, tabiat resurslarining barcha turlarini yagona metodologiya asosida iqtisodiy baholashni amalga oshirish murakkab masaladir. SHuning uchun ham tabiiy resurs imkoniyatlari hajmini ko'pgina natura – moddiy ko'rsatkichlar (zahiralarning miqdori, maydonning mahsuldorligi) miqdor jihatidan to'liqroq tavsiflaydi.

Tabiiy resurs imkoniyatlari – mamlakat milliy boyligining muhim qismidir. MDH davlatlari bilan taqqoslanganda O'zbekistonning hududi tabiiy resurslarga ancha boy.

Iqtisodiyotning rivojlanishida mamlakatning energiya va xom-ashyo resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi juda katta ahamiyatga egadir. Ma'lumki, tabiiy resurslar ishlab chikarish omili sifatida ishchi kuchi va kapital bilan birgalikda iqtisodiyotning taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Lekin er yuzasida tabiiy resurslar cheklangandir, insonning ehtiyojlari esa cheksizdir. SHuning uchun xam iqtisodiyot fanining, iqtisodchilarning asosiy vazifasi insonning cheksiz ehtiyojini cheklangan resurslar bilan qanday qondirish yo'llarini o'rgatishdir.

Biz bu rejada, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yurtimiz tabiiy resurslar bilan qanchalik ta'minlanganligini, ularning respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mustaqil iqtisodiyotimizni taraqqiy ettirishdagi ahamiyati va bu tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish asosida respublikamiz tabiatini asrash zarurligini xamda bu sohada qilinishi zarur bo'lgan vazifalar to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

O'zbekistonda 100 turdan oshiq yonilgi-energetika va mineral xom-ashyo resurslarining 2700 ga yaqin konlari mavjud bulib, ularda 3,5 trln. dollar qiymatiga ega bo'lgan boyliklar bordir. Xar yili respublikamizda 5,5 mlrd. dollarlik xom-ashyo resurslari qazib olinadi.

O'zbekiston yonilgi-energetika resurslariga boy o'lka bulib, ular, ya'ni neft, tabiiy gaz va ko'mir boyliklari respublikamiz sanoatini rivojlantirishda juda muxim urun tutadi. Mamlakatimiz xududida neftning aniqlangan zaxiralari 5 mlrd. tonnani, tabiiy gazniki 2 trln. kubometrni, ko'mirniki 2 mlrd. tonnani tashkil etadi. Mamlakatda topilgan neft va gaz konlarining zaxiralari nafakat ichki ehtiyojlarni to'la qondirishga qodir, balki energiya manbalarini boshqa mamlakatlarga eksport qilish imkonini ham beradi.

Mamlakatimiz tabiiy gaz zaxiralari kattaligi bo'yicha dunyoda 14-o'rinda, gazni iste'mol qilish bo'yicha esa 10-o'rinda, gazni qazib olish bo'yicha 8-o'rinda turadi.

O'zbekistonda neft va gazga boy beshta mintaqa aniqlangan: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-G'arbiy Xisor, Surxondaryo va Fargona mintaqalari. Gazning xozirgi aniqlangan zaxiralari mamlakat ehtiyojlarini 35 yil, neftniki 30 yil mobaynida qoplashga etadi. Ammo, respublikamizda gaz va neft zaxiralarini izlab topish darajasi xozir 30-32% dan oshmaydi.

2008 yilda O'zbekistonda 4,4 mln. tonna neft, 59,7 mlrd. kubometr tabiiy gaz qazib olindi. Xozirgi kunda qazib olinayotgan neft asosan Farg'ona vodiysi va Surxondaryo viloyatidagi konlardan olinmokda. Farg'ona nefti asosan engil, oltingugurti kam, parafini ko'proq.

O'zbekistonda turli yillarda 3 ta yirik ko'mir koni aniqlangan. O'zbekistonda 2008 yilda 3,0 mln. tonna ko'mir qazib olindi. Kelajakda, ya'ni 2010 yilga borib ko'mir qazib olishni 9,4 mln. tonnaga etkazish muljallanmokda. Bu bilan GRESlarda elektr energiya ishlab chiqarishda ko'mirning hissasini 2001 yildagi 4,7% dan 2010 yilda 15% gacha etkazib, tabiiy gazning xissasini 86,7% dan 71,1% gacha kamaytirish mo'ljallanmokda.

O'zbekiston mineral xom-ashyo resurslariga juda xam boy va zaminimizda strategik minerallarning katta zaxiralari joylashgan. Qator muxim qazilma boyliklar – oltin, uran, mis, volfram, molibden, dala shpati, qo'rg'oshin, kumush, kaolin, simob, rux, kadmiy, fosforit, kaliy tuzlari, oltingugurtning aniqlangan zaxiralari ko'ra O'zbekiston nafaqat MDXdagi, balki butun jaxonda etakchi o'rinlardan birida turadi. Butun MDXdagi kumush va kaolinning 20%, mis va dala shpatining 14%, qo'rg'oshin va molibdenning 10% O'zbekistonda joylashgandir. Respublikamiz oltinning aniqlangan zaxiralari bo'yicha dunyoda 4 - o'rinda, uran bo'yicha – 7 nchi, molibden bo'yicha – 8 nchi, mis bo'yicha – 10 nchi o'rinda turadi. Mineral xom-ashyolarni qazib olishda esa kadmiy bo'yicha dunyoda uchinchi, uran bo'yicha – oltinchi, oltin bo'yicha – sakkizinchi, hamda molibden, dala shpati va boshka muxim sanoat xom-ashyosi bo'lgan qazilma boyliklar bo'yicha dunyoning oldingi 15 mamlakati qatoridan o'rin olgan.

Respublika osh va kaliy tuzlariga, magniy va natriyga boy. Ayniqsa fosforitlarning zaxirasi cheksiz. 2001 yilda ishga tushgan Qizilqum fosforit kombinati va qurilishi tugallanayotgan Qo'ng'iro't soda zavodi ulardan foydalanishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Kaliy tuzlari bilan ta'minlanganlik kamida 100 yilga etadi.

O'zbekistonda nometall xom-ashyo – glaukonit, dala shpati, vollastonit, grafit, asbest, talk, abrazivlar, qimmatbaxo va ishlov beradigan toshlar konlari kup. Vollastonitning 50 ga yaqin, grafitning 30 dan ortiq konlari mavjud.

O'zbekiston sharoitida binolarga bezak berishda ishlatiladigan granit toshlari, kvarç qumlari, çement xom-ashyosi, g'isht xom-ashyosi, gips, oxak va boshqalar qurilish materiallari xisobladi. Mamlakatimizda marmarning 20, granitning 15 ga yaqin koni aniqlangan. Ularning zaxiralari 100 yildan ortiq vaktga etadi.

O'zbekistonning qulay iqlim sharoiti, serxosil er maydonlari, dexkonchilikning sugorishga asoslanganligi respublikada qishloq xo'jaligining qudratli resurs bazasini yaratishga imkon beradi.

11.2. Sobiq SSSR tugatilganidan keyin respublikaning iqtisodiy ahvoli

O'zbekistonda dunyoning xamma mamlakatlari bilan xalkaro iqtisodiy alokalarni xar tomonlama kengaytirish va rivojlantirishning izchil siyosati olib borilmokda. Xozirgi kunda O'zbekiston turli soxalarda, shu jumladan iqtisodiy soxada xalkaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir kancha konvençiya va kelishuvlarni imzoladi, kuppina obruli xalkaro tashkilotlarga a'zo buldi. O'zbekiston tashki savdoni uzok xorijiy davlatlarning 38 tasi bilan juda kulay tartib asosida olib boradi, 34 tasi bilan «Investiçiyalarni ximoya kilish va uzaro ragbatlantirish tugrisida kelishuv imzolangan.

Sobiq SSSR tarkibida bulgan davrida O'zbekiston jaxon bozorida mustakil ish yuritish imkoniyatiga ega emas edi. SHuninig uchun isloxotlarning dastlabki davrida muxim vazifalar sifatida respublikaning tashki iqtisodiy majmuasini shakllantirish va tashki iqtisodiy faoliyatni boshkarishning yangi mexanizmini yaratish maksad kilib kuyildi.

Tashki iqtisodiy faoliyatning respublika maxkamalari amalda kaytadan tashkil kilindi. O'zbekiston xukumati 1989 yildayok tashki savdo bilan shugullanadigan maxkamalarni tuzishga karor kilgan edi. Usha vaktda «O'zbektashkisavdo» davlat agentligi uz faoliyatini boshlagandi. 1991 yilda u tashki iqtisodiy alokalar davlat kumitasiga aylantirildi va 1992 yilda uning asosida Tashki iqtisodiy alokalar vazirligi tashkil kilindi. Tashki alokalar milliy banki, bojxona xizmati, xamda Vazirlar Maxkamasida, vazirliklarda, korporaçiyalarda, konçernlarda, assosaçiyalarda va maxalliy boshkaruv organlarida tashki iqtisodiy faoliyat bulimlari ochildi.

Maxsulotlarning tashki bozorlardagi xarakatini, milliy eksportchilarning rakobatbardoshligini oshirishni, ularning uzgaruvchan biznes-muxitiga tez

moslashuvini ta'minlash uchun tashki iktisodiy alokalar infrastrukturasini rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

Tashki iktisodiy alokalar vazirligi yana tashki bozorlarni urganishning marketing tadqiqotlari va strategiyasini, eksport tovarlari tartibiga kura narxlar uzgarishining uzok muddatli va kiska muddatli bashoratlarini modellashtirishni ta'minlaydi, strategik eksport maxsulotlariga ob'ektiv narxlarni shakllantirishga karatilgan tadbirlar ishlab chikadi. Keyingi yillarda, bir kator tovarlar bozori, jumladan, oltin, polietilen va polivinilxlorid, tukimachilik sanoati maxsulotlari, kaolin, aviaqiyasi texnikasi, avtomobillar, rangli metallar, meva-sabzavot maxsulotlari va boshkalar buyicha taxliliy marketing xisobotlari tayyorlandi.

1991 yilda mustakillikni kulga kiritgan davrdan boshlab O'zbekiston xukumati tomonidan tashki savdo tartib – koidalarini erkinlashtirishning izchil siyosati olib borilmokda. Bu jarayonni shartli ravishda bir necha boskichga ajratish mumkin.

Birinchi boskich, 1991 yildan 1994 yilgacha bulgan davrni uz ichiga olgan bulib, bu davrda SSSR yagona xalk xujaligi kompleksining parchalanishi, iktisodiyotni boshkarishda ma'muriy – buyrukbozlik tizimiga barxam berilishi natijasida respublikada sanoat tovarlarining va kator iste'mol tovarlarining etishmovchiligi namoyon buldi va shuning uchun ularni import kilish siyosati olib borildi. Bu davrda import boj tulovlari yuk edi, chetga eksport kilish uchun liqenziyalashtirilgan va kvotalangan tovarlar ruyxati 71 ta bulgan, xom ashyo resurslarining ayrim turlariga eksport boj tulovlari kulanilar edi.

Birinchi boskichning muxim ustivor yunalishlari sifatida import urnini bosadigan ishlab chikarishni rivojlantirish siyosati, eksport saloxiyatini rivojlantirish va mustaxkamlash, tashki iktisodiy alokalarni urnatish va kengaytirish amalga oshirildi. Bu boskichda isloxotlar davrigacha mavjud bulgan tashki savdodagi davlat monopoliyasi tugatildi va tashki iktisodiy alokalarning yangi mexanizmi shakllantirildi. Korxonalarning tashki bozorga mustakil chikishi, chet el investorlari faoliyatini ishonchli kafolatlash normativ – xukukiy bazasi yaratildi.

Ikkinchi boskichda, – 1995 yildan 1998 yilgacha respublikada maxalliy xom – ashyodan foydalanuvchi milliy ishlab chikarishni rivojlantirish bilan birgalikda eksport yunalishli ishlab chikarish saloxiyatini yaratish siyosati olib borildi.

1995 yili tashki savdoni yuritishdagi notarif tulovlardan tarifli tulovlarga utildi, importni boshkarishning tarif tizimi koidaga kiritildi. 1996 yili

liqenziyalashtiriladigan va kvotalangan eksport tovarlarining ruyxati 4 tagacha kamaytirildi, ya’ni unda paxta, don, rangli metallar va energiya resurslarigina koldirildi. Eksport uchun maksimal boj tulovi 40% gacha kamaytirildi va uchdan bir tovarlar guruxiga eksport tariflari tugatildi. Eksportga maxsulot ishlab chikaradigan korxonalarga kupgina solik engilliklari berildi.

1997 yili O’zbekistonning asosiy eksport tovarlariga jaxon narxlarining keskin pasayib ketishi natijasida tashki savdoning rivojlanish sur’atlari bir muncha pasaydi. Okibatda, bu eksportdan tushadigan anchagina daromadlarning yukotilishiga va mamlakat joriy tulov balansi axvolining yomonlashuviga olib

keldi. Bunday salbiy jarayonlar Janubiy-SHarkiy Osiyodagi (1997 yil urtalaridan) va Rossiyadagi (1998 yil avgustidan) moliyaviy krizislar tufayli yanada murakkablashdi. Natijada, paxta tolasining urtacha jaxon narxlari 1996 yilda 16% ga, 1997 yilda 14% ga va 1998 yilda 8,5% ga pasayib ketdi.

O'zbekiston tashki savdosining jaxon bozori kon'yukturasiga (xolatiga) shunchalik karamligi usha paytda eksportning 70% dan oshigi xom ashyo tovarlariga tugri kelganligi bilan boglik edi. Xisob-kitoblarga kura, birgina 1998 yilning uzida neft, paxta tolasi va misning jaxon narxlari tushib ketishi natijasida bizning mamalakatimiz 170-180 mln dollar yukotgan. Xom-ashyo resurslarining yukorida kayd etilgan turlariga jaxon bozori narxlarining barkaror emasligi ularni tashki bozorga chikazishni tartibga solish zarurligini keltirib chikardi. Ekportning pasayishiga jaxon oltin bozoridagi nokulay vaziyat xam ta'sir kursatdi, chunki umuman 1997-1998 yillarda oltinning baxosi 40% ga pasayib ketdi.

Uchinchi boskich 1999 yilda eksportni xar tomonlama ragbatlantirishga karatilgan siyosat kuchaytirilgan bir paytda boshlandi va respublikaning tashki savdosida yana ijobiy uzgarishlar yuz bera boshladi.

Respublikada olib borilayotgan valyuta siyosati xam tashki savdo operauiyalariga katta ta'sir kursatadi. 1998 yildan boshlab xukumat tomonidan xorijiy valyutalar bozorini boskichma-boskich erkinlashtirish siyosati izchil olib borilmokda.

O'zbekistonda xorijiy valyutalar bozorini kelajakda yanada erkinlashtirib borish, joriy operatsiyalar buyicha tulik konvertatsiyaga utish natijasida summing devalvatsiyasi milliy eksportchilarga manfaatli buladi va uzbek tovarlarining (xizmatlarining) eksporti oshishiga olib keladi, chunki ularning xorijiy valyutadagi narxining pasayishi xorijiy bozorlarda rakobatbardoshligini oshiradi.

Respublikamizda 2003 yilning 15 oktyabrilan boshlab milliy valyutamiz – summing joriy operatsiyalar buyicha erkin konvertatsiyasiga erishilishi xam tashki iqtisodiy alokalarni rivojantirishda katta turtki buladi.

11.3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri muammolari

Bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan respublika oldida bir qator muammolar turardi. Bular jumlasiga:

- * inqiroz holatidan chiqish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- * inson omilini faollashtarish;
- * ilmiy-texnik taraqqiyotni ta'minlash va uni ishlab chiqarishga tez va samarali singishiga sharoit yaratish;
- * raqobat muhitini yaratish;
- * bozor munosabatlari talabiga binoan iqtisodiy-ijtimoiy, tarmoq hududiy tizimini shakllantarish;
- * aholi bandligini ta'minlash;
- * xususiy mulkchilik va xo'jalik yuritishning ko'p qirrali shakllari sharoitida talab va taklifni muvozanatlashtirish;
- * iqtisodiy faoliyatni bozor mexanizmi orqali samarali boshqarishni shakllantarish;
- * inflyatsiyani bostarish, pul muomalasini va milliy valyutani mustaxkamlash;
- * soliqlarning rarnatlantiruvchi vazifasini kuchaytarish;
- * xo'jalik sub'ektlari va boshqarivdning hamma zvenolarini ma'lumotlar bilan ta'minlashni yaxshilash;
- * tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantarish kabilar kiradi.

Bu va boshqa muammolar bir-biri bilan yaqindan bog'langan va ularning echimi nafaqat katga resurslarni, balki shu bilan birga echimga to'g'ri yondoshishni, istiqbolli ustuvor yo'nalishlarni va amalga oshirish usullarini to'g'ri

tanlashni talab etadi.

Inqirozli holatlarni engish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash muammolari. Avvalgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimning kamchiliklari, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida tub islohotlarni o'tkazish zaruriyatini tug'dirdi. Bu o'g'ish sobiqSSSRning parchalanishi natijasida yagona iqtisodiy, ilmiy-texnik, axborot maydonining parchalanishi, tarixiy shakllangan vertikal va gorizontal xo'jalik aloqalarining uzilishi, bank va pul tizimining buzilishi va boshqa salbiy oqibatlar bilan birga bordi.

Qo'llanilgan choralarga qaramasdan aytib o'tilgan parchalanish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga o'zining o'ta salbiy ta'sirini o'tkazdi. Binobarin, ishlab chiqarishning yalpi pasayishi yuz berdi, iqtisodiy hayotning ko'pchilik sohalarida qarama-qar-shilik kuchaydi, talab va taklif hamda narxlar va aholi daromadi o'sishi nisbatlarida keskin tafovutlar sodir bo'di. Buninghammasi ijgamoiy-iqtisodiy holatning, aholining mutlaq ko'pchiligining yashash darajasining yomonlashishida o'z aksini topdi.

SHuning uchun ham ishlab chiqarish hajmining pasayishini to'xtatish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uning o'sishiga sharoit yaratish eng muhim muammo bo'lib qoldi.

Inson omilini faollashtirish muammolari. Eski iqtisodiy munosabatlar tizimining sinishiga asosiy sabablardan biri shunda ediki, u moddiy manfaatdorlikni ta'minlamadi. Unda mexnatning aniq maqsadga yo'naltirilganligi sust edi. U ishchilarda shijoatsizlikni, ilmiy-texnik taraqqiyoti va uni amalga oshirishga befarqlik tuygularini tug'dirardi. Natijada bunday hol mexnat va ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlar sifatining oshishiga turtki bo'la olmadi. Ishchilarning ish haqi kam va bir xillilikka ega edi. Bu kam daromadlar aholiga kerakli tovar va xizmatlarni ularni kamyobligidan „sotib“ olish imkoniyatini har doim ham bermas edi.

Bu muammolar tobora keskinlashib, odamlarning ijtimoiy ongida aks eta boshladi. Amaldagi tuzumdan noroziliklarni keltirib chiqara boshladi. Bu kamchiliklar ishlab chiqarish samaradorliganing va mehnat unumdorligining past darajasida, jahon bozorida raqobatbardoshlikning pasayishida o'z aksini topdi. Markazlashgan rejali tizim o'zining obro'sini yo'qota boshladi.

Aholi bandligini ta'minlash muammolari. Respublikamizda mexnat resurslari nisbatan ko'p, aholining tabiiy o'sishi yuqori. Biroq, ular ham hududlar, ham tarmoklar va faoliyat doiralari bo'yicha tekis taqsimlanmagan. Yaratilayotgan yangi ish joylari soni mexnatga layoqatli aqolining o'sish sur'atlaridan keskin farq qiladi. Xo'jalik aloqalarining uzilishi, bir qator ishlab chiqarish tarmoqlarida o'sish sur'atlarining pasayishi, iqtisodiyotning tuzilmaviy o'zgarishi aholi bandligi soxrsidagi muammolarni yanada keskinlashtirdi. Aholining bilim va malaka darajasi bozor munosabatlarining yuqori talablariga to'liqjavob bermay qoldi. Ayniqsa, yoshlarning ishga layoqatli qismida ish bilan ta'minlanmaganlar soni o'sib bordi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti va uni joriy qilish muammolari. Har bir ishlab chiqarish — bu inson mehnatining ishlab chiqarish vositalari bilan birikishi natijasidir. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi o'z-o'zidan yuqori sifatli

ishlab chiqarish vositalarisiz, ilmiy-texnik taraqqiyotsiz kutilgan natijani bermaydi. Dunyoda bozor munosabatlari qadimdan rivojlanganiga qaramasdan, kam rivojlangan, iqtisodiyoti qoloq davlatlar qatoriga kiradigan mamlakatlar etarli. Asosiy sabab — aholi savodxonligining, ishchilar malakasining va qo'llanilayotgan ishlab chiqarish vositalari hamda texnologiyalarning past darajasidir.

Faqatgina ilmiy-texnik yutuqlarini va progressiv texnologiyalarni tezqor joriy etilishini ta'minlagan davlatlarga kuchli raqobat kurashiga bardosh bera oladi va ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erisha oladi.

Talab va taklifni uyg'unlashtirish muammolari. Boshqarishning markazlashgan rejali va ma'muriy-buyruqbozlik usullariga asoslangan iqtisodiyotning uzoq muddatli faoliyati natijasida talab va taklif orasida katga nomutanosiblik kelib chiqadi. Talab surunkali tarzda tegishli taklif tomonidan qondirilmagan, vaholanki, talabning taklifga nisbatan tezroq o'sishi haqida nazariya mavjud edi.

Amalda hech qaysi iqtisod talab va taklif orasida katga farq bo'lgan sharoitda uzoq vaqt faoliyat ko'rsata olmaydi. SHuningdek, tabiatan ham talab va taklif to'liq bir-biriga to'g'ri kelmaydi, bu hakda davriy iqtisodiy inqirozlar guvoqlik beradi. Gap ular orasidagi katta farq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik haqida ketmokda. Bu masala rejali iqtisoddan ko'ra bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodda nisbatan yaxshiroq echiladi.

Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish muammolari. Zamonaviy tarkibiy tuzilish markazlashgan rejalashtirish usuli bilan umumittifoq mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan edi. SHu bilan birgalikda O'zbekiston butun sobiq Ittifoqni sanoat tarmoqlari, shuningdek qishloq xo'jaligining paxtachilik sohasidagi mahsulotlarga bo'lgan exdiyojlarini qondirar edi. O'z navbatida O'zbekistonning bir qancha boshqa turdagi mahsulotlarga (masalan, non, shakar, sut mahsulotlari, transport vositalari, go'sht mahsulotlari, yoqilg'i, moylash materiallari va boshqalarga) bo'lgan ehtiyojlari boshqa respublika va mamlakatlardan keltirilgan mahsulotlar hisobidan qondirilardi.

Sobiq Ittifoq sharoitida shakllangan, yagona iqtisodiy va ilmiy-texnik muhit respublikaning iste'mol bozoriga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi. Sobiq Ittifoq tovarlariga bo'lgan exiyojlarni qondirish masalasi keskinlashadi.

Pulning qadrsizlanishini tizginlash, pul muomalasini va milliy valyutamizni mustahkamlash muammolari. Iqtisodiyotning rejali tizimida tovarlar va xizmatlarning aksariyat turlari uchun narx darajasi davlat (Davlat narxqo'mitasi) tomonidan belgilanar va belgilangan narxga rioya qilinishi jiddiy nazorat ostida bo'lar edi. Narxlarning o'zbo-shimchalik bilan o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmasdi. Narxni faqat davlat o'zgartirishi mumkin edi. Faqat shaxsiy yordamchi xo'jalikda etishtirilgan va bozorda sotiladigan mahsulot narxi erkin shakllanishi mumkin edi. Xodimlarning ish haqi ham davlat tomonidan belgilanar va qat'iy nazorat qilinib turilardi. Bu masalada kooperativ korxonalarga (kolxozlarga) rasmangina arzimas erkinlik berib qo'yilgan edi. Davlat byudjeti defitsitsiz qabul qilinardi. Bu masaladagi ana shunday qat'iy tartiblar aholining va qolaversa, davlatning daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi muvozanatni

ta'minlar, narxlarda keskin o'zgarishlar bo'lishiga yo'l qo'ymas edi.

Narx siyosatini erkinlashtirish mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarining xilma-xilligi sharoitida ish haqini o'rnatishda davlat nazoratining susaytirilishi yo'li bilan iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish dasturining amalga oshirilishi natijasida inflyatsiya jarayoni, valyutamizning keskin qadrsizlanishi kuchayib ketdi. Bunda ko'pincha, narxning o'sish sur'atlari aksariyat xodimlar ish haqi o'sishi sur'atlaridan ancha tezlashib ketdi. Inflyatsiya jarayoni tobora oshib boradigan darajada tus oldi. Bu jarayonga qo'shimcha ta'sir o'tkazish davlat byudjeti defitsitiga, shuningdek savdo va to'lov balansining salbiy qoldig'iga olib keldi.

Bularning hammasi korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishdan, uning tannarxini kamaytirishdan, investitsiya uchun jamg'armalarni ko'paytirishdan, vaqtincha erkin mabzurlarni moliya-bank tizimi orqali safarbar etivddan manfaat-dorlikni susaytirdi va unga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu narsa moliya bozori va pul muomalasi holatida ham o'z aksini topa bordi. Aylanma mablag'larning nihoyatda etishmovchiligi vujudga kelib, bu narsalar to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni keltirib chiqardi. Kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayoni buzilib bordi.

Axborot ta'minoti muammolari. Birorta iqtisodiy tizim xolisona axborot ta'minotisiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Puxta yo'lga ko'yilgan axborot ta'minoti tizimining mavjudligi barcha xo'jalik masalalariga va boshqa masalalarga oid to'g'ri qarorlar qabul qilishning muhim omillaridan biridir. Ilgari yo'l qo'yilgan xatoliklarning ko'plari noxolis axborot bilan bog'liqdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyat muammolari. O'zbekiston xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish yo'li bilan ochiq turdagi bozor iqtisodiyotini vujudga keltirmokda. Tashqi iqtisodiy aloqalar hamisha muxim omil bo'lib kelgan. Ammo O'zbekistonning mustaqilligi xamda yagona iqtisodiy maydonning maydalashib ketishi sharoitida bu omillarning ahamiyati qiyoslab bo'lmaydigan darajada oshib, iqtisodiyotni rivojlantirishning faol omiliga aylanmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasining o'zi ham ancha kengaymokda. Bu erda raqobatning kuchayishi, hisob-kitob va transport aloqalarining murakkablashuvi, yuqori malakali mutaxassis kadrlarning etishmasligi, kerakli tajribaning yo'qligi, tashqi iqtisodiy faoliyatda mustaqil qatnashuvchilar sonining keskin o'sishi kabilarni e'tiborga olish lozim. Bunday sharoitda asosiy vazifa chet el mamlakatlari bilan savdo, ilm-fan, texnika, ta'lim, investitsiya va shu singari sohalarda o'zaro foydali iqtisodiy munosabatlarni ta'minlashdan iborat. Faqat xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, fan-texnika sohasida hamkorlik qilish yo'li bilangina ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish suratlarini jadallashtirish mumkin.

11.4. O'zbekistonni jahon ho'jaligiga qo'shilishi

Mamlakatimizda Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li – konseptsiyasiga amal qilingan holda, iqtisodiyotda tub institutsional va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarishni qayta tashkil etish va davlat tasarrufidagi korxonalarni

xususiylashtirish asosida mulkchilik munosabatlari qayta ko'rilmoqda, yangi bozor mexanizmlari va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. SHu bilan birga, respublikaning XXI asrga qadam ko'yishi milliy tizimlarga yuksak talablar qo'yuvchi iqtisodiy integratsiya asosida globallashtirishning jahon tendentsiyalari kuchaygan bir sharoitga to'g'ri keldi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida respublika oldida jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvni chuqurlashtirish va jahon amaliyoti yutuqlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga joriy etish, davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini takomillashtirish vazifasi turibdi.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni erkinlashtirish uning ochiqqligini kengaytirish, milliy va jahon iqtisodiyoti mintaqalari, tarmoqlarining o'zaro uzviy aloqa va hamkorligini ta'minlash integratsiyalashuvning ob'ektiv roli kuchayishi va rivojini orqali yuz beradi.

Hozirgi zamon jahon iqtisodiy rivojlanish amaliyoti milliy iqtisodiyotlarni yuksaltirishda faqat o'z kuchlariga tayanish kam samara berishni ko'rsatadi. Bunday yo'l iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi, u milliy resurslardan nooqilona foydanish bilan aloqador va pirovard natijada bozor iqtisodiyotining shakllanish jarayonini qiyinlashtiradi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi sharoitlarida, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning prinsipial jihatdan yangi modeliga o'tish xorijiy mamlakatlar amaliyotining ijobiy jihatlari va ayrim yutuqlarini respublikamizda qo'llash alohida ahamiyatga ega.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishi jarayoni iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Xorijiy investitsiyalar, tashqi kreditlarning jalb etilishi eksport bazasining hamda importning o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarning muhim elementlari sifatida qaraladi. Ular bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi mumkin emas.

O'zbekistonning jahon miqyosida, global darajada amalga oshirilayotgan strategik integratsion vazifasi – mamlakatdagi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashqi dunyo bilan o'zaro hamkorligi uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga javob beruvchi shart-sharoitlar yaratish asosida xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo'shilishidir. Ushbu vazifaning amalga oshirilishi O'zbekistonga XXI asrda jahon iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan globallashtirish jarayonlarida to'liqroq ishtirok etishi uchun imkon beradi.

O'zbekiston iqtisodining eksportga yo'naltirilganligi va raqobatbardoshligi eng ko'p darajada samarali amalga oshirilishi jahon xo'jaligida o'z o'rnini topishi, jahon xo'jalik aloqalariga integratsiyalashuvi asosiy muammolardan hisoblanadi. Yaponiya va yangi industrial mamlakatlar tajribasi ushbu muammo ustuvor tarmoqlar konseptsiyasini ishlab chiqish asosida hal etilganligini ko'rsatadi.

Raqobat siyosatini qo'llab-quvvatlash sohasida Evropa Ittifoqining raqobat siyosati milliy bozorlarning amalda integratsiyalashuvini ta'minlash, bozorlarni bo'lib olish to'g'risida bitimlar tuzish yo'li bilan milliy bozorlar o'rtasida o'z tizimini barpo etishga intiluvchi kompaniyalarga to'siq yaratish, bozorda ustunlik mavqeini egallab olishdan kelib chikuvchi suiste'mollarni ta'qiqlash yo'li bilan iqtisodiy xokimiyatning haddan tashqari bir joyga tuplanishi uchun to'siqlar yaratish vazifalarini hal etishga qaratilgan.

O'zbekiston uchun raqobatbardoshlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning uch guruhini o'z ichiga olishi kerak. Bular: iqtisodiy salohiyatni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar, xalqaro mehnat taqsimotiga kirishish darajasi va iqtisodiyotning innovatsiya sig'imi. Iqtisodiy salohiyatni yalpi ichki mahsulot va oltin-valyuta zahirasi kabi integral ko'rsatkichlar eng ko'p darajada xarakterlaydi.

Yalpi milliy mahsulot hosil bo'lishida harajatlar ulushi intellektual ko'rsatkich rivojlanishining va inson kapitaliga investitsiyalar quyishning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilayotgan raqobatbardoshlikni oshirishning ushbu omiliga katta e'tibor berilmoqda. Yalpi milliy mahsulotda 2007 yilda ta'limga harajatlarning ulushi 12,4% ekanligi buning dalilidir. Ayni vaqtda ushbu ko'rsatkich Kozog'istonda 4,7, Kirg'izistonda 5,0, Tojikistonda 2,2, Rossiyada 4,1, Buyuk Britaniyada 5,4, Germaniyada 4,8, Italiyada 4,7, AKSHda 5,4, Hindistonda 3,0, Xitoyda 2,3 foizdir.

Xo'jalik aloqalari globallashtirish sharoitida raqobat afzalliklarining shakllantirilish xususiyatlari va omillarini tahlil etish doirasida O'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy jihatlari uning raqobatbardoshligi muammolarini tadqiq etishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ishlab chiqarish omillari, talab shartlari, turdosh

va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar mavjudligi, firmalarning strategiyasi va tuzilmasi kabi omillar raqobat afzalligining asosiy determinantlari rolini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish jarayonini tadqiq etish qiyosiy raqobat afzalliklarini ta'minlashga qaratilgan har bir determinant va omillar ta'sirini, shuningdek, ularning o'zaro hamkorligi mexanizmlari ta'sirini tahlil etishni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish omillarining mavjudligi va ularning takror ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilishi mamlakatning geostrategik salohiyatini ko'p jihatdan belgilab beradi, milliy iqtisodiyot tuzilmasini shakllantiradi, uning raqobatbardoshligi o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. Bular orasida Evropa ittifoqi alohida o'rin tutadi. 1996 yilda Evropa ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muhim ishlar amalga oshirildi. Fevral oyida Evropa Ittifoqi kengashi sherikchilik va hamkorlik to'g'risida bitim tuzish yuzasidan O'zbekiston bilan Tashqi ishlar vazirligi darajasida muzoqaralar boshlash haqida qaror qabul qildi, iyul oyida esa bitim imzolandi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiyotining Evropa yo'nalishi ancha kengaydi. Ushbu yo'nalish Evropa qit'asidagi mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. Bu qit'aning o'ziga xos integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Evropa imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan hayotiy zaruratdir. Evropa va butun g'arb yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir. Bularning barchasi XXI asrga xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo'lib kirish maqsadida yangilanish va tarraqqiyotni strategik vazifa qilib olgan yosh O'zbekiston davlati uchun nihoyatda muhimdir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish har qaysi tomonning manfaatlarini yanada aniqroq hisobga olish, bir-birimizni yaqindan tanish, uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikka mustahkam zamin hozirlash, shu tariqa barqarorlik va xavfsizlik uchun mustahkam negiz yaratish imkonini beradi. O'zbekiston er yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarga ega ekanligi ma'lum. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda.

So'nggi yillarda Evropadagi ko'pgina mamlakatlar – Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Gretsiya, CHexiya, Slovakiya, Ruminiya va bir boshqa mamlakatlar bilan bevosita, ikkita tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustahkamlandi.

SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari – YAponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vetnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlanib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Keyingi vaqtlarda YAponiya mintaqamizning murakkab muammolarini xavfsizlik va barqarorlikka, tinchlikka erishish, atrof-muhit muhofazasi masalalarini hal qilishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

11.5. Xalqaro savdoda respublikani ishtiroqi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin jahon xo'jaligiga va uning asosiy negizlaridan bo'lgan xalqaro mehnat taqsimotiga faol kirib bora boshladi. Respublika xalqaro mehnat taqsimotida o'zining bir qator rangli metallurgiya,

mashinasozlik, ximiya, engil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari, qazilma sanoati va qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan muayyan darajada qatnashadi.

O'zbekistonning jahon bozoriga olib chiqadigan mahsulotlari ichida mustakillikning dastlabki davrlarida asosiy o'rinni paxta tolasi egallardi (36 %). Xozirgi kunda paxta tolasining respublika eksportidagi xissasi 9,2 % ga tushdi. Ammo, yaqin vaqtlargacha paxta tolasi faqat xom-ashyo sifatida chiqarilib keldi. Keyingi yillarda paxta tolasini jahon bozoriga olib chiqishda uni ko'proq qayta ishlangan holda tayyor yoki yarim tayyor mahsulot sifatida chiqarishga harakat qilinmoqda. (Dastlab, chetga chiqariladigan paxta tolasining 75 % xom-ashyo holatida chiqarilardi). O'zbekistonga asosiy valyuta tushumlarini keltiradigan bu mahsulotning xom-ashyo holidan ko'ra tayyor mahsulot sifatida chiqarilishi bir necha barobar ko'proq daromad keltirishi mumkin.

11.5.1 - jadval

O'zbekiston eksportining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000 yil	2005 yil	2008 yil	2009 yil
Eksport jami (mln. AQSH doll.)	3267,6	4853,0	11493,3	11771,3
Eksport jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
SHu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Paxta tolasi	27,5	19,1	9,3	8,6
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	2,9	5,3	5,6	5,0
Qora va rangli metallar	6,6	9,2	7,0	5,0
Mashina va uskunalar	3,4	8,4	7,6	2,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	3,8	4,5	6,0
Energiya resurslari	10,3	11,1	24,7	34,2
Xizmatlar	13,7	12,2	10,4	8,8
Boshqalar	30,2	30,5	30,9	29,5

Manba: O'z.R davlat statistika qo'mitasi malumotlari. Toshkent 2010yil

O'zbekistonning jahon bozoriga qiladigan eksportida xozirgi kunda hissasi bo'yicha birinchi o'rinni yonilg'i mahsulotlari (25,2 %), jumladan tabiiy gaz egallaydi. Hozirgi kunda O'zbekiston gazi qo'shni mamlakatlarga: Qozog'iston, Kirg'iziston va Tojikiston mamlakatlariga quvurlar orqali uzatiladi. Kelajakda tabiiy gazni Turkmaniston orqali Eron, Turkiya va Evropaga, hamda Afg'oniston, Pokistonga quvur orqali chiqarish imkoniyatlari mavjuddir.

Keyingi yillarda O'zbekiston mashinasozlik mahsulotlarining ko'plab turlarini chetga chiqaruvchi mamlakatga aylanib bormoqda. Agar ilgari respublikamizda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi va irrigatsiya mashinasozligi, kabellar va elektrotexnika mahsulotlari boshqa davlatlarga chiqarilgan bo'lsa, hozir bular qatoriga engil avtomobillar, avtobuslar va elektronika mahsulotlari ham qo'shildi (Xozirgi kunda butun eksportning 10,5 % ini mashinasozlik mahsulotlari tashkil kiladi).

O'zbekiston rangli metall resurslariga boy bo'lganligi sababli mamlakatimizdan chet ellarga mis, rux, qo'rg'oshin, volfram mahsulotlari chiqariladi. Ammo, bu mahsulotlar hozirgi kungacha ham asosan xom-ashyo holidan eksport qilinadi. Kelajakda ularni qayta ishlab tayyor mahsulot holidan chetga chiqarish ko'plab daromad keltirgan bo'lur edi. Respublikamiz eng qimmatbaho metallardan biri bo'lgan oltin zaxiralariga ham boy bo'lib, uning

zaxiralari bo'yicha dunyoda sakkizinchi o'rinni, qazib chiqarish bo'yicha esa to'rtinchi o'rinni egallaydi.

Ximiya mahsulotlaridan O'zbekiston chet elga mineral o'g'itlar, kaprolaktam, nitron tolasi va boshqalarni chiqaradi. SHuni aytib o'tish kerakki, kaprolaktam ham, nitron tolasi ham faqat xom-ashyo holida eksport qilinadi. Ulardan tayyor mahsulotlar ishlab, keyin chetga chiqarish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Masalan, kaprolaktamdan kapron tolasi, kapron ipi, gilam juni hamda radioelektron sanoati uchun konstrukcion materiallar ishlab chiqarish mumkin. Nitrondan esa ko'plab trikotaj buyumlari, mebel gazlamalari, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud.

O'zbekiston mustaqillik yillarida o'z iqtisodiyotini eksport yo'nalishli qilib qurayotgan ekan, kelajakda respublikamizning jahon standartlariga javob beradigan turli-tuman mahsulotlari jahon bozorini egallab boraveradi.

11.5.2-jadval.

O'zbekiston importining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000 yil	2005 yil	2008 yil	2009 yil
Import jami (mln. AQSH doll.)	2944,5	4091,3	9704,0	9438,3
Import jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
SHu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	13,6	13,6	11,6	11,1
Qora va rangli metallar	8,6	10,3	7,7	6,3
Mashina va uskunalar	35,4	43,3	52,4	56,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	7,0	8,3	9,0
Energiya resurslari	3,8	2,5	4,6	5,3
Xizmatlar	8,5	10,4	4,4	4,4
Boshqalar	17,8	12,9	11,0	9,2

Manba: O'z.R davlat statistika qo'mitasi malumotlari. Toshkent 2010yil

Respublikamiz importida oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlarning ulushi kamayib, mamlakat uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnologiyalardan iborat bo'lgan mashina va uskunalarining ulushi oshib bormoqda.

Savol va topshiriklar:

1. O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan hamkorligi qaysi aloqalarda olib boriladi?
2. Jahon mamlakatlari bilan hamkorlikning huquqiy asoslari nimalarda o'z aksini topadi?
3. O'zbekiston Evropa mamlakatlari bilan qaysi soxalarda hamkorlik bitim va shartnomalarni tuzgan?
4. O'zbekistonning AQSH bilan hamkorligini gapirib bering.
5. O'zbekiston Koreya Respublikasi bilan qaysi sohalarda hamkorlik qiladi?
6. Germaniya bilan hamkorlik to'g'risida gapiring.
7. YAponiya bilan hamkorlik nimalarda aks etadi?
8. BMT O'zbekistonda qanday loyixalarni amalga oshirmoqda?
9. XVF va Jahon banki bilan hamkorlik qanday ko'rinishga ega?
10. ETTB va ORB O'zbekistonda qanday loyixalarni amalga oshirishda qatnashmoqdalar?

Asosiy tushunchalar va atamalar:

Suveren davlat; Xalqaro huquq normalari; Tabiiy resurs imkoniyatlarining hajmi; Mamlakatning energiya va xom-ashyo resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi; YOnilgi-energetika resurslari; Tabiiy gaz zaxiralari; Mineral xom-ashyo resurslari; Nometall xom-ashyolar; Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri muammolari; Inqirozli holatlarni engish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash muammolari; Inson omilini faollashtirish muammolari; Aholi bandligini ta'minlash muammolari; Ilmiy-texnika taraqqiyoti va uni joriy qilish muammolari; Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish muammolari; Talab va taklifni uyg'unlashtirish muammolari; Pulning qadrsizlanishini tizginlash, pul muomalasini va milliy valyutamizni mustahkamlash muammolari; Axborot ta'minoti muammolari; Tashqi iqtisodiy faoliyat muammolari. O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan hamkorligi; Bitim va shartnomalar; Evropa mamlakatlari bilan hamkorlik shartnomalari; Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan hamkorlik shartnomalari; Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan hamkorlik shartnomalari; AQSH bilan hamkorlik, Koreya Respublikasi bilan hamkorlik; Germaniya bilan hamkorlik, Yaponiya bilan hamkorlik; Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik; Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik; Xalkaro valyuta Fondi bilan hamkorlik; Jahon banki bilan hamkorlik; Evropa Tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) bilan hamkorlik; Osiyo Rivojlanish Banki (ORB) bilan hamkorlik

Foydalanilgan asosiy darslik va o'quv

qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Ishmuxamedov A.E., YUsupov A.S.. Milliy va xalqaro iqtisodiyot. T.: MCHJ "RAM-S", 2007y
3. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: MCHJ "RAM-S", 2007y
4. Nazarova G.G., Xalilov X., Eshtaev A., Xakimov N.Z., Salixova N., Bobojonov B.R. "Jahon iqtisodiyoti va XIM". – T., 2006. - 216 b.
5. Kolesov V.P., Kulakov M.V. Mejdunarodnaya ekonomika: Uchebnik. - M.: INFRA-M, 2008. - 474 s.
6. Lomakin V.K. Mirovaya ekonomika: uchebnik dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po ekonomicheskim specialnostyam i napravleniyam / V.K. Lomakin. – 3-e izd., pererab. i dop. – M.: YUNITI-DANA, 2007. – 671 s.
7. Ustoychivoe ekonomicheskoe razvitie v usloviyax globalizatsii i ekonomiki znaniy: konceptualnye osnovy teorii i praktiki upravleniya / Pod red. V.V. Popkova. M.: ZAO «Izdatelstvo «Ekonomika», 2007. — 295 s.

8. Bogomolov O.T. Mirovaya ekonomika v vek globalizatsii: Uchebnik. — M.: ZAO «Ekonomika», 2007. — 359 s.
9. Kochetov E. G. Geoekonomika. Osvoenie mirovogo ekonomicheskogo prostranstva: Uchebnik dlya vuzov. — M.: Norma, 2006. — 528 s: il.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi” 28 yanvar 2010 yil.
2. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir».2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi” 30 yanvar 2010 yil.
3. Karimov I.A. 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi” 30 yanvar 2011 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011.
5. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
6. B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliev: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma/ “Iqtisodiyot” 2009.
7. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoni.
8. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF—3618-son Farmoni.

9. Tinch-osoyishta hayotni qadrlash va mustahkamlash, mamlakatimizni har tomonlama ravnaq toptirish - barchamizning asosiy vazifamiz. Prezident Islom Karimovning Xalq deputatlari Andijon viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi 10/14/2006 www.gov.uz O'zR hukumat rasmiy sayti
10. Tinchlik va barqarorlikni saqlashning ishonchli kafolati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning SHHT Davlat rahbarlari kengashining sammitida so'zlagan nutqi 06/16/2006 www.gov.uz O'zR hukumat rasmiy sayti
11. Mirovaya ekonomika: prognoz do 2020 goda / pod red. akad. A.A. Dyunkina / IMEMO RAN. – M.: Magistr, 2007. – 429 s.
12. Mejdunarodnye valyutno-kreditnye i finansovye otnosheniya: uchebnik /Pod red. L.N. Krasavinoy. - 3-e izd., pererab. i dop. - M.: Finansy i statistika, 2007. - 576 s.
13. Vneshneekonomicheskaya deyatel'nost: ucheb. dlya stud. sred. prof. ucheb. zavedeniy / [B. M. Smitienko, V. K. Pospelov, S. V. Karpova i dr.]; pod red. B. M. Smitienko, V. K. Pospelova. — 4-e izd., pererab. i dop. — M.: «Akademiya», 2007. — 304 s.

Internet saytlar

1. www.gov.uz—O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
2. www.press-service.uz—O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
3. www.mfer.uz—O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti.
4. www.omad.uz—Biznes rivoji uchun axborot portali.
5. www.UzA.Uz—O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.
6. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti.
7. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.